



Fan va Ta'lim Integratsiyasi

Интеграция Науки и Образования

Integration of Science and Education



“Fan va ta’lim integratsiyasi” jurnalining tahrir hay’ati tarkibi

Bosh muharrir:

Negmatova Shaxzoda Shuxratovna – O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti rektori, falsafa fanlari doktori, professor;

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Safarov Akbar Rahmanovich – O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, fizika-matematika fanlari doktori;

Mas’ul:

Ismoilov Alisher Sidikovich – O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori;

Mas’ul kotib – filologiya fanlari nomzodi, dotsent Raximova Gulbaxor Karshibayevna, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti;

Texnik muharrir – Umirov Boboyor Baxtiyor o‘g‘li.

“FAN VA TA'LIM INTEGRATSIYASI” ilmiy-metodik jurnaliga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida №078803 raqamli guvohnoma berilgan.

Nashr boshlanish yili: 2023 yil.

Davomiyligi: 3 oyda 1 marta (1 yilda 4 ta son).

ISSN 2992-9210

Ixtisosligi (sohalar): kimyo, biologiya, geografiya, tarix, pedagogika, psixologiya, fizika, matematika, informatika va axborot texnologiyalari, filologiya fanlari.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

<i>Abdullayev A.N., Kulmirzayeva Z.U.</i> Dasturlash tillarini o‘qitishda multimedia texnologiyalardan foydalanishning ayrim xususiyatlari	5-11
<i>Abdullayev A., Karshiboyev Sh.E., Xamrayev Y.</i> Kredit modul tizimida fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish kvant fizikasi bo‘limi misolida	12-21
<i>Aliyeva M.X.</i> Ta’limda o‘qitish jarayonining yana bir usuli haqida	22-27
<i>Axrorov J.R., Omanqulova Sh.N.</i> O‘zbekiston va Finlandiya musiqa ta’limini o‘qitishning qiyosiy tahlili	28-34
<i>Eshmurodov M.Z.</i> Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda asarlarni tahlil qilishning ahamiyati	35-41
<i>Faxriddinov M.F.</i> The impact of modern technology on education	42-46
<i>Hamrayeva U.</i> Ta’lim muassasalarida tashkil etilgan folklor to‘garagining tashkiliy-uslubiy masalalari.....	47-49
<i>Meliyev F., Ikromov A., Abduraxmonov M., Zoirov S.X.</i> Fizikani o‘qitishda mavzuning maqsad va mohiyatini tavsiflash metodi	50-54
<i>Mirsaidova G., Umirov B.</i> Bo‘lajak fizika o‘qituvchisining axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish muammosi.....	55-60
<i>Ochilov Sh.J.</i> 12-13 yoshli voleybolchilarda orqa zonalarda harakatlanish tezkorligini rivojlantirish yo‘llari	61-68
<i>Pardayev S.A.</i> “Musiqqa madaniyati” darslarida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari (boshlang‘ich sinflar misolida).....	69-74
<i>Qo‘ysinov O.A., Xamroyeva F.A.</i> Finlandiyada uzluksiz ta’lim va o‘qituvchilar tayyorlash tizimi	75-83
<i>Rashidova O.</i> Oliy o‘quv yurtlarida mustaqil ta’limni tashkil etishda innovatsion usul va vositalardan foydalanish-pedagogik muammo sifatida.....	84-93
<i>Samatova D.S., Omanqulova Sh.N.</i> Musiqqa ta’limi yo‘nalishi talabalarining cholg‘u ijrochiligi fani orqali ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirish	94-99
<i>Shodiyev F.T.</i> Boshlang‘ich ta’limda ertaklarni PIRLS mashqlari orqali o‘qitish usullari	100-105
<i>Xasanov A.A.</i> Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirish parametrlari	106-109

<i>Xoliqov Q.T., Mamatov Z.U.</i> Optikaga oid laboratoriya ishlarini bajarishda Phet dasturidan foydalanish metodikasi	110-117
<i>Жомуродова Н.</i> Математика в дошкольной образовательной организации	118-124
<i>Очилова Н.Н., Темирова Ш. Г., Юсупова Н.Ш.</i> Дистанционное обучение и роль преподавателя в этом формате	125-129

PSIXOLOGIYA

<i>Masharipov Y., Maxmudov I.</i> Sport musobaqasi psixologiyasining tavsifi va tahlili	130-138
<i>Radjabov A.A.</i> Sportchilarda stress holatidan chiqishning psixologik mashqlar.....	139-147
<i>Radjabov A.A., Murodullayeva Sh.O.</i> Mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan sportchilarda stress holatlarining o‘rganilishi	148-154

TARIX

<i>Turdiyev I.U.</i> XV – XVI asrlarda dashti qipchoqda kechgan etnik jarayonlarning markaziy osiyo xalqlari etnik shakllanishida tutgan o‘rni	155-160
--	---------

FILOLOGIYA

<i>Akramova S.U.</i> O‘zbek va jahon xalqlari topishmoqlarining g‘oyaviy o‘xshashliklari hamda farqli jihatlari.....	161-167
<i>Gadayev O.Ya.</i> Ayrim joy nomlarining morfologik tarkibini o‘rgatish usullari.....	168-173
<i>Namazov A.</i> G‘azal namunasi asosida aruz vazniga doir bilimlarni mustahkamlash.....	174-177
<i>Raximova G.K., Bahriddinova Yu.</i> Alisher Navoiy she‘riyatida shoir shaxsiyatining badiiy talqini	178-183

DASTURLASH TILLARINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI

A.N.Abdullayev¹
Z.U.Kulmirzayeva²

1.2. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada dasturlash tillarini o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini olib borishning ayrim xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ishlab chiqilgan topshiriqlardan darslarda foydalanishga doir tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *multimedia, dasturlash tillari, axborot texnologiyalari, interaktiv texnologiya.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые особенности обучения языкам программирования с использованием мультимедийных технологий. Также даются рекомендации по использованию разработанных заданий на занятиях.

Ключевые слова: *мультимедиа, языки программирования, информационные технологии, интерактивные технологии.*

Abstract: This article examines some features of teaching programming languages using multimedia technologies. Recommendations for using the developed assignments in classes are also given.

Key words: *multimedia, programming languages, information technology, interactive technology.*

Abdullayev A.N.
Amaliy matematika va
fizika fakulteti dekani,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand,
O‘zbekiston
abdullayevabubakir73@gmail.com

Kulmirzayeva Z.U.
Matematika va
informatika kafedrasida
assistenti, O‘zbekiston-
Finlandiya pedagogika
instituti, Samarqand,
O‘zbekiston
zarinakulmirzaeva@gmail.com

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qaroriga asosan axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ta’lim tizimida zamonaviy o‘qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish ustivor vazifa sifatida belgilangan [1].

Multimediali elektron o‘quv kurslari zamonaviy ta’lim uslubiyatida yangicha imkoniyatlarni yuzaga chiqaruvchi dasturil amal bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Multimedia texnologiyalari ta’lim tizimini axborotlashtirishning eng jadal rivojlanayotgan va istiqbolli yo‘nalishlaridan, shu bilan birgalikda zaruriy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimini axborotlashtirishning asosiy maqsadi o‘quvchi yoshlarni jamiyatda hayotning kundalik, ijtimoiy va kasbiy sohalarida to‘liq va samarali ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Ta’lim jarayonlarini axborotlashtirish talabalar va o‘quvchilarining asosiy faoliyati sifatida axborotni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash bilan bog‘liq ravishda kechadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

O‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishda multimediyaga asoslangan innovatsion ta‘lim uslublaridan foydalanish ta‘lim oluvchilarni mustaqil fikrlash va izlanishiga imkoniyat yaratadi. Bu usullarning mohiyati shundan iboratki, butun o‘quv jarayoni o‘quvchilarni erkin fikrlashga va mustaqil ishlashga yo‘naltiradi.

O‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish ta‘limni modernizatsiya qilishning asosiy maqsadi – ta‘lim sifati va imkoniyatlarini oshirish, har tomonlama barkamol avlodni rivojlantirish, jamiyatni munosib kadrlar bilan ta‘minlashdan iborat. Ta‘lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish uni modernizatsiya qilish, samaradorlikni oshirish hamda ta‘lim oluvchilarni ma‘naviy rag‘batlantirishga xizmat qiladi, shu bilan birga har bir shaxsga o‘zining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda jarayonni farqlash imkonini beradi [2].

G.K.Selevko shunday deb yozadi: “O‘quv jarayonlarida kompyuterlar keng qo‘llanila boshlangach, “Ta‘limda yangi axborot texnologiyalari” atamasi paydo bo‘ldi. Umuman olganda, har qanday pedagogik jarayon axborot texnologiyasidir, chunki o‘quv jarayonining texnologik asosini axborot va uning harakati tashkil etadi”[3].

Ma‘lumki, o‘quv jarayonlarida “multimedia”, “multimedia texnologiyalari”, “multimedia muhiti” kabi tushunchalarni qo‘llash odat tusiga aylandi. Interfaol audio-video yozuvlar bilan ishlashga imkon beradigan interaktiv vositalar, bir vaqtning o‘zida matn, statik va dinamik tasvirlar, video filmlar, nutq va ovoz hamrohligidan foydalanish ta‘lim jarayonlariga axborotlarni tizimli ravishda yig‘ish, saqlash, qayta ishlashning yangicha usullarini olib kirdi[4].

“Media” atamasi – axborotni yaratish, saqlash, tarqatish, idrok etish va uni xabar muallifi va ommaviy auditoriya o‘rtasida almashishning texnik vositalarini anglatadi va axborot tizimida qo‘llaniladi. Bularga matbaa, fotografiya, radio, kino, televidenie, video, multimedia kompyuter tizimlari, shu jumladan, internet kiradi, deb yozadi Y.B.Kirgizova “Multimediani o‘quv jarayoniga qo‘llashning didaktik asoslari” nomli maqolasida.

Multimedia (lotincha so‘zlardan “multum”-ko‘p va “media”- muhit, vositalar) - bu ma‘lumotni taqdim etishning turli shakllaridan (matn, grafika, animatsiya, ovoz, video va boshqalar) bir vaqtning o‘zida foydalanish va ularni bitta obyektga birlashtirish. “Multimedia” so‘zi “multimedia kompyuter”, “media”, “multimedia qurilmalari” iboralarida ham qo‘llaniladi. Multimedia qurilmalariga grafika, ovoz, video bilan ishlashga mo‘ljallangan qurilmalar kiradi, shuningdek, multimedia texnologiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- televidenie signallarini qabul qilish va qayta ishlash;
- video yozib olish, raqamli saqlash, video signalni ko‘rish va qayta ishlash;
- animatsiya-tasvir harakatini taqlid qilish;

- ovoz effektlari (kompyuterda yaratilgan yoki mikrofon bilan yozib olingan);

- uch o'lchamli (3D) grafika;

- virtual laboratoriyalar;

Multimedia dasturiy vositalariga quyidagilar kiradi:

- multimedia dasturlari-entsiklopediyalar, interfaol o'quv kurslari, kompyuter o'yinlari, trenajyorlar, reklama roliklari, kompyuter taqdimotlari va boshqalar;

- multimedia dasturlarini yaratish vositalari, rasmlar, audio va video muharrirlari, taqdimotlar yaratish vositalari.

Ta'limda multimedia texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari sifatida quyidagilarni ta'kidlash kerak:

1. O'quv materialini tuzishning gipermatnli printsiplarining mavjudligi.

2. Interaktivlikning mavjudligi, ya'ni murakkab tushunchalarni o'rganishda audio sharhlarni video ma'lumot va animatsiya bilan birlashtirib taqdim etish.

3. Talabaning mustaqil o'zlashtirish imkoniyati.

4. O'rganilayotgan narsani yaxshiroq va chuqurroq tushunish uchun materiallar mavjudligi.

5. Talabaning yangi bilimlarni o'rganish motivatsiyasi.

6. O'qish vaqtining sezilarli darajada qisqarishi tufayli vaqtni tejash.

7. Ishlab chiqarish, o'qitish xarajatlarini kamayishi va malaka oshirish.

8. Yangi avlod pedagogik va didaktik materiallarini tayyorlash imkoniyati.

Ta'limdagi multimediyaning salbiy tomonlariga kelsak, quyidagi jihatlar ajralib turadi:

1. O'qituvchilar va talabalar, shuningdek, talabalarning o'zlari o'rtasidagi jonli aloqani kamaytiradi.

2. Multimedia texnologiyalaridan haddan tashqari foydalanish barcha ishtirokchilarning sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi.


Tahlil va natijalar

“Python dasturlash tili operatorlari” mavzusini o'rganishda asosan 4 ta asosiy tayanch tushuncha yoki savolni qarab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni:

- arifmetik operatorlar;
- o'zlashtirish operatorlari;
- taqqoslash operatorlari;
- mantiqiy operatorlar.

Shu sababli guruhda 26 nafar talaba bo'lsa, ularni 6 nafardan 4 ta kichik guruhga ajratish (2 ta kichik guruhda 6 nafar, 2 ta kichik guruhda esa 7 nafar talaba) va ularning har biriga yuqoridagi topshiriqlarni bajarish uchun guruhlariga nom tanlash yo'li imkoniyatini berish kerak. Masalan, har bir kichik guruh o'z nomiga “Dasturchi”, “Operator”, “Ijodkor”, “Zukko” kabi ega bo'lsin. Kichik guruhlar teng kuchli bo'lishi uchun guruhdagi talabalarning bilim darajasiga

qarab oldindan shakllantirishgan bo‘lishi maqsadga muvofiq sanaladi. Ko‘pincha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda kichik guruhni o‘qituvchining o‘zi ham tuzishi mumkin. Bu ishlarni o‘qituvchi qaysi darsida kichik guruhlar bilan ishlashini oldindan rejalashtirilgan bo‘lsa, talabalarni o‘tgan darsida ularni ogohlantirib qo‘yishi lozim bo‘ladi. (1-rasm)



1-rasm. Kichik guruh a‘zolarining topshiriqlar almashish tuzilmasi.

“Dasturchi” guruhi “Arifmetik operatorlar”, “Operator” guruhi “O‘zlashtirish operatorlari”, “Ijodkor” guruhi “Taqqoslash operatorlari” va “Zukko” guruhi esa “Mantiqiy operatorlar” haqidagi savollarini tanlash yo‘li bilan tanlagan bo‘lsa, ushbu savollarga tayyorgarlik ko‘rish uchun 10-15 daqiqa vaqt beriladi. Talaba (o‘quvchi)lar mavzuga oid ma‘lumotlarni o‘zlari bilgan va eslab qolgan ma‘lumotlar asosida yoritib berishlari talab etiladi. O‘qituvchi qaysi savolga birinchi javob berilishini oldindan bilgan holda birin-ketin kichik guruhlar tayyorlagan javoblarni eshitadi, o‘quvchilar bilan javobning to‘g‘riligini muhokama qiladi, kerak bo‘lsa, javobni yanada to‘ldirish uchun shu kichik guruh a‘zolaridan yoki boshqa kichik guruh a‘zolaridan birining javobini eshitish va ularning javoblari asosida muhokama qilgan holda izohlar bilan to‘ldirishi ham mumkin. Bu kabi texnologiya va usullarni o‘z o‘rnida ishlatish, o‘quvchilarning javoblarini odilona baholab borish, ularning bilimini odilona baholab borish o‘qituvchining tajribasi, mahorati va bilim darajasiga bog‘liq.

Bu kabi texnologiyani yuqorida aytganimizdek, darsning mazmuni, undagi yechilishi kerak bo‘lgan muammolarning soniga qarab belgilash o‘qituvchidan o‘z darsiga doimo puxta tayyorgarlik ko‘rish va oldindan qaysi pedagogik-innovatsion texnologiyalarni qo‘llash mazmun va mohiyatini tushunib etishni va undan dars jarayonida samarali foydalanishni talab etadi.

O‘quv mashg‘uloti bir necha qismlar asosida rejalashtiriladi.

Nazariy qismda, texnologik xarita asosida ajratilgan vaqt me‘yorlari asosida o‘tilgan mavzularni takrorlash uchun umumlashtiruvchi o‘yinlar, masalan, “Zakovat” o‘yini tashkillashtiriladi:

Zakovat savollari:

1. Algoritm so‘zining ma‘nosi?

2. Boshqa-boshqa mamlakatlarda joylashgan kompyuterlarni bog'lovchi tarmoq nima deb ataladi?
3. Gvido van Rossum va Python dasturlash tilining bog'liqlik jihatini toping?
4. Dasturlash tillari tarixida eng birinchi dasturchi sifatida kim e'tirof etiladi?
5. Ma'lumotlar ekranga chiqqanida ma'lumotning oxiriga nuqta, vergul, probel va h.k. belgilarni chiqarish uchun printning qaysi xususiyatidan foydalaniladi?
6. Insoniyat tomonidan axborotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullari va vositalari nima deb yuritiladi?
7. Barcha foydalanuvchilar HTTP xatolaridan ko'pincha duch keladigan holat qanday?
8. Birinchi hisoblash mashinalari yaratilishidan oldin Amerikada "bu so'z" qo'shish mashinalarida hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi shaxs ma'nosini anglatgan, so'zni toping.
9. Internetning o'zidan ham oldin paydo bo'lgan internet xizmati qaysi?
10. "Avtomatlashtirish" va "axborot" so'zlaridan yaratilgan atama nima?
11. Kompyuterlardan va ular bilan bog'liq bo'lgan narsalardan qo'rqish hissiyotini izohlang.
12. Eng ommabop ijtimoiy tarmoq nomi?

"Zakovat" o'yini MS Power Point dasturi yordamida yaratilgan slaydlar asosida tashkil etiladi. Darsning asosiy mazmuni multimedia texnologiyalari asosida interfaol metodlar orqali tushuntiriladi. Vaqtga mos ravishda video ma'lumotlar tinglanadi, o'quvchilarning ilk tushunchalari asosida BBX jadvali to'ldiriladi.

Amaliy qismida mavzu asosida soddadan murakkabga qarab tanlab olingan dasturlar tuzish uchun taqdim etiladi. O'qituvchi tomonidan dasturlarni tuzish jarayonidagi asosiy muammoga uchrash mumkin deb kutilgan jihatlar oldindan tahlil etib beriladi. Bu jarayon elektron doskada audio-vizual ravishda taqdim etiladi.

Nazorat qismida o'quvchining bilim-ko'nikmasi tekshiriladi. Nazorat quyidagi shakllarda tashkil etilishi mumkin:

- 1) To'g'ridan-to'g'ri kontest dasturlariga murojaat qilish orqali.
- 2) Odatiy testlar orqali.
- 3) Yozma ishlar orqali.
- 4) Og'zaki savol-javob orqali.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlar asosida aytish mumkinki, dasturlash tillarini o'qitishda multimediyaga asoslangan amaliy dasturiy vositalardan foydalanish usullarini ishlab chiqish talabalarga juda katta imkoniyatlarni yaratib beradi. Respublikamiz miqyosida qaraydigan bo'lsak, dasturlash tillari fanini o'qitish uchun multimediyaga asoslangan turli ilovalar juda kam yaratilgan, ayniqsa, o'zbek tilidagi variantlari juda kam. Bu masala hozircha qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lib, bu yo'nalishdagi foydali elektron multimediali dasturiy ta'minotlarni yaratishni yanada ko'paytirish lozim desak, xato bo'lmaydi.

Ayniqsa, har bir dasturlash tilining yo‘nalishlari bo‘yicha multimediali ta‘minotlarini ishlab chiqishga ehtiyoj katta. Chunki, talaba va o‘quvchilarni dasturlash tillari savodxonligini yanada o‘stirish va bo‘lg‘usi dasturchilarni yetuk mutaxassis bo‘lishini ta‘minlash o‘qitishning eng asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ta‘lim jarayonida kompyuterlarning imkoniyatlaridan foydalangan holda ta‘lim oluvchilarning bilim olishi hamda bilim darajalarini o‘z vaqtida aniqlab olishi imkoniyatini beruvchi noan‘anaviy darslar uchun mo‘ljallangan elektron o‘quv materiallari, ko‘rgazmali vositalar, o‘quv-nazorat dasturlari yaratish va ularni o‘quv jarayoniga tadbiiq qilish bugungi kunning muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

Multimedia texnologiyalari asosida yaratilgan turli ta‘lim platformalari o‘quvchilarni mustaqil fikrlashlari va o‘zlashtirishlariga yordam beradi, shuningdek, u o‘qituvchi kabi ishlaydi va o‘quv jarayonini boshqaradi. Bunday tizimlar talabalar uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallarining hajmi va turiga nisbatan qaror qabul qilish uchun foydalaniladi. Bugungi kunda o‘qituvchi kompyuter tizimini o‘rgatuvchi-ekspert rolini bajarmasligi kerak, balki o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantiradigan “Bilim vositachisi” bo‘lishi lozim. Axborot vositalarini faqatgina kompyuterining aql-zakovati deb emas, balki o‘qitiluvchi shaxsning aql-zakovatiga asoslangan intellektual vositalar deb tushunishimiz kerak.

Ta‘lim tizimini axborotlashtirishning maqsadi kompyuter va uning dasturiy ta‘minot qobiliyatlari hamda talaba, o‘qituvchi faoliyatining tarkibiy qismlari o‘rtasidagi muvofiqlikni yaratishdir. Dasturlash tillari fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi: rejalashtirish, yaratish va sinovdan o‘tkazish [5].

Xulosa

Multimedia texnologiyasiga asoslangan o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda yuqori samaradorlikga erishish uchun axborotni taqdim etishning og‘zaki va vizual shakllaridan to‘g‘ri foydalanishni bilish kerak. Ko‘rib chiqilgan tadqiqot ishlaridan ma‘lum bo‘ladiki, og‘zaki va matnli axborotning qabul qilinish darajasi nisbatan pastroq bo‘lib, agar audio-vizual ma‘lumotlarga tayanilsa, tushunchalarni qabul qilish yanada samarali bo‘ladi. Vizual belgilar intellektual harakatlarga olib keladi, shu bilan birga vizual ma‘lumotlar og‘zaki axborotni qayta ishlashga yordam beradi. Multimedia texnologiyasiga asoslangan ta‘lim tizimlarida vizual ma‘lumotlardan foydalanishning bir usuli kompyuter videofilmlari va animatsiyalarni (modellashtirilgan tasvirlarni) o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, an‘anaviy o‘qitish texnologiyalari pedagogik texnologiyalarni rivojlantiruvchi yangi axborotlar bilan boyitilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish

va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-sonli Farmoni.

2. Tayloqov Ulug'bek Norbekovich. Ta'lim muassasalarining yagona elektron axborot ta'limmuhitini yaratish va joriy etish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2020.

3. Aripov M., Muhammadiev J. Informatika, informatsion texnologiyalar // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: TDYuI. 2004. –275-b.

4. Смолянинова О.Г. Развитие методической системы формирования информационной и коммуникативной компетентности будущего учителя на основе мультимедиа-технологий. Дис.докт. пед. наук. – М., 2016.

5. Касторнова В.А. Методика создания и использования прикладных программ на основе мультимедиа технологии в обучении информатике. Дис.докт. пед.наук. – М., 1998.

6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2010.

7. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: Moliya, 2018.

8. Киргизова Е.В., Цуркан М.В. Дидактические возможности использования мультимедиа-технологий в учебном процессе // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2013. – Т. 3. – С. 3286.

9. Кирмайер М. Мультимедиа: Пер.с нем. – Спб.: БХВ-Санкт-Петербург, 2014.

KREDIT MODUL TIZIMIDA FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KVANT FIZIKASI BO'LIMI MISOLIDA TASHKIL ETISH

A.Abdullayev¹
Sh.E.Karshiboyev²
Y.Xamrayev³

1.2.3. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

A.N.Abdullayev¹
Amaliy matematika
va fizika fakulteti
dekani,
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika
instituti,
Samarqand,
O'zbekiston
[abdullayevabubakir
73@gmail.com](mailto:abdullayevabubakir73@gmail.com)

Sh.E.Qarshiboyev²
Fizika va
astronomiya
kafedrası assistenti,
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika
instituti,
Samarqand,
O'zbekiston
[shavkat.qarshiboyev
v.89@bk.ru](mailto:shavkat.qarshiboyev.89@bk.ru)

Y.B.Xamrayev³
Fizika va
astronomiya
kafedrası assistenti,
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika
instituti,
Samarqand,
O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy fizika fanining kvant fizikasi bo'limini o'qitishda raqamli texnologiyafoydalanish usullari yoritilgan. Xususan, PhET dasturiy vositasi taqdim etilgan ma'lumotlar asosida mavzuni tushunarli tarzda bayon etishda audio-video materialla, modellarni foydalanish usullari tahlil etilgan. Shuningdek, nazariy bilimlarni mustahkamlash, mavzuga doir virtual laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda LabVIEW dasturiy vositasidan foydalanish yuqori samara berishligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul, PhET, LabVIEW, dasturiy vositasi, issiqlik nurlanishi, absolyut qora jism, nur chiqarish va nur yutish qobiliyati, Plank doimiysi, kvant, ta'lim.

Аннотация: В данной статье описаны методы использования цифровых технологий в преподавании раздела общей физики «Квантовая физика» в педагогических высших учебных заведениях. В частности, в статье анализируются методы использования аудио-видео материала и модели для понятного объяснения темы на основе информации, предоставляемой программой PhET. Также подчеркивается, что использование программы LabVIEW высокоэффективно при закреплении теоретических знаний и выполнении виртуальных лабораторных занятий по теме.

Ключевые слова: Кредитный модуль, PhET, LabVIEW, программа, тепловое излучение, абсолютно черное тело, способность излучать и поглощать свет, постоянная Планка, квант, образование.

Abstract: This article describes the methods of using digital technology in the teaching of the quantum physics section of general physics in higher educational institutions of pedagogy. In particular, the article analyzes the methods of using audio-video material and models to explain the topic in an understandable way based on the information provided by the PhET program. It is also highlighted that the use of the LabVIEW program is highly effective in strengthening theoretical knowledge and performing virtual laboratory exercises on the subject.

Key words: Credit module, PhET, LabVIEW, program, heat radiation, absolute black body, ability to emit and absorb light, Planck's constant, quantum, education.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli talabalarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq sohada yechimini topmagan qator masalalar fizika sohasidagi ta'lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda. Umumiy fizika fani

o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlarining o'rni beqiyosdir. Hozirgi vaqtda laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha qo'llanmalar, multimedia dasturlarini yaratishga e'tibor qaratilmagan. Shu nuqtai nazardan kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitish bir qancha afzalliklarga ega[1.2].

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida kredit-modul tizimi asosida umumiy fizika fanining kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitishda raqamli texnologiyalarni qo'llash, dasturiy vositalar, vizual modellar, multimediali elektron resurslar, masofaviy ta'lim shakllaridan keng foydalanish alohida dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Oliy o'quv yurti talabalarini o'qitishning maqsad, vazifalari va tizimidagi farq tufayli fizikani o'qitishda allaqachon yaratilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash samaradorligini nazariy asoslash va amaliyotda sinab ko'rish zarurati tug'iladi. Buning uchun quyidagi masalalarni amalga oshirish talab etiladi:

- pedagogika oliy o'quv yurtida fizika fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zaruriyati va imkoniyatlarini asoslash;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini va institutda o'quv jarayonini tashkil etishning me'yoriy talablarini muvofiqlashtirish;
- pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalariga fizika fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining didaktik ta'minotini yaratish;
- oliy o'quv yurtlari talabalariga fizika va astronomiya fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini tajriba yo'li bilan tekshirish;

Yuqoridagi barcha ta'riflarni tahlil qiladigan bo'lsak, pedagogik texnologiyani ma'lum bir ilmiy kontsepsiyaga asoslangan, pedagogik o'zaro ta'sirni ma'lum tarzda dasturlash, pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratuvchi va ma'lum, oldindan rejalashtirilgan ta'limni o'z zimmasiga oladigan barqaror ta'lim tizimi sifatida qarash mumkin[3.7].

Laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish metodikasi ko'p jihatdan nazariy ma'lumotlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga olib keladi. Oliy o'quv yurti bitiruvchisi eksperimentlar o'rnatish, mustaqil tadqiqotlar o'tkazish, innovatsion texnologiyalarni yaratish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun talabalar real va virtual laboratoriya ishlarini tayyorlash va bajarishda mustaqil o'z-o'zini o'qitishning roli muhimdir. Talabalarining ilmiy va kasbiy faolligi oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari tomonidan yangi innovatsion texnologiyalardan darslarda faol foydalanganligi bilan shakllanishi kerak [2.3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalaridan foydalanish endilikda butun sivilizatsiyalashgan dunyo uchun innovatsiya emas, balki bugungi kunning haqiqatiga aylandi. Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalari ta'lim sohasiga mustahkam kirib keldi. Ular o'quv jarayoni sifatini o'zgartirish, darsni zamonaviy,

qiziqarli, samarali qilish imkonini beradi. Virtual ta'lim axloqiy komponentni ham o'z ichiga oladi – kompyuter texnologiyalari hech qachon talabalar o'rtasidagi aloqani almashtirmaydi. U faqat yangi resurslarni birgalikda izlash potentsialini qo'llab-quvvatlashi mumkin va talabalar mavzuni o'rganayotganda o'rganilayotgan material bo'yicha tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqotda qatnashadigan turli xil o'quv vaziyatlarida foydalanish uchun mos keladi [2.3.4].

“Virtual laboratoriya” nima? V.V. Truxin ta'rifiga ko'ra, virtual laboratoriya - bu haqiqiy o'rnatish bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan yoki ular mavjud bo'lmaganda tajribalarni amalga oshirishga imkon beruvchi dasturiy-apparatlar jamlanmasidir[4,5]. Birinchi holda, biz masofadan kirish imkoniyatiga ega bo'lgan laboratoriya sozlamalari bilan shug'ullanamiz, u haqiqiy laboratoriyani, sozlashni boshqarish va olingan ma'lumotlarni raqamlashtirish uchun dasturiy ta'minot va apparat vositalarini, shuningdek, aloqa vositalarini o'z ichiga oladi. Ikkinchi holda, barcha jarayonlar kompyuter yordamida modellashtiriladi” [4-8].

Virtual o'quv laboratoriya ochiq va masofaviy o'qitish g'oyasiga muvofiq bo'lib, ta'lim jarayonidagi moddiy-texnik imkoniyat muammolarni oz bo'lsa-da dolzarbligini kamaytiradi, yordam beradi.

D.I.Troitskiyning virtual laboratoriyalardan foydalanishning ta'lim sifatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borgan izlanishlari natijalari e'tiborga molik. U virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining 17,7% ga oshishiga, laboratoriya ishlarini bajarish vaqti esa 10–50% ga kamayishiga erishilganligini ta'kidlaydi [4,5,6].

Laboratoriya ishi shunday o'qitish usuliki, bunda talabalar fizik hodisalarni tushuna oladilar. Agar laboratoriya ishlarini didaktika doirasida ko'rib chiqsak, u holda u fizikani o'qitishning ham usuli, ham shakli bo'lishi mumkin. Agar laboratoriya ishini o'qitish usuli deb hisoblasak, u holda u mavzu bo'yicha nazariy materialni mustahkamlash uslubi deyishimiz mumkin, bunda talabalar qat'iy belgilangan reja bo'yicha va o'qituvchi rahbarligida topshiriqlarni bajaradilar. Bunday holda, laboratoriya ishi tadqiqotni o'z ichiga oladi. Yu.K.Babanskiy laboratoriya ishlarini o'qitish usuli sifatida qaraydi, bunda o'quv jarayonida nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishni yaratish asosiy vazifadir [9.10].

Tahlil va natijalar

Nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etishda laboratoriya ishlarini bajarish muhim ahamiyatga ega. Bunda esa laboratoriya jihozlarining manan eskirganligi, jihozlarning yetishmasligi hamda bularning o'rnini bosuvchi, iqtisod tomonidan kam xarajatli virtual laboratoriya ishlariga almashtirish maqsadi muvofiq.

Hozirgi kunda ta'lim sohasining barcha yo'nalishlari bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlashda va amaliy mashg'ulotlarda, laboratoriya mashg'ulotlarida, tajriba ishlarini bajarishda virtual laboratoriyalardan foydalanish ommalashib bormoqda. Shu dasturlardan biri LabVIEW dasturiy vositasidir. Bu dasturning imkoniyat va afzalliklari quyidagilar:

1. LabVIEW (Laboratory Virtual Instrumentation Yengineering Workbench-uzb. Muhandislik ishi uchun virtual asbobsozlik laboratoriyasi) "National Instrumens" (AQSh) kompaniyasi tomonidan yaratilgan «G» dasturlash tilida ishlaydigan dasturlash tili va platformasidir. LabVIEW ning birinchi versiyasi 1986-yili Apple Macintosh kompyuterlari uchun ishlab chiqilgan edi. Hozirgi kunda Unix, Linux, Mac OS va Microsoft Windows OT da ishlaydigan turlari mavjud [2-4.6.11].

Menyudagi ko'pgina funksiyalarni asboblarni paneli orqali chaqirib olish mumkin.

2. LabVIEW - elektron qurilmalarni boshqarish, sodir bo'layotgan jarayonlar haqida axborot beruvchi turli datchik, sensorlardan kelayotgan signallarni qayd qilish va qayta ishlash uchun mo'ljallangan dasturlarni yaratishga mo'ljallangan grafik dasturlash muhitidir. LabVIEW dasturiy vositasi, asosan, injenerlar va fizika, kimyo, aniq fanlar mutaxassislari uchun mo'ljallangan dasturlash tilidir.

3. LabVIEW dasturiy vositasi grafikli bo'lib, unda dastur matnli emas, ya'ni dastur tuzish uchun maxsus panellarga o'rnatilgan amallar va funksiyalarga maxsus vazifa yuklatilgan, kerakli kirish va chiqishlarni mos holda axborot uzatish ishlari bilan tutashtirish yetarlidir.

Grafikli dasturlash muhiti haqida umumiy ma'lumotlar.

- Matnli dasturlash tili
- Grafikli dasturlash tili

4. LabVIEW dasturiy vositasi ishga tushiriladi. LabVIEW dasturiy vositalash muhitining hozirda eng zamonaviy modifikatsiyasi LabVIEW-2020 yoki LabVIEW 2022 hisoblanadi. Dastur rivojlanishi bilan kompyuter texnikasiga ham texnik jihatdan kattaroq talablar qo'yadi. LabVIEW dasturiy vositasi muhitida yaratilgan dasturlar normal ishlashi uchun kompyuterga va operatsion tizimga yuqori talablar qo'yadi [4-5.11].

LabVIEW dasturiy vositasini tanlashimizga quyidagi omillar sabab bo'ldi:

1. LabVIEW dasturiy vositasi boshqa dasturlash tillariga qaraganda juda sodda bo'lib, dasturlashning algoritmik asosini o'zlashtirgan va professional darajada dasturchi bo'lmagan har qanday kishi LabVIEW dasturiy vositasida kerakli dasturni tuza oladi. Xususan, elektronika va mikroelektronika bo'yicha virtual laboratoriya tuzishda, modellashtirishda yoki eksperimental qurilmalarni avtomatlashtirishda sodda algoritmlar tuzishdan tashqari elektronika va mikroelektronika bo'yicha chuqur nazariy bilimlarga ega bo'lishga undaydi.

2. LabVIEW muhitida dasturlash boshqa dasturlash tillaridan farqli o'laroq matnli ko'rinishda emas, balki grafik tarzda amalga oshiriladi. Funksiyalar, doimiylar, grafik quruvchi panellar, operatorlar dasturga matn ko'rinishida emas, balki maxsus panel(oynacha)lar ko'rinishida bo'lib, dastur tuzish uchun turli vazifalar yuklangan panellarni kerakli qonuniyat asosida ulash yetarlidir. Panellarni ulash maxsus bog'lovchi ip orqali amalga oshirilib ma'lumotlar bir paneldan ikkinchi panelga shu ip bo'ylab uzatiladi.

3. LabVIEW muhitida tuzilgan dastur ikki qismdan: Blok Diagram old panel ko'rinish oynasidan va Program Diagram dasturlash oynasidan iborat bo'lib,

Blok Diagram oynasida virtual laboratoriya ishining virtual ko‘rinishini yaratish mumkin.

4. Yasalغان virtual asboblار parametrlari, boshqaruvchi dastaklar ko‘rinishi, shkalasi, rangi, asbobning umumiy ko‘rinishi talabga ko‘ra o‘zgartirilishi yoki real laboratoriya asbobi ko‘rinishida yaratilishi mumkin. Bu, ayniqsa, murakkab real tajriba oldidan talabada ko‘nikma hosil bo‘lishi uchun virtual laboratoriya ishidan trenajyor sifatida foydalanish imkoniyatini ham yaratadi.

5. LabVIEW dasturiy vositasida tuzilgan virtual laboratoriya ishlarini Internet, Yesernet yoki lokal tarmoq orqali masofadan turib bajarish imkoniyati mavjud. Application Builder qo‘shimcha dastur orqali har qanday *.vi fayl har qanday Windows operatsion tizimida ishga tushiladigan *.exe faylga aylantirilish mumkin[5.11].

Keyingi dasturiy vositada sifatida Phetni qarab chiqaylik.

2001-yilda Tabiiy fanlar yo‘nalishida Nobel mukofotining laureati «Physics Education Technology» (PhET) sayti asoschisi K.Viman tomonidan. PhET saytida har xil mavzularga oid modellar mavjud bo‘lib, ular Java va Macromedia flash dasturlarida yaratilgan[6.7.8].


➤ PhET saytida taqdim etilayotgan modellar ochiq ta‘lim resurslari (Open Education Source) bo‘lib, xohlagan talaba undan bepul foydalanishi mumkin.

➤ PhET dagi modellar soni 100 dan ortiq bo‘lib, ular fizika, matematika, kimyo fanlariga oid namoyish tajribalarini o‘tkazish, virtual laboratoriya ishlarini tashkillashtirish va modellashtirish imkoniyatiga ega.

➤ PhET dasturini <http://phet.colorado.edu> saytidan ko‘chirib olish imkoniyati mavjud.

➤ PhET dasturidagi modellardan fizika, matematika, kimyo va biologiya fanlaridan dars mashg‘ulotlarida namoyish tajribalari sifatida, virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkillashtirishda keng foydalanish mumkin[8].


Xususan, fizika faniga oid 90 dan ortiq; biologiya faniga oid 10 dan ortiq; matematika faniga oid 7 ta; kimyo faniga oid 20 dan ortiq modellar mavjud (1-rasmga qarang).



1-rasm. PhET dasturining umumiy ko‘rinishi

Dasturda keltirilgan modellar faqat ingliz tilida emas. Ularning 50 dan ortiq tilga tarjimalarini topish mumkin, xususan, o‘zbek tiliga 1 ta model tarjima qilingan. Dasturda keltirilgan modellarni o‘zbek tiliga tarjima qilish ehtiyoji mavjud bo‘lsa, dasturning rasmiy saytida “Translated Sims” bandidagi maxsus qaydnomaga to‘ldirilishi lozim. Shundan so‘ng tegishli modelni tanlab, o‘zbek tiliga tarjima qilish mumkin [6.8]. Phet dasturi orqali kvant fizikasi bo‘limiga doir laboratoriya ishini qarab chiqaylik:

Yorug‘likning kvant nazariyasi vujudga kelishining asosiy qonuniyatlaridan biri energiya taqsimotining to‘lqin uzunligi, chastotaga va temperaturaga bog‘liqligi absolyut qora jism nurlanish muammolaridir. Bu tushunchalarning mazmun-mohiyatiga tushunish kvant fizikasi bo‘limining yadrosi hisoblanadi. Bu tushunchalarni tushunish uchun quyidagicha yondashsa maqsadga muvofiq bo‘ladi (2-rasmga qarang) [7.8].




2-rasm. To‘lqin uzunligi o‘zgarish chastota va yorug‘lik energiyasining o‘zgarishi temperaturaga ham bog‘liqligi

Bu 2-rasmda talabalar to‘lqin uzunligini o‘zgarish chastota va yorug‘lik energiyasi o‘zgarishi temperaturaga ham bog‘liqligini ko‘radi. Bir so‘z bilan aytganda, yorug‘lik to‘lqin uzunligining qisqarishi chastota va temperaturaning oshishiga olib kelishi hamda aksincha to‘lqin uzunligining oshishi chastota bilan temperaturani kamayishiga olib kelishini bilib oladilar [Kolorado universiteti, 2011]. [4-8] Kvant fizikasi fanining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan bu qonuniyat ayrim darsliklarda qisqacha tushuntirib o‘tilgan.

Talabalarga fotoeffekt qonunlarini tushuntirish Sviridov Aleksandr Aleksandrovichning “Методика использования компьютера на примере курса “Квантовая физика” metodik ko‘rsatmasida keng yoritib berilgan.

Tashqi fotoeffektni tekshirishda Stoletov foydalangan qurilmaning prinsipial tuzilishi va ishlashi haqida [6] 3-rasm ko‘rinishida berilgan.



3-rasm. Fotoeffekt hodisasi

Bu dasturda bir qator parametrlarni ko'rish mumkin. Bu dastur orqali talabalar tushayotgan yorug'likning to'liq uzunligi va intensivligi, anod va fotokatod orasidagi kuchlanishning kattaligi, fototok qiymati, yorug'lik quvvati va fotoelektrik effektning qizil chegarasi qonuniyatlarini kuzatadi, biladi va tushunadilar [4.6.7]. Fototokning anod kuchlanishiga bog'liqligi fotoeffektning volt-ampere xarakteristikasini tushuntirishda 2. yorug'lik oqimini o'zgartirmay turib, elektrodlar orasida potentsiallar ayirmasi orttirilsa, tok kuchayadi [5.9.10.11]. Kuchlanish biror qiymatga erishganda tok kuchining qiymati eng katta bo'ladi, bundan keyin kuchlanish qiymati oshilsa ham, tok kuchi o'zgarmaydi. Tok kuchining bu eng katta qiymatiga to'yinish toki deb ataladi. Agar raqamli texnologiyalar yordamida chizma va animatsiya ko'rinishida sekinlik bilan tushuntirilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Kavant fizikasi bo'limiga doir mavzularni yoritishda noan'anaviy usullardan foydalanish talabalarning mantiqiy fikrlashlarini kengaytiradi va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Olingan nazariy bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalari rivojlanib boradi. Yorug'likning kvant nazariyasini tushuntirishda chizma modellardan, kompyuter imitatsion modellardan, animatsion effektlardan samarali foydalanish o'quvchilarda mavzu bo'yicha tasavvurlarini yanada oshiradi (2-rasm).

Kuchlanishning qiymati 0 bo'lsa ham, yorug'lik ta'sirida katoddan urib chiqarilgan elektronlar anod tomonga harakatlanishi natijasida elektr tokining hosil qilishini tushunadi.

Yorug'lik ta'sirida katoddan urib chiqarilgan elektronlarning ma'lum qismi katod atrofida, katod va anod orasidagi yo'lda qolib ketadi. Mana shu qolib ketgan elektronlarni potentsiometr yordamida anod tomonga harakatlantirish elektronlar sonining ortishi, tok kuchi qiymatining ham ortishiga olib kelishini ko'radilar va tushunadilar.

Yorug'lik ta'sirida katoddan uchib chiqadigan elektronlarning anod tomonga harakatini to'sib turuvchi kuch bu energiyani saqlanish qonuniga asosan tormozlovchi va to'xtatuvchi kuchlanish grafigining ko'rinishidir. Yorug'lik ta'sirida katoddan uchib chiqqan elektronlarning anod tomonga harakatini to'sib turuvchi kuch bu energiyani saqlanish qonuniga asosan tormozlovchi va to'xtatuvchi kuchlanishdir.

Issiqlik nurlanishni chizma ko'rinishda yoki animatsiya ko'rinishda tasvirlashda talaba moddani tashkil qilgan molekullarning tashqariga nurlanayotganligini ko'radi. Natijada moddani tashkil qilgan gaz molekullari o'zi bilan energiya olib chiqayotganligini ko'rish mumkin. Natijada, talaba moddaning temperaturasi va energiyasi vaqt o'tishi bilan kamayishini anglaydi.

Hozirgi kunda fizika fanini o'qitishda mavzularni va hodisalarni yoritishda raqamli texnologiyalardan foydalanib, dasturiy vositalarni qo'llab o'qitilishga zaruriyat to'g'ri bo'ladi. Zamonaviy tadqiqotlarda yoshlarimizni an'anaviy o'qitish orqali, fanga qiziqtirib bo'lmazligi va darsning maqsadiga erishish qiyinligi, shu sababli hozirgi vaqtda texnologiyalashtirish davrining eng dolzarb jarayonlari bo'lgani jamiyatni qiziqishini va e'tiborini o'ziga jalb qilgani uchun, fanlarni

informasion texnologiyalar muhitida o'qitish, jumladan, fizika fani ham, Ta'limning eng zaruriy jihatlaridan biri ekanligi tajribada ko'rinmoqda [12.13]. Talabalarda tabiiy fanlar, ayniqsa, fizika faniga bo'lgan qiziqishini oshirishda, fizik qonuniyatini mazmun-mohiyatini yaxshi tushinishda qonuniyatlarni chizma ko'rinishida, animatsiya ko'rinishda tushintirilsa ijobiy natija berishini amalyotimiz davomida guvohi bo'ldik.

Talaba bajargan virtual laboratoriya ishini mustaqil bajarish orqali olgan ilmiy bilimlariga tayanib xulosa chiqarishi hamda talabaning fan bo'yicha o'zlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Talabalarda tajriba natijalariga ko'ra xulosa chiqarish tahlil qilish tushunchalari yanada rivojlanadi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan ilmiy izlanishlar tahliliga ko'ra pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalar asosida laboratoriya mashg'ulotlarini tarkibini o'zgartirish orqali eksperimental kompetetlikni takomillashtirish zarur ekan.

Kvant fizikasi bo'limi mavzularini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanib o'quv jarayonini tashkil qilish orqali biz quyidagi samaradorlikga erishdik:

talabalarda mazkur bo'lim mavzulariga bo'lgan qiziqish, motivatsiya paydo bo'ldi;

o'rgangan nazariy bilimlarini talabalar multimediya va animatsiyalar yordamida yaxshi tushunadi va mustahkamlaydi;

dars davomida o'qituvchi va talabalar vaqtdan unumli foydalanadi;

raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish talabalarni mustaqil fikirlashga o'rgatishda muhim vositalardan biri ekanligi ularda, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash va kreativlik fazilatlarini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karshiboyev Sh.E., Makhmudov F.D. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida fizika fanidan laboratoriya darslarida labview dasturiy vositasidan foydalanishning afzalliklari. //Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – 2023, № 9 Buxoro

2. Mirzaxmedov B., G'ofurov N., Ibragimov B., Sagatova G. Fizika o'qitish metodikasi. –T : O'qituvchi, 2002.

3. Esirgapov K. Improving the methodology of using software in organizing virtual laboratory courses in physics //International Journal of Pedagogics. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 17-26.

4. Karshiboyev Sh. Fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish metodikasi //Общество и инновации. – 2023. – T. 4. – №. 8/S. – C. 94-101.

5. Karshiboyev Sh., Norqulova M., Raxmonov Z. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida fizikadan virtual laboratoriya ishlari. O'zbekiston Respublikasi Adliya

vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi №DGU 29267raqamli mualliflik guvohnomasi 15.11.2023-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan.

6. Zoirov S. et al. Modeling of physical processes in the labview program //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 8. – С. 775-780.

7. Xoliqov Q.T., Qarshiboyev Sh., Sulaymanov O.A., Egamberdiyev T.X. Fizika ta'limida online virtual laboratoriyalardan foydalanishning afzalliklari. //Fan va ta'lim integratsiyasi. 2023. 1-son <https://journals.uzfi.uz/>

8. <http://phet.colorado.edu>

9. Данижева Р.-Ч. Эффекты применение мультимедие у настави физике у првом разреду средње стручне школе - докторска дисертација. – Нови Сад, 2015. Б.-206.

10. Свиридов А.А. Методика использования компьютера на премьере «Квантовая Физика» в группах» методическая разработка. – Москва, 2014. – С. 33.

11. Zoirov S., Karshiboyev Sh., Kulmirzayeva Z. Pedagogika Oliy o'quv yurtlarida Umumiy fizika fanining elektr kursini LABWIEV dasturida loyihalashtirish metodikasi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi № DGU 28431 raqamli mualliflik guvohnomasi 26.10.23-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan.

12. Esirgapov K., Karshiboyev Sh. Fizika darslarida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etishning tadbirlari. //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 12 (2022): 53-57.

13. Karshiboyev Sh. Fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi // Fizika, matematika va informatika ilmiy-uslubiy jurnal. –Toshkent, 2023/5. 69-76 b.

TA'LIMDA O'QITISH JARAYONINING YANA BIR USULI HAQIDA

M.X.Aliyeva¹

1. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Aliyeva M.X.
O'zbekiston-
Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand,
O'zbekiston
m.aliyeva@uzfi.uz

Annatasiya: Maqolada ta'lim sohasidagi islohatlar va ta'limning zamonaviy ko'rinishidagi uslublar, ta'lim, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar, mustaqil bilimni mustahkamlash haqida hamda ta'lim texnologiyasining modellari keltirilgan bo'lib, o'qitishning yana bir usul – interfaol tabaqalashtirib o'qitish usuli qarab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sohasi, texnologik ta'lim, interfaol maqsad, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, rivojlantiruvchi maqsad, model, kreativ yondoshuv, pedogogik yondoshuv, kommunikativ yondoshuv.

Аннотация: В статье представлены реформы в сфере образования и методы в современной форме обучения, воспитательные, образовательные и развивающие цели, укрепление самостоятельного знания и модели образовательных технологий.

Ключевые слова: Образовательное поле, технологическое образование, интерактивная цель, образовательная цель, развивающая цель, модель, творческий подход, педагогический подход, коммуникацион.

Annotation: The article presents reforms in the field of education and methods in the modern form of education, educational, educational and developmental goals, strengthening independent knowledge and models of educational technologies.

Key words: Educational field, technological education, interactive goal, educational goal, educational goal, developmental goal, model, creative approach, pedagogical information, principle, interaction, communication.

Kirish

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng eng ahamiyatli va ustuvor vazifa sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biri - ta'lim sohasini isloh qilish masalasi bo'ldi. Bu boradagi asosiy talablardan biri – kadrlar tayyorlashda sifat darajasini yaxshilashdir. Bu talabga javob berish uchun boshlang'ich ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan sohani talab darajasidagi adabiyotlar bilan boyitish maqsadga muvofiq deb topildi va bu borada bir qancha ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining isloh qilinishi va kadrlar tayyorlash milliy dasturlari qabul qilinishi natijasida o'quv tizimining strukturasi ham o'zgardi. O'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. O'qitishning an'anaviy usullaridan farqli singari yana bir usul - interfaol tabaqalashtirib o'qitish usulini qarab chiqamiz.

O'qitishning interfaol usulini bir necha qismga bo'lish mumkin. Bular jumlasiga: guruhlarda ish olib borish, o'qitish jarayonini munozara (diskussiya)

sifatida tashkil etish, qiziqarli dialoglar uyushtirish va tashkil qilish, turli xil modellashtirilgan qiziqarli uyinlar sifatida tashkil qilish, intellektual savol - javoblar tayyorlash va aqliy mashg'ulotlar kiradi.

Guruxlarda ish olib borishda auditoriyadagi talabalarni bir necha guruhlariga bo'lib chiqib, ularga variantlar beriladi. Bu variantlar albatta, o'tilgan mavzu yuzasidan bo'lib uni o'qitayotgan pedagog tomonidan tayyorlangan bo'ladi. Barcha vazifalarga javobni talaba topa olishi mumkin bo'lgan manbalardan ya'ni, Internet tarmog'i, kutubxonalardagi darsliklardan, jurnallardan va oddiy kundalikda uchraydigan misollarda berilishi kerak buladi. Birinchi bosqichdanoq, talabalarning bilimlilik darajasi aniqlanila boshlaydi. Bu darajalar, bilmaydiganlar, qisman biladiganlar, darsda faqat o'qitish jarayonidagi mavzu yuzasidan biladiganlar va mustaqil bilim oladigan, bilimdonlar – qiziquvchan haqiqiy ilm egalari bo'linib qoladi.

Endi esa o'quvchilarning darajasiga qarab, vazifalarni osonlashtirilgan yoki aralashtirilgan va qiyinlashtirilgan ko'rinishlari berilib, nazorat savollari beriladi.

Ma'lum vaqt ichida bilim oluvchi tayyorlanib kelgan variantlar asosida fikrlarini bayon qilishi kerak. Buning uchun 20 minutdan 30 minutgacha vaqt ketadi. Bu vaqt davomida talaba fikrini qog'ozga tushirib, mulohazalarini mushohada qilish uchun guruhning munosabatini eshitishi ham mumkin. Guruhda bunday yondashuv natijasida har bir talaba o'zining va o'zgalarning fikrini eshitish imkoniyatiga ega buladi va o'z fikrini isbotlashga harakat qiladi. Bahsda barcha darajadagi talabalar qatnashishi tufayli vujudga keladigan munozara boshlanadi. Tortishuvlar natijasida masalaning mokiyyatini tushunish imkotiyatiga ega bo'lishadi. Munozara jarayoni bilim darajalari bilan bir – biridan farq qiladigan talabalarni guruhdagi tengdoshlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan tarjumat materiallar, o'quv darsliklardan tashqari o'qituvchi tomonidan tayyorlangan ko'rgazmali qurollar, test savollari va talabaga o'z-o'zini bilimli qilish kabi ko'nikmalarni beruvchi barcha didaktik materiallarning avvalo 3ta asosiy maqsadini karaymiz:

Ta'limiy maqsad – talabalarning mavzular bo'yicha bilimni aktuallashtirish;

Tarbiyaviy maqsad – dars jarayonida xayotiy misollarda tushunishiga, o'z bilimlarini sistemali ravishda to'ldirib borishga va qiziqishlarini oshirish;

Rivojlantiruvchi maqsad – yuqorida ko'rsatilgan ko'nikmalarni talaba qanchalik tushunib yetganligi va mavzu bo'yicha va mavzudan tashqari mustaqil bilim beruvchi manbalardan fikrlash tafakkurlarini o'stirishga erishishni ta'minlash yuzasidan izlanishlar olib borish zarur.

Buning uchun o'z-o'zini bilimli qilishga talabani majbur etadigan yechimlarni izlashda albatta o'qish jarayoni va sharoitning roli ham katta ahamiyatga ega. Modelli darslarni tashkil etishning bir ko'rinishi ya'ni muhokama modeli qarab chiqamiz. Muhokama modeli talabalarning aqliy jihatdan mashq (trenerovka) qilishiga chorlaydi.

Ta'lim texnologiyasining innovasion modeli – bu belgilangan vaqt va mavjud sharoitda asosiy maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta'limning eng maqbul shakli, vositasi, usuli, metodikasi va texnologiyasining majmuidir.

Ta'lim texnologiyasining innovasion modeli quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- o'qitish maqsadlarini aniq ifodalash;
- nazariy va amaliy materialni tanlash hamda uni o'quvchilarga yetkazishning yo'llarini aniqlash;
- mavzuning tayanch tushuncha va iboralarini ajratish;
- o'qishga qiziqtirishga yo'naltirilgan usul va texnologiyalarni belgilash;
- o'quv jarayonini yakka va jamoa holda tashkil etish;
- o'quv mashg'ulotlari rejasini tuzib chiqish, unga asoslangan holda o'quv faoliyatidan oldindan kutilayotgan natijalarni aniqlash;
- kutilayotgan natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan o'qituvchi vazifalarni belgilashdir.

O'quv faoliyatida oldindan kutilayotgan natijalar – bu o'qitish natijasida o'quvchi egallashi va u tomonidan bajarilishi zarur harakatlar bo'lib, bu harakatlar orqali o'qituvchi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni dars mashg'ulotida qo'yilgan o'quv maqsadiga mos ekanligini bilish va haqqoniy xulosalash (baholash) imkoniga ega bo'ladi.

Bunda:


- o'quvchining dastlabki bilimlari aniqlanadi;
- teskari aloqani yo'lga qo'yadi va ta'lim vositalarini, ya'ni tezkor so'rov, bahs-munozara, tarqatma materialari, o'quv topshirig'i natijalari taqdimotini baholashni aniqlaydi;
- loyihaviy faoliyat natijasini jadval ko'rinishida, ya'ni o'quv jarayonining innovatsion ta'lim texnologiyasi modeli ko'rinishida rasmiylashtiradi;
- o'quv mashg'ulotida qo'llanadigan ta'lim texnologiyasini rejalashtirishni texnologik xarita ko'rinishida amalga oshiradi;
- o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi – har bir o'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi tuzilishining jarayonli bayoni aks etgan hujjat bo'lib, u o'quv mashg'ulotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan faoliyat ketma-ketligining mazmunini yoritib beradi;
- o'quv jarayonining tashkiliy-didaktik ta'minotini ishlab chiqadi va uni texnologik xaritaga ilova ko'rinishida rasmiylashtiradi. Texnologik xaritaning kengaytirilgan ko'rinishi esa dars mashg'uloti loyihasining asosiy mazmunini ifodalaydi.


O'quv mashg'uloti loyihasini tayyorlash. Bunda akademik litseylarda o'qitiladigan matematik analiz asoslari bo'limini o'qitish hajm va mazmuni jihatidan iyerarxiyaga asoslangan – “Eng katta”, “Katta”, “O'rta” va “Kichik” modullarga bo'linadi. Bu modullarning oldiga qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari hamda ularga ajratilgan vaqt belgilanib, har bir o'quv mashg'uloti ichidagi kichik modullar orqali beriladigan bilimlar orasidan tayanch

tushunchalar aniqlanadi. Bu bilimlarni o'quvchilarga qaysi dars mashg'ulot turi orqali berilishi va har bir kichik modullarda qo'llaniladigan pedagogik usullar, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va didaktik materiallarning turi hamda qo'llanish joylari ko'rsatib beriladi.

Dars mashg'ulotlarini loyihalashtirishda Davlat ta'lim standarti, malaka talablari va shu asosida ishlab chiqilgan o'quv reja, o'quv fan dasturi, darslik, o'quv va o'quv-metodik qo'llanma va metodik tavsiyanomalar hamda o'quv faniga tegishli bo'lgan boshqa o'quv materiallari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

MUSTAQIL BILIM OLISHDA TABAQALASHTIRISH USULINI QO'LLASH





Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tamoyillardan kelib chiqib, akademik liseylarda va institutlarda o'qitiladigan fanlardan mashg'ulotlarini loyihalashtirishda ta'lim texnologiyasi innovasion modelining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Respublikamizda keng qamrovli loyihalar va platformalar tashkillashtirilgan.

Suhbat davomida o'quvchilardan ilgari suriladigan ilmiy holatlarni asoslash va isbot qilish, tekshirilayotgan hodisani tahlil etish, xulosalarni mustaqil ifodalab berish talab qilinadi. O'zlashtirilgan materialdan yangisini o'zlashtirish uchun sistematik va doimiy foydalanish hamda u bilan kerakli bog'lanishni o'rnatish fikrlashni ko'proq aktivlashtiradi va bilimlarni chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Ayniqsa, boshqa manbalardan foydalana bilish darajasi yuqori bo'lgan talabalarga mavzudan tashqari qiziqarli misol va mulohazalarni erkin bayon qilishni taklif etish muhim rol o'ynaydi.

Bilimlarni o'zlashtirishini nazorat qilishda turli test savollaridan tashkil topgan savollar variantlari tuziladi. Bunday testlarni hozirgi kunda turli adabiyotlarda (manbalarda) turli bosqich ta'lim muassasalarida soddalashtirilgan, o'rta va murakkab shakllari ko'rinishlari ham mavjud.

Interfaol o'qitishning maqsadi, ta'lim jarayonini aniq va to'g'ri tashkil etishdan iborat bo'lib, barcha fanlar singari fizika fanini o'qitishda qo'l keladigan jihatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ayniqsa, masalalar yechish darsida o'qituvchi har qaysi mavzuga oid masalalardan tashqari, hayotiy, uy sharoitida qo'llab ko'rish mumkin bo'lgan soddaroq tajribalar hamda laboratoriya mashg'ulotlari bilan ko'rsatish imkonini ham hisobga olishi kerak. O'quvchilar shu mavzuga oid qonunlarga mos misollarni mustaqil bilim olishda qiziqib o'qiydigan materiallar bilan boyitish kerak.

Xulosa va taklif

Darslar interfaollilik natijasini berishi uchun dars davomida va darsdan tashqari mustaqil ta'limga (o'z-o'zini bilimli qilishga) fan o'qituvchilari katta ahamiyat berib, har xil ma'lumotlar, manbalardan oqilona foydalanish va shu

bilan birga mukammal modellar va rasmlardan foydalana bilish yo'llari – yo'riqlari ko'rsatib borilsa, ustozlar va o'rgatuvchi trenerlar tomonidan kreativ yondoshilsa maqsadga muvofiq bo'ladi edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.:1997.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 20-iyundagi "Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlanishni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-381-son Qarori.
3. S.S. G'ulomov, Sh.A.Ayupov, A.X.Abdullayev "Ta'lim tizimiga AKTning keng joriy etishdagi strategik va ustuvor yunalishlari" Ta'lim va tarbiya, 2003, №1-2, 5-9 bet.
4. J.O'.Muxammadiyev "Matematika va informatika o'qitish metodikasi" kursidan o'quv– metodik majmua, Toshkent. 2019.
5. K.T.Olimov, L.P.Uzokova va boshkalar. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent, "Fan" 2009.

O‘ZBEKISTON VA FINLANDIYA MUSIQA TA’LIMINI O‘QITISHNING QIYOSIY TAHLILI

J.R.Axrorov¹

Sh.N Omanqulova² 1.2. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Omanqulova Sh.N.
Musiq ta'lim
kafedrasi dotsenti,
O‘zbekiston-
Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand,
O‘zbekiston
shohida.omanqulova@mail.ru

Axrorov J.R.
“Musiq ta'lim va
san'at” yo'nalishi
magistranti,
O‘zbekiston-
Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand,
O‘zbekiston
axrorovjamshe023@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Finlandiya va O‘zbekiston musiqa ta’lim tizimi haqida umumiy ma’lumot berilgan bo‘lib, bunda ikkala davlatning musiqa ta’limini o‘qitish tizimi, tuzilishi, farqlari va natijalarning samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Finlandiya musiqa ta’lim tizimida mavjud metodlarning samarali tomonlarini o‘zlashtirgan holda, umumta’lim maktablarida mumtoz musiqa san’atini o‘rgatish orqali yoshlarimizni milliy qadriyatlar va an’analarimiz ruhida tarbiyalashning usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Finlandiya, musiqa ta’limini o‘qitish tizimi, bolalar musiqa maktablari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa mashg‘ulotlari, umumta’lim maktablar, musiqiy kompetensiyalar, o‘zbek mumtoz musiqasini o‘rgatish, pedagogik faoliyat, musiqa o‘qituvchisi.

Аннотация: В статье представлены общие сведения о системе музыкального образования Финляндии и Узбекистана, в которых широко обсуждаются система, структура, различия и эффективность результатов музыкального образования в обеих странах. Путем принятия эффективных аспектов существующей методологии в финской системе музыкального образования подробно объясняется значение воспитания нашей молодежи с осознанием наших национальных ценностей и традиций через нашу классическую музыку в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: Узбекистан, Финляндия, система музыкального образования, детские музыкальные школы, музыкальные классы дошкольных образовательных организаций, общеобразовательные школы, музыкальные компетенции, преподавание узбекской классической музыки, педагогическая деятельность, учитель музыки.

Abstract: The article provides general information about the music education system of Finland and Uzbekistan, in which the system, structure, differences and effectiveness of the results of music education in both countries are widely discussed. By adopting the effective aspects of the existing methodology in the Finnish music education system, the meaning of educating our young people with awareness of our national values and traditions through our classical music in general education schools is explained in detail.

Key words: Uzbekistan, Finland, system of music education, children’s music schools, music classes of preschool educational organizations, comprehensive schools, musical competences, teaching of Uzbek classical music, pedagogical activity, music teacher.

Kirish

Jahonda ilm-fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan rivojlanishi, insoniyatning ma’naviy dunyoqarashining rivojlanishiga, sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur jarayonda har bir soha zamonlar osha charxlanib, mukammallashib, yangidan-yangi ijobiy munosabatlar negizida boyib, o‘z

samarasini namoyon etmoqda. Buning pirovardida har bir jamiyat o'zining rivojlanish yo'lida bosib o'tgan tarixi, shakllangan madaniyatini, ijtimoiy hayotini o'rganish, uni targ'ib qilish va butun dunyoga tanittirish maqsadida turli ilmiy tadqiqotlarini va madaniy tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bunday maqsadlarga erishish yo'lida musiqa san'atining roli juda katta hisoblanadi. Chunki har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, musiqa sohasi orqali o'tmishdagi qadriyatlardan tortib, to zamonaviy shakllanayotgan mafkurasini faqat ohanglarda muhrlangan betakror asarlardan anglash mumkin. Bilamizki, musiqa san'ati rivojlangan mamlakatlarda boy madaniy meroslarning biri hisoblanib, ardoqlab kelinadi. Buning sabablaridan biri sifatida, tarbiyaviy ahamiyati kuchliligida deb qaraladi. Musiqa san'ati orqali tarbiyalash, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri hisoblanib, insonni atrofda go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni go'zallik olamiga olib kiradi va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun aytish mumkinki, musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda albatta, musiqa o'qituvchilarning roli juda katta. Shu sabab bugungi kunda jahonda musiqa o'qituvchilarni o'qitishning yangi metod va imkoniyatlarni yaratish haqida chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [4].

Tahlil va natijalar

Hozirgi kunda jahonda eng ilg'or rivojlangan ta'lim tizimiga ega Finlandiyada ham musiqa ta'limi alohida mavqiyega ega. Chunki Finlandiyada hukumat musiqa ta'limini fuqarolarining yoshligidanoq institutsional yo'lga qo'yib, katta miqyosda musiqani jamiyat hayotining muhim qismiga aylantirgan. Finlar uchun bu jarayon bolalar bog'chasida boshlanadi. Yetti yoshida rasmiy ta'limni boshlashdan oldin ham Finlandiya bolalari hayotining dastlabki yillarini bolalar bog'chasida o'tkazadilar va ular musiqaning ko'p qirrali olami bilan tanishadilar. Finlandiyaning yuqori sifatli bolalar bog'chalarida musiqiy mashg'ulotlar, bolalar ishtirok etadigan asosiy mashg'ulotlardan biridir. Shuning uchun musiqa finlandiyalik kichkintoy uchun hayotining boshidanoq tanish bo'lgan omildir.

Finlandiyada bolalar bog'chalaridan tashqari musiqa maktablari ham mavjud. Ular bolalar bog'chasi emas, ya'ni ular hech qanday asosiy bola parvarishini ta'minlamaydi. Ular bolalarga musiqiy-nazariy asoslarini, qo'shiq aytishni, cholg'u asboblarini chalish va musiqa tinglashni o'rgatadigan muassasalardir. Asosiy darslar yosh o'quvchilarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan. Sinfda ular qanday qilib do'stlik munosabatlarini shakllantirishni o'rganadilar va o'zlariga bo'lgan ishonchni oshiradilar. Buning ustiga mazkur jarayon orqali ular o'zlarining imkoniyat va qobiliyatlarini yaxshiroq anglab borishadi [2].

Maktabgacha ta'limdan so'ng musiqa 1-sinfidan 9-sinfgacha yetti yoshdan boshlab barcha bolalar uchun majburiy fan hisoblanadi.

Bugungi kunda Finlandiyada umumta'lim maktablarida musiqa bo'yicha o'quv dasturi estrada janriga asoslangan. Ilgari musiqa darslari "qo'shiq darslari" deb atalar edi, lekin bu atama rasman olib tashlandi va vokal musiqa bilan bir

qatorida cholg'u musiqasi, zamonaviy elektron musiqa asboblari, kompyuter dasturlari, musiqiy ijroni tinglash, jismoniy ifoda va ijodiy ishning turli shakllariga ham katta ahamiyat beriladi. Haftalik soatlar soni maktabga bog'liq. 1-6-sinflarda minimal vaqt jami 6 hafta-soatni, ya'ni yiliga haftasiga 1 soatni tashkil etadi. Maktablar har qanday fan bo'yicha haftalik soatlar sonini ma'lum chegaralar ichida mustaqil ravishda hal qiladilar. 3-sinfdan boshlanadigan musiqa darslarida odatda haftasiga 4 soat musiqa darsi beriladi. 7-9-sinflarda odatda atigi 1 haftalik majburiy musiqa o'rgatib, asosan yettinchi sinfdan o'qiladi, shundan so'ng musiqa tanlov predmetiga aylanadi [5].

Birinchi va to'rtinchi sinfgacha o'quvchining musiqiy ifodasini raqs va o'yin bilan integratsiyalashgan faoliyat orqali rivojlantirish asosiy o'rin tutadi. Ko'rsatma o'quvchilarga turli xil tovush olamlari va musiqalari bilan tajriba berish va ularni o'z fikrlarini ifoda etishga va o'z g'oyalariga haqiqiy shakl berishga undashi kerak.

Beshinchi-to'qqizinchi sinflarda musiqa o'rgatish jarayonida musiqa olami va musiqiy kechinmalar tahlil qilinadi, o'quvchilar musiqa tinglash va ijro etish bilan birgalikda musiqiy tushunchalar va nota yozuvlaridan foydalanishni o'rganib, ular quyidagi kompetensiyalarga ega bo'ladilar:

- jamoaviy qo'shiq kuylashda qatnashish va kuy chizig'iga rioya qilib, to'g'ri ritm bilan kuylashni bilish;
- ansamblda ijro qila olish uchun individual ravishda qandaydir ritmik, ohang yoki garmonik ijro texnikasini egallash;
- musiqa tinglash va u haqida mulohaza yuritishni bilish, eshitganlari haqida asosli fikrlarni bildirish;
- boshqalar bilan birgalikda musiqa yaratish uchun o'z musiqasini ham, boshqalar tomonidan yaratilgan musiqani ham tinglashni bilish;
- musiqaning turli janrlari va turli davrlar va madaniyatlar musiqasini tan olish va farqlashni bilish;
- eng muhim fin musiqasi va musiqiy hayotini bilish;
- musiqa yaratish va tinglash bilan bog'liq holda musiqiy tushunchalardan foydalanishni bilish;
- musiqiy g'oya va fikrlarini rivojlantirish va amalga oshirishda musiqa elementlaridan foydalanishni bilish [3].

Finlandiya musiqa maktablari uyushmasi (Suomen Musiikkioppilaitosten Liitto) ma'lumotlariga ko'ra, Finlandiyada 190 ga yaqin maktab va muassasalar musiqa ta'limi beradi. Ulardan 89 nafari asosiy san'at ta'limi to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadigan milliy o'quv dasturi asosida davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Assotsiatsiya 97 a'zodan iborat. Ulardan 86 tasi musiqa instituti, 11 tasi konservatoriyalardir. Musiqa ta'lim yo'nalishida jami 67 ming nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lsa, ularning 64 foizini qizlar tashkil etadi [5].

Finlandiyadagi musiqa ta'limi tizimi o'quvchilarni standartlashtirilgan, ishlashga asoslangan o'lchov mezonlari asosida tartiblamaydi. Bu ancha katta maqsadga xizmat qiladi. Uning asosiy maqsadi yosh o'quvchilarni musiqaga ijobiy, umrbod ishtiyoqni rivojlantirishga ilhomlantiradigan qulay sharoitlarni yaratishdir.

Sodda qilib aytganda, ta'lim tizimi o'quvchilarni musiqaga mehr qo'yishga va bu muhabbatni butun umri davomida tarbiyalashga mo'ljallangan. Bu ko'proq

musiqani fuqarolar hayotidagi doimiy ajralmas vositaga aylantirishga urinish kabidir. Musiqa ta'limida ham tenglik tamoyili amal qiladi.

Finlandiyaning maktab ta'limi tizimi 70-yillarda jiddiy islohotlar boshlanishidan oldin ishlab chiqilgan edi. Islohotlarning bir qismi sifatida Finlandiya kapitalga katta ustunlik berdi. Ta'lim kontekstida tenglik qayerda yashashidan, ota-onasining iqtisodiy ahvolidan va qaysi maktabda o'qishidan qat'i nazar, barcha bolalar uchun yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlashni anglatadi [4].

Xususan, yurtimizda ham musiqa ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, umummilliy qadriyatlarimiz asosida o'zlikni anglashni o'rgatish va ta'lim-tarbiya berish ustuvor vazifalarimizdan biri sifatida qaralmoqda. Bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish yo'lida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son Qarorida umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarining kamida bitta milliy musiqa cholg'usini ijro eta olganlik to'g'risidagi bahoni shahodatnomaga kiritish, musiqa o'qituvchilarining kamida uchta milliy musiqa cholg'usini bilishi, maktablarda havaskor ansambillarning tashkil etilishi, yangi darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish, talabga javob bera oladigan malakali kadrlarni tayyorlash masalalari nazarda tutilgan. Tabiiyki, bunday imkoniyatlarning yaratilishi natijasida talaba-yoshlarning mumtoz musiqamiz haqida tushunchalarining kengayib borishiga xizmat qiladi. Kelajagi buyuk davlatni qurish uchun eng avvalo ma'naviy kamol topgan insonlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega [6].

O'zbekistonda musiqa ta'lim tizimi quyidagicha shakllangan:

3-6 yosh: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – musiqa va san'at bo'yicha ilk umumiy tushunchalar beriladi, tasavvurlar shakllantiriladi. Bolalarga musiqiy qiziqishlar uyg'otiladi.

7-14 yosh: Umumta'lim maktablari 1-7- sinflarda o'quvchilarga musiqa va san'at bo'yicha umumiy tushunchalar beriladi, musiqiy madaniyat asoslari shakllantiriladi. "Bolalar musiqa va san'at maktab"lari - tanlangan mutaxassisliklar bo'yicha maxsus boshlang'ich musiqa va san'at ta'limi bo'yicha asosiy mahorat, zahira bilim va amaliy ko'nikmalarni tizimli rivojlanishini ta'minlaydi.

15-17 yosh: Maqom yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar – milliy musiqa – maqom san'ati yo'nalishi bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlar berilib, oliygohlarda o'qishni davom ettirishga tayyorlaydi. Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseylari – musiqa va san'at yo'nalishi bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlar berilib, oliygohlarga o'qishini davom ettirishga tayyorlaydi.

18-22 yosh: 1. O'zbekiston davlat Konservatoriyasi – musiqa yo'nalishlari bo'yicha bakalavr va magistr darajasidagi mutaxassislar tayyorlanadi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti – teatr va kino san'ati, aktyorlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha bakalavr hamda magistr darajasidagi mutaxassislar tayyorlanadi. Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqa san'ati instituti – milliy musiqa va an'anaviy san'ati yo'nalishida bakalavr hamda magistrlar tayyorlanadi. Milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi – xoreografiya va raqs san'ati yo'nalishi bo'yicha bakalavr hamda magistr darajasidagi mutaxassislar tayyorlanadi.

Respublika viloyatlari universitetlarning san'atshunoslik fakultetlari – musiqa va tasviriy san'at, badiiy grafika yo'nalishida san'atshunoslik, ijrochilik va san'at pedagogikasi sohalarida bakalavr hamda magistrlar tayyorlanadi.

2022-2024-yillar davomida 10130 ta maktab, 323 ta bolalar musiqa maktabi, 826 ta madaniyat markazi 7 turdagi milliy cholg'ular bilan 3 to'plamda ta'minlanadi. Buning uchun respublika va mahalliy budjetlardan teng ulushlarda jami 205 mlrd so'm ajratiladi. Bundan tashqari, o'quvchilar uchun milliy musiqa cholg'ulari, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yo'nalishlarida amaliy to'garaklar tashkil etish uchun 2022-yilning o'zida 92 mlrd so'm mablag' ajratiladi. O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan cholg'u asboblari, ovoz kuchaytirgich moslamalari, texnik jihozlar, chiroqlar, maxsus liboslar O'zbekistonga olib kiritilishiga 2025-yilning 25-yanvarigacha bojxona bojidan ozod etiladi. Bulardan ko'zlangan maqsad ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatini kuchaytirish, yosh iste'dodlarni aniqlashdir.

O'zbekistan Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Musiqa predmetiga davlat ta'lim standartini joriy etilishi, milliy, musiqiy merosimizdan foydalanishni hamda xududiy voxalarni san'ati va madaniyati, u yerdagi mahalliy xalq an'analari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ta'lim standart o'zining tuzilishiga va mazmuniga ko'ra, davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi, o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda yangi (1-7) sinflar uchun yangi dastur tuzilgan. Dastur asosida darsliklar metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar esa yaratilmoqda.

Yetti yillik musiqa o'qitish davrida o'quvchilarni go'zallikni his eta oladigan, musiqaga mehr va havas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib quyilgan [3].

Musiqa fanidan bir yilda 2 marta yarim yillik taxminiy – mavzuli ish rejasi va shunga qarab, har bir dars uchun reja - konspekt tuziladi. Yarim yillik ish rejasi boshlang'ich va o'rta sinflar uchun alohida - alohida tuziladi. Bunda o'quvchilarni yoshi (sinfi), ovoz diapazoni, musiqaga qiziqishi va qobiliyati, yil fasllari, bayramlar, yil, chorak dars mavzulari hisobga olinib, yangi dasturdan foydalanib dars strukturasi asosida tuziladi. Musiqa darslari asosan bir haftada bir soat o'tiladi. O'quv yili davomida esa quyidagi tartibda; I chorak 9 soat, II chorak 7 soat, III chorak 10 soat, IV chorak 8 soat. Jami bir yilda 34-35 soat dars o'tiladi. Shuningdek, har bir o'quv yilida 12-14 ta qo'shiq o'rgatiladi, shunga qarab, musiqa savodi va musiqa tinglash jarayonida 12-14 asarlar tinglanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asosan, bir ovozli qo'shiqlari sof unisonda kuylash malakalarini puxta o'zlashtiradi va ayrim hollarda ko'p ovozlikka o'tishga tayyorgarlik ko'riladi.

Ikkinchi sinfnng ikkinchi yarmidan boshlab, ikki ovozlik elementi bor qo'shiqlar kiritilgan. III-IV sinflarda o'quvchilarni ovoz apparatlari shakllangan bo'ladi, ikki ovozli qo'shiqlarni kuylash, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Shunga ko'ra oddiydan murakkabga printsipti asosida musiqaviy asarlar tanlanadi. Boshlang'ich sinfdan dars strukturasi beshta faoliyat turidan iborat bo'ladi:

1. Xor bo‘lib kuylash; 2. Musiqa savodi; 3. Musiqa tinglash; 4. Musiqa harakteriga mos harakatlar bajarish; 5. Bolalar cholg‘u asboblardan jo‘r bo‘lish.

O‘rta (V-VII) sinflarda esa, dars faoliyati bir muncha kamayadi. Chunki, o‘rta sinf o‘quvchilari ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Dars mazmuni chuqurlashib, o‘quvchilar bilim va malakalarini kengayishiga xizmat qiladi. Musiqa darsi uchta faoliyat asosida olib boriladi:

1. Xor bo‘lib kuylash; 2. Musiqa savodi; 3. Musiqa tinglash.

Bunda bolalarning ovoz apparatlari shakllangan musiqiy qobiliyatlari rivojlangan, musiqaning tuzilishi, shakli musiqi ifoda vositalari haqida bilimga ega bo‘ladilar va musiqi tinglash qobiliyati rivojlangan bo‘ladi. O‘rta sinfdagi o‘quvchilar uchun (V-VII sinf) musiqi dasturi asosida darslar rejalashtirib, ikki ovozli, ovoz mashqlari, ikki ovozli qo‘shiq, musiqi savodi va musiqi tinglashdan, shunga qarab murakkabroq asarlar tinglanadi. Har bir faoliyat bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, dars mazmunini, ya‘ni bir butunlikni ta‘minlaydi. Chorak mavzulari, yil mavzulariga bo‘ysunadi.

Mazkur jarayon orqali o‘quvchilarga qo‘shiq kuylash bilan birga, ularni ko‘proq fikr bildirish, baxsga tortish va amaliy faoliyatiga ko‘proq jalb etish va odilona baholash malakasi shakllanadi. Yurtimizda musiqi darslari yangi dastur asosida rejalashtirilib, o‘quvchilarda milliy musiqamizga mehr-muhabbat va qiziqish uyg‘otishi uchun alohida ahamiyat berilmoqda.

Xulosa va takliflar

Keltirib o‘tilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda va Finlandiyada ham o‘ziga xos musiqi ta‘lim tizimi mavjud. O‘zbekiston musiqi ta‘lim tizimi o‘ziga xos tarzda rivojlanib bormoqda, lekin Finlandiya ta‘lim tizimi dunyoda eng ilg‘or rivojlangan tizimlardan biriligini hisobga olib va undan bizga samarali bo‘ladigan tomonlarini o‘zimizga singdirb olsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston musiqi ta‘limi tizimiga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- musiqi darslari orqali o‘quvchilarni kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, do‘stlik munosabatlarini shakllantirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, imkoniyat va qobiliyatlarini yaxshiroq anglay olish;

- musiqi maktablarida bolalar qatnovini keng tarmoqda tashkil etish va musiqi maktablarini musiqi institutlar va konservatoriyalar bilan hamkorlikda ishlashi;

- umumta‘lim maktablarida vokal musiqi bilan bir qatorda cholg‘u musiqasi, zamonaviy elektron musiqi asboblari, kompyuter dasturlari, musiqiy ijroni tinglash, jismoniy ifoda va ijodiy ishning turli shakllariga ham katta ahamiyat berilishi;

- maktablar har qanday fan bo‘yicha haftalik soatlar sonini ma‘lum chegaralar ichida mustaqil ravishda hal qilishi;

- 3-sinfdan boshlanadigan musiqi darslarida odatda haftasiga 4 soat musiqi darsi berilishi va 7-9-sinflarda ham 1 haftalik majburiy musiqi o‘rgatish va shundan so‘ng musiqi tanlov predmetiga aylanishi;

- musiqa ta'limi tizimi o'quvchilarni standartlashtirilgan, ishlashga asoslangan o'lchov mezonlari asosida tartiblanmasligi;
- ta'lim kontekstida tenglik qayerda yashashidan, ota-onasining iqtisodiy ahvolidan va qaysi maktabda o'qishidan qat'iy nazar, barcha bolalar uchun yuqori sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlanishi;
- tenglik tamoyiliga asoslanib, bolalarga baholar qo'ymaslik va bu orqali kim o'zarni jarayonini yo'qotib, jamoaviy rivojlanishni shakllantirish.

Yuqorida keltirib o'tilgan takliflar orqali musiqa ta'lim tizimimizga milliy madaniy merosimiz hisoblanmish mumtoz musiqamizni umumta'lim maktabi o'quvchilariga singdirishga urg'u bersak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mumtoz musiqamiz bilan yuritiluvchi ashulalar va milliy cholg'u ijrochiligi namunalari salmoqli mavqeyiga ega bo'lib, musiqa ta'limi va tarbiyasi mazmunida ulardan o'z o'rnida va aniq pedagogik maqsadlarda foydalanish o'sib kelayotgan yosh-avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyashda benazr manba bo'lib xizmat qiladi. Mumtoz musiqamiz va uning ayrim turlari, ijrochilik yo'nalishlari vositasida estetik, ma'naviy, badiiy did, axloqiy fazilatlarini tarbiyalash masalalari respublikamizda bajarilgan qator ilmiy-tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan.

Mumtoz musiqamiz orqali milliy o'zlikni anglash, shu asnoda milliy qadriyatlarimizni tiklash, yuksaltirish, amaliyotda keng joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda musiqa san'atida yangi e'tiborga molik ishlar amalga oshirilishi munosabati bilan yosh avlodga milliy mumtoz musiqamiz asosida ta'lim-tarbiya berish uchun muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonni samarali rivojlantirishda esa bo'lajak musiqa o'qituvchilarning kompetensiyalarini keng ko'lamli rivojlantirish va zarur shart-sharoitlar yaratish bugungi kunning dolzarb ahamiyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son Qarori.
3. Sharipova G., Asamova D., Xodjayeva Z. Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari. – T., 2014, 24-25 b.
4. Axrorov J. San'at, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovasiyalar uyg'unligi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilariga o'zbek mumtoz ashulalarini o'rgatishning metodik imkoniyatlari. – T., 2023, 208-211 b.
5. medium.com
6. <http://menet.mdw.ac.at>

MUSIQIY-NAZARIY BILIMLARNI O‘ZLASHTIRISHDA ASARLARNI TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI

M.Z.Eshmurodov¹ 1. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Eshmurodov M.Z.
Musiqqa ta’limi
jo’rnavozi, O‘zbekiston-
Finlandiya pedagogika
instituti, Samarqand,
O‘zbekiston
muhriddin22707@mail.ru
[u](#)

Annotatsiya: Umumta’lim maktablarining “Musiqqa madaniyati” darslarida o‘quvchilarni umummusiqiy madaniyatini shakllantirish juda ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, bu o‘rinda musiqqa tinglash, qo‘shiq kuylash, nazariy savodxonlik (nazariy ma’lumotlarni egallash) asosiy o‘rinni egallaydi. Shu ma’nodan ushbu omillar ichidagi musiqqa tinglash faoliyatida esa deyarli barcha faoliyatlarda olib boriladigan o‘quv tarbiyaviy ishlar o‘z ifodasini topadi. Ushbu maqolada musiqqa tinglash va tahlil qilish orqali o‘quvchilarga musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda asarlarni tahlil qilishning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: maktab, musiqqa madaniyati, dars, o‘quvchi, musiqiy omillar, musiqqa tinglash, qo‘shiq kuylash, nazariy savodxonlik, faoliyat turlari, o‘quv tarbiyaviy ishlar, asarlarni tahlil.

Аннотация: Формирование общей музыкальной культуры учащихся классов «Музыкальная культура» общеобразовательных школ зависит от многих факторов, среди которых главное место занимает слушание музыки, пение, теоретическая грамотность (овладение теоретической информацией). В этом смысле деятельность по прослушиванию музыки в рамках этих факторов выражается практически во всех видах деятельности. В данной статье широко освещено значение анализа произведений в приобретении музыкально-теоретических знаний учащихся путем прослушивания и анализа музыки.

Ключевые слова: школа, музыкальная культура, урок, ученик, музыкальные факторы, слушание музыки, пение, теоретическая грамотность, виды деятельности, воспитательная работа, анализ произведений.

Abstract: Formation of general musical culture of students in "Music culture" classes of secondary schools depends on many factors, including listening to music, singing, theoretical literacy (acquiring theoretical information). takes the main place. In this sense, the activities of listening to music within these factors are expressed in almost all activities. In this article, the importance of the analysis of works in the acquisition of music-theoretical knowledge for students by listening and analyzing music is widely explained

Keywords: school, music culture, lesson, student, musical factors, listening to music, singing, theoretical literacy, types of activities, educational work, analysis of works.

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub o‘zgarish va yangilanishlar samarasi kelajagimiz bunyodkorlari bo‘lishi yoshlarga yuksak ma’naviy, mustaqil fikrlovchi, Vatan istiqboli uchun ma’suliyat kabi oliyanob fazilatlarni tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Yosh avlod tarbiyasiga e’tibor, ayniqsa, ta’limning dastlabki bo‘g‘inlaridan boshlab birinchi navbatda xalqimiz madaniyati, tarixi, san’ati, adabiyoti, tili va milliy qadiryatlarga muhabbat, ularni qadrlay oladigan, qalban his qiladigan,

kelgusida rivojlantira oladigan ma'naviy yetuk, intellectual salohiyatli shaxslar sifatida kamolga yetkazishga ustuvor ahamiyat berilayotganligi bejiz emas[2].

Umumta'lim maktablarining "Musiqqa madaniyati" darslarida o'quvchilarni umummusiqiy madaniyatini shakllantirish juda ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu o'rinda musiqqa tinglash, qo'shiq kuylash, nazariy savodxonlik (nazariy ma'lumotlarni egallash) asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu omillar ichidagi musiqqa tinglash faoliyatida esa deyarli barcha faoliyatlarda olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlar o'z ifodasini topadi, desak xato bo'lmaydi. Chunki, o'rganilayotgan qo'shiq ham avval tinglanadi va u haqidagi ma'lumotlar musiqqa tinglash va tahlil qilish orqali o'quvchilarga yetkaziladi. Shu jarayonda bevosita nazariy ma'lumotlarga ham tushuncha va tavsiflar berib boriladi.

Umumta'lim maktablaridagi musiqqa madaniyati darslarini kuzatish va pedagogik tahlillar ko'plab o'qituvchilarni darslarni "Davlat ta'lim standarti" va fan dasturi talab va me'zon darajasida o'tmayotganliklarini, darslarni metodik va pedagogik nuqtai-nazardan tog'ri tashkil etishmayotganligi (ko'p hollarda faqat qo'shiq kuylash faoliyati bilan cheklanib qolayotganligi)ni ko'rsatadi. O'quvchilarning nazariy savodxon, amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish vazifalari esa, eng avvalo, musiqani to'kaqonli idrok eta oladigan, turli janr va uslubdagi musiqqa asarlarini tahlil qilish bilan unga o'z munosabatini bildira oladigan, baholay oladigan (musiqiy-badiiy did), asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini tushunib kuylay va ijro eta oladigan darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

Musiqqa fan sifatida o'qitiladigan ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga nisbatan umumta'lim maktablaridagi musiqqa ta'limi o'zining tashkiliy, metodik hamda mazmun-mohiyati (predmeti) bilan boshqa fanlarni o'qitilishidan jiddiy farq qiladi.

Bu o'ziga xoslik musiqqa darsini eng avvalo bir biriga mantiqiy bog'liq, darsning bosh mavzusi maqsad va vazifalarini yoritishga yo'naltirilgan beshta faoliyatlar asosida tashkil etilishida o'z ifodasini topadi. Bu faoliyatlar pedagogik maqsad, vazifalari, uyushtirilishiga ko'ra aslida darsning bosh mavzusining mazmuni va mohiyatini ochib berishga qaratilganligi bilan darsni sifat va samaradorligini ta'minlash, qiziqarli va mazmunli kechishi, provardida o'quvchilarning musiqqa madaniyatini shakllanishiga xizmat qiladi. Dars davomida olib boriladigan ta'limiy faoliyatlar mustaqil jarayonlar ko'rinishida bo'lishi bilan birga, ularni bir biri bilan uzviy aloqadorlikda olib borish ushbu fanni o'qitilishining o'ziga xos qonuniyatlaridan kelib chiqadi [3]. Musiqqa darslaridagi qo'shiq kuylash, musiqqa savodi, musiqqa tinglash boshlang'ich sinflarda qo'shimcha ravishdagi musiqqa ritmik jo'r bo'lish hamda bolalar cholg'u asboblari ijro etish o'quvchilar tomonidan musiqiy nazariy bilimlarni, amaliy ijrochilik bilan bog'liq ko'nikma malakalarini, bilimlarni qiziqish va ishtiyok bilan puxta o'zlashtirishga keng imkoniyat yaratadi.

Darsning mazmuni, mavzusi va xususiyatidan kelib chiqqan holda biror bir faoliyat asosiy o'ringa chiqib qolishi ham mumkin. Lekin, darsning tuzulishi asosan, mavzuga oid nazariy bilim, amaliy ijrochilik bilan belgilanadi. O'quvchilar dars davomida biror musiqqa asarini tinglashadi.

Ushbu jarayonda ular musiqaning g'oyaviy-badiiy mazmuni, mualliflari, yaratilgan davri, ijro uslubi, qaysi mahalliy uslubga xosligi, kompozitori, bastakorlik ijodi mahsuli ekanligi, janri, tonalnosti, o'lchovi, shakli kabi ma'lumotlar bilan tanishadilar. Bu esa, o'quvchilarni umummusiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Darsning amaliy ijrochilik, ya'ni qo'shiq kuylash (xor bo'lib) jarayonida, o'quvchilarni vokal-xor kuylash malakalarini egallashlari uchun nota yozuvi, dinamik belgilar, dirijorlik qoidalaridan xabardor bo'lishlari zarur. Musiqa savodi faoliyatida dastur va darslikka kiritilgan nazariy bilimlar o'quvchilarni musiqa fani bo'yicha zarur bilim, ko'nikla, malakalarni, bir so'z bilan aytganda musiqa madaniyatini yaxlit holda egallashlarini ta'minlaydi.

Musiqa darslarini aytib o'tilgan faoliyatlar doirasida tashkil etishini biz bir darsning tuzilishi misolida ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

Dars mavzusi: Musiqaning ifoda vositalari.

Darsning turi: Amaliy, fanlararo bog'liqlik.

Ta'limiy maqsad: Musiqaning ifoda vositalari haqida tushuncha berish, ovoz sozlovchi mashqlar bajarish, yangi qo'shiq o'rgatish, *musiqiy asar tinglash, tahlil qilish, oldingi o'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.*

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarning musiqiy idroki, didi, dunyoqarashi va musiqiy madaniyatini shakllantirish, musiqa asarlarini idrok etish va ular haqida bilishga qiziqish uyg'otish, tinglash va o'rganilgan qo'shiq, g'oyaviy-badiiy mazmuni vositasida axloqiy fazilatlarini shakllantirish.

Ta'lim vositalari: Konspekt, nota yozuvlari, darslik, qo'shiqlar to'plami, video, audio yozuvlar, cholg'u asboblari.

Darsning tashkiliy qismi:

1. Sinfni uyushtirish;
 - musiqiy kirish;
 - yo'qlama qilish;
 - dars mavzusini e'lon qilish;
2. Darsning borishi:
 - amaliy ishlar;
 - ovoz sozlash mashqlari;
 - oldingi mavzuni mustahkamlash;
 - notaga qarab kuylash;
3. Yangi materiallarni o'rganish:
 - o'rganilgan qo'shiqni e'lon qilish;
 - qo'shiq haqida qisqacha suhbat;
4. Musiqa savodiga oid bilimlarni o'zlashtirish;
5. Musiqa tinglash, tahlil qilish.
6. Bolalar musiqa cholg'ularda jo'r bo'lish va ritmik harakatlar bajarish.
7. Ijod vazifalar: mustaqil tarzda kuyga jo'r bo'lish uchun qaysi chog'u mosligini aniqlash, unga tavsif berish, janrni aniqlash.
8. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.
9. Uyga vazifa berish: qo'shiq matnini yodlash, musiqaning ifoda vositalariga misollar yozib kelish.

Ko'rinib turibdiki, birgina dars davomida bajariladigan ta'limiy ishlar ko'lami ancha keng, buning uchun o'qituvchi vaqt me'yorini hisobga olishi va ulardan unumli foydalanishi muhim rol o'ynaydi.

Musiqqa darsini shu tarzda, ya'ni faoliyatlar uyg'unligida tashkil qilish o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarni va amaliy ijrochilik malakalarini egallashlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bois musiqqa o'qituvchisi musiqqa darsini tashkiliy-pedagogik xususiyatlari va dars o'tishi metodikasini puxta egallagan bo'lishi talab etiladi.

Endi musiqiy faoliyatlar (asosiy faoliyatlar) ga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1. O'qituvchilarning musiqiy-nazariy bilimlar tizimida musiqqa tinglashni yetakchi faoliyat sifatida baholash o'rinli bo'ladi. Musiqqa madaniyatini egallash, dunyo mudiqqa san'ati durdonalari, milliy xalq musiqqa me'rosi, zamonaviy janrlarda yaratilgan asarlar bilan tanishish, shu jarayonda musiqiy-nazariy bilimlarni egallash, (nota yozuvi, ifoda vositalari), o'quvchilarda musiqqa qiziqish uyg'otish musiqani tinglash va tahlil qilish orqali kechadi. "Musiqani sevish, undan badiiy-estetik zavq olish uni tinglash kerak", - degan edi, rus kompozitori D.Shostakovich. Vatan, do'stlik haqida, mehnat va jismoniy hamda amaliy faoliyatlar mavzusidagi asarlarni tinglash o'quvchilarga ijobiy ta'sir qiladi. O'quvchi tinlangan musiqqa yoki san'at asari haqida birorta savol bermasa, unda biror hissiyot vujudga kelmasa, shaxsiy hissiyot va munosabat bilan bog'lanmagan xabar tarzidagi aloqagina paydo bo'lsa, demak, vazifa bajarilmagan maqsadga erishilmagan hisoblanadi.

Asarni bilishning ikkinchi bosqichida o'quvchi asar haqidagi o'z fikrini aytishi, uning g'oyaviy-badiiy mazmuniga baho berishi, asarning xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish kerak. Bunda musiqqa nazariyasi, tarixi, musiqqa asarini tahlil, vokal-xor, cholg'ushunoslik, ona-tili va adabiyoti, mualliflar haqidagi bilimlar mujassamlashadi. Musiqqa tinglagandan so'ng o'quvchilar ijroning yakkanavozlik, jo'mavozlik, chog'u so'zlari, ularni ovoz tembridan ajrata olishlari kerak bo'ladi. Bu jarayonda ularning estetik madaniyati, badiiy-musiqiy didi va tafakkuri rivojlanadi.

O'quvchilarning musiqani qabul qilish malakalarini shakllantirish, uning ifodaviy "tili"ni tushunish, har bir o'quvchining o'z sevimli musiqiy asarlari doirasini paydo qilish, ularda musiqiy asarlarning mualliflariga nisbatan hurmat hissini uyg'utishi, mumtoz va maqom musiqalariga nisbatan qiziqishini kuchaytirish muhim vazifalardandir.

Musiqiy ta'limning boshlang'ich bosqichida musiqqa tinglashga qo'yiladigan asosiy vazifalar ikkita yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. Har xil mazmun va janrdagi asarlar bilan tanishish, musiqiy zahira to'plash.

2. Musiqiy termin va tushunchalarni (nazariy bilimlarni) egallash.

Ma'lumki, o'quvchilar oilada jamoatchilik joylarida hafta davomida ko'plab musiqqa tinglaydilar. Lekin haftasida bir marta o'tiladigan bir soatlik dars davomidagi tinglangan musiqaning pedagogik maqsadga yo'naltirilganligi, asar tinglagandan so'ng u haqidagi ma'lumotlar, musiqiy tahlil uni ongli ravishda idrok etishga olib keladi.

2. Jamoa (xor) bo‘lib kuylash o‘quvchilarni qo‘shiq kuylashga o‘rgatish, musiqiy tarbiyaning eng muhim maqsadi va vazifasidir. Jamoa bo‘lib qo‘shiq kuylash o‘quvchilarni badiiy-estetik kamolotida katta rol o‘ynaydi. Birinchidan, qo‘shiq muayyan mavzuda yaratilgan bo‘ladi, ikkinchidan ularda inson ruhiyati, kechinmalari o‘z ifodasini topadi. Qo‘shiq mazmunidagi g‘oyaviy-badiiy g‘oyalar o‘quvchilarda hayotni anglash, badiiy tafakkur, dunyoqarashlarini o‘shishga, axloqiy fazilatlarini kamol topishiga ijobiy ta‘sir etadi, ularning tashabbuskorlik, fantaziya, qo‘shiqchilik ovozi, musiqiy xotira, vokal-xor malakalarini o‘stiradi.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirishning qo‘shiq kuylash jarayonida o‘quvchilarga o‘rganilgan (kuylanadigan) qo‘shiq o‘qituvchi ijrosida (yoki musiqiy yozuvda), chog‘u asbobi jo‘rligida eshittiriladi. Bu o‘quvchilarda qo‘shiq haqidagi dastlabki ta‘suratlarni hosil qiladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi tanlangan qo‘shiqning yaratilishi haqida, mualliflari, o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha beradi. Keyin o‘quvchilar bilan birgalikda qo‘shiq janri, shakli, ladi, o‘lchovi aniqlanadi. So‘ngra qo‘shiqni o‘rganishga kirishiladi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlardan ma‘lumki, ijodiyotni shakllantirishning barcha turlariga diqqat, xotira, emotsional ko‘tarinkilik va ijodiy fantaziya xosdir, bularsiz ta‘lim jarayonini ham tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Musiqi darslarining har biri o‘z xususiyatiga ko‘ra takrorlanmas va ma‘lum darajada o‘ziga xos bo‘ladi. Darsning har bir faoliyati, tashkiliy-uslublari, maqsadi vazifalari, erishmoqchi bo‘lingan natijalar avvaldan e‘tiborga olingan bo‘lishi lozim.

3. **Musiqi savodi** – musiqi ta‘limi tizimidagi muhim jarayon hisoblanadi. O‘quvchilar musiqi tinlash, qo‘shiq kuylash ko‘nikma, malakalarni nazariy bilimlar bilan uyg‘un o‘zlashtirgandagina ta‘lim haqiqiy bilim olish maqsadini va mihiyatini ifoda etadi. Nazariy bilimlar faqat nota yozuvi bilan bog‘liq qoidalarni o‘rganishdan iborat bo‘lib qolmay, o‘quvchilarning umumiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi bilimlar majmuasini tashkil etadi. Musiqaning asl mazmuni, mohiyatini tushunib olishga yordam beradi va notaga qarab kuylash malakalarini hosil qilish hamda vokal-xor qobiliyatlarini o‘shishga olib keladi. Ovozlarini aniq talaffuz qilish, hamda tovush hosil qilish, ishlatish, nafas olish, sarflash, ko‘p ovozda kuylash malakalarini shakllantiradi. Musiqi savodini o‘rganishda qo‘yiladigan asosiy metodik talab dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda qo‘shiq kuylash, musiqi tinglash va musiqaga ritmik jo‘r bo‘lishda qo‘llay olishdan iborat. Har bir faoliyat o‘quvchilar kuylayotgan, jo‘r bo‘layotgan yoki tinglayotgan asarlarning qaysi tonlikda yozilganligi, asarning tempi, o‘lchovi va ritmi, shakli, dinamik belgilari kabilarini aniqlashlariga to‘g‘ri. Mana shu jarayonda musiqi savodiga doir bilimlarga tayanib ish tutiladi.

Umuman olganda, musiqi darsida belgilangan pedagogik maqsad va vazifalar, musiqiy faoliyatlar uzviy yaxlitlikda olib borilganda o‘quvchilarda musiqiy-nazariy bilim, tushuncha va zarur ko‘nikma, malakalarni shakllantirish jarayoni samarali kechadi.

Bu jarayonda quyidagi omillar rivojlanadi:

1. Musiqiy qobiliyatlar rivojlanadi;
2. Musiqani idrok etish malakalari o‘shishga erishiladi;
3. Vokal-xor kuylash malakalari rivojlanadi;

4. Musiqani elementar nazariy qoidalari o'rganiladi;

5. Turli janr, uslubdagi, xalq musiqa ijodi (folklor, mumtoz, maqom), zamonaviy (estrada, vokal, xor, ansambl, orkestr, simfonik musiqa, opera, balet) bilan tanishish, ular haqida muayyan tushuncha va tasavvurga ega bo'lishlariga erishiladi.

6. Musiqaga ritmik jo'r bo'lish; unga muvofiq harakatlar qilish bilan ijrochilik qobiliyatlar rivojlanishiga zamin yaratadi.

7. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsida ijodiy tafakkur, umumiy olganda musiqa madaniyati shakllanadi.

8. Musiqiy asarlarning g'oyaviy-badiiy mazmuni vositasida o'quvchi yoshlarda milliy g'oya va mafkuraga mos musiqiy dunyoqarashni shakllantirish, estetik va axloqiy tarbiyani amalga oshirishga erishiladi. Bu esa zamonaviy ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilayotgan talab va vazifalar mazmunini va mohiyatiga xosligi bilan muhimdir.

Pedagogikaning dedaktik prinsiplariga muvofiq har bir darsga ta'lim va tarbiya sistemasining qismi sifatida qarash lozim. Bunda tarbiyaviy vazifalar ta'lim jarayonini to'ldiradigan qandaydir ikkinchi darajali omil hisoblanmasligi kerak. Binobarin, bu ish ta'lim bilan dealektik birlikni tashkil qiladi. G.Neygauz pedagog musiqachining o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishdagi vazifalarini ifodalab shunday yozgan edi: "O'quvchini aqlliroq, sezgirroq, halolroq, adolatliroq qilish amalga oshirsa bo'ladigan, to'la amalga oshirib bo'lmasa ham, davrimiz qonunlaridan, san'taning o'zidan kelib chiqqan holda har doim dealektik jihatdan o'zini oqlagan vazifadir" [4].

Xulosa qilib aytganda, insonning ma'naviy ongi, dunyoqarashini va ruhiy kamolotini shakllantirishda musiqa san'ati o'zining tarbiyaviy kuchi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Buyuk sharq allomalari e'tirof etganlaridek musiqa insonning axloqiy va estetik xususiyatlariga jozibali va betakror ta'sir etish xususiyati bilan pedagogik fanlar tizimida muhim o'rin tutadi. Shu bois ham musiqa ta'limida, xususan, umumiy o'rta maktab ta'limida ushbu fanni o'qitilishi eng avvalo tarbiyaviy maqsadlarni ko'zda tutadi va uning bosh vazifasini belgilaydi¹. Shuni alohida ta'kidlash joizki, respublikamizda amaldagi ta'lim tizimida umumiy o'rta-ta'lim eng muhim shakllantiruvchi bosqich bo'lib, bunda o'qitiladigan barcha fanlar va tarbiyaviy ishlar o'sib kelayotgan yosh avlodni ta'kidlab o'tilgan darajada kamol topishlari va shaxs sifatida shakllanishlarida muhim o'rin tutadi, hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu jihatdan, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "Musiqasi madaniyati" fani oldiga qo'yilgan o'quvchilarni madaniyatli, yuksak ma'naviyatli, milliy g'oya va mafkura ruhida shakllangan, milliy o'zligi, tili, ta'rixi, san'ati milliy qadryatlarini teran angelaydigan va ularni qadrlay oladigan, badiiy va estetik didi rivojlangan shaxslar sifatida tarbiyalashdek keng ko'lamlil vazifalar bugungi kunda ushbu fanni o'qitilishini ham zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-martda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi “Yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida”gi ma’ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus. <https://www.pv.uz/uz/news/>
3. Soipova D. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. –T., 2006.
4. Norxo‘jayev N., Rashidova N., Umidova D. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022.

THE IMPACT OF MODERN TECHNOLOGY ON EDUCATION

M.F.Faxriddinov¹

1. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy texnologiyalarning samaradorligi, ulardan foydalanishning qulayligi va ularning ta'limga ta'siri muhokama qilinadi. Bundan tashqari, u HEMIS dasturini o'qituvchilar va talabalar uchun qanday foyda keltirishini tasvirlaydi. Shuningdek, texnologiya barcha mavjud resurslarni va sinfdan tashqarida o'rganish uchun ko'proq imkoniyatlarni qanday yaratishi masalasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *resurs, kompyuter, dasturiy ta'minot, ta'lim, texnologiya, Moodle platformasi, HEMIS, ma'muriy boshqaruv, o'quv jarayoni, ilmiy faoliyat, statistika.*

Faxriddinov M.F.
Teacher of Uzbek-
Finnish Pedagogical
Institute, Samarkand,
Uzbekistan
faxriddinov.muhammad@mail.ru

Аннотация: В статье обсуждается эффективность и удобство использования современных технологий и их влияние на образование. Кроме того, в ней описывается программа HEMIS и то, как она создает преимущества как для учителей, так и для учащихся. Также обсуждается, как технологии создают все доступные ресурсы и больше возможностей для обучения за пределами классной комнаты.

Ключевые слова: *ресурс, компьютер, программное обеспечение, образование, технология, платформа moodle, HEMIS, административное управление, образовательный процесс, научная деятельность, статистика.*

Abstract: The article discusses the effectiveness and convenience of using modern technologies, and its impact on education. Moreover, it describes the HEMIS program, and how it creates advantages for both teachers and students. It also discusses how technology creates all time available resources and more room for education beyond classroom environment.

Keywords: *resource, computer, software, education, technology, moodle platform, HEMIS, administrative management, educational process, scientific activity, statistics.*

Today, improving the Personnel Training System successful implementation of the Strategy "Digital Uzbekistan — 2030" and the integration of education with technology are among our priority tasks that cannot be avoided [1].

It is obvious that we live in the age of modern technology. A number of new technologies, computers, online platforms, new and modern educational equipment are among them. We are seeing with many proofs that it is not so difficult to understand how useful and effective they are.

In the educational system, as in every field, taking classes in harmony with technology helps to dramatically improve the quality of Education. Through them, each educational person becomes able to fully master and improve the knowledge, skills and abilities that he needs.

The main thing is that they can fully use effective methods of its further improvement, processing and bringing it to the rest of the audience as well. For example, the HEMIS (Higher Education Management Information Systems) Program, one of the new platforms that entered the education system, brought relief to the Old, difficult system by hybridizing the traditional education system in

Uzbekistan with the digital education system [2]. In the system of Higher Education, the digital university project is still underway. Currently, in order to drastically reduce the number of various reports and data received from higher educational institutions in the educational process, abandon the paper form of their preparation, digitalize the management system, within the framework of the Digital University project, an "Information System for managing higher education processes" has been developed. This information system includes information systems" administrative management", "educational process", "scientific activity" and "financial management and statistics". Implementation of the information system of management of higher education processes ensuring transparency in the educational system; automation of Educational, Scientific, administrative and financial processes in it; preventing the occurrence of bureaucratic obstacles in its system and reducing financial costs; reducing the time spent on management processes and increasing labor efficiency; monitoring the effectiveness of the activities of participants in the educational process; optimization and acceleration of the process of formation and decision-making of analytical data, including several goals.

In addition, through the HEMIS program, it is possible to conduct in effective ways of inextricable connection between students and teachers. Students have full access to the information posted by the teacher not only on the territory of the university, but also wherever they want. Tasks that should be evaluated as independent learning can also be placed on the platform. The teacher and the student conduct a dialogue on the direct contactless platform. This will help to further improve the quality of education, to ensure transparency. Technologies in education are associated not only with the use of digital devices. They were also chosen as an additional force to facilitate interaction between the teacher and the student, to increase efficiency, the quality of the educational process.

Digital education creates new educational opportunities. Personalized educational opportunities appear, new models of cooperation appear, a range of innovative and attractive educational strategies for students has expanded. "Technology can become "wings" that allow the world of education to fly longer and faster than ever", says Jenny Arledge, a vocational guidance and technical education (CTE) teacher [3].

Technology allows us to experiment more with pedagogy and get quick feedback. Modern technologies allow students to become active participants in the educational process, and teachers to create new approaches, methods, models of teaching and upbringing. For example, the teacher can conduct an online survey at any stage of the lecture to determine the degree of assimilation of the material being studied, or the student can use links to relevant materials or resources. In addition, students can look for answers to the questions asked, form their own position and then defend it.

Technology helps to ensure the active involvement of students in the educational process. Online survey and other digital tools help to attract all readers, including timid, insecure, who usually don't take the initiative. Online systems allow you to regularly receive feedback, including student feedback on the availability of educational materials and assignments. Data analysis allows the teacher to easily

and quickly identify the difficulties of each child and provide timely assistance, identify places where students can compete, that is, it will be possible to easily recall the work of each student or work in a group. For example, the use of such an active teaching method as a technology quiz can significantly increase its effectiveness. At the beginning of the lesson, the teacher can conduct a quiz using technical means and quickly assess the initial level of students, spending a few minutes on obtaining reliable information and analyzing it. In addition, the teacher can objectively understand where to direct his actions and how to organize the work of students and make adjustments to the organization of the educational process. Holding the same quiz at the end of the lesson will again allow you to spend a minimum of time, get feedback and evaluate the results and success of the study to students.

Technology provides students with easy-to-access information, accelerated learning, and fun opportunities to practice what they learn. As an example, the AutoCAD program is an excellent and popular program that performs with high accuracy and quality when creating any type of schemes and drawings. With the usage of this program drawings are clear, neat. When constructing sections of polyhedrons, one can use the mode records of the sequential build process itself, which allows save time significantly during the lesson [4]. It enables students to explore new subjects and deepen their understanding of difficult concepts, particularly in STEM. Through the use of technology inside and outside the classroom, students can gain 21st-century technical skills necessary for future occupations [6].

In addition, there are many resources for organizing effective student learning activities. There is no shortage of tools that can significantly change the organization of educational activities in Mobile Platform applications and electronic textbooks. Some technical devices use different types of incentives and help absorb information in the learning process, applying competitive scenarios to distribute points and rewards to make the learning process more interesting and attractive. An important condition for the use of such technical means is the achievement of educational goals. Some mobile platforms and electronic textbooks include role-playing games, where students are given the opportunity to convey facts and their evidence, for example, in favor of historical figures or scientific concepts. In addition, gaming technologies help to introduce healthy competition into the learning process. Modern automated training systems help to organize effective educational activities and realistically assess the achievements of each student. One of the advantages of the computer graphics is a mathematical approach to the image [7], which contributes to the development of the intelligence, logical and abstract thinking, ability to visualize an object [5].

Modern technological tools simplify the systematization and selection of individual tasks for students help to monitor their activity of participation in the discussion, etc. Technology helps the teacher automate or use a number of tedious tasks. Automation can make it easier and reduce time to perform routine but time-consuming tasks, such as monitoring the attendance of students and the effectiveness of learning activities, for example. The same method had a great influence on the course process of universities operating on the Moodle system. The Moodle software

platform is widely used in distance education, it allows you to support the active interaction of teachers and students, as well as students with each other-to create and conduct various training courses online, focusing on solving problems together, discussing, sharing knowledge and other types of teamwork. The Moodle training platform is widely used in more than 200 countries around the world, including Uzbekistan.

If the information in textbooks or tutorials can be quickly updated and supplemented, including by the students themselves, the value of the learning process increases. Modern technologies expand communication capabilities and create a more effective learning environment. On the internet, students united in groups can exchange information, work together on group projects and interact with the teacher.

In general, the ability to use technology is an important type of life skills and literacy. Nowadays, having digital literacy is much more effective than having "individual technological skills". Today, there is a lot of talk about a deep understanding of the digital environment, which provides intuitive adaptation to new contexts and, together with other readers, content creation. These include creating presentations, learning to find reliable sources on the internet, supporting the right online etiquette, and more. These are life skills that students can acquire in the learning process, and they will be useful to each child throughout life. Digital literacy not only helps educational organizations to improve the quality of education, but also allows learning outcomes to always remain relevant.

Unfortunately, as is the second side of any coin, modern technology does not have some negative aspects. Technology can distract from the learning process. Studies have shown that smartphones and gadgets still distract children from the learning process. But the teacher's task is to make the learning process interesting, and if students are distracted, then this is not technology and devices, but the teacher's problem. Today, the formation of culture and respect for all participants in the educational process is an urgent task. In addition to limiting the use of gadgets, it is necessary to correctly implement specific tasks, projects, time detection and technology capabilities in the classroom.

Another invisible negative aspect of technology it has a negative impact on the development of students ' communication skills and social interaction.

Many teachers do not like gadgets because they reduce students ' ability to communicate real live. However, if the teacher creates tasks that allow the use of technological means, oral presentations and group cooperation [9], then the children actively interact with each other.

Technology is a tool that significantly increases the quality of the educational process, but it does not arise on its own. A modern teacher should use it wisely, keep it under control and know the advantages.

Another important point is that students do not have equal access to technological resources. Not all students have access to a tablet, laptop, smartphone or even permanent Internet. They may be offered tasks that allow them to work in a group and share resources, as well as the use of libraries or other organizations that can use technology.

The benefits of technology have always outweighed its negative effects. As for the field of education, the key to the introduction of technology in education is always determined by the teacher — student relationship, because this is where education takes place. Technology can be a very effective tool, but it's just a tool. Technology is not intended to replace teacher, on the contrary, the idea is to create a learning environment that allows you to transfer the organization of the educational process from the "theater of one actor" to cooperation and effective educational activities.

Today we are at the first stage of the introduction of technologies in education. The implementation process can offend, annoy someone, take a lot of time and effort, but in the end, technology can "open the doors" for new experiences, discoveries, teaching methods and cooperation between students and teachers.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. 6079, dated 2020, on the approval of the strategy "Digital Uzbekistan-2030" and measures for its effective implementation.
2. Development concept of introducing information communication technologies into the system of the Ministry of Higher Education of the Republic of Uzbekistan, Tashkent, 2013.
3. How teachers use technology to enrich the learning experience. Sara Friedman. THE Journal. 2019.
4. Faxriddinov M.F., Drobchenko N.V. The role and content of technology in the education system. Modern views and research – 2021 International scientific and practical Conference ISBN 978-1-83853-487-5.
5. Faxriddinov M.F., Drobchenko N.V. Using the Corel Draw computer program to develop students' creative abilities through drawing. Multidiscipline proceedings of digital fashion conference-2022. ISSN 2466-0744 Republic of Korea, Seoul.
6. Remediana Dias, Technology-Integrated Learning during COVID. Global educational supplies and solutions.
7. Tikhonova O.A. Computer graphics as a tool for the development of creative and intellectual abilities of students on the basis of information technology.
8. Fakhrriddinov M. Opportunities and prospects for using the Auto cad program in the education system. // Problems of increasing the innovative professional training of future primary school teachers. Collection of scientific articles. - Samarkand: Sam SU, 2019. Pages 152-155.
9. Gubaidullin I.A. The use of information and communication technologies in order to form positive motivation for training on the lesson of fine arts and drawing. <http://www.it-n.ru>.
10. Robert I.V. Modern information technologies in education: didactic problems; prospects of use. – M.: "School-Press", 2008. – 205 p.

TA'LIM MUASSASALARIDA TASHKIL ETILGAN FOLKLOR TO'GARAGINING USLUBIY MASALALARI

U.Hamrayeva¹

1. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada folklor to'garagini tashkil etish va mashg'ulotlar jarayonida olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar mazmuni, shuningdek, o'rganiladigan kuy-qo'shiqlarning yoshlarni milliy qadriyatlarida tarbiyalash imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: to'garak, folklor, kuy-qo'shiqlar, o'quv-tarbiyaviy, milliy qadriyatlar, mavsum, marosim, mehnat, terma.

Hamrayeva U.

Musiqa ta'limi kafedrası
o'qituvchisi,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston
hamrayevaumida02@gmail.com

Аннотация: В статье говорится о содержании воспитательной работы, проводимой при организации фольклорного клуба и обучения, а также о возможностях разученных песен для воспитания молодежи в духе национальных ценностей.

Ключевые слова: кружок, фольклор, песни, образовательные, национальные ценности, время года, обряд, работа, коллектив.

Abstract: The article talks about the content of educational work carried out during the organization of a folklore club and training, as well as the possibilities of learned songs for educating young people in the spirit of national values.

Keywords: circle, folklore, songs, educational, national values, season, ritual, work, team.

Folklor musiqa san'ati o'qitish uslubiyatini o'rganish o'quvchilarda milliy musiqa muhabbat uyg'otadi. Uning asosiy maqsadi folklor musiqa ijrochiligining taraqqiy etgan turi hisoblangan qo'shiq kuylashga ko'nikma hosil qiladi va o'zbek qo'shiqchilik san'atining yaratilishi, mumtoz musiqaning paydo bo'lishini o'rgatadi.

Inson ongining musaffoligi, jamiyatning yetukligi, shaxs ma'naviyat dunyosining boyligini ta'minlashda folklor musiqaning ahamiyati juda kattadir. Shuning uchun ham folklor musiqa san'atini o'rganish o'quvchilarda milliy qadriyatlar hisoblanish ming yillik tarixga ega bo'lgan urf-odatlar, udumlar, marosimlarimizga nisbatan mehr-muhabbat va hurmat uyg'otadi. Folklor musiqa san'ati, folklor etnografik ansambllari, xalq udumlari, urf-odatlar, mavsumiy marosimlar an'anaviyligi, turli-tuman hodisalarni tabiat hodisalariga ta'sir ko'rsatishiga intilishi bilan ijtimoiy hayotda katta o'rin tutadi. Marosimlarni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar marosimlar folklorini tashkil etadi.

Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan udum va marosimlarni xalqqa olib chiqib, yana ularni zamonaviy talqinda namoiy etishga folklor san'ati va uning tuganmas merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek folklori xilma-xil shakllardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, o'zbek xalqining dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiradi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan folklor to'garaklarida qatnashchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar va bu jarayonda o'rganiladigan kuy-qo'shiqlar mavzulari xalqimizning aaliy an'analari, urf-odatlarini, mehnat jarayonlari, mavsum-

marosim haqida og‘zaki adabiy janrlari bilan bog‘liq turlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Marosim folklori. Insonga sihat-salomatlikni tilash, uning turmushida to‘kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o‘tkaziladigan, xalq orasida qat‘iy an‘anaga kirib qolgan xatti-harakatlar marosim deyiladi. Marosimni o‘tkazish paytida ijro etiladigan qo‘shiq va aytimlar marosim folklorini tashkil etadi.

Bahorgi mavsum bilan bog‘liq marosimlar. Mavsumiy marosimlar yilning to‘rt fasliga oid xalqning yashash va mehnat tarzi bilan aloqadordir. Bahor kirishi bilan dehqon va chorvadorning dala ishlari boshlanadi. Dehqon urug‘sepushga tayyorgarlik ko‘rish, ariqlarni kovlash bilan shug‘ullansa, chorvador yaylovlarga ko‘chishga tayyorgarlik ko‘radi. Dehqon va chorvador turmushidagi barcha og‘ir yumushlar ilgari hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan. Bahorgi mavsumiy marosimlarga «Shox moylar», «Navro‘zi olam», «Yomg‘ir chaqirish», «Sust xotin» marosimlari kiradi.

Yozgi marosimlar. Kishilarning xo‘jalik faoliyatida yoz faslining o‘rni alohidadir. Shunga qarab ushbu faslda o‘tkaziladigan marosimlar rang-barang bo‘lgan. Biroq o‘zbek marosim folklorida hozirga qadar atigi bitta janr saqlanib qolgan. Yozgi marosimlar folkloridan faqat shamol to‘xtatish bilan bog‘liq ayrim janrlar saqlangan. Bular «Choy momo» marosimida ijro etiladigan qo‘shiqlardan iborat.

Kuzgi marosimlar folklori. Kuz faslida dehqon yoz bo‘yi qilingan mehnatining samarasini yig‘ishtirib oladi, chorvador esa qishlovga yem-hashak, ozuqa tayyorlaydi. Kuzgi marosimlarga «Oblo baraka», «Shamol chaqirish», «Mirhaydar bobo», «Galagov», «Xo‘p mayda» marosim qo‘shiqlari kiradi.

Qishki marosimlar folklori. O‘zbek xalq folklorida qishki marosimlardan faqatgina «Gap-gashtak» va «Yas-sun» marosimlarga saqlanib qolgan. «Gap-gashtak» marosimi erkaklar tomonidan mahalladagi choyxona yoki biror xonadonda o‘tkaziladi. «Yas-sun» marosimi asosan ko‘chmanchi chorvadorlar o‘rtasida qimixo‘rlik marosimi sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, uning ma‘nosi davrada o‘tirish qoidalari demakdir.

Qo‘shiqlar. Qo‘shiq-turkiy qo‘shmoq fe‘lining o‘zagidan yasalgan bo‘lib, misraga misrani qo‘shib kuylash, aytish ma‘nolarini angalatadi. Qo‘shiqlar xalq ma‘naviyatining qudratini, xalq irodasining bukilmaligini ifodalab, kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlik va elparvarlikka, vatanparvarlik va do‘stlikka, sevgiga sadoqatga chorlaydi. Qo‘shiqda ishq-muhabbat kuylansa, bunday qo‘shiqlar «lirik qo‘shiqlar» deb ataladi.

Xalq og‘zaki ijodida musiqa termalaridan tuzilgan folklor qo‘shiqlarini ta‘riflab o‘tamiz.

«Halinchak» qo‘shig‘i

Qadimdan qizlar, yosh kelinchaklar bog‘dagi katta daraxtlar shoxiga halinchak ilib, to‘planishib, kelinchakni uchirib, shu asnoda qo‘shiq kuylashib, qo‘shiqda dard va xursandchiliklarini bayon etganar

«Lolajon» qo‘shig‘i

Qizlar bahorda dalalalarga chiqib lola qizg'aldoq sayli o'tkazganlar. Qo'shiqda qizlar o'zini lolaga qiyoslab kuylaydilar va raqslar ijro etadilar

«Hado'rsi» qo'shig'i

Qo'shiq uzumni ezib, suvini ajratib olish va undan shinni tayyorlash jarayoniga bag'ishlanadi. Bu marosim bilan asosan xotin-qizlar shug'ullanganlar. Shuning uchun so'zlarda tokning tanasini bellariga, novdasini bilaklariga bezaganlar.

«Hay yor-yor qo'shig'i»

Qo'shiqni qadimda asosan erkaklar bazm uyushtirib jo'r bo'lib, qarsak chalib kuylaganlar, har kupletini boshqa-boshqalar kuylab, naqoratini jo'r bo'lib ijro etganlar.

«Ho'p mayda» qo'shig'i

Galagov qo'shiqlari turkumidan, g'allani o'rib olib, xirmon qilib, ho'kizlarni bir-biriga tamg'ab somonni yanchiganlar. Uzoq va zerikarli ishda albatta qo'shiq xirgoyi qilganlar. Maydayo qo'shig'i shu mehnat marosimi tufayli yaratilgan.

«Lolachaga ishim bor» qo'shig'i

Erkaklar hazil mutoiba qo'shig'i. To'y marosimida ulfatlar eng bo'yi past do'stlarini o'rta olib, atrofida qarsak chalib qo'shiq kuylaganlar. O'rtada kichkina tizzalab o'tirib raqsga tushgan.

Qarsak – qadimda o'zbek va tojik xalqlari orasida keng tarqalgan qo'shiq janri va erkaklarning davra o'yin qo'shig'i hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida, ayniqsa, mashhur. She'r matnlari sifatida turli mavzudagi xalq so'zlari va she'riyati qo'llanadi (to'rtliklardan iborat). Kuylari sodda, kichik diapazonli, boshlang'ich ohang orqali rivojlanadi.

To'garak mashg'ulotlarida ta'kidlab o'tilgan mavzulardagi qo'shiqlar ta'limni milliy mazmunini boyitish, o'aib kelayotgan yoshlarni xalq musiqasini o'rganish orqali ularni xalq urf-odatlarini, an'analari va milliy, ma'naviy qadriyatlariga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimova D.A. Musiqa to'garaklarini tashkil etish. –T.: “Navro'z”, 2008.– 108-b.
- 2.Baratov Sh.R. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. –T.: “O'qituvchi”, 1995. – 86-b.
- 3.Hamrayeva U.Sh. Musiqa to'garaklarini tashkil etish. – Samarqand, “Fan bulog'i”, 2023. – 45-b.
4. Anorov T.N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqqa to'garaklarini tashkil etish metodikasi. – Surxandaryo, 2021.

FIZIKANI O'QITISHDA MAVZUNING MAQSAD VA MOHIYATINI TAVSIFLASH METODI

F.Meliyev¹,
A. Ikromov²,
M.Abduraxmonov³,
S.Zoirov⁴

1.2.3.4. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotasiya: Ushbu maqolada fizika fanini o'rganishdan maqsad insoniyat yashash sharoitini yaxshilash uchun qanday foydali ish bajarish kerakligini tushunishdan iborat ekanligi va bu ishni bajarish uchun tabiat qonunlarini, ya'ni fizika fanini har bir mavzusida beriladigan fizik qonuniyatlarning mohiyatini chuqur anglash zarur ekanligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: fizika, tabiat qonunlari, fizik qonuniyat, ish, mohiyat.

Аннотация: В данной статье указано, что цель изучения физики состоит в том, чтобы понять, какую полезную работу следует совершить для улучшения условий жизни человечества, а для выполнения этой работы необходимо глубоко понять сущность законов природы, то есть физические законы, представленные в каждой теме предмета физики.

Ключевые слова: физика, законы природы, физический закон, работа, сущность.

Abstract: This article states that the purpose of studying physics is to understand what useful work should be done to improve the living conditions of mankind, and to perform this work, it is necessary to deeply understand the essence of the laws of nature, that is, the physical laws presented in each topic of the subject of physics.

Keywords: physics, laws of nature, physical law, work, essence.

Fizika fanini o'rganishda odatda fizika grekcha phisis-tabiat ma'nosini anglatuvchi so'zdan olingan bo'lib, tabiat qonunlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi deb aytiladi. Xo'sh, tabiat qonunlarini o'rganishdan maqsad nima? Tabiat qonunlarini o'rganishdan maqsad ulardan foydalangan holda insoniyat hayotini yaxshilash. Inson hayotini qanday yaxshilash mumkin - ishlab, ish bajarib. Bajariladigan ishni to'g'ri va qiyinchiliksiz bajarish uchun esa fizika qonuniyatlarini mohiyatini anglash zarur bo'ladi.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga muhim vazifa qo'ymoqda. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda rivojlangan Yevropa davlatlari ta'lim tizimi tajribasidan namuna olish, tajriba almashish, raqobatga kirishish, uzluksiz aloqada bo'lish yuqori natijalarni ko'rsatmoqda [5].

Bajarishimiz zarur bo'lgan ishlarning eng sodda turi mexanik ish bo'lib, bu ish fizikaning mexanika bo'limida

$$A=FS \quad (1)$$

formula bilan aniqlanadi.

(1) - formula bo'yicha A- ishni aniqlash uchun birinchi navbatda S - harakat davomida o'tilgan yo'l aniqlanishi kerak. O'tilgan yo'li S - mexanikaning kinematika qismida o'rganiladi. Mexanik ishni aniqlashdagi ikkichi kattalik F -mexanik kuch bo'lib, bu kattalik mexanikaning dinamika bo'limida o'rganiladi.

Meliyev F.
Fizika va astronomiya
kafedrasida dotsenti,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston

Abduraxmonov M.
Fizika va astronomiya
kafedrasida dotsenti,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston

Ikromov A.
Fizika va astronomiya
kafedrasida asistenti,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston

Zoirov S.X.
Fizika va astronomiya
kafedrasida asistenti,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston
s.zoirov88.fizik@gmail.com

Mexanikaning keyingi bo'limlarida o'rganiladigan qonuniyatlar bevosita mexanik ishni bajarilish usullari va mexanik ishni bajaish uchun zaruriy qurilmalar hamda ulardan qulay foydalanish usullari o'rganiladi.

Biz shu asnoda mexanika qonunlarini o'rganishimizning asosiy maqsadini aniqlab olamiz. Demak mexanikaning knematika qismida o'rganiladigan har bir mavzuning asosiy maqsadi bajariladigan mexanik ishni amalga oshirish uchun o'tilishi zarur bo'ladigan yo'lni aniqlab olishdan iboratdir. O'tiladigan yo'lni aniqlashda zarur bo'ladigan knematik tushunchlardan biri bo'lgan harakat tezligi

$$v = \frac{s}{t} \quad (2)$$

formula bilan aniqlanib, *jismni harakatini tezligi vaqt birligi ichida o'tilgan yo'lga teng* deb ta'rif beriladi. Agar fizika fanini o'qitishda integrativ usulni qo'llasak ya'ni fizikani matematika va chet tillar bilan aloqasini e'tiborga olsak yo'qoridagi tezlik uchun berilgan ta'rifni tezlik barobar o'tilgan yo'lni shu yo'lni o'tish uchun ketgan vaqtga bo'linganiga teng deb tavsiflasak ham ma'no jihatdan hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Tezlik tushunchasini esda saqlab qolish oson bo'lishi va uning mohiyatini to'liq anglash uchun ingliz tilida tezlik-velocity, ko'cha (yo'l)-street, vaqt-time deb atalishini e'tiborga olsak (2)-formulani

$$\text{velocity} = \frac{S_{street}}{t_{ime}} \quad (3)$$

ko'rinish ifodalab ko'rsatilsa, tezlikni formulasi va uning mohiyatini tushunish hamda uzoq vaqt esda saqlash mumkin bo'ladi.

Bundan tashqari mexanik harakat tezlanishi –vaqt birligidagi tezlik o'zgarishiga teng deb ta'riflanadi va quyidagi matematik formula bilan ifodalanadi.

$$a = \frac{v - v_0}{t} \quad (4)$$

Bu formula asosida *tezlanish t-vaqt oralig'idagi tezlik o'zgarishi (v-v₀)-ni shu vaqtga bo'linganiga teng* deb ta'riflansa ham fizik ma'no jihatidan o'zgarish bo'lmaydi. Agar tezlanish inglizcha - acceleration so'zining birinchi harfi bilan belgilanganligi e'tiborga olsak, (4)-formulani ma'nosini tushunish va uni esda saqlanish darajasini oshirish mumkin. Xuddi shu kabi knematik kattaliklardan yana biri yerning tortish kuchi hisobiga yuzaga keladigan erkin tushish tezlanishi

$$g = \frac{v - v_0}{t} \quad (5)$$

inglizcha ground-yer so'zining boshlang'ich harfi bilan belgilanganligini eslatish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, mexanikaning knematika bo'limida mexanik ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan to'g'ri chiziqli, egri chiziqli, tekis va notekis harakatlarda o'tiladigan yo'l (S)- barcha turlaruni o'rganamiz.

Mexanikaning dinamika bo'limida mexanik ishni aniqlash uchun kerak bo'ladigan ikkinchi fizik kattalik F-mexanik kuchni xususiyatlari o'rganiladi. Dinamikada *kuch – jismni tezligini o'zgartiradigan ya'ni unga tezlanish beradigan, yoki jismni shaklini o'zgartiradigan ya'ni jismni deformatsiyalaydigan sababga aytiladi* deb ta'rif beriladi. Mexanik kuch tushunchasini mohiyatini yaxshi tushunish uchun inglizcha kuch-force so'zining birinchi harfi bilan belgilanganligini va kuchni xalqaro o'lchov birliklar sistemasida o'lchov biligi qilib dinamikaning

asosiy qonunlarini yaratuvchi olimning nomi ya'ni Nyuton qobil qilinganliini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Matematik jihatdan kuchni aniqlanish formulasi

$$\mathbf{F} = m\mathbf{a} \quad (6)$$

ekanligini e'tiborga olsak, jismga ta'sir qiladigan *kuch - shu jism massasi bilan shu kuch ta'sirida olgan tezlanishini ko'paytmasiga teng* deb ham ta'riflash mumkin bo'ladi. Dinamikada mexanik ish bajarish uchun ta'sir qilishi mumkin bo'lgan kuchlarning (og'irlik kuchi, ishqalanish kuchi, gravitatsion kuch, markazga intilma kuch, Arximed kuchi, sirt taranglik kuchi va hakoza) xususiyatlari o'rganiladi.

Mexanikaning keyingi bo'limlarida o'rganiladigan qonuniyatlar bevosita mexanik ishni bajarilish usullari va mexnik ishni bajaish uchun zaruriy qurulumlar hamda ulardan qulay foydalanish usullari o'rganiladi.

Biz shu asnoda mexanika qonunlarini o'rganishimizning asosiy maqsadini aniqlab olamiz.

Lekin odamizod o'z yashash davri davomida yaxshiroq yashashga intilar ekan ya'ni kamroq mehnat qilib (mexanik ish bajarib) ko'proq kerakli natijalarga erishishga harakat qilar ekan. Insoniyatning bu xohishi fizikaning ikkinchi bo'limi ya'ni moddalar tuzilishi va termodinamika (issiqlik hodisalari) bo'limida

$$A = P(V_2 - V_1) \quad (7)$$

formula bilan aniqlanadigan termodinamik ish vositasida bajarilishi mumkin ekan. Bu formulada P - idishdagi gazning idish devoriga beradigan bosimi. $V_2 - V_1$ - tekshirilayotgan gaz hajmining o'zgarishi.

Bosim uchun

$$P = \frac{1}{3} n m_0 \bar{v}^2 = \frac{2}{3} n E_k = \frac{1}{3} \rho \bar{v}^2 = n k T \quad (8)$$

formulalar moddalarni molekulyar tuzilish nazariyasi asosida aniqlab olininadi.

Shu asnoda T- temperatura va V- hajm kabi parametrlar aniqlanib olingandan keyin termodinamik ishni o'rganishga va bu ishni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan mexanizmlarni ishlash prnsiplari bilan tanishishga kirishiladi. Fizikaning bu bo'limidagi qonuniyatlarni mohiyatini to'liq anglash uchun yuqorida aytib o'tilgan integrativ usuldan foydalanish ahamiyatlidir.

(6)- formuladagi termodinamik ish (A)-ni belgisi qilib nemis tilidagi arbayt-ish so'zining birinchi bosh harfi olingahligi, (chunki kichik a- acceleration – tezlanishni belgilashda ishlatilgan), gaz molekularining idish devoriga beradigan bosimi uchun ingliz tilidagi pressure-bosim so'zining bosh harfidan olinganligi bo'lsa, gaz molekularining egallagan hami (V) inglizcha voleme- hajm so'zining bosh harfi ekanligi ma'lum qilinsa, (7 -8)- formularni mohiyatini tushunish va esda saqlash osonroq bo'ladi. Fizikaning bu bobining keyingi qismlarida issiqlik energiyasini hosil qilish usullari va bu xil energiya asosida ish bajaradigan qurilmalrni tuzilishi hamda ishlash prinsiplari o'rganiladi. Lekin insoniyatni xohish va istaklarini to'liq qondirish uchun mexanik qurulumlar hamda termodinamik mashinalar bajaradigan ishlar yetarli bo'lmay qoldi. Insoniyatni navbatdagi istaklarini amalga oshirish uchun fizikaning elektr va magnit hodisalari bo'limi xizmat qiladi.

Bu bo‘limda biz yashash sharoitimizni yanada yaxshilash uchun elektromagnit hodisalaridan qanday foydalanish yo‘llarini o‘rganamiz.

Bizga ma’lumki elektr tokining bajaradigan ishi

$$A = IUt = UI^2Rt = \frac{U^2}{R}t \quad (9)$$

ko‘rinishda aniqlanadi. Demak, elektr tokini bajaradigan ishini o‘rganish uchun fizikaning oldingi bo‘limlarida o‘rganilgan fizik kattaliklarimizdan farq qiladigan I-tok kuchi, U-kuchlanish va R-elektr qarshiligi kabi parametrlar bilan ham tanishishimiz zarur ekan. Buning uchun birinchi navbatda elektrostatika qonunlarini, elektrostatik maydon energiyasi va bu maydonda bajariladigan ishni ham o‘rganishimiz kerak ekan. Kuchlanishni U- harfi bilan belgilanishi 1600-yilda birinchi marta yerni va ayrim moddalarni magnit xususiyatlarini tekshirishda lotincha electricus-elektr terminini ishlatgan tabiatshunos olim Uilyam Xibbertni nomini birinchi harfi olinganligini, elektr qarshiligini belgisi (R) - esa inglizcha resistance – qarshilik so‘zining bosh hafi bilan belgilanganligini eslatib o‘tish foydadan xoli bo‘lmaydi. Shu bilan birga kuchlanishni o‘lchov birligi qilib, elektr toki va uni generatsiyalash sohasiga ulkan hissa qo‘shgan italyan olimi Alekssandro Vol’ta sharafiga 1-volt olinganligini, tok kuchining o‘lchov birligi qilib, fizikaga ekektrodinamika termenini birinchi bo‘lib kiritgab fransuz olimi Andre Mari Amper sharafiga 1-Amper, elektr qarshiligining o‘lchov birligi sifatida elektr zanjirini miqdoriy qonunini yaratgan nemis olimi Georg Om sharafiga 1-Om deb qobil qilinganligini ta’limning tarixiylik prinsipi asosida eslab o‘tish maqsaga muvofiq bo‘ladi.

Shu asnoda elektr va magnit hodisalarining asosiy qonuniyatlarini o‘rganib, elektr toki asosida ishlaydigan qurilmalar hamda ularni ishlash prinsiplari bilan tanishamiz. Hozirgi zamon global muommolari bizdan issiqlik mashinalariga nisbatan ekologik toza va shovqinsiz elektromobillarga o‘tishni toqoza etmoqda. Shunday ekan, biz eletromagnit hodisalariga asoslangan fizik qonuniyatlarni yanada kengroq va chuqurroq o‘zlashtirish asosida foydali ish koefitsenti katta bo‘lgan elektr mashinalarini yaratishga harakat qilishimiz kerak bo‘ladi.

Optika fizikaning navbatdagi bo‘limi bo‘lsa, optika qonunlarini o‘rganishimizdan maqsad, ulardan qanday qilib o‘z hayotimizni yaxshilash uchun foydalanishni bilish bo‘lsa, bu maqsadni amalga oshirish uchun optik qonuniyatlarni mohiyatini chuqur anglashimiz kerak bo‘ladi. Geometrik optika qonunlari asosida biz bora olmaydigan uzoq masofalarda (koinotda) bo‘layotgan jarayonlar bilan teleskoplar yordamida va mikoroolamda sodir bo‘layotgan fizik hodisalar bilan mikroskoplar yordamida ishlash imkoniyatiga ega bo‘ldik. Lekin yorug‘likdan o‘z hayotimizni yaxshilashda yana qanday foylanish mumkin degan savolga javob berish uchun yorug‘likni o‘zi nima, qanday tuzilishga ega degan savollarga javob topishimizga to‘g‘ri keladi. Bu kabi savollarga javoblar yorug‘likni to‘lqin va korpuskulyar ta’limoti asosida topiladi. Eynshteynning fotoeffekt hodisasi uchun hosil qilgan formulasiga ko‘ra yorug‘lik energiyasi quyidagicha ishga aylantirilishi mumkin.

$$h\nu = A + \frac{m\vartheta^2}{2} \quad (10)$$

Hozirgi vaqtda fotoelementlardan foydalanib quyosh elektr stansiyalari qurish va ulardan ekologik toza elektr energiyasi olish insoniyatni o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishni yo'llaridan biri hisoblanadi. Demak, optika qonunlarini yaxshi o'zlashtirgan holda hayotimizni yaxshilash uchun ko'p ishlar bajarishimiz mumkin ekan.

Moddalarni atom tuzilishi hamda yadro va elementar zarrachalar fizikasi bo'limi umumiy fizikaning eng boshlang'ich va eng keyingi bo'limlari hisoblanadi.

Bu bo'limlarni o'rganishimizdan maqsad insoniyat hayotini yaxshilash uchun mexanik, issiqlik, elektr va yorug'lik energiyalaridan tashqari atom va yadro energiyalaridan ham foydalanish yo'llarini o'rganishdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun atom va yadro fizikasining hozirgi zamon qonuniyatlarini chuqur o'rganish hamda ularni mohiyatini anglash zarur bo'ladi.

Yadroning bog'lanish energiyasi uchun

$$E=\Delta mc^2 \quad (11)$$

formulani aniqlanishi va bu energiya oldingi energiyalarga nisbatan juda katta ta'sirga egaligi atom va yadro fizikasini o'rganishga katta qiziqishlar hosil qilib kelmoqda. Boshqa energiyalar kabi atom va yadro energiyalaridan foydalangan holda insoniyat hayot sharoitini yaxshilash uchun ulkan ishlarni amalga oshirish uchun atom va yadro fizikasi qonuniyatlarini mohiyatini chuqur anglash zarur bo'ladi.

Xulosa qilib, aytganda fizikaning har bir bo'limini o'rganishni maqsadi shu bo'limga qarashli fizik qonuniyatlarni mohiyatini tuhungan holda insoniyat yashash sharoitini yaxshilash uchun bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarni amalga oshirish usullarini o'rganishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oplachko T.M., Tursunmetov K.A. Fizika. 1-qism. – Toshkent, 2007.
2. Oplachko T.M., Tursunmetov K.A. Fizika. 2-qism. – Toshkent, 2007.
3. Djurayev M., Sattarova B. Fizika va astranimiya o'qitish nazariyasi va metodikasi. –Toshkent, 2015. – 352 b.
4. Zoirova Sh., Bahriyeva M. Boshlang'ich sinf darslarida STEAM ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. //Илим-фан ва таълимнинг ривожланиш истиқболлари. 36-son.2023.03.23

BO‘LAJAK FIZIKA O‘QITUVCHISINING AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI

G.Mirsaidova¹
B.Umirov²

1.Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti qoshidagi akademik litsey, Samarqand, O‘zbekiston
2.O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada ko‘rsatilgan muammoning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi davlat ta‘lim standartlari va o‘qituvchilar uchun yangi kasbiy standartga o‘tish doirasida ma‘lum bir keng qamrovli bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlash vazifasi bilan bog‘liq. O‘z fanlari bo‘yicha va kelajakdagi kasbiy faoliyatida yangi ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ilmiy-texnik darajasi o‘qituvchilardan o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: fizika, AKT kompetensiya, bo‘lajak fizika o‘qituvchisi, multimedia keys, Fizika o‘qitish metodikasi va innovatsion texnologiyalari.

Аннотация: Актуальность представленной в статье проблемы связана с государственными стандартами образования Республики Узбекистан и задачей подготовки учителей с определенными комплексными знаниями в рамках перехода на новый профессиональный стандарт учителей. Особое значение имеет способность использовать новые образовательные технологии по своим предметам и в будущей профессиональной деятельности. Научно-технический уровень развития современного общества требует от учителей умения активно использовать информационно-коммуникационные технологии на всех этапах образовательного процесса.

Ключевые слова: физика, ИКТ-компетентность, будущий учитель физики, мультимедийный кейс, методика преподавания физики и инновационные технологии.

Abstract: The urgency of the problem presented in the article is related to the state education standards of the Republic of Uzbekistan and the task of training teachers with a certain comprehensive knowledge within the framework of the transition to a new professional standard for teachers. The ability to use new educational technologies in their subjects and in their future professional activities is of particular importance. The scientific and technical level of the development of modern society requires teachers to have the skills to actively use information and communication technologies at all stages of the educational process.

Keywords: physics, ICT competence, future physics teacher, multimedia case, Physics teaching methodology and innovative technologies.

Oldingi tadqiqotlarga qaramay, bo‘lajak o‘qituvchining axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti hozirda yetarli darajada rivojlanmagan va yanada takomillashtirishni talab qiladi. Biroq psixologik-pedagogik va sotsiologik tadqiqotlar natijalari hamda real maktab amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar o‘z fanlarini o‘qitish faoliyatida umumiy o‘rta ta‘limni modernizatsiya qilish talablariga javob beradigan AKT texnologiyalaridan foydalanishga to‘liq tayyor emaslar. Shunga ko‘ra, "O‘qituvchi" kasbiy standartining o‘qituvchining mehnat funksiyalari bo‘limida talab qilinadigan

Mirsaidova G.
SamDAQU akademik
litsey fizika fani
o‘qituvchisi, Samarqand,
O‘zbekiston
mirsaidovagulbahor@gmail.com

Umirov B.
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O‘zbekiston
boboyor140892@gmail.com

ko'nikmalarga umumiy foydalanuvchi, umumiy pedagogik, fan-pedagogik AKT kompetensiyalariga ega bo'lish kiradi. Xususan, bu yetarli emasligi sababli bo'lishi mumkin zamonaviy o'qituvchining AKT kompetensiyasini yoki uning mentalitetini shakllantirish tadqiqot muammosiga olib keldi, uning mohiyati nazariy asoslarni aniqlash va talabalar, har xil turdagi ta'lim muassasalari bo'lajak fizika o'qituvchilarining axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning amaliy usullarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqolaning maqsadi bo'lajak fizika o'qituvchisining AKT kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan onlayn kursni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishdir. Tadqiqoti mavzu bo'yicha AKT vositalaridan foydalanish muammolariga bag'ishlangan. Boronenko [2], I.B.Gotskaya [3,4], I.V.Robert [10], E.K.Henner [16] va boshqalar. Fizika darslarida kompyuterdan foydalanishning uslubiy tamoyillari N.N.Gomulin [5] asarlarida o'rganilgan. Lapteva [6], S.B.Panyukova [9], A.B.Smirnova [11-15] va boshqalar. Fizika o'qitish nazariyasi va metodikasi kursining imkoniyatlarini o'rganuvchi oz sonli ishlar mavjud bo'lib, ularda fizika o'qituvchisini tayyorlash muammolariga e'tibor berilgan. Talabalarning sinf va sinfdan tashqari faoliyatida AKT (A.V.Smirnov, S.A. Smirnov, S.V.Lozenko [7, 8])larning izlanishlari ahamiyatga molik.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot olib borish uchun quyidagi vazifalar maqsad qilib olindi.

1. Fizika o'qituvchilarining AKT kompetensiyasini rivojlantirish muammolari bo'yicha adabiyotlarni o'rganish, "Pedagogik ta'lim" yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayoniga onlayn kurslarni ishlab chiqish va joriy etish.
2. Onlayn kurslarni ishlab chiqish bo'yicha talab va tavsiyalarni ko'rib chiqish.
3. Bo'lajak fizika o'qituvchisining AKT kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beruvchi onlayn kursni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish.

Muammolarni hal qilish uchun mualliflar quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanganlar: tadqiqot asosida muammoning holatini nazariy tahlil qilish. tadqiqot muammosi yuzasidan uslubiy, didaktik, psixologik va maxsus adabiyotlar, dissertatsiya tadqiqoti; ta'limda AKTdan foydalanishga bag'ishlangan konferensiya materiallari, pedagogika oliy o'quv yurtida AKT sohasida fizika o'qituvchisini kasbiy tayyorlash tarkibi va mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar, pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish; kuzatish, suhbat, so'roq, suhbat, pedagogik eksperiment o'tkazish.

Tadqiqotlar, kuzatishlar, suhbatlar, so'rovlar, talabalar va professor-o'qituvchilar bilan suhbatlar mavzusidagi nashrlarni o'rganish jarayonida ma'lum bo'ldiki, ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muammosi hozirgi vaqtda ham dolzarbligicha qolmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini rivojlantirish yo'llaridan biri o'quv jarayoniga axborot texnologiyalaridan [16], xususan, onlayn ta'lim elementlaridan foydalanishni o'z ichiga olgan yangi shakllarni kiritishdir.

Onlayn ta'lim (e-learning, masofaviy ta'lim, e-learning) - real vaqt rejimida Internetdan foydalangan holda yangi bilimlarni olish usuli. Hozirgi vaqtda elektron ta'lim sanoati dunyoda ta'lim sohasidagi eng tez rivojlanayotgan texnologiyalardan biridir.

- mavjudligi. Geografik joylashuvi va vaqtdan qat'iy nazar, talaba o'quv manbasi va kurs materiallaridan foydalanishi mumkin,

- texnologik samaradorlik - o'quv jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarining eng yangi yutuqlaridan foydalanish.

Ta'lim jarayoniga onlayn kurslarni kiritish maqsadlari:

1. Kadrlar tayyorlash sohasidagi yetakchi o'qituvchilar va ekspertlarning onlayn kurslaridan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish va ta'lim dasturlari mazmunini yangilash;

2. Ta'lim muassasalari tomonidan o'quvchilarga taqdim etilayotgan ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim mazmunidan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

3. O'quvchiga individual ta'lim yo'nalishini loyihalash imkoniyatini berish;

4. Sinf yuklamasini optimallashtirish, o'quv jarayonini rejalashtirishda moslashuvchanlikni oshirish;

5. Talabalarning, shu jumladan, nogironlarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish;

6. Ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish xarajatlarini optimallashtirish.

Har qanday ta'lim muassasasining o'quv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, shuning uchun bo'lajak maktab o'qituvchilarini tayyorlashda AKT kompetensiyasi ularning kasbiy mahoratining juda muhim tarkibiy qismidir. Onlayn kursni o'zlashtirish natijasida talaba: bilish: axborotda kompyuter texnikasidan foydalanish talabalarning nazariy va instrumental-amaliy faoliyati; kompyuter texnikasidan foydalangan holda idrok etish uchun zarur shaklda fizikaga oid axborotni topish va tuza bilish; ega bo'lish: fizika darslarini kompyuter vositalaridan foydalanish nuqtai nazaridan loyihalash ko'nikmalari.

Kurs modullar, ularning har biri alohida mavzulardan iborat. Har bir mavzu o'rganish uchun zarur bo'lgan materiallarni o'z ichiga oladi: 10-25 daqiqa davom etadigan video ma'ruzalar va mustaqil ta'lim uchun materiallar (modul ma'ruzalarning har bir qismiga ilova qilingan qo'shimcha o'rganish uchun materiallar va manbalarga havolalar shaklida). Har bir mavzu bo'yicha amaliy topshiriqlar beriladi. Onlayn kursning dastlabki ikkita modulini raqamlash o'zboshimchalik bilan amalga oshiriladi. Ushbu modullar istalgan tartibda to'ldirilishi mumkin. Ikkinchi modulda modul bo'ylab chiziqli bo'lmagan harakat mumkin, bu ma'ruza mavzularini istalgan tartibda o'rganishni o'z ichiga oladi. Onlayn kursni yakunlash o'tilgan materialni mustahkamlash va kasbiy o'qituvchilik faoliyatida AKT texnologiyalarini joriy etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan amaliy topshiriqlarni bajarish bilan birga keladi. Xususan, bular yaratish kabi vazifalar:

- elektron yordamida fizikadan didaktik o'yin loyihasi o'quv qurollari;
- talabalar uchun laboratoriya ishlarida AKTdan foydalanish bo'yicha topshiriqlar;
- fizika fanidan multimedia keys.

Onlayn ta'lim, har qanday ta'lim kabi, o'quv natijalarini baholash tizimini o'z ichiga olishi kerak, bu bizga kurs davomida o'zlashtirilgan kompetensiyalarning rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi. "Fizika o'qitish metodikasi va innovatsion texnologiyalari" onlayn kursini o'zlashtirish natijalarini baholash tizimi joriy va yakuniy nazoratning amaliyotga yo'naltirilgan har xil shakllarini nazarda tutadi. Misol tariqasida joriy nazoratning ijodiy topshiriqlaridan biri bo'lgan "Fizika darsining zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan, jumladan, AKTdan foydalanishni nazarda tutuvchi texnologik xaritasi ishlab chiqish" bo'yicha baholash mezonlarini keltiramiz:

Dars maqsadlarining diagnostikasi;

- darsning texnologik xaritasi mazmunining o'tilganga muvofiqligi darsning maqsad va vazifalari;
- o'quv faoliyatini tashkil etishning tanlangan usullarini muvofiqligi o'quvchilarning darsni maqsad va vazifalari hamda darsda qo'llaniladigan o'qitish texnologiyasi;
- talabalarining ushbu mavzu bo'yicha o'quv faoliyati uchun motivatsiyani ochib berish darsi;
- bosqichda talabalarining ta'lim faoliyatini oshkor qilishning to'liqligi, dars mavzusini yangilash;
- sinfda talabalarining bilish faoliyatini tashkil etish;
- darsda talabalarining mustaqil faoliyatini tashkil etish;
- didaktik materiallardan foydalanish;
- AKT va ko'rgazmali o'qitish vositalaridan foydalanish;
- zamonaviy ta'limni qo'llaniladigan elementlarining samaradorligiga erishish, darsda fanlararo aloqalarni amalga oshirish;
- boshqaruv elementlari samarali tanlanadi va natija bilan aniqlanadi o'quvchilarning kompetensiyalarni o'zlashtirishdagi faol faoliyati, tanlangan usullarining samaradorligi aniqlanadi.

Onlayn kurs talabalarining yakuniy nazorati shakli onlayn kurs davomida bajarilgan barcha amaliy topshiriqlarni o'z ichiga olgan elektron portfolio taqdimoti hisoblanadi.

Yaratilgan "Fizika o'qitish metodikasi va innovatsion texnologiyalari" onlayn kursi "Pedagogik ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan sinovdan o'tkazildi. Onlayn kursni sinovdan o'tkazish, suhbatlar o'tkazish, suhbatlar o'tkazish va test ishtirokchilari bilan so'roq qilish jarayonida ishlab chiquvchilar onlayn kursni AKT kompetensiyasini shakllantirish vositalaridan biri sifatida tavsiflovchi natijalarga erishdilar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, "Fizika o'qitish metodikasi va innovatsion texnologiyalari" onlayn kursi asosan o'qituvchi ta'limini axborotlash-tirishning maqsad va vazifalariga, o'qituvchining kasbiy standartiga mos keladigan ta'lim natijalariga javob beradi. Onlayn kursning nazariy va amaliy komponentlari mutanosibdir. Kurs elementlarining ketma-ketligi tizimli xarakterga ega va ularning munosabatlari barqarordir.

Tadqiqot muammosi quyidagi qarama-qarshiliklar bilan belgilanadi:

- AKT bo'yicha yuqori darajadagi malakaga ega, axborot va ta'lim resurslari bilan ishlash sohasida mustahkam texnik va texnologik bilimlarga ega, tez o'zgarib borayotgan ta'lim makonida o'quv jarayonini malakali modellashtirishga qodir, fizika fani o'qituvchilariga zamonaviy ta'lim muassasalariga bo'lgan ehtiyoj, o'qituvchilar o'rtasida kompyuter savodxonligining asosiy tamoyillarini rivojlantirish va universitet bitiruvchilarining AKT kompetensiyasining ancha past darajasi;

-ta'limni axborotlashtirishning zamonaviy bosqichi sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchisining kasbiy va umumiy madaniy tayyorgarligiga qo'yiladigan doimiy o'zgaruvchan talablar - bo'lajak fizika o'qituvchilari o'rtasida AKT kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliyotning mavjud darajasi.

Xulosa

Nazariy jihatdan, bu bo'lajak fizika o'qituvchisini universitetning ta'lim muhitida tayyorlash jarayonida uning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish modelini ishlab chiqish muammosidir.

Amaliy nuqtai nazardan, universitetning zamonaviy axborot-ta'lim muhitining didaktik salohiyatidan foydalangan holda ushbu toifadagi o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasini yaratish va sinovdan o'tkazish muammosi.

Axborot-kommunikatsiya kompetensiyasining texnologik komponenti muayyan dasturiy mahsulotlar asosida AKTning har xil turlari bilan ishlash ko'nikma va malakalarining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Uning shakllanish va rivojlanish darajasini turli amaliy topshiriqlar va laboratoriya ishlarining bajarilishini ball-reyting bilan baholash orqali aniqlash mumkin. Uni tajribaning aniqlash bosqichida baholash uchun amaliy laboratoriya kursi ishlab chiqildi. Kurs mazmuni ikkita blokni o'z ichiga oladi: kompyuter dasturlari asosida amaliy va laboratoriya ishlari va Internet xizmatlariga asoslangan laboratoriya ishlari.

Axborot kompetensiyalari deganda bilim, ko'nikma, malaka tushuniladi, mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirok etishga qaratilgan faoliyat usullari kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy faoliyat aks etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Тайлаков Н.И., Рахимов С.З. Мультимедияли дидактик воситалар таълим сифатини оширувчи восита. "Инновационное развитие науки и образования" международная научно-практическая конференция. Сборник научных публикаций. – Казахстан, 2020. –271 с.

2. Прозорова Ю.А. Методика подготовки будущих учителей информатики в области осуществления информационного взаимодействия (на примере дисциплины «Учебное информационное взаимодействие на базе ресурса Интернет): Дис. канд. пед. наук. – М., 2004. – С. 124-128.

3. Nurmukhamedova D., Akramova L., Buriev I., Abdullaev A., & Khonimkulova F. (2021). Smart-Teshnologies in the Process of Teaching the Russian, 48(8).

4. Boronenko T.A. Pedagogikaning faol va interfaol usullari masofaviy ta'lim tizimidagi o'zaro ta'sirlar / T.A.Boronenko, A.V.Kaysina, V.S.Fedotova // Ilmiy suhbat. 2017. No 1. P. 227-243.

5. Gotskay I., Juchkov V., Pustyl'nik P. O'qitish metodikasining rivojlanishi tizimli-faol yondashuvga asoslangan: 3d-texnologiyadan foydalanish//: A.Burkov. – San-Fransisko, 2013. 120-123-b.

12-13 YOSHLI VOLEYBOLCHILARDA ORQA ZONALARDA HARAKATLANISH TEZKORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.

Sh.J.Ochilov¹

1. Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti Samarqand, O‘zbekiston

Ochilov Sh.J.

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti Samarqand, O‘zbekiston

shezod4821@gmail.com

Annatsiya: Ushbu maqola 12-13 yoshli voleybolchilarda orqa zonalarda harakatlanish tezkorligini musobaqa tarzida o‘tkaziladigan nostandart estafetali o‘yinsimon mashqlar yordamida rivojlantirish samaradorligini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Yosh voleybolchi, jismoniy sifatlar, tezkorlik, musobaqa, o‘yinsimon mashqlar, yuklamalarni me‘yorlash, texnik-taktik tayyorgarlik.*

Аннотация: Целью данной статьи является изучение эффективности развития скорости движения в зонах спины у волейболистов 12-13 лет с помощью нестандартных эстафетных упражнений игровой формы, проводимых в стиле соревнования.

Ключевые слова: *Юный волейболист, физические качества, быстрота, соревнование, игровые упражнения, корректировка нагрузок, технико-тактическая подготовка.*

Zamonaviy voleybol musobaqalarida yuksak natijalarga erishish uchun sportchilar organizmi katta hajmli va o‘ta shiddatli yuklamalarga tayyor bo‘lishi lozim [1]. Shu bilan bir qatorda ko‘p yillik sport tayyorgarligi jarayonida sportchi shu tayyorgarlik davrining qaysi bosqichida shug‘ullanishidan qat’iy nazar qo‘llaniladigan o‘quv mashqlari yuklama jihatidan uning funksional va jismoniy imkoniyatiga mos bo‘lishi kerak. Aks holda, ya’ni katta hajmli va o‘ta shiddatli mashqlar zo‘rma-zo‘raki berilaversa shug‘ullanuvchilar organizmida zo‘riqish alomatlari paydo bo‘ladi. Agar shunday mashg‘ulotlardan foydalanish davom etaversa, nafaqat foydali sport natijalariga erishish mumkin, balki shug‘ullanuvchilar organizmida kasallik asoratlari vujudga kelishi ehtimoldan holi emas [2].

Sport mahoratining yuksak bosqichida, ya’ni malakali, katta yoshdagi sportchilarda shunday ko‘ngilsiz oqibatlar ro‘y bermasligi uchun muayyan sport turiga dastlabki o‘rgatish bosqichidan boshlab jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikka oid mashqlarni me‘yorlab qo‘llash tavsiya etiladi. Oydan oyga, yildan yilga mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va shiddati “zinapoya” sifatida emas, balki “to‘lqinsimon” shaklda ortib borishi maqsadga muvofiqdir. Binobarin, har bir trener, ayniqsa BO‘SM trenerlari, o‘z kasbiy-pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishi iste’dodli yosh sportchilar tayyorlash muammosining prinsipial jihatlaridan biridir [3].

O‘zbekiston Respublikasining yetakchi mutaxassislari, xorijiy tajribali pedagoglar, ko‘pchilik olimlar tomonidan sport o‘yinlarida texnik taktik elementlarni rivojlantirish muammolari ko‘pdan-ko‘p ilmiy-uslubiy adabiyotlarda o‘z yechimini topgan. L.R. Ayrapetyans (2006), A.A.Pulatov (2012), Sh.X.Isroilov (2014), Z.B.Boltayev (2019), jumladan chet el olimlaridan V.M.Zatsiorskiy(1995),

L.P.Matvyev(1997), V.N. Sokolov (1999), David Lavallee, John Kremer (2004), Edmunds J., Ntoumani N (2006), V.Ya.Ignateva, A.V. Ignatev, A.A.Ignatev (2015), Yu.D.Djeleznyak (2018) yillarda ilmiy izlanishlar olib borganlar. Shu bilan bir qatorda ayrim harakat sifatlari bo'yicha tabaqalashtirilgan mashqlar va harakatli o'yinlar asosida qo'llaniladigan mashg'ulotlarni bolalar jismoniy va funksional tayyorgarligiga ta'sir etishi hali yetarli isbotini topmagan [4].

Tadqiqotning maqsadi: 12-13 yoshli voleybolchilarda orqa zonalarda harakatlanish tezkorligini musobaqa tarzida o'tkaziladigan nostandart estafetali o'yinsimon mashqlar yordamida rivojlantirish samaradorligini o'rganishdan iborat.

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida dars va darsdan tashqarida o'tkaziladigan sport mashg'ulotlarini tashkil etishning umumiy va maxsus qonuniyatlari, maxsus funksional xususiyatlarning uslublari o'rganildi. Tadqiqotlari vazifalarini hal etish uchun dastlabki va asosiy pedagogik kuzatuvlar o'tkazildi. Dastlabki kuzatuv ikkita bosqichda tashkil qilindi. Birinchi bosqichda turli jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar uchun turli xil tezkorlik sifatlari aniqlandi. Ikkinchi bosqichda tadqiqot guruhlarida xar bir darsda o'quv muammolarini kompleks tanlash o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslari va mashg'ulotlarda mustaqil shug'ullanishi uchun kerakli bilimlar berildi.

Tadqiqot jarayonida Olimpiya zaxiralari tayyorlash markazida joylashgan sportning o'yin turlari va yengil atletika ixtisoslashgan BO'SMda voleybol o'quv mashg'ulotlarining mazmuni, boshlang'ich tayyorgarlik guruhleri o'quvchilarning tezkorlik sifatlarini takomillashtirish uchun kerakli bilimlar berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va boshqa ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Mazkur tadqiqotlar asosida boshlang'ich tayyorgarlik guruhleri o'quvchilarning asosiy tezkorlik sifatlari dastlabki ma'lumotlari aniqlandi. Olingan axborotlarning umumlashtirilishi va tahlili pedagogik tajriba metodologiyasini yanada obyektiv ravishda shakllantirish imkonini berdi. Xuddi shu davrda tadqiqotning vazifalari aniqlandi, usuliyati tanlab olindi va sinovdan o'tkazildi.

Sport mahoratining progressiv shakllanishi va yuqori sport natijalariga erishish masalasi jismoniy tayyorgarlik jarayonini ilmiy asosda tashkil qilish zarurligiga e'tibor qaratadi. Ushbu masala nafaqat ilmiy-nazariy jihatdan, balki amaliy nuqtai nazaridan ham mutaxassis-olim va murabbiylar tomonidan qayta-qayta isbot qilinib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda jismoniy sifatlarni dastlabki tayyorgarlik bosqichidan boshlab rivojlantirish muammolariga yetarli ahamiyat berilmaydi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, joylarda faoliyat ko'rsatayotgan BO'SMlarda jismoniy sifatlarni muvofiq sport turi xususiyatiga moslashtirib shakllantirish masalalari ko'r-ko'rona amalga oshiriladi. Shu sifatlarni rivojlantirishga mo'ljalangan mashqlarni yuzaki qo'llash hollari uchrab turadi. Boz ustiga mashg'ulotlarda qo'llaniladigan aksariyat jismoniy mashqlar standart, stereotip xususiyatga egaligi ko'zga tashlanadi. Berilayotgan mashqlar shug'ullanuvchilarning jismoniy va funksional imkoniyatlarini har doim ham nazarda tutmagan bo'ladi. Bu borada, ayniqsa kuch sifatlarini (absolyut kuch, portlovchan kuch, kuch chidamkorligi) rivojlantirishda didaktik prinsiplar va yuklamalarni qo'llash qonuniyatlariga amal qilinmaydi. Jumladan, kuchni rivojlantirishda og'irliklar va trenajyorlar yordamida o'tkaziladigan

mashg'ulotlarda yuklamalarni qo'llash yo me'yordan ortib ketadi, yoki me'yor darajasiga yetmaydi. Buning asosiy sabablaridan birinchisi yosh murabbiylar mazkur sport turiga tanlov o'tkazishda shug'ullanuvchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligini baholovchi me'yoriy mashqlardan yuzaki foydalanadilar yoki to'garakka umuman tanlovsiz qabul qildilar. Ikkinchi sababi, dastlabki va keyingi mashg'ulotlar jarayonida og'irliklar bilan yoki ularsiz rivojlantirishga qaratilgan yuklamalar shug'ullanuvchining jismoniy va funksional imkoniyatlariga taqqoslanmaydi. Boshqacha qilib aytganda yuklamalar va shug'ullanuvchilar imkoniyati muntazam nazoratda bo'lmaydi.

Uchinchi sababi ushbu yosh murabbiylar o'z mashg'ulotlarida aksariyat standart va ixtisoslashtirilgan og'irlik mashqlari me'yorini ortirib yuboradilar.

Og'irliklar va ularsiz kuchni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni nostandart, o'yin yoki estafeta tarzida qo'llash uslubiyati deyarli pedagogik faoliyatda uchramaydi, uchrasa ham nazorat ostida joriy etilmaydi, vaholanki, psixofiziologik jihatdan ma'lumki, aynan o'yin-estafeta tarzida beriladigan kuch mashqlari bolalarning emosional xissini uyg'otadi, kayfiyatni ko'taradi, ularning motivasion tuyg'ularini faollashtiradi. Natijada, bunday mashg'ulotlar yuklamasi organizmda charchash va zo'riqish alomatlarini muddatidan avval vujudga kelishiga to'sqinlik qiladi. Yuklamalar ta'siri ijobiy kechadi. Qayd etilgan ilmiy - nazariy omillar mazkur yakuniy malakaviy ishning mavzusini tanlashga imkon yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi nazorat va tajriba guruhlariga ajratilgan 12-yoshli voleybolchi bolalarda an'anaviy (standart) va noan'anaviy (nostandart-o'yin-estafetali) kuch mashqlarini shu sifatga qanday ta'sir ko'rsatishini pedagogik tadqiqot yordamida o'rganishdan iborat.

Nazorat guruhi amalida qo'llanilib kelinayotgan mashg'ulotlar dasturi asosida shug'ullanib bordilar.

Tajriba guruhida qo'yidagi nostandart o'yin - estafetali kuch mashqlari qo'llanildi:

1. Qo'llar polga (yerga), oyoqlar gimnastika skameykasiga tayangan, gavda gorizontol holatda 6 ta shug'ullanuvchi signal berilishi bilan qo'llarni bukib-yozadilar. Qaysi bir shug'ullanuvchi ko'proq mashqni bajarsa u g'olib deb topiladi.

2. 6 ta shug'ullanuvchi ikki jamoaga bo'linadi va har bir jamoadan bir kishidan turnikda barovariga tortiladi, so'ng navbatdagi ikki kishi va hokazo. Qaysi jamoa ishtirokchilari maksimal marta tortilsa shu jamoa g'olib deb topiladi.

3. (2) mashq tartibida, faqat brusyada qo'llar bukilib yoziladi.

4. Ikki jamoa 3 kishidan bir-biriga qarab 10 metr oraliqda saflanadi. Signal berilishi bilan jamoalar ishtirokchilari 4 qadam oldinga yurib, qo'llarga tayanib gorizontol holatni qabul qiladilar va qo'llarni bir marta bukib yozadilar, so'ng o'z joylariga qaytadilar, keyin yana 4 qadam tashlab, qo'llarni ikki marta bukib - yozadilar. Ishtirokchi belgilangan joyga necha marta kelsa, shuncha marta qo'llarini bukib yozadi. Mashq oxirgi ishtirokchi qolguncha davom etadi. Qaysi jamoa ishtirokchisi yagona qolib mashqni maksimal davom ettira olsa, shu ishtirokchi jamoasi g'olib topiladi.

5. O'yinda ikki jamoa qatnashadi. 1-jamoa ishtirokchilari biroz o'tiradilar va yelkalariga 2-jamoa ishtirokchilarini o'tqazadilar. Signal berilishi ular o'tirib

turadilar. O'tirib turishni umumiy maksimal soni hisoblanadi. So'ng ishtirokchilar almashdilar va shu o'yin mashqini boshlaydilar. Yana o'tirib-turishni umumiy maksimal soni hisoblanadi. Qaysi jamoa ishtirokchilarida umumiy maksimal o'tirib-turish soni ko'p bo'lsa, shu jamoa g'olib deb topiladi.

6. Ushbu o'yin mashqi 5-mashqqa o'xshash. 1-jamoa ishtirokchilari o'z yelkalariga 2-jamoa ishtirokchilarini o'tqazadilar va signal berilishi bilan 1-jamoa ishtirokchilari oyoqlarini tizza qismidan 30°ga bukib, shu holatni maksimal muddat davomida saqlab turadilar. Mazkur holatni maksimal saqlab qolgan ishtirokchining vaqti hisoblanadi. So'ng jamoa ishtirokchilari almashadi va mashq qaytariladi. Qaysi jamoa ishtirokchilari oyoqlarini 30° bukilgan holatda saqlab tursalar, shu jamoa g'olib deb topiladi (barcha ishtirokchilarning umumiy saqlab turli vaqti hisoblanadi).

7. (5) mashq bajariladi, faqat o'yin tartibi – 30 sekundda qaysi jamoa ishtirokchilar maksimal marta o'tirib turadilar. Barcha ishtirokchilarning 30 sekundda umumiy o'tirib turish soni hisobga olinadi. Qaysi jamoa 30 sekundda ko'p marta o'tirib tursa, shu jamoa g'olib deb topiladi.

8. 1-jamoa ishtirokchilari 2-jamoa ishtirokchilarini o'z yelkalariga o'tqazadi. Signal berilishi bilan 1-jamoa ishtirokchilari gimnastika o'rindig'iga ketma-ket ko'tarilib tushishadi. Qaysi ishtirokchi qancha ko'tarilib tushish soni hisobga olinadi. So'ng ishtirokchilar almashiladi. Yana ko'tarilib-tushish soni hisobga olinadi. Qaysi jamoa ishtirokchilarining umumiy ko'tarilib-tushish soni ko'p bo'lsa, shu ishtirokchilar jamoasi g'olib deb topildi.

9. 1-8 o'yin mashqlariga ishtirokchilar o'z bellariga 5 kg qum to'ldirilgan belbog' boylagan sharoitda qayta bajariladi.

Yuqorida qayd etilgan 1-4 mashqlar birinchi mashg'ulotda, 5-6 mashqlar ikkinchi mashg'ulotda, 7-8 mashqlar uchinchi mashg'ulotda bajariladi.

Navbatdagi mashg'ulotlar haftasida 5 kg qum to'ldirilgan belbog'ni belga bog'lagan holatda 1-4 mashqlar birinchi mashg'ulotda, 5-6 ikkinchi, 7-8 mashqlar uchinchi mashg'ulotda bajariladi. Ana shu tartibda mashqlar almashinib shug'ullanuv tajriba guruhi tomonidan 6 oy davomida bajariladi. 6 oy - bu pedagogik tajribaning muddati.

Mazkur mashqlar majmuasining pirovard samaradorligi quyidagi testlar yordamida baholanadi:

1. Turnikda tortilish;
2. Brusyada qo'llarni bukib-yozish;
3. Gorizontaal yotgan holatda qo'llarni bukish-yozish;
4. 25 kg yukni yelkaga qo'yib o'tirib-turish.

Qayd etilgan testlarni bajarishda shug'ullanuvchining vazni e'tiborga olinadi. Tajriba guruhida 6 ta yosh voleybolchi qatnashgan bo'lib, ularning vazni 40-45 kg. ni, bo'yi esa 147-153 sm ni tashkil etgan. Olingan natijalarning minimal va maksimal ko'rsatkichlari, hamda ularning o'rtacha arifmetik ifodasi baholanagan.

Ilmiy-nazariy jihatdan kuch sifatlarini bilish va ularni yosh voleybolchilar tayyorlash amaliyotida qo'llash o'quv-mashg'ulot jarayonining prinsipial masalalaridan biridir.

Olingan pedagogik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jalb qilingan nazorat va tajriba guruhlariga mansub yosh voleybolchilarda kuch sifati deyarli bir xil zaif darajada taraqqiy etganligi qayd etildi (1 jadval).

1- jadval

Yosh voleybolchilar kuch sifatini rivojlanganlik darajasining individual ko'rsatkichlari.

		Nazorat guruh – 6 ta		Tajriba guruh – 6 ta.	
T/R	Tekshiruvchilar	1	2	3	4
Nazorat guruhi					
1.	Abduraximov E.	4	6	7	5
2.	Xodjayev M.	7	7	8	4
3.	Zaripov G'.	6	7	6	6
4.	Ulugov H.	5	5	7	5
5.	Salimov A.	3	4	6	4
6.	Abidov Sh.	5	6	9	6
		6,0	6,8	9,5	5,0
Tajriba guruhi					
1.	Maxkamov S.	4	6	11	4
2.	Muqimov A.	6	7	9	4
3.	Janibekov V.	7	8	10	6
4.	Muxsimov O.	5	6	8	5
5.	Aripov A.	5	4	7	4
6.	Achilov E.	6	6	7	6
		5,5	6,2	8,7	4,5

- Izoh: 1. – Turnikda tortilish;
 2. – Brusyada qo'llarni bukish-yozish;
 3. - Gorizotal yotgan holatda qo'llarni bukish-yozish;
 4. - 25 kg yukni yelkagacha qo'yib o'tirib-turish.

Chunonchi, nazorat guruhidagi shug'ullanuvchilarda turnikda tortilish natijalarining eng minimal va maksimal ko'rsatkichlari 3-7 marta teng bo'ldi. Brusyada qo'llarni bukish-yozish 4-7 marta, gorizotal holatda qo'llarni bukish-yozish 6-9 marta, 25 kg. Yukni yelkaga qo'yib o'tirib-turish 4-6 martani tashkil etdi.

Tajriba guruhida ham bu ko'rsatkichlar deyarli farq qilmadi. Jumladan, qayd etilgan ko'rsatkichlar muvofiq ravishda 4-7; 4-8; 7-11 va 4-6 marta atrofida bo'ldi.

Ko'rinib turibdiki, shug'ullanuvchilarning soni ikki guruhdham kam bo'lishiga qaramay, olingan barcha ko'rsatkichlarning yoyilishi kengligi (diapazoni) nisbatan katta miqdorni tashkil etyapti. Mazkur holat o'z-o'zidan shug'ullanuvchilarning kuch sifati, birinchidan zaifligini ko'rsayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularni kuch jihatdan birhil tayyorgarlikdan yiroq ekanligini namoyish etmoqda. Taqqoslash uchun shuni qayd etish joizki, L.S.Dvorkinning natijalarga ko'ra shu yoshdagi og'ir atletikachilarda turnikda tortilish 7 martada ortiq

bo'lsa, R.A.Romanning natijalari bo'yicha bu ko'rsatgich 10 martadan ortishi kerak. Brusyada qo'llarni bukib-yozish esa 16 martagacha yetishi lozim ekan.

2-jadval

Yosh voleybolchilarda kuch sifatini rivojlaganlik darajasi (X).

Testlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Turnikda tortilish	6,0	5,5
Brusyada qo'llarni bukish-yozish	6,8	6,2
Gorizontal yotgan holatda qo'llarni bukish-yozish	9,5	8,7
25 kgli yukni yelkaga qo'yib o'tirib-turish	5,0	4,5

Agar tadqiqotimiz jarayonida oligan individual ko'rsatgichlarning o'rtacha arifmetik ifodasini ko'radigan bo'lsak, unda kuch sifatini shug'ullanuvchilarda yanada zaif ekanligi ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turnikda tajriba boshlanmasdan avval 6,4 maratani tashkil etdi. Brusyada qo'llarni bukish-yozish mashqi 7,4 marta va gorizontal holatda qo'llarni bukish-yozish 8,6 martaga teng bo'ldi. 6 oylik an'anaviy mashg'ulotlardan so'ng turnikda tortilish 7,2, brusyada qo'llarni bukish-yozish 8,6, gorizontal holatda qo'llarni bukish-yozish 10,2 martagacha ortdi. Ko'rinib turibdiki, qo'llarni bukuvchi va yozuvchi mushaklarning kuchi yarim yil davomida hayolgina ortgan xolos.

3- jadval

Nazorat va tajriba guruhlarida qo'l kuchini turli mazmunli mashg'ulotlar ta'sirida o'zgarishi


T/R	Testlar	Guruh	Tajribada n avval	Tajribadan so'ng
1.	Turnikda tortilish	NG	6,4	7,2
		TG	6,2	12,6
2.	Brusyada qo'llarni bukish-yozish	NG	7,4	8,6
		TG	7,8	15,8
3.	Gorizontal holatda qo'llarni bukish-yozish	NG	8,6	10,2
		TG	9,0	18,2

Ma'lumki, voleybolchi bolalar uchun, ayniqsa qo'l mushaklarini yozuvchi-bukuvchi kuchi nihoyatda ahamiyatlidir. Shu nuqtai nazaridan brusyada va gorizontal holatda bajarilgan test mashqlari mazkur mushaklar kuchini baholaShda obyektiv mezon bo'lib hisoblanadi. Nazorat guruhida bu test ko'rsatkichlari mushaklar kuchini zaif rivojlanganligiga e'tibor qaratadi. 6 oy mobaynida brusyada va gorizontal holatda bajarilgan test natijalari muvofiq ravishda faqat 1,2 va 1,6

marta o'rganiligi an'anaviy mashg'ulotlar jarayonida shu turdagi kuchni rivojlantirishga oid mashqlar kam qo'llanilganidan darak beradi.

Tajriba guruhida qo'llanilgan o'yinsimon nostandart kuch mashqlari o'ta samarali ekanligini isbotlab beradi. Chunonchi, ushbu guruhda tajribadan avval olingan natijalar nazorat guruhiga nisbatan deyarli farq qilmadi (9 jadvalga qarang). Lekin, 6 oylik tajribadan so'ng turnikda tortilish 6,4 martaga, brusyada qo'llarni bukish-yozish 8,0 martaga va gorizontal holatda qo'llarni bukish-yozish 9,2 martaga ortdi. Bu holat qo'llanilgan eksperimental mashqlarning qanchalik samarali mohiyatga ega ekanligini namoyish etmoqda. Oyoq mushaqlari kuchini aks ettiruvchi «25 kg yukni yelkaga qo'yib o'tirib-turish» testi o'z natijalari bilan o'yin tarzida qo'llanilgan nostandart kuch mashqlarining unumli xususiyatga mansubligini ko'rsatdi (diagramma).

Nazorat va tajriba guruhlarida oyoq kuchining 6 oylik mashg'ulotlar ta'sirida o'sishi



Jumladan, nazorat guruhida oyoq kuchi tajribadan oldin 15 kg yukni yelkaga qo'yib o'tirib-turish testi bo'yicha 5,4 martani tashkil etgan bo'lsa, tajriba guruhida bu ko'rsatgich deyarli farq qilmadi, hatto hiyol kamroq ham bo'ldi (5,2 marta).

6 oylik mashg'ulotlardan so'ng esa mazkur ko'rsatgich nazorat guruhida 7,2 martagacha, tajriba guruhida 13,8 martagacha ortganligi kuzatildi. Binobarin, tajriba guruhida 6 oy mobaynida qo'llanilgan o'yinsimon nostandart kuch mashqlari o'z samaradorligini namoyish etdi.

Olingan natijalar va ularning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, ilmiy va nazariy jihatlardan asoslangan (og'irliklarsiz) va og'irliklar bilan bajariladigan o'yinsimon nostandart mashqlar qo'l-oyoq kuchini rivojlantirishda o'ta unumli ega ekan. 6 oy davomida o'tkazilgan bunday mashg'ulotlar tajribaga jalb qilingan bolalarda qiziquvchanlik va faollik xislatlarini darajada orttirdi.

Yosh voleybolchilarda kuch sifatlarini rivojlantirish bo'yicha 6 oy davomida o'tkazilgan pedagogik tajribamiz natijalari shuni ko'rsatdiki, nostandart o'yinsimon yo'nalishiga ega mashg'ulotlar shu sifatlarni an'anaviy standart mashg'ulotlarga

ko'ra smaraliroq shakllantirar ekan. Agar tadqiqot boshlanishidan avval nazorat va tajriba guruhlarida qo'l-oyoq mushaklari deyarli bir-biridan farq qilmagan bo'lsa, pedagogik tadqiqot muddati tugaganidan so'ng nostandart, o'yin mashqlari bilan shug'ullangan yosh voleybolchilarda mazkur sifatlar nisbatan ancha progressiv rivojlanganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Железняк Ю.Д., Петров П.К. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте. Учеб. пособие для студ. ВУЗов. –М.: “Академия”, 2002.
2. Pulatov A.A. Yosh voleybolchilar tezkor-kuch sifatlarini shakllanirish uslubiyati. Uslubiy qo'llanma, –T. 2008.
3. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012.
4. Boltayev Z.B. Volleybol // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik - SamDU nashriyoti, 2020.

“MUSIQA MADANIYATI” DARSLARIDA O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (BOSHLANG‘ICH SINFLAR MISOLIDA)

Pardayev S.A.¹

1. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Pardayev S.A.

Musiqa ta’limi kafedrası dotsenti, O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, O‘zbekiston, Samarqand
sobitpardayev0@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Musiqqa madaniyati” darslarida o‘quvchilarni milliy musiqqa san’atimizga bo‘lgan mehr-muhammatini oshirish, musiqani mukammal tushina bilish, qo‘shiq kuylashga doir nafas olish, diksiyani to‘g‘ri bajarish, ovoz diapozonini tarbiyalab borish va tovush chiqarish apparati-artikulyatsiyani rivojlantirishni o‘rgatish metodikasi xususida tushunchalar yoritilgan. O‘quvchilarni maktab yoshidan boshlab ijodkorlikka o‘rgatish, ularda mustaqil improvizatsiya (tasavvur) qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va musiqiy tarbiyani tashkil qilish metodikasini ishlab chiqish haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, psixologiya, estetika, axloq, talaffuz, artikulyatsiya, tasavvur, fantaziya, nutq, registr, temp, musiqiy idrok, eslash, eshitish, nafas gimnastikasi, nafas yo‘li nazariy ma’lunot, cholg‘u, ashula, xor.

Аннотация: В данной статье на занятиях «Музыкальная культура» общеобразовательных школ учащимся предлагается повысить любовь к нашему национальному музыкальному искусству, уметь в совершенстве понимать музыку, улучшить певческое дыхание и дикцию. Объясняется обучение правильному исполнению, тренировка голосового диапазона и развитие звук производящего аппарата и артикуляции. Приведена информация по обучению учащихся творчеству со школьного возраста, формированию у них навыков самостоятельной импровизации (воображения) и разработке методики организации музыкального образования.

Ключевые слова: педагогика, психология, эстетика, нравственность, произношение, артикуляция, воображение, фантазия, речь, регистр, темп, музыкальное восприятие, память, слух, дыхательная гимнастика, дыхательный теоретический материал, музыкальный инструмент, пение, хор.

Abstract: In this article, in the "Music culture" lessons of general secondary schools, the students' love for our national music art, the perfect understanding of music, the breathing of singing, diction Concepts regarding the method of teaching the correct execution, education of the voice range and the development of the sound production apparatus and articulation are explained. Information is provided on teaching students to be creative from school age, forming their independent improvisation (imagination) skills, and developing a methodology for organizing musical education.

Keywords: Pedagogy, psychology, aesthetics, morality, pronunciation, articulation, imagination, fantasy, speech, register, tempo, musical perception, memory, hearing, respiratory gymnastics, respiratory theoretical material, musical instrument, singing, chorus.

Ushbu maqolaning asosiy vazifasi etib, “Yangi O‘zbekiston” yoshlarini kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, milliy musiqqa san’atimizga bo‘lgan mehr-muhammatini oshirish, bizga qoldirilgan ota bobolarimiz tomonidan ma’naviy-musiqiy me’rosimizni butun dunyoga tanitish va targ‘ib qilish va bugungi kunning eng muhim vazifasiga aylangan.

Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musiqqa madaniyati" darslarida asosan musiqa tinglash, nazariy ma'lumot va qo'shiq kuylashlar bilan dars mashg'ulotlari olib boriladi. Ushbu jarayonda dars mashg'ulotini yakka tartibda shug'ullantirishning iloji bo'lmaydi. Chunki, butun bir sinf o'quvchilari bilan birgalikda, bir vaqtning o'zida dars mashg'ulotini olib borishni taqozo etadi. Sinfda kamida 22-25 ta o'quvchi bo'ladi. Xuddi shu tarzda ko'pchilik bo'lib shug'ullanadigan dars mashg'ulotlaridan biz: "xor" sinfi, "ashulachilar ansambli", "cholg'uvchilar ansambli", "raqs to'garagi" va boshqalarni misol tariqasida kiritishimiz mumkin.

Ko'pchilik bilan shug'ullanishning o'ziga xos prinsiplari mavjud bo'lib, bunda: o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, psixologik jarayoni va fiziologik holatini e'tiborga olish muhim masala hisoblanadi.

Bolalar bilan ishlashda kattalar bilan ishlagandan ko'ra ko'proq e'tibor va jiddiy pedagogik uslubiy yondoshuv hamda mehnat talab etiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilariga nisbatan ham pedagog, ham psixolog va ham do'st bo'la olishi zarur.

Shuningdek, birinchi sinf o'quvchilari **psixologik-fiziologik** harakterga ko'ra, ma'lum darajada xotirasi, nutqi, diqqat-e'tibori va ovoz apparatlari to'liq rivojlanmagan hamda ovoz pardalari nozik va kuchsiz bo'ladi. Shunga ko'ra bolalarni musiqaga tobora qiziqtirishda butun dars davomida ularning kayfiyatini a'lo darajada saqlashda o'qituvchi **ochiq-samimiy, shirin muomalasi va yoqimli xatti-harakatlari** bilan erishishi lozim. Birinchi darsdan boshlab o'quvchilarni musiqiy uquvlari, kuylashi hamda ovoz sifatlarini sinchiklab o'rganib, ularni uch **differensial** guruhga bo'lish lozim;

I-guruhga — iqtidorli, musiqiy o'quvi, musiqiy qobiliyati rivojlangan bolalar kiradi;

II - guruhga - musiqani aniq eshita oladigan, ammo sozga o'qituvchi ovozigga tayangan holda tusha oladigan bolalar;

III - guruhga – sozga umuman tusha olmaydigan, musiqiy o'quvi bo'sh bolalar kiradi.

Shuning uchun o'quvchilarga qo'shiqni o'rgatishdan oldin ularga unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz etib ijro etishni obdon uqtirish lozim. Bunda artikulyatsiyani to'g'ri yo'lga qo'yib, talaffuz jarayonida lablar, jag', til va albatta harflarni e'tibor bilan to'g'ri eshitalishiga qat'iy rioya etish zarur.

Hech bir musiqa asbobi inson ovozinin o'rmini bosa olmaydi. Shuning uchun ham "Musiqqa madaniyati" darslarida ovozni yoshlik chog'idan boshlab avaylab, asrab tarbiyalab borish tavsiya etiladi.

Ashula aytish ashulachiga quvonch baxsh etibgina qolmay, balki uning musiqiy faoliyatida quyidagi o'zgarishlarni paydo qiladi.

- 1. Eshitish qobiliyatini o'stiradi va rivojlantiradi;**
- 2. Nafas olish yo'llarini tartibga soladi;**
- 3. Yurak sasudik ishlashini me'yorida saqlaydi;**
- 4. Nafas gimnastikasini barpo etadi;**
- 5. Talaffuzini rivojlantiradi;**
- 6. Eslash qobiliyatini o'stiradi;**
- 7. Artikulyatsiyani rivojlantiradi.**

Demak, qo'shiq aytishni o'rgatishdan oldin, yuqorida tushintirib o'tilganidek qo'shiqchining organizmidagi o'zgarishlarini turli hayotiy misollar yordamida bolajonlar ongiga singdirish lozim. Albatta, bunday jarayonni boshlashdan oldin o'quvchilarni quyidagi qoidalardan xabardor qilib qo'yish shart va juda muhimdir.

Qo'shiq aytish qoidalari

1. Qo‘shiq aytayotganda qomatni rostlab erkin turish kerak.
 2. Qo‘shiqni mahzun, ohista va baqirmasdan kuylang. So‘zlarni aniq va burro talaffuz qiling.
 3. Qo‘shiqning urg‘uli bo‘g‘inlarini cho‘zibroq ayting.
 4. Nafasni avaylab, misra oxirigacha etkazib ishlatting.
 5. Jamoa bo‘lib qo‘shiq ijro qilinganda o‘rtoqlaringiz bilan birga kuylang.
 6. Qo‘shiq kuylaganda musiqa o‘qituvchingizning qo‘l harakatlariga qarab ko‘rsatmalarini aniq bajaring.
 7. Qo‘shiq aytayotganda avval she‘r mazmunini yaxshi tushunib oling.
- Artikulyatsiya joyida bo‘lmasa, ijro etilgan asar eshituvchiga to‘laqonli o‘z qiymatini va ma‘no mohiyatini yetkazib bera olmaydi. Vaholanki, to‘g‘ri talaffuz etish to‘g‘ri fikrlashni yo‘lga qo‘yadi.

Chunki musiqa madaniyati va musiqiy ta‘lim asoslari asosan, boshlang‘ich sinflardan boshlab yaratiladi. Boshlang‘ich musiqiy ta‘lim deganda bolalarni musiqa san‘atining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, musiqa haqidagi dastlabki bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va natijasi tushuniladi. Bu jarayonning asosiy tarkibiy qismlari – **san‘at va hayotga hissiy jihatdan yaxlit munosabat**; musiqa san‘atining ahloqiy va estetik mohiyatiga mos keladigan **musiqiy idrok**, ijrochi va tinglovchining ma‘naviy-ijodiy munosabatlarining namoyon bo‘lishi sifatidagi ko‘rinishlardir. Boshlang‘ich sinflardagi **“Musiqqa madaniyati”** darslari bolalarning **tasavvur va fantaziyalarini** rivojlantirish, **tabiat shakllari** va **san‘at shakllari** o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish, ularning umumiyligini his qilish qobiliyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Keling, har bir sinf uchun kichik maktab o‘quvchilarining musiqiy ta‘limi tuzilishining taxminiy mazmunini ko‘rib chiqamiz.

1-sinfda choraklarning asosiy tematik mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Bular Musiqa nima? U nimadan iborat? Uni kim bastalaydi? Kim ijro etadi? Kimlar tinglaydi?. Keyinchalik insonning kayfiyati va musiqadagi kayfiyatning ifodasi. Undan keyin esa musiqaning elementar janrlari bo‘lmish qo‘shiq, raqs, marsh, hazil qo‘shiqlar va nihoyat, musiqada ifodali ta‘sir kuchini baxshida etuvchi musiqiy nutqning elementlari kabi mazmunlarini aniqlash va ular haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi. Unda musiqa san‘atning alohida mustaqil shakli sifatida intonatsiya haqida, musiqaning hissiy va obrazli mazmunlari- quvnoq, g‘amgin, mayin, sokin, tantanali, hayajonli va boshqalar musiqiy elementlar haqida hikoya qilinadi. **Nutq temp, dinamika, ohang, ritm, registrlar** va boshqalar musiqaning nutq intonatsiyasi bilan aloqadorligi ko‘rsatiladi.

1. Birinchi sinfda musiqa darslarining boshlanishi, boshlang‘ich sinflarda musiqa ta‘limining muhim bosqichlaridan biridir. Shuning uchun birinchi sinf o‘quvchilarining musiqiy ta‘lim-tarbiyasiga to‘liqroq to‘xtalib diqqat-e‘tiborda bo‘lish zarur. Birinchi sinf o‘quvchilariga musiqa haqida gapirganda tushunarli va soddaroq qilib, adabiy tilda va iloji bo‘lsa mahalliy sharoitga moslab tushuntirib berish juda ham muhim hisoblanadi. Masalan: **"Radio, televidenie, konsert zallari va teatrlarda yangraydigan musiqalarni qanchalik ko‘p tinglasangiz, qanchalik ko‘p tushunsangiz, shunchalik quvonch bag‘ishlaydi"**. Bundan tashqari, mahalliy san‘atkorlarni ham misol tariqasida ta‘riflab berish, yaxshi natijalarga olib keladi. Musiqiy bilimlarini mustahkamlash borasida, yodlash uchun bolalarga qisqa va ixcham bo‘lgan musiqiy mavzularni uyga vazifa etib tayinlash tavsiya etiladi.

Musiqa mashg‘ulotlarini olib borish jarayonida quyidagi uslublarda, ko‘rgazma va tarqatma materiallardan unumli foydalanib, boz ustiga o‘qituvchining o‘zi jonli ravishda shaxsan ko‘rsatib, sodda tarzda tushintirib, namuna sifatida ijro etib bersa a‘lo natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. Bular quyidagilardan iboratdir:

a). Musiqiy tovushlarni kuylashda - qo‘shiq aytayotgan bolalarning rasmini ko‘rsatib berish, o‘qituvchining o‘zi ijro etib ko‘rsatib va birga kuylashi.

b). Cholg‘u asbobini chalishni o‘rgatishda - cholg‘uchining rasmini tarqatib, shaxsan cholib ko‘rsatish va o‘quvchilar bilan birga qo‘shilib cholish

c). Raqs harakatlarini tasvirlashda – raqqosa yoki balerinaning rasmini tarqatib berib, raqs harakatlarini jonli ravishda ko‘rsatib berish va bolalar bilan birga raqsga tushish.

d). Notalarni yozishni o‘rgatish uchun esa musiqiy nota chiziqining rasmini tarqatib so‘ngra notalarni nora chizig‘ida joylanishlarini sinf taxtasida (doskada) yozib ko‘rsatish, hamda bolalarning nota daftarida yozib o‘rganishlariga ko‘maklashishdan iborat. Xuddi shi tarzidagi uslubda darsni tashkil etilsa, albatta yuqorida keltirilgan musiqiy bilim natijalariga erishsa bo‘ladi degan umiddamiz.

Endi II- Sinfidagi jarayonni ko‘rib chiqamiz.

II, III va IV sinflardagi musiqa darslari ko‘p jihatdan I sinf o‘quvchilarining musiqiy tarbiyasining tabiiy tarzidagi davomi bo‘lib hisoblanadi va shu bilan birga, yangi bilim va ko‘nikmalar paydo bo‘la boshlaydi. Birinchi sinfda o‘zlashtirilgan bilimlarni "bekor ketmaydi" (unitilmaydi), balki bundan oldingi mavjud bo‘lgan asoslarga (bilimlarga) qo‘shimcha sifatida qo‘shilib boradi.

2. Ikkinchi sinfda musiqa rivojlanish qonuniyatlari va musiqa asarlarining kompozitsion qurilishi intonatsiya haqidagi hikoya bilan - butun musiqiy asar davomida o‘rganiladi; musiqiy va eshitish tajribalarini to‘plash davom ettirilib boriladi.

Ovoz apparatlarini nozikligi, mo‘rtligi, ovoz pardalarining to‘la shakillanmaganligi sababli ovozlari falset tizimida yangraydi. **Ovoz diapazoni (DO1 - RE2) gacha bo‘ladi**

Musiqa tinlash jarayonida turli xildagi milliy, zamonaviy va bolalarbop “hazil qo‘shiqlar hamda bastakorlik musiqi asarlari”- tinglash uchun namoish etiladi. Masalan; O‘zbek xalq kuyi “Do‘loncha”, “Andijon polkasi”, “Qari navo”, va shunga o‘xshash bolalarga xos musiqalarni ko‘plab misol keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari qo‘shiq kuylash jarayonida xalq og‘zaki ijodi me‘rosini bolalar tomonidan o‘rganilishi, ularning tub ildizlari va birlamchi manbalarini tarixiy xotira sifatida anglash muhimligi jihatidan zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Musiqiy ta‘lim mazmuniga folklori kiritishdan maqsad bolalarni milliy madaniyat va tarbiya bilan tanishtirishdan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchining oldiga - bolalarda o‘zbek xalq qo‘shiqlarini ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirish, ularda o‘z xalqining an‘analariga qiziqish va hurmatni singdirish vazifasi turibdi. Shu bilan birga, xalq madaniyatini o‘rganilgan asarlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zbek xalq qo‘shiqlarida mavjud bo‘lgan milliy muhitini chuqur o‘rganish – millatning kundalik hayoti, turmushtarzi o‘z xalqining urf-odatlarini o‘rganish juda muhimdir. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda ko‘cha sharoiti va muhiti, millat marosimlari va bayramlari yordam beradi. Shuning uchun o‘quvchilar bilan turli xil ekskursiyalar tashkil etish o‘quv jarayonining muhim qismiga aylanishi koni foydadir. Maktabda o‘qib o‘rgangan bilimlarni maktabdan tashqari ko‘cha-kuyda va ekskursiyaga chiqib o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishlari – bu bola ongining fotosintiz jarayonini rivojlantirib, esida saqlab qolishiga katta sabab bo‘ladi.

3. Uchinchi sinfda esa o‘quvchilar o‘rganilayotgan mavzu nuqtai nazaridan musiqada mustaqil harakat qila olishlari taxmin qilinadi. O‘zbek va qardosh xalqlar musiqi madaniyatining badiiy qadriyatlarini tushuna bilishlari, bastakorlar ijodidan namumalar, o‘zbek musiqasining o‘ziga xosligi va uning xalq madaniyati bilan aloqadorligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo‘lishlari nazarda tutiladi. Bolalar uchun

“o‘zbek xalq asboblari orkestri”, “uning cholg‘u asboblari guruhi” kabi tushunchalarni, “Xonandalar ansambli”, “Cholg‘uchilar ansambli”, “Raqqosalar ansambli” va “yakkaxon ashulachi”lar hamda “Yakka ijrochilik” san‘ati haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar. O‘zbekiston yurti hayotidagi “Konsert zallari”, “Musiqqa tanlov konkursdagi”, “Ashula va raqs guruhlari”, “Qo‘shiq festivallari”, “Ijrochi musiqiy guruhlar”, “teatr” va “bolalar teatri”, “kino”, “bolalar musiqqa maktabi”, “musiqiy o‘rta ta‘lim”, handa “oliy musiqqa ta‘limi muassasalaridan habardor bo‘lishlari- kelajakda o‘z o‘ziga kelayotgan yosh avlodning nozik tabiat egalari, yuksak didli, etik va estetik tarbiyaga ega bo‘lgan shaxs bo‘lib etishishlariga xizmat qiladi.

Uchinchi sinf o‘quvchilari ovoz diapazoni do1 – mi2. Shunga qaramasdan, darsning har bir elementini tajribalarga asoslanib tushuntirish lozim.

4. To‘rtinchi sinf o‘quvchilari o‘zlarining psixologik - fiziologik harakteriga ko‘ra hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo‘ladilar. Diqqat e‘tibori turg‘unlashgan bo‘ladi. Jiddiy bo‘lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatdan kattaroq bo‘lgan musiqqa asarlarini eshitishga qodir bo‘ladilar, izlanish, mushoxada qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu hususiyatlarni barchasini o‘qituvchi nixoyatda o‘ylab oqilona ish tutishi lozim. Har bir darsdan unumli foydalanishi zarur. Bundan maqsad bolalarni tezroq dasturdagi musiqqa asarlariga, dars uslubiga, musiqqa san‘atiga qiziqishidan iboratdir. 4-sinf o‘quvchilarining vokal-xor malakalari bir xilda rivojlangan bo‘lmaydi. Chunki, ba‘zi boshlang‘ich sinflarda musiqqa fanidan mutaxassislar dars berishmaydi. Mutaxassis ish olib boragan joy da esa o‘quvchilar sof unisonda kuylash, ansambl va qo‘shiqlarni me‘yoriga yetkazib, ikki ovozda kuylash darajasiga ega bo‘ladilar. **4 -sinf o‘quvchilarining ovoz diapazoni (do 1, mi 2).** 4-sinfda ham o‘quvchilarni diffirensial guruhlarga bo‘lib o‘rgatish lozim bo‘ladi, Chunki, ularning bu davrda ovozlari jarangdor, yoqimtov, kuliminatsion rivojlangan davri hisoblanadi. Shuning uchun, darsda ko‘proq kuylatish maqsadga muvofiqdir.

Biz aminmizki, agar o‘rta maktab “musiqqa madaniyati” o‘qituvchilari o‘z ish jarayonlari davomida manashu yuqoridagi barcha tavsiya etilgan pedagogik faoliyatdagi metodik uslublarga qattiq rioya qilgan holda ish olib borsalar kelajak hayotdagi ezgi pedagogik maqsadlarga erishiladi albatta

Bu jarayonda pedagog turli zamonaviy uslublar- (tarqatma material, o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lish, texnik vositalardan foydalanish va interfaol uslublarni qo‘llash) dan foydalanib o‘quvchilarni dars mashg‘uloti jarayonida zerikishiga, ularning mashg‘ulotga qiziqib qatnashishini so‘ndirmaslikka va aksincha ularni jonli bilan mashg‘ulotga qatnashishlarini yo‘lga sola olishni bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. **Chunki o‘quvchilarning ongli ravishda o‘zlarini chin dildan xohlab darsda ishtirok etishini ta‘minlay olish bu - o‘quvchilarning bayramona kayfiyatda bo‘lib, ovoz paylarning a‘lo darajada ishlashini ta‘minlab beradi.**

Xuddi shu yo‘sindagi ish uslubidan maqsad: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy hayotga qiziqishini jonlantirish va shu bilan birga ovozni tarbiyalab borishni ta‘minlaydi. Shuning uchun **pedagog xodim** dars mashg‘uloti davomida bor pedagogic mahoratini ishga solib, o‘quvchilarni zeriktirmay darsni sermazmun bo‘lishini ta‘minlay olishi shart. Maqsad o‘quvchi bolalarni estetik tarbiyasini rivojlantirib, go‘zallikni ongli ravishda tushunish va anglay olishini ta‘minlashdan iboratdir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki – inson ovozini musiqiy sistemada eng noyob va eng murakkab hamda o‘ta nozik musiqiy asbob deb aytishimiz mumkin. Agar biror bir musiqiy asbob nosoz bo‘lsa, yoki sozi buzilgan bo‘lsa, uni sozlaydigan mexanizmlaridan foydalanib uyoq-buyoqini burab sozlab olishimiz mumkin bo‘ladi.

Ammo inson ovozi buzilib qolsa uning tuzatishning hojati yo‘q. Bunday holatni xalq tilida “ falonchining obozi buzilgan,yoki obozi yirtilgan degan gaplar yuradi. Yuqoridagi barcha ezgu fikrlarimizga tayangan holda, kelajakimiz bo‘lgan yoshlarimizni to‘g‘ri tarbiyalab borish bu albatta mehribon murabbiy ustozlarimiz zimmasidadir. Garchand ustoz muallim o‘zi mashg‘ulot olib borayotgan sinf o‘quvchilari uchun ularning ko‘zida “muallim-ustoz” bo‘lib ko‘rinsada, ammo o‘quvchilari uchun do‘st, sirdosh va kerak bo‘lsa, o‘z bolasidek mehr bilan yondoshishi lozim. Shundagina zamonaviy pedagogik talablarga javob bera oladigan pedagog xodimlar yetishib chiqishini ta‘minlab bergan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev. Dillarni dillarga, ellarni ellarga payvand etadigan san‘at //Xalqaro maqom san‘ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. Xalq so‘zi, 7 sentabr, 2018 y.

1. A. Haydarov, I.Yuldashev. “Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san‘atning o‘rni” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya maqolalar to‘plami. “Oltin meros Press” nashriyoti. 2020-y.

3. N. Norxo‘jayev. Musiqa. 1-2-sinflar. Darslik. 2018-y. Musiqa. 3-Sinf. Darslik. 2016-y Toshkent. G‘.G‘ulom nashriyoti.

FINLANDIYADA UZLUKSIZ TA'LIM VA O'QITUVCHILAR TAYYORLASH TIZIMI

O.A.Qo'ysinov¹
F.A.Xamroyeva²

1. Xalqaro Nordik universiteti, Toshkent, O'zbekiston
2. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchilar ta'limi, o'qituvchilar ta'limining tarixiy asoslari, hozir amal qilayotgan o'qituvchilar ta'limining o'quv dasturi va tamoyillari to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan. Finlandiya va O'zbekiston ta'lim tizimi qiyosiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xorijiy tajriba, xalqaro ta'lim, Finlandiya ta'lim tizimi, o'qituvchilar ta'limi, o'quv dastur, fan, didaktika, samardorlik, tadqiqot, natija.

Аннотация: В этой статье обсуждаются характеристики финской системы образования, педагогического образования, исторические основы педагогического образования в Финляндии, действующая учебная программа педагогического образования в Финляндии, а также ее основные особенности и принципы. Подробно освещена информация об этом и проведен сравнительный анализ системы образования Узбекистана с финским образованием.

Ключевые слова: зарубежный опыт, международное образование, финская система образования, педагогическое образование, учебная программа, наука, дидактика, эффективность, исследование, результат.

Qo'ysinov O.A.
Xalqaro Nordik
universiteti, Toshkent,
O'zbekiston

Xamroyeva F.A.
Biologiya va geografiya
kafedrasini mudiri,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston
hamroyeva87@mail.ru

Abstract: In this article, the characteristics of the Finnish education system, teacher education, the historical basis of teacher education in Finland, the current teacher education curriculum in Finland and its main features and principles are discussed. Information about it was covered in detail and a comparative analysis of the education system of Uzbekistan with Finnish education was carried out.

Key words: Foreign experience, international education, Finnish education system, teacher education, curriculum, science, didactics, efficiency, research, result.

Kirish

Jahonda bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faoliyatini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Mamlakatimizda nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyatni rivojlantirish asosiy vazifa etib belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati, ilg'or tajribalari muhim ahamiyatga ega. Chunki, o'qituvchi ilm-ma'rifatli kadrlar tayyorlash, o'quvchilarni turli sohalarga yo'naltirish, uzluksiz ta'lim jarayonlarida islohotlarni amalga oshirish, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash, xorijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish, ta'lim jarayonini yangilash, o'qitish metodikasi, shakl va metodlarini qo'llashda ilm-ma'rifatga asoslanish kabilarni amalga oshirishga mas'ul shaxs hisoblanadi. Shu boisdan xalqaro jahon tajribasini o'rganish va xalqaro ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni tahlil etish dolzarb hisoblanadi. Butun dunyo mamlakatlari o'qituvchilari va siyosatchilarning diqqat markazida bo'lgan ta'lim-Finlandiya ta'lim tizimidir. Finlandiya o'n yildan ortiq vaqt davomida 15 yoshli

bolalari OECD xalqaro baholash dasturida (PISA) doimiy ravishda eng yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda.

Finlandiyaning muvaffaqiyati bu – o'qituvchilardir. O'qituvchilarning yuqori sifatli mashg'ulotlarni olib borishi uchun quyidagi tamoyillar asosiy omildir:

- maqomi va mustaqilligi;
- maqsadli ravishda tenglikka yo'naltirilgan izchil ta'lim siyosati;
- maktablarning markazlashmagan nazoratidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Finlandiya ta'lim tizimi uchun eng muhim davr 1967-1974 yillar oralig'idagi davr bo'lgan. 1967-yilda Finlandiya parlamentida ilgari surilgan takliflarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada, 11-12 yoshdagi o'quvchilarning o'quv yoki kasbiy ta'limga bo'lgan "oqimi" umumiy keng qamrovli ta'limga o'tkazildi, qaror qabul qilish vakolatlari markazlashtirilmadi. Barcha o'qituvchilar uchun universitetlarda (bolalar bog'chasidan tashqari) ta'lim olish talab qilindi. Maktablarni oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash muntazam yo'lga qo'yildi [10].

Hozirgi vaqtda Finlandiyada umumiy, kasbiy va oliy ta'lim barcha fuqarolarga "bepul" beriladi va kattalar ta'limi ham qisman qo'llab-quvvatlanadi. Umumiy va kasb-hunar ta'limi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi hamda davlat tomonidan ham, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ham moliyalashtiriladi. Yigirmata universitet – oliy o'quv yurtlari (shundan o'ntasi pedagogik ta'lim) hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. Maktablarning o'quv dasturlarini tuzish huquqi va mas'uliyati ta'limga bog'liq provayderlar - asosan mahalliy munitsipalitetlar va maktablardir. Qonunchilikka ko'ra, ta'lim beruvchilar o'quv dasturini mahalliy sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar mas'uliyati yuklangan idoralar bilan hamkorlikda "maktabning ish muhiti, mahalliy qiymat tanlovi va maxsus resurslar"ni hisobga olgan holda ishlab chiqishlari shart. U nafaqat "umumiy ta'limning yuqori standartlari, balki butun jamiyatning birgalikda belgilangan maqsad va tartiblariga sodiqligini" ta'minlaydigan tarzda amalga oshiriladi [5].

Finlandiyada o'qituvchilar uchun ta'lim dasturini shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Ta'lim tizimining yana bir muhim xususiyati ta'lim tizimidagi ishonch va hamkorlik madaniyatidir. Ta'lim tizimini tartibsiz nazorat qilish va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishga kuchli e'tibor mavjud emas. Faqat o'n ikki yillik maktabning oxirgi imtihoni mavjud, xolos [3].

Finlandiya ta'lim tizimining hozirgi tuzilishi quyidagicha:

Maktabgacha ta'lim (6 yosh va undan past): 2001-yildan boshlab barcha oilalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga tahsil olish imkoniyati berildi. Natijada taxminan 96% bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga borishiga erishildi. Maktabgacha ta'lim muassaasi pedagog-o'qituvchilari kamida bakalavr darajasiga ega bo'lishi shart qilindi.

Umum o'rta ta'lim maktabi: "Asosiy" ta'lim deb ham ataladi va quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- *Boshlang'ich bosqich* (1-6-sinflar): O'quvchilarga ta'lim berish uchun kamida mutaxassisligi bo'yicha magistr darajasiga ega bo'lishi kerak bo'lgan "sinf o'qituvchilari" zimmasiga yuklanadi.

- *O'rta ta'limning quyi darajasi* (7-9-sinflar): O'quvchilarga bir yoki ikkita fan (shuningdek, pedagogika) bo'yicha ixtisoslashgan kamida mutaxassisligi bo'yicha magistr darajasiga ega bo'lishi kerak bo'lgan "fan o'qituvchilari" dars beradilar.

Asosiy ta'lim davrida barcha moddiy resurslar, oziq-ovqat va transport davlat tomonidan ta'minlanadi. O'quvchilarning yarmidan ozrog'i 9-12 sinflar uchun "Kasb-hunar maktablar"ini, qolganlari esa o'rta maktablarni tanlaydilar.

Yuqori o'rta maktab (10-12-sinflar): O'quvchini oliy (akademik) ta'limga tayyorlaydi. O'rta maktabning oxirida o'quvchilar to'rta fan bo'yicha (qolganlari ixtiyoriy) yagona rasmiy "imtihon" ni topshiradilar, bu ularga o'qishga kirish to'g'risidagi guvohnoma va oliy ta'lim olish huquqini beradi.

Kasb-hunar maktablari: Yuqori o'rta ta'lim kabi, ular ham umumta'lim maktablari o'quvchilarini qabul qiladi va ularni maktabdan keyin darhol ishga tayyorlaydi. Boshqa mamlakatlardagi kasb-hunar maktablaridan farqli o'laroq, ular asosan "shogirdlik" maqomida tashkil etiladi. Biroq, ko'plab o'quvchilar bakalavr darajasini olish uchun texnik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlariga kirishni davom ettiradilar. Kasb-hunar maktablarining o'qituvchilari texnik oliy o'quv yurtlarida ixtisoslashtirilgan o'quv reja bo'yicha tayyorlanadi.

Finlandiya maktablaridagi o'qituvchilarni ma'lumoti va ish sohasi bo'yicha maktabgacha ta'lim o'qituvchisi, hunarmandchilik va texnologiya fani o'qituvchisi, musiqa o'qituvchisi va boshqalar kabi toifalarga bo'lish mumkin. Biroq, har bir toifadagi o'qituvchilar turli o'quv dasturlari asosida tayyorlanadi.

1970-yilda "O'qituvchilar ta'limi to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan Finlandiya ta'limi muvaffaqiyatida asosiy o'rinni egallagan katta islohot amalga oshirildi. Yangi tashkil etilgan umumta'lim maktablari uchun ham, o'rta maktablar uchun ham o'qituvchilar tayyorlash oliy o'quv yurtlariga topshirildi. Ko'pchilik universitetlar ikki bo'limga bo'lingan: umumiy ilmiy va fan sohasidagi ta'lim va pedagogik ta'limi yo'nalishlari. Birinchisi: umumiy ilmiy va fan ta'lim sohasida tadqiqot olib borish va rejalashtirishdagi muammolar ustida ishlash asosiy yo'nalish sifatida berilgan bo'lsa, ikkinchisi: pedagogik ta'limiga ya'ni o'qitish va o'qituvchilar ta'limi sohasidagi tadqiqotlarga e'tibor qaratildi [6].

Bo'lajak o'qituvchilarning boshlang'ich ta'limi barcha o'qituvchilar uchun umumiy va keng malakaga ega bo'lishi talab etiladi. Bu umumiy asos keyinchalik malaka oshirishda moslashuvchan tarzda to'ldirilishi mumkin. Pedagogika fanini shunday rivojlantirish kerakki, o'qituvchilar o'qituvchi bo'lishga tayyor bo'lishlari va o'z o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional o'sishiga hissa qo'shishlari lozim. O'qituvchilar o'z ishiga eng so'nggi tadqiqotlarga asoslangan pedagogik, optimistik munosabatda bo'lishlari hamda nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishi, shuningdek, o'quv fanlari va pedagogik fanlar yanada muvaffaqiyatli birlashtirilishi kerak. O'qituvchi ta'limi jamiyat va ta'lim siyosatini o'rganishdan iborat.

Bugungi kunda Finlandiyada o'qituvchilar ta'limini kuchli tadqiqotga yo'naltirilganligi va hamkorligini ko'rishimiz mumkin. 1979-yilda o'tkazilgan

keyingi islohotdan so'ng, umumta'lim maktablari va o'rta maktab o'qituvchilari uchun zarur bo'lgan minimal malaka taxminan besh yillik qattiq o'quv va amaliy ishlarni talab qiladigan magistr darajasi sifatida belgilandi. Bu uchta asosiy maqsadga xizmat qildi: birinchisi, boshlang'ich va o'rta maktab ta'limini birlashtirib, ularni ikkalasiga ham "umumiy o'zak" berdi; ikkinchisi, boshlang'ich darajadagi o'qituvchilar yuqori akademik standartlarga javob berdi; uchinchisi, yuqori hamda o'rta maktab o'qituvchilari ham pedagogik fanlar bo'yicha tayyorlandi [5].

Ikki bosqichli daraja tizimiga o'tish endi barcha o'qituvchilarga 3 yillik bakalavriat va ikki yillik magistr darajasiga ega bo'lishlari kerak bo'ldi (bog'cha o'qituvchilaridan tashqari – faqat bakalavr darajasi kerak).

Sinf o'qituvchilari: Bu o'qituvchilar umumta'lim maktablarining quyi sinflari (1-6) uchun mas'uldirlar. Ular odatda o'zlari shug'ullanadigan sinfga tegishli barcha fanlarni o'rgatadi va o'quvchilarning "butun shaxsiy rivojlanishi" uchun ham javobgardir. O'quvchilar sinfga ko'tarilganda, o'qituvchilar ular bilan birga harakat qilishadi. **Fan o'qituvchilari** umumta'lim maktablarining yuqori bosqichlarida (7-9) va yuqori o'rta maktablarda dars berishadi. Ular odatda bir yoki ikkita fan bo'yicha ixtisoslashgan va faqat shularni o'rgatishadi.

Ikkala toifadagi o'qituvchilarning o'qituvchilarni tayyorlash o'quv dasturlaridagi farqlariga qaramay quyidagi keng guruhlariga bo'lish mumkin [5]:

- akademik fanlar;
- pedagogik tadqiqotlar;
- hamkorlik;
- til va AKT tadqiqotlari;
- shaxsiy o'quv reja;
- ixtiyoriy tadqiqotlar.

O'qituvchilar uchun o'quv dasturining quyidagi tamoyillari mavjud:

1. Mustaqillik, mas'uliyat va ishonch. Finlandiya pedagogik ta'limning zahirida barcha darajadagi o'qituvchilar nafaqat mustaqil mutaxassislar balki, "o'z sohalari bo'yicha mutaxassis bo'lishi kerak",- degan ishonch yotadi va turli xil muammolarni (pedagogik, ma'muriy, oila yoki jamoa bilan bog'liq, hatto mahalliy sanoat bilan aloqalar) mustaqil ravishda va o'z hamkasblari va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikda yechimini topadi. O'qituvchida bu fazilatlarining rivojlanishi, bir tomondan, o'qituvchilik kasbini Finlandiyada eng ko'p talab qilinadigan va nufuzli kasblardan biriga aylantirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ma'murlar va siyosatchilarga o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'quvchilarni baholash vazifalarini o'qituvchilarga deyarli to'liq "topshirish" imkonini beradigan ishonch asosini tashkil qildi. O'qituvchilar va maktab direktorlari o'quv dasturlarini ishlab chiqishda asosiy rol o'ynaydi. Pedagogik ta'lim ularga o'quv dasturi bo'yicha yaxshi rivojlangan bilim va rejalashtirish ko'nikmalarini beradi. Bundan tashqari, o'quv dasturlarini loyihalash kasbiy rivojlanishni tizimli, nazariy jihatdan takomillashtirishga yordam beradi.

2. Tadqiqotga asoslangan yondashuv. Mustaqillik, mas'uliyat va ishonch tamoyili bilan bog'liq bo'lib, jiddiy tadqiqotga asoslangan yondashuvni qabul qilish tamoyilidir. Ushbu tamoyil ortida turgan ikkita asosiy maqsadni ajratib ko'rsatish

muhimdir. Birinchisi, bo'lajak o'qituvchilarga o'z faoliyat sohasidagi so'nggi tadqiqotlardan xabardor bo'lish, shuningdek, yangi bilimlarni qo'shish imkonini beradi. Ammo, ikkinchi eng katta maqsad, o'z e'tiqodlari va amaliyotlari haqida fikr yurita oladigan o'qituvchilarni rivojlantirishdir. Bo'lajak fan o'qituvchilari uchun tadqiqotga asoslangan pedagogik ta'limning maqsadi: *“O'qituvchilarga mustaqil fikrlash va mantiqiy dalillar orqali amalda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga yordam beradigan ta'lim berishdir”*.

3. Nazariya va amaliyot bo'yicha integratsiyaga urg'u. Finlandiya pedagogik ta'limining uchinchi belgilovchi tamoyili - bu o'qish jarayonida nazariy jihatlarni amaliyot bilan qattiq integratsiya qilishdir [9].

Sinf va fan o'qituvchilarining o'quv dasturlari hamda ularning asosiy xususiyatlari

Finlandiya o'qituvchilari uchun o'quv dasturining umumiy yadrosi asosan “pedagogik tadqiqotlar”dan iborat. 60 kredit (ya'ni bir o'quv yiliga yaqin) bo'lgan ushbu fanlar pedagogik bilim va kompetensiyalarini olish uchun (qonun hujjatlariga muvofiq) majburiy hisoblanadi. Bu darajani magistratura bilan parallel ravishda yoki uni tugatgandan keyin ham olishi mumkin. (Ammo, odatda, sinf o'qituvchilari uchun pedagogika fanlari kurs davomida o'qitiladi; fan o'qituvchilari uchun esa 3-kursda yoki undan keyin boshlanadi). U asosan didaktikaga urg'u berilgan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Pedagogika fanining maqsadi: pedagogik o'zaro ta'sirni o'rganish, o'z o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'quv reja, maktab jamoasi, o'quvchilarning yoshi va o'quv salohiyati asosida o'qitishni rejalashtirish, o'rgatish va baholashni o'rganish imkoniyatlarini yaratishdir. Shuningdek, o'quvchilar, boshqa fan o'qituvchilar, ota-onalar va manfaatdor ijtimoiy jamiyat vakillari bilan qanday hamkorlik qilishni o'rganadilar [6].

Til va muloqot kurslari odatda ona tili va chet tillari kurslariga bo'linadi. Birinchisi og'zaki muloqot, nutq va madaniyat, sinfdagi muloqot, nutq ta'limi didaktikasi, yozma muloqot va akademik yozish ko'nikmalarini va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisining maqsadi: talabalarga xorijiy adabiyotlar (ayniqsa, ilmiy maqolalar, kitoblar va h.k.) bilan tanishish imkonini beradigan yetarli malakani ta'minlashdir. Xuddi shunday, AKT bo'yicha tadqiqotlar ham besh yil davomida kursning muntazam qismi hisoblanadi, ayniqsa, tadqiqot, o'qitish va hamkorlik uchun AKTdan foydalanishga urg'u beriladi.

Natijalar


Finlandiya universitetida o'qish o'qituvchilarning ta'lim dasturlarini o'z ichiga olgan shaxsiy rejani tayyorlash majburiy holga keltirildi.

Sinf o'qituvchilari uchun asosiy o'rganish mavzusi “ta'limni tizimli o'rganish - o'qitish, tadqiqot va didaktikaga e'tibor qaratish”dir. Shunday qilib, sinf o'qituvchilari ta'limining o'quv rejasi yuqorida tavsiflangan umumiy fanlardan tashqari quyidagi uchta fan guruhidan iborat:

1. Ta'lim fanlari. Asosiy kurs sifatida ta'lim fanlari besh yil davomida o'tiladi va uchta ierarxik darajaga bo'linadi: *umumiy ta'lim, oraliq tadqiqotlar ilg'or tadqiqotlar*.

2. O'quv loyihasi. Ikki qismdan iborat: birinchisida tadqiqot mavzulari, nazariy asoslar va taklif etilayotgan tadqiqot usullari, adabiyotlar so'rovi va boshqalar taqdim etiladi; ikkinchisida esa dastlabki xulosalar va hisobot loyihasi taqdim etiladi, ular yanada takomillashtiriladi. Magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot usullari bo'yicha kurs o'quv loyihasining rivojlanishi bilan birga keladi. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi - sinf o'qituvchilari ta'limining muhim tarkibiy qismi odatda sinf mavzulari (yoki umumiy ta'lim) bilan bog'liq.

3. Amaliy mashg'ulotlar. Bir qator amaliyotlardan iborat (kirish, asosiy amaliyot, dala amaliyoti va pedagogik amaliyot). Kirish va asosiy amaliyot odatda universitet huzuridagi maxsus tayyorlangan o'qituvchilarga ega bo'lgan o'quv maktablarida o'tkazilishi mumkin, ular o'z talabalariga dars berayotganda ham talaba-o'qituvchilarga ustozlik qila oladilar. Dala va o'qitish amaliyoti ko'pincha shahar maktablarida amalga oshiriladi. Tengdoshlarni baholash, fikr-mulohazalar va guruh muhokamaları amaliy tadqiqotlarda juda muhim rol o'ynaydi.




Didaktik fanlar (ko'p tarmoqli tadqiqotlar)

Sinf o'qituvchilari barcha fanlar (1-6 sinflar) uchun mas'ul bo'lganligi sababli, ushbu kursning maqsadi o'quvchilarning fanlar bo'yicha yetarli ko'nikmalarga va ular bilan bog'liq asosiy didaktik ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun sinf o'qituvchisi sifatida ishlashlari mumkin. Ona tili va matematikani o'rganish barcha talabalar uchun majburiydir. Sinf o'qituvchisi-talabalar bir yoki ikkita "kichik" fanlarni tanlash imkoniyatiga ega. O'quv fanlaridan (matematika, fani va boshqalar) tashqari ular AKT, boshlang'ich ta'lim, musiqa kabi fanlarni ham tanlashlari mumkin.

Fan o'qituvchilarining o'quv dasturi

Sinf o'qituvchilarining va fan o'qituvchilari o'rtasidagi asosiy farq shundaki, fan o'qituvchilari o'zlari o'qitadigan fan (matematika yoki geografiya) bo'yicha mutaxassisdir.



Talabalar odatda o'z qiziqishlari yuqori bo'lgan universitet fakultetlariga hujjat topshirishadi. Agar talabalar ikkinchi kursda o'qishning belgilangan mezonlariga javob bersa, ularga pedagogik ta'lim yo'nalishlarida o'qish imkoniyati taklif etiladi. Buni tanlaganlar uchinchi kursdan pedagogika fanidan bitta kursni (umumiy asosiy, 60 AKTS) va boshqa maktab fanlaridan kamida bittasini tanlab o'qishni boshlaydilar. Buning natijasida ko'pchilik fan o'qituvchilari odatda kamida ikkita fandan dars berishlari mumkin

MUHOKAMA. Finlandiya va O'zbekistondagi o'qituvchilar ta'limini qisqacha qiyosiy tahlil qilsak, quyidagi farqlarni ko'rish mumkin:

1. Finlandiyada maktabgacha ta'lim tashkiloti (bog'cha)larida ishlash uchun bakalavr darajasi talab etiladi. Maktabda sinf o'qituvchisi bo'lib ishlash uchun Pedagogika universitetining magistratura bo'limini tugatgan bo'lishi shart. Oliy ta'lim muassasasini tugatmagan talaba ta'lim muassasalariga ta'lim berish huquqiga ega emas. Mamlakatimiz maktablarida o'qituvchilik qilayotgan kadrlarimizning aksariyati bakalavr darajasiga egadir. Maktabgacha ta'lim tashkilot (bog'cha)larida esa o'rta maxsus diplomiga ega kadrlarni ham uchratishimiz mumkin.

2. Finlandiya ta'lim tizimi kuchli ishonch va ochiqlik asosida qurilgan. O'qituvchilar ta'lim sifati va samaradorligiga mas'ul etib belgilanadi va ularga ishonch bildiriladi, faoliyati nazorat qilinmaydi. Bizda o'qituvchining ta'lim berishdagi faoliyati, dars sifat va samaradorligi doimiy nazorat ostiga olingan. Ta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan olib boriladigan dars tahlillari o'qituvchi faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan.

3. Finlandiyada o'qituvchilar faoliyati ta'limga oid so'nggi tadqiqotlarga qaratilgan. O'qituvchilar doimiy ravishda o'z ustida mustaqil ishlaydi, ilmiy izlanishlar olib boradi. Bizning maktablarimizda ta'limga oid ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan o'qituvchilar sanoqlidir.

4. Finlandiyada ta'lim jarayoning nazariy jihatlari amaliyot bilan qattiq integratsiyalashgan. Bizning maktablarimizda nazariy bilim kuchli beriladi, ammo o'quvchilarning olgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash jarayoni sust boradi.

5. Finlandiya maktabgacha, maktab va oliy ta'limidagi islohotlar asoschisi o'qituvchilar hisoblanadi. Ular mavjud Milliy dasturni boyitish qo'shimchalar kiritish yoki tubdan o'zgartirish huquqiga ega. Finlandiya ta'lim tizimiga Milliy dastur ko'rsatma sifatida beriladi. Mazmun-mohiyatini boyitish, o'zgartirishlar kiritish, mavzulashtirish professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Afsuski, bizda tayyor dastur asosida o'qituvchilar dars o'tishadi. O'qituvchilar dasturda ko'rsatilgan mavzulardan chetga chiqmagan holda ta'lim berishadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Finlandiya ta'limining muvaffaqiyati ortida tenglik va izchil, birgalikdagi sa'y-harakatlardir. Hozirgi ta'lim tizimining ba'zi asosiy xususiyatlari, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarda o'qituvchilar ta'limidagi islohotlar Finlandiya ta'limi rivojining kalitidir. Bu islohotlardan biri "milliyashtirilgan, standartlashtirilgan" testlarni bekor qilish edi. "Fin maktablari o'quvchilar muvaffaqiyatini aniqlash uchun standartlashtirilgan testlardan foydalanmaydi. Buning uchta asosiy sababi bor. Birinchidan, baholash amaliyoti milliy o'quv dasturida yaxshi asoslangan bo'lsa-da, Finlandiyada ta'lim siyosati maktablar faoliyatining muhim qismi sifatida individual ta'lim va ijodkorlikka yuqori ustuvorlik beradi. Shuning uchun har bir o'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati statistik ko'rsatkichlarga qaraganda ko'proq uning individual taraqqiyoti va qobiliyatiga qarab baholanadi. Ikkinchidan, ta'limni ishlab chiquvchilar o'quv dasturlari, o'qitish va maktablarda test o'tkazish emas, balki, o'qituvchilarning amaliyotini kuchaytirishi kerakligini ta'kidlaydilar. Finlandiya maktablarida o'quvchilarni baholash o'quv va o'quv jarayoniga kiritilgan bo'lib, butun o'quv yili davomida o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini yaxshilash uchun foydalaniladi. Uchinchidan, Finlandiyada o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlarini aniqlash tashqi baholovchilarning emas, maktabning mas'uliyati sifatida qaraladi. Demak, bizning mamlakatimiz ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etis uchun ilg'or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi va ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish, o'qituvchilarga bo'lgan ishonchni ortirish, pedagoglarni o'zi ishiga bo'lgan ma'suliyatni oshirish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chung J., Tsuruta Y. (2010). Finlandiyaning PISA'dagi muvaffaqiyati sabablarini tekshirish. Taqqoslang: Jurnal Of Qiyosiy va xalqaro Ta'lim, 40(4), 551-553.
2. Anders J. (2011-yil, 12-dekabr). Finlandiyadan, qiziqarli maktab islohoti modeli.
3. Xankok L. (2011-yil, sentyabr). Nima uchun Finlandiya maktablari muvaffaqiyatli?

4. Dobbins M., Martens K. (2012). "Finlandiya"ga ta'limga yondashuvmi? frantsuz Ta'lim Siyosat PISA dan keyin. //Jurnal Of Ta'lim Siyosat, 27(1), 23-43.
5. Niemi H., Jakku-Sixvonen R. O'rta maktab o'qituvchilarining o'qituvchilar ta'limi bo'yicha o'quv dasturi.
6. Kansanen P. Finlandiyada o'qituvchilar ta'limi: joriy modellar va yangi rivojlanish.
7. Asunta T. Finlandiyada o'qituvchilar ta'limini rivojlantirish: malaka oshirish va o'qitish.
8. Kupiainen S. (2008). Finlandiya ta'lim tizimi va PISA.
9. Sahlberg P. (2010). Finlandiya muvaffaqiyatining siri: o'qituvchilarni tarbiyalash. Stenford Markaz uchun Imkoniyat ichida Ta'lim.
10. Laukkanen R. (2006) Finlandiyaning barcha uchun yuqori darajadagi ta'lim strategiyasi.
11. Куйсинов О.А., Уразова М.Б. О сущности и роли проектировочной деятельности в профессиональном развитии учителя. //Science and world. International scientific journal. №5 (21), 2015, Том 2.
12. Kuysinov O.A. va boshq. New Uzbekistan. The value of Membership in the Continuous Education System «International journal of special education» Scopus Journal. 3209-3225 p. ISSN No:0827-3383 VOLUME 37, №3. – 2022.

OLIV O'QUV YURLARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION USUL VA VOSITALARDAN FOYDALANISH –PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

O.Rashidova¹

1.O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Rashidova O.
Pedagogika fakulteti
magistranti, O'zbekiston-
Finlandiya pedagogika
instituti, Samarqand,
O'zbekiston
aoynisa@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonining asosiy qismi mustaqil ta'limga ajratilmoqda va bu talabalar bilimni baholashning asosiy ko'rsatkichi sifatida qaralmoqda. Shu sababli, ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishning innovatsion usul va vositalari mavzusiga bag'ishlangan. Ushbu maqolada birinchi navbatda mustaqil ta'limning nima ekanligi so'ngra mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va vositalari tasvirlangan. Talabalarning mustaqil ishlari xususiyatlariga ko'ra alohida muhokama qilinadi. Ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning ahamiyati ilmiy va amaliy jihatdan asoslanadi. Mustaqil ta'limni tashkil etish yo'llari haqidagi mavjud materiallar asosida shakllantirilgan. Ma'lumki, bugungi kunda mustaqil ta'lim ustida ko'plab yangiliklar qilingan va talabalar uchun yanada foydali bo'lishi uchun zamonaviy, innovatsion usul va vositalar yo'lga qo'yilib kelinmoqda. Ammo shunga qaramay Oliy ta'lim tizimida hozirgi davr dolzarb masalasi-mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil etish va uni amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalami mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirish hisoblanadi. Shuning uchun ushbu maqolada talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda qo'llaniladigan zamonaviy shakllarning pedagogik muammolari, mustaqil ta'lim yuklanmasining talabalar uchun kamligi, topshiriqning osonligi (ya'ni qo'lda daftarga oddiy konspekt yoki referat tayyorlash va kompyuter xizmatlaridan tayyorini sotib olish orqali tayyorlash) muammolari aytib o'tiladi. So'ngra, ularni innovatsion usul va vositalar yordamida hal qilish yo'llarini ochib berishga harakat qilinadi.

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, mustaqil ta'lim shakllari va turlari, zamonaviy mustaqil ta'limdagi kamchiliklar, ularni hal qilishga innovatsion yechimlar, talabalar mustaqil ta'limni bajarishda amal qilishi kerak bo'lgan talablar.*

Аннотация: В настоящее время основная часть образовательного процесса в высших учебных заведениях отведена самостоятельному обучению, и это рассматривается как основной показатель оценки знаний студентов. Поэтому данная статья посвящена теме инновационных методов и средств организации самостоятельного образовательного процесса в высших учебных заведениях. В данной статье, прежде всего, описывается, что такое независимое образование, а затем описываются формы и средства организации независимого образования. Самостоятельные работы студентов обсуждаются отдельно с учетом их особенностей. Важность самостоятельного образования в образовательном процессе научно и практически обоснована. Сформировано на основе существующих материалов о способах организации самостоятельного образования. Известно, что сегодня в самостоятельное образование внесено много инноваций, внедряются современные, инновационные методы и инструменты, делающие его более полезным для учащихся. Но, несмотря на это, актуальным вопросом современности в системе высшего образования является правильная организация самостоятельного образования и системной работы по его реализации, обучение студентов работать самостоятельно, творчески и социально активно,

социально - это формирование нового поколения кадры, обладающие навыками самостоятельного поиска своего места в политической жизни. Поэтому в данной статье рассматриваются педагогические проблемы современных форм, используемых при организации самостоятельной работы учащихся, малая нагрузка самостоятельного обучения учащихся, удобство выполнения задания (то есть подготовка простого конспекта или конспекта в тетради-пособии) и подготовка его путем покупки готового в компьютерных сервисах) упоминаются проблемы. Затем они попытаются найти пути их решения, используя инновационные методы и инструменты.

Ключевые слова: *самостоятельное образование, формы и виды самостоятельного образования, недостатки современного самостоятельного образования, инновационные решения их решения, требования, которым должны следовать обучающиеся при осуществлении самостоятельного образования.*

Abstract: At present, the main part of the educational process in higher educational institutions is allocated to independent education, and this is considered as the main indicator of evaluating students' knowledge. Therefore, this article is devoted to the topic of innovative methods and means of organizing the independent education process in higher education institutions. In this article, first of all, what is independent education, and then the forms and means of organizing independent education are described. Students' independent works are discussed separately according to their characteristics. The importance of independent education in the educational process is scientifically and practically based. Formed on the basis of existing materials on ways to organize independent education. It is known that today many innovations have been made in independent education and modern, innovative methods and tools are being introduced to make it more useful for students. But despite this, the urgent issue of the present time in the higher education system is the proper organization of independent education and systematic work in its implementation, teaching students to work independently, creatively and socially active, socially - is to form a new generation of personnel who have the skills to find their place independently in political life. Therefore, in this article, the pedagogical problems of modern forms used in the organization of independent work of students, the low workload of independent education for students, the convenience of the task (that is, preparing a simple outline or summary in a manual notebook and preparing it by purchasing a ready-made one from computer services) problems are mentioned. Then, they will be tried to find ways to solve them using innovative methods and tools.

Keywords: *independent education, forms and types of independent education, shortcomings in modern independent education, innovative solutions to solve them, requirements that students should follow in the implementation of independent education.*

Introduction

According to the current requirements, one of the most important tasks facing higher educational institutions is to train knowledgeable, intelligent and competitive specialists who can meet the world educational standards. In order to fulfill this task, the proper organization of independent education in the activities of students in higher education institutions is an important factor. Therefore, many opinions have been expressed about the systematic and proper organization of independent education in the higher education system. In this matter, Chapter 3 of the Concept

of the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030 entitled "Strategic Goals and Priority Areas of the Development of the Higher Education System" entitled "Expanding coverage with higher education, highly educated specialists" "Increasing the share of independent education hours, students' independent education, critical and creative thinking, systematic analysis" is mentioned in §1, entitled "increasing the quality of training". (The concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 (2019).). In this paragraph, special attention is paid to the development of the necessary competencies of specialists, creative creativity, inquisitiveness, and logical thinking through continuous improvement of independent education and independent work skills of learners.

Taking into account the above, the proper organization of independent education in the activities of students today is an urgent issue of education. We can see the relevance of independent education from the following definition. "The student's independent work is a systematic activity aimed at mastering by the student a certain part of the knowledge, skills and qualifications indicated in the curriculum for a specific subject based on the advice and recommendations of the subject teacher outside the classroom." (Kurbanova B.N. (2023)

It is known that teaching students to work independently will help them to become mature specialists who can solve life problems not only in their specialty. In addition, if independent education is systematically and correctly organized, if sufficient conditions are created for the student to work independently, if the opportunity to use modern techniques and technologies is created, then the student's independent mastery of science is the fundamental basis of student learning. and can help the student's professional development, creative approach and intellectual development.

During the academic year, lectures, practical and various laboratory classes are systematically conducted in higher educational institutions under the guidance of the teacher in order to increase the knowledge of students. In this process, students try to get the necessary level of knowledge from each lesson. But these activities cannot make future students sufficiently educated. Therefore, the role of independent education in the development of students as mature individuals is incomparable. Its systematic and correct organization depends on the level of professionalism of the higher education institution and subject teachers. Improper organization of independent education in students' activities can lead to poor development of creativity, ability to solve problems in any situation, free speech, and creativity.

Experiments and many observations show that only when a student works independently, he learns deeply and accurately, and they develop the ability to work independently and develop an interest in creative work. Therefore, one of the main tasks of the higher education institution is to create all the educational and methodological support necessary for the proper organization of the independent education process of my student. In addition, although independent education in the higher education system is organized through modern pedagogical technologies, we can clearly observe many problems in them:

a) Lack of systematic organization of independent education (Teacher gives students tasks prepared in the same form from the 1st to the 4th year, i.e. writing abstracts and summaries. As a result, the student remains an ordinary robot, and the student lacks creativity in general ability is disappearing. A student entering the first year does not have enough skills of independent study and independent work, and it is correct to give him the task of independent education in this form. However, 2-3-4 - the students of the course have developed a lot of skills and competences during these periods. Therefore, it is necessary to systematically organize their independent work from simple to complex).

b) The goal of forming creativity is not provided for in the independent education of students. That is, the lack of creativity in the student by doing the task given by the teacher. This problem is directly related to the science teacher. In order to solve this problem, the teacher should give students tasks that make them think, solve a certain problem, think critically, and compare information based on their level. Through this, the student increases his knowledge, gains self-confidence, and develops the ability to get out of any situation in the course of his future work.

c) Failure to apply the completed independent education in practice (verbal evaluation by the teacher and failure to test it in practice). As a result, the students' ability to speak freely is not formed, and the student cannot get rid of his excitement. Therefore, it is appropriate for teachers to evaluate independent education after testing it in practice.

d) The fact that independent education is not directed to a certain problem, that is, its individuality. As a result, the student considers independent education as a simple task. In order to solve this problem, the teacher should have a creative approach to the student's independent work, focus the topics of independent education on solving some problem, give him enough motivation to interest the student, and teach him how to find the necessary resources. In addition, the teacher must always manage independent work, not allow arbitrariness in their organization, establish a control system defined in the educational standard, and objectively help students at all stages of their studies. Through this, every student strives to learn independently, and they develop the skills of problem solving, critical thinking, and a responsible approach.

Literature review

According to B.N.Kurbanova, "Independent education is a type of learning from subjects in educational institutions, in which students consciously set one or other tasks and goals based on different educational methods based on a creative approach to themselves, z is determined by the ability to plan and implement activities and self-evaluation".(Kurbanova B.N. (2023)) It is clear from this definition that it is important that planning of independent education is based on a creative approach and that it is done consciously by the student. That is, creativity (lat., ing. "create" - creation, "creative" creator) means the creation of innovation by a person, as well as the creative ability that is part of talent as an independent factor. A person's creativity is reflected in his thinking, communication, feelings, and specific activities. Therefore, the concept of being creative is inextricably linked

with independent learning activities, and this is one of the main goals of the process of independent learning.

According to O. A. Koysinov, "Setting the goal of independent education and its ability to acquire independent knowledge, independent work, creativity, practical application of acquired knowledge, self-control skills and opportunities in students" formation is the basis for ensuring general professional development". (Muslimov N.A. (2007))

According to professors R. Kh. Djurayev and S. T. Turgunov, "independent education is a process of personal actions aimed at learning the experience of ancestors, scientific and technical achievements with the help of tools and literature chosen by a person. A person's inner world, emotions, and ability to think independently play a key role in this". (Turgunov S.T., Maksudova L.A. (2009))

Research Methodology

The student's independent work serves to develop the thinking of any future professional. In general, it can be said that it is a type of training that increases the cognitive activity of students and encourages them to think independently. Independent education plays an important role in student activity. For this reason, each University determines the forms of independent education based on the specific characteristics of the studied subject. First of all, the professor-teacher teaching the subject should instill confidence in the student's abilities and mental capabilities, and patiently, step by step, teach him how to properly organize independent learning. Taking into account the expansion and growth of the knowledge and skills acquired by each student during the course, it is necessary to complicate their future forms of independent education and increase their initiative and role. Only then, a student who performs independent education understands that he should not only do the work given by the professor, but also that he can do it independently based on his interest and ability. Independent education in higher education institutions has the following goals:

- 1) Deepening and expansion of knowledge;
- 2) Formation of interest in creative activity;
- 3) Acquisition of educational methods;
- 4) Development of creative abilities of conscious understanding and independent, creative, critical thinking;
- 5) Formation of skills of making independent conclusions;
- 6) Creating a basis for engaging in research or methodological activities;
- 7) Speech development;
- 8) Forming a connection between theory and practice;
- 9) Formation of independence in educational activities;
- 10) Formation of creativity;
- 11) Ability to analyze literature;
- 12) Work with electronic educational literature and data bank;
- 13) purposeful use of the Internet;
- 14) Searching for necessary information, identifying convenient methods and means of learning.

In the effective implementation of these goals, it would be appropriate to define the topics of independent work based on the following innovative methods in the development of the subject science program in higher educational institutions:

- Independent work topics are created based on problems with a solution based on the information covered in one or more of the main topics of the educational subject;

- Raising of one or several small-to-small problems, solution and preventive measures;

- Of course, it is based on experience, laboratory testing or other practice;

- Briefly describe the knowledge acquired for oneself in the conclusion;

- The introduction of small inventions or discoveries (for example: create a new method that develops the student's logical thinking), the introduction of a number of interesting activities, examples, problems, etc.;

- When giving independent education to a student, the teacher mentions the names of three or four literatures related to that topic (Because the student compares the books by reading them and becomes interested in what he is doing);

- Creation and improvement of the mechanism of organization and control of students' independent work;

- Evaluation of the independent studies prepared by the students by the teacher in the standard evaluation system of the educational system;

- The amount of independent education should be determined not by the teachers, but by the student, depending on whether the subject is complex or easy;

- Depending on the level of students' ability to work independently, increase the volume of independent work by semester starting from the 1st semester, move from simple tasks to more complex tasks, and expand the forms of independent work (Mahmudova O.Y. (2023));

Independent education organized through these innovative methods helps to adequately form independent educational goals in any student.

Independent education of students in institutions of higher education is manifested in the following forms:

- Independent learning of subjects with the help of regulatory and legal documents and educational literature, comparison of literature, and discussion of differences;

- Preparation of abstracts on topics (mainly in the 1st year);

- Preparing for seminars and practical training;

- Preparation of scientific articles and thesis (with the help of the teacher);

- Preparation of projects covering current problems of science;

№	Forms of independent work	Types of independent work
1	Independent work in reproductive form	<ul style="list-style-type: none"> - independent assimilation of some themes of science with the help of educational literature, working with educational resources and summarizing; - Independent study and synopsis of Laws of the Republic of Uzbekistan, works and reports of the President of the Republic of Uzbekistan, Presidential decrees, decrees, Cabinet of Ministers and other regulatory documents; - watching, listening and summarizing lectures via video and audio; - viewing, hearing and mastering slides, video materials through multimedia tools; - returning educational materials, memorizing, etc
2	Independent works in the form of comprehension-search (search).	<ul style="list-style-type: none"> - independently prepare information, visual aids, study lectures and other materials; - performing calculation and analytical work, solving tests; - delivering lectures at seminars, practical and other trainings; - doing homework, control work, presentations, abstracts, case studies, etc.
3	Independent work in the form of creative work	<ul style="list-style-type: none"> - preparation and defense of essays, term papers and graduation qualification papers; - participation in research and preparation of scientific reports; - participation in scientific circles of students; - participation in scientific and practical conferences, preparation and publication of scientific articles.

- Application of theoretical knowledge in practice, experiments;
- Finding solutions to existing problems in practice, studying them;
- Writing comments to the main scientific literature on the studied topic;
- Creating various methods, games, methods based on the scope of science;




Fig. 1. Forms of independent work.

Table 1.

Forms and types of independent education. (Toshkent, <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/openlesson/download.php?id=22462>)

Students' independent work is usually carried out in the following processes:

1. In the process of the lesson - that is, in the process of giving tasks related to lectures, practical, seminar, and laboratory training.
2. Together with the professor-teacher, in addition to classroom training, giving advice during direct communication, performing individual tasks, etc.
3. At home, in the library, in the student dormitory, and in the department, the student is in the process of completing educational and creative assignments.

It is known from the above that independent work can be done by students not only outside the auditorium but also during class.

Organization of independent education of professors and teachers in the higher education system continues in the following stages:

- Involving students in independent work;
- Control them;
- Evaluation according to students' actions;
- Give a clear, short summary based on the tasks performed by the students;

Students should follow the following when preparing and completing independent assignments:

- when choosing independent educational tasks related to lectures, ensure their consistency with the topics studied in the auditorium;
- achieving a clear description of the topics to be studied independently at home and the main questions that should be studied;
- taking into account the proportionality of practical training tasks with the studied theoretical educational materials;
- taking into account the creation of existing methodical developments related to practical work, independent work;
- making a clear list of examples and issues that need to be solved independently;

- information support of independent work assignments, including the list of literature, pages, electronic training manuals and Internet addresses, etc. (Toshkent, <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/openlesson/download.php/?id=22462>)

In the process of independent education, each student learns new educational literature, learns theoretical material, develops knowledge-giving activities through practice, forms a system of knowledge by forming practical skills and experiences. In this case, educational literature serves as the main source of knowledge. In the process of reading textbooks and educational literature, the student performs various thinking activities, searches for the information he needs, compares them to each other, classifies and receives the necessary information. As a result of this, the most important feature of students' educational activities independence is formed .

In many developed countries, the development of society is inextricably linked with the development of higher education, and the development of science and technology based on modern information technologies increases the need for independent education in society. This means raising the student's independent education in educational institutions to a new level. Therefore, in all the world's top 100 higher education institutions, independent study sessions are the main and most part of the educational process. For example: Oxford University, one of the most prestigious universities in the world, allows its master's students to study 2 days a week, and the remaining 4 days to study independently. And this independent education is provided by sufficient sources of information resources, a large, convenient library, laboratory, experimental areas, and most importantly, a peaceful and relaxing environment for students to carry out. In addition, when choosing the subject of independent education, its scientificity, systematicity, relevance to current needs, interrelationship of disciplines, as well as the creative nature of independent work are of great importance. The main thing is that students' aspirations and interests are taken into account by organizing independent educational activities.

Summary

In short, the role of independent education is incomparable in the current world education system in the implementation of the goal of increasing the effectiveness of education. For this reason, many studies and innovations are being done on this process. But there are some shortcomings. Therefore, the problems observed and their innovative solutions were mentioned in this article. In addition, more specific information about independent education and understanding of its types, forms, and importance on this day were given. These ideas will help students to acquire knowledge more deeply, to have the ability to think independently and freely.

References

1. Israilova G. & Abdurahimov S. Social and political activity of the youth of Uzbekistan. In International Conference on Interdisciplinary Research and Innovative Technologies (Vol. 2, pp. 231-235).
2. Kurbanova B.N. Didactic possibilities of organizing independent education based on a creative approach in higher education institutions. //Journal of Social Management. 2023.

3. Kurbanova B.N. Modern forms of organizing students' independent work as a pedagogical problem. //International scientific journal volume 2 issue 2 February 2023 uif-2022; 8.2| isn: 2181-3337 scientists.uz.
4. Mahmudova O.Y. Innovative organization of independent education of students and tools. article Novateur publications //Journal INX - multidisciplinary peer-reviewed journal ISSN №: 2581 -4230 VOLUME 9, SON, March -2023.
5. Muslimov N.A. Theoretical-methodical foundations of professional formation of vocational education teachers: Ped. science. doc. diss. – T., 2007. – 315 p.
6. Odilova M. Problems of using Gat technologies in organizing students' independent educational process in higher educational institutions. //Education and innovative research (2022 year #6). ISSN 2181-1717 (E)
7. Tashkent State Pedagogical University. The text of the lecture. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/openlesson/download.php/?id=22462>
8. The concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 (2019) PF-5847 –T., October 8, 2019.
9. Turgunov S.T. Maksudova L.A. (2009) Organization and management of pedagogical processes. – T: "Science", 2009. – 168.
10. Yoldoshev J.G. Modern Lesson. Qualification improvement; problems, studies, solutions. //Xtxqtmom. –T. in the name of A. Avloni; 2017.
11. Zakirov D. Creating new methods of organizing students' independent education in higher education institutions. //Academic research in educational sciences.2022.

MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI TALABALARINING CHOLG'U IJROCHILIGI FANI ORQALI IJROCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

D.S.Samatova¹
Sh.N.Omanqulova²

1.2.O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalari musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarining cholg'u ijrochiligi malakalarini mukammal egallashi va kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, cholg'u ijrochiligi kompetensiyalarini pedagogik faoliyat jarayonida qo'llashi, cholg'u ijrochiligi fani orqali talabalarining ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar tahlil etilgan. Shu bilan birga cholg'u ijrochiligi kompetensiyalari mazmuni keltirilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa ta'limi yo'nalishi talabasi, cholg'u ijrochiligi, ijrochilik kompetensiyalari, pedagogik faoliyat, musiqa madaniyati darslari, o'qituvchi, o'quvchi, rubob cholg'usi.

Samatova D.S.
Musiqa ta'limi kafedrasini assistenti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston
samatovadilnoza1983@gmail.com

Аннотация: В статье основное внимание уделяется совершенствованию музыкального образования студентов высших учебных заведений и их подготовке к профессиональной деятельности, применению музыкально-исполнительских компетенций в педагогическом процессе, а также педагогическому развитию исполнительских компетенций студентов посредством науки о музыкально-исполнительском процессе. анализ подробно описан. При этом представлено содержание исполнительских компетенций на музыкальных инструментах.

Omanqulova Sh.N.
Musiqa ta'limi kafedrasini dotsenti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston
shohida.omanqulova@mail.ru

Ключевые слова: студент музыкального образования, игра на музыкальных инструментах, исполнительские компетенции, педагогическая деятельность, уроки музыкальной культуры, педагог, ученик, инструмент рубаб.

Abstract: The article focuses on the perfect mastery of music education students of higher educational institutions and their preparation for professional activities, the application of musical performance competencies in the pedagogical process, and the pedagogical development of students' performance competencies through the science of musical performance process analysis is covered in detail. At the same time, the content of musical instrument performance competencies is presented.

Key words: music education student, musical instrument performance, performance competencies, pedagogical activity, music culture lessons, teacher, student, rubob instrument player.

O'zbek xalqining bebaho boyliklaridan biri hisoblanmish milliy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezaklarining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi.

Musiqiy cholg'ular azal-azaldan o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shuningdek, ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o'ziga xos xususiyatga egadir. Ayniqsa cholg'u ijrochiligi san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Uning barcha o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amaliyotini yanada boyitishga yordam beradi.

Hozirgi davr madaniy hayotimizni san'at turlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu hol ayniqsa musiqa san'ati timsolida yorqin namoyon bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, musiqa namunalari an'anaviy bayram va tomoshalardan tashqari yana bizga hamroh, kundalik turmush tarzimizda bizga "yo'ldosh" bo'lib bormoqda. Shu bilan birga musiqaning turli daraja va saviyalarda bo'lgan namunalari hamda ularning turfa ijrolari bilan bog'liq holda madaniy hayotimizda bir qadar murakkab ko'rinishli "vaziyatlar" ham yuzaga kelmoqda. Bu o'rinda ijro etilayotgan musiqa asarida milliy cholg'ularining ham ahamiyati borligini nazarda tutish kerak, albatta.

Asrlar davomida shakllangan va xalqimizning ma'naviy hayotidan muhim o'rin olgan milliy cholg'ularning bu jarayonda tutayotgan o'rni benihoya muhimligi bilan ham ahamiyatlidir. Bugungi kunda, tanbur, dutor, sato, doira, qonun, nay kabi yana ko'plab milliy cholg'ularimizni turli ansambl va ijodiy jamoalar (orkestrlar) tarkibida, hatto estrada guruhlari tomonidan yangicha talqinlarda qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi milliy cholg'ularimizning boy tembr-tarovati va texnik imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

Qashqar rubobining asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg'ur avtonom okrugi)ning Qashqar degan joy nomi bilan bog'liq bo'lsa-da, o'zbek milliy cholg'ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholg'u hisoblanadi. Qashqar rubobi chalishga qulayligi sababli ko'p o'rganuvchilar cholg'u o'rganishni aynan shu cholg'uda boshlaydi. Cholg'u o'rganishni endigina o'zlashtirayotganlarning 50 foizidan ortig'i ana shu cholg'udan foydalanishi bizga ma'lum. Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo'lib, nisbatan tez o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan cholg'ular qatoriga kiradi. Bu cholg'u yakka holda va cholg'u jamoalari tarkibida ishlatilishi mumkin [2].

Qadimgi ruboblar hozirgi biz qo'llayotgan qashqar rubobi ko'rinishidan keskin farq qilgan, lekin negizi bir-biri bilan bog'liqdir. Qadimiy ruboblar besh torli bo'lgan. To'rtta tori ipakdan, bittasi esa kumushdan yasalgan.

Bu cholg'uning kelib chiqish tarixi to'g'risida turli manbalarda turlicha ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan Al-Forobiy (X asr) o'z davrining musiqa cholg'ularini tavsiflar ekan, rubobda bir-biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligini uning afzalliklaridan biri deb hisoblaydi. Darvesh Ali (XVII asr) "Musiqqa haqida risola" asarida musiqa cholg'ularining tuzilishini bayon qilar ekan, "Rubob torli musiqa cholg'usi. O'rta Osiyoda Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220 yillar) davrida tarqaldi. Shu davrda Xorazmshoh saroyida tengi yo'q rubob chaluvchi usta Mahmud yashar edi. Rubobda beshta tor bo'lib, ulardan to'rttasi ipakdan va bittasi kumushdan edi" [5],- deb yozadi. Qashqar rubobi hozirda yakkanavoz soz sifatida o'zbek xalq ansambllarida yetakchi o'rinni egallaydi. Diapazoni kichik oktava Iya tovushidan uchinchi oktava Iya tovushigacha. Hozirgi qashqar rubobida beshta tor mavjud. To'rttasi metall aralashmasidan, bittasi ichak yoki ipakdan qilinadi. Sozlanishi kvarta va kvarta-kvinta oralig'ida bo'ladi, ya'ni birinchi tor Iya tovushiga, ikkinchi tor mi tovushiga, uchinchi tor Iya yoki si tovushlariga sozlanadi.

Qashqar rubobining ommalashuvida katta hissa qo'shgan, ustozlik darajasiga yetgan sozandalar: Muhammadjon Mirzayev, Ergash Shukrullayev, Shavkat Mirzayev, Olimboy Rahmonov, Ari Boboxonov, Orif Atoyev, Tohir Rajabiy, Hikmat Rajabovlarni misol keltirishi mumkin.

Bugungi kunda musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy faoliyatida cholg'u ijrochiligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, tor doiradagi yangi mutaxassis emas, balki ijrochilik malakalarini mukammal egallagan, pedagogik madaniyatiga, boy shaxsiy va ijodiy salohiyatiga ega bo'lgan o'qituvchini sifat jihatidan yangi shakllangan musiqa ta'limi o'qituvchisini tayyorlash muammosi, ayniqsa, dolzarbdir. Musiqa o'qituvchisining faoliyati samaradorligini faqat yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahorat bilan ta'minlash mumkin. Shu ma'noda musiqa ta'limi yo'nalishida kasbga tayyorlanayotgan mutaxassislar yuqoridagi keltirilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari cholg'u ijrochiligi fani orqali torli cholg'ular guruhiga kiruvchi, o'zbek xalq cholg'ulari orasida eng ko'p tarqalgani "qashqar rubobi"ning tarixi, tuzilishi, ijrochilik imkoniyatlari, ijrochilik xususiyatlari, qashqar rubobida o'zining ijro uslubiga ega bo'lgan mashhur sozandalar-bastakorlar haqida kengroq ma'lumot ega bo'ladi va bu orqali ularning ijrochilik kompetensiyalari ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek cholg'u ijrochiligi darslarida talabalar qashqar rubobida ijrochilik texnikalarini oshirib borishlari uchun ko'plab mashqlar, etyud va gammalar bilan shug'ullanish metodikasi bilan tanishadi. Qashqar rubobi uchun yaratilgan pyesalar va yirik shakldagi asarlar hamda o'zbek va chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan asarlarni pedagogikaning oddiydan murakkablikka qarab borish prinsipi orqali o'rganib borishi talabalarni ijrochilik kompetensiyalarini yanada boyitadi.

60111300-Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalariga o'quv reja asosida o'qitilib kelinayotgan "Cholg'u ijrochiligi" fani quyidagi maqsad va vazifalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

"Cholg'u ijrochiligi" fanining maqsadi – talabalarning o'quv jarayonida olgan bilimlarini mutaxassis sifatida mujassamlashtirish, keyingi o'qituvchilik faoliyatida cholg'u asboblarda ijro etishni tashkil qilish yo'llarini, talaba va o'quvchilarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilish, madaniy merosga to'g'ri yondashishga, ularning tafakkur va hissiyotlarini rivojlantirib borib, g'oyaviy-badiiy va ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iborat[7].

Ushbu fan orqali talabalar cholg'uda milliy musiqiy asarlar va milliy xalq kuylarini yuksak badiiy did bilan ijro etish malakalarini takomillashtirishga alohida e'tibor beriladi. Darslar jarayonida ta'limning tarbiya bilan mushtarakligiga erishish maqsadida, talabalar yuksak axloqiylik, milliy ong, milliy tuyg'u, milliy iftixor, Vatanni sevish va ardoqlash hislarini tarbiyalab borish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi. Talabalarning dastlabki bosqichlarda olgan bilim, ko'nikma va malakalari yanada mustahkamlashlari lozim. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'zbek xalq kuylari, MDH davlatlari kompozitorlarining eng sara cholg'u asarlari hamda xorijiy kompozitorlar va Yevropa klassik kompozitorlari tomonidan yaratilgan musiqiy asarlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Cholg'u ijrochiligi fanining vazifalari – «Cholg'u ijrochiligi» bo'yicha talabalarni cholg'u ijrochiligi tarixi, ijrochilikda cholg'ularning shakllantirilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi, ansamblarni tashkil qilish haqidagi nazariy va amaliy bilimga ega bo'lish, ijrodagi usullar (cholg'u zarblari, usullari, shtrixlari). Bezaklardan unumli foydalana olish, cholg'ular ijrosida unison va ko'p ovoqli musiqiy asarlarni o'rganish, tahlil qila olish, cholg'ular haqida qiziqarli suhbatlar o'tkaza olish, umumta'lim maktablarida turli xil ansamblarni tashkil eta olish,

repertuar tanlay olish, konsert chiqishlarini uyushtirish malakalarini egallashdan iborat. Musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni shakllantirish; musiqiy-estetik qarashlar, ularda yuksak badiiy musiqiy didni shakllantirishdan iborat[7].

Talabalarning ushbu fanni o'zlashtirishlari uchun ular turli xil texnik ijroga erishishlari va zamonaviy cholg'u usullarida kompetentlikka erishishlari, ijro etish ishlarini mavjud darslik, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar va ko'rgazmali vositalardan unumli foydalanib, dastur tuzishlari hamda uni amalda bajara olishlari kerak. Bunda asosan, talabalar nazariy ma'lumotlarni o'rganish, uni amaliy ijro bilan birgalikda olib borish hamda pedagogik faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishi kerak.

Cholg'u ijrochiligi fanining o'qitilishi orqali egallanishi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar.

1. Amaliy mashg'ulotlar mazmun-mohiyatini o'rganish uchun talabalar avvalam bor quyidagi kompetensiyalarni egallashi lozim:

- ✓ o'zbek musiqasi rivojida cholg'u sozlarining tutgan o'rni;
- ✓ milliy cholg'u sozlari va boshqa sozlar bilan uyg'unligi;
- ✓ cholg'ularning kelib chiqish tarixi;
- ✓ ijrochilik texnikasini oshirish;
- ✓ cholg'ularning ijro imkoniyatlari;
- ✓ taniqli sozandalar haqida tarixiy va nazariy bilimlarni egallash;
- ✓ ijrochilikda melezmlarning qo'llanilishi kabilar.

2. Cholg'ularni to'g'ri asrash, sim taqish, xarrak o'rnatish va sozlash malakalarini o'zlashtirishlari kerak. Cholg'uga qo'l va barmoqlarni joylashtirish, bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasida noxun tutish va to'g'ri tovush chiqarish malakalarini singdirib borish [6]: Endi oddiy mashqlar, gammalar, etyudlar emas, balki, murakkab gamma, etyud va mashqlar hamda ancha yuksak ijro mahoratini talab qiladigan kuy va pyesalar chalishni o'zlashtirib borish, murakkab zarblarni o'rganishlari ham maqsadga molikdir. Cholg'uda chalish texnikasini bosqichma – bosqich o'stirib borish, asarlarni ravon, jarangli ifoda vositalariga amal qilgan holda ijro etish texnikasini o'zlashtirib borish hamda ijro paytida yuksak mahorat bilan cholg'ularni ijro etishlari lozim.

Quyida talabalarga "Hojiniyoz" o'zbek xalq kuyini qashqar rubobida ijro etishni o'rgatish pedagogik jihatdan yoritib berilgan.

1. O'zbek xalq kuylari turkumidan "Hojiniyoz" kuyini o'rganishdan oldin O'zbek xalq kuylari haqida qisqacha ma'lumotlarni eslab o'tamiz. "O'zbek xalq kuylari bizgacha musiqashunos olimlar tomonidan mohir sozandalar ijrosidan notalarga olingan. "Hojiniyoz" kuyi M.Muhammedov ijrosidan O'.Rasulov tomonidan notaga olingan. Mutaxassislarining yozishlaricha qachonlardir o'zbek xalq kuylari muayyan bastakorlar tomonidan yaratilib, xalq orasida mashhur bo'lgan, yillar o'tib keyinchalik muallifi unutilgan, balki noma'lum bo'lgan asarlar o'zbek xalq kuylari turkumiga kiritilgan bo'lishi mumkin. "Hojiniyoz", "Abdurahmonbegi", "Aliqambar" kabi asarlar bastakorlarning o'zlarini nomlari bilan atalgan"[2].

2. "Hojiniyoz" kuyi ko'plab mohir sozandalar tomonidan ijro qilingan va oltin merosdan joy olgan. Bu kuyini ijro etishdan oldin uning yozib olingan tasmlarini diqqat bilan tinglash lozim.

Kuyni o‘rganishni boshlashdan avval qo‘llarni qizdirish mashqlarini ijro etish zarur. 1 va 2-mashqlar o‘ng qo‘l uchun, 3-mashq chap qol uchun. Albatta sanab barmoqlarni toliqtirmagan holda, barmoqlarni birinchi bo‘g‘inini bukib tik bosgan holatda ijro etish zarur agarda toliqsa bo‘g‘inni ozgina orqaga tortgan holatda bajarilsa ham bo‘ladi.(1-2-rasmlar)

(1-rasm)

1-mashq.



(2-rasm)

2-mashq.



3. “Hojiniyoz” kuyi d-moll tonalligida yozilgan 3 qismli asar. Ushbu maqolada 1 va 2 – qismlari kiritilgan. Kuy chiroyli ijro etilishi sozandadan mohirlikni talab etadi. Kuyni ijro etishda qochirimlar, melizmlarni o‘z o‘rnida ishlatib, applikatura asosida chalish maqsadga muvofiqdir (3-rasm). Kuyda chiroyli nolalarni ishlatish tinglovchini yuragidan joy olishga imkoniyat yaratadi. Asar tekis silliq yozilgan, avjida notalarda sakrashlar uchraydi, shtrixlar rang – barang keladi, rezlar mayinlik bilan ijro etiladi.

(3-rasm)



4. Asarning 2-qismida usul o‘zgaradi. (4-rasm) Bu qismida ham bidratmalar, har xil melizmlar bilan mohirona ijro etishni talab etadi va oxrida 10 takt 1-qismdagi fraza qaytarilib, tempi ham o‘zgaradi.

(4-rasm)



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samatova D. Cholgʻu ijrochiligi (Oliy taʼlim muassalari uchun oʻquv qoʻllanma). –Toshkent: Fan bulogʻi nashriyoti, 2023.
2. Akbarov I. Musiqa lugʻati. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1997.
4. Qudratov I., Odilov A. Cholgʻu asboblari ijrochilik koʻnikma va malakalarni shakllantirish. – Samarqand: SamDU, 2015.
5. Rahimov Sh., Saidov A. Sharq allomalarining musiqiy qarashlari. – Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2011.
6. Hamroqulov R.B. Cholgʻu ijrochiligi. – Samarqand: SamDU, 2022.

Elektron taʼlim resurslar

1. <https://uz.wikipedia.org/>

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA ERTAKLARNI PIRLS MASHQLARI ORQALI O‘QITISH USULLARI

F.T.Shodiyev¹

1.2. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya: PIRLS tadqiqotlari orqali turli ta‘lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlar to‘rtinchi sinf bitiruvchilarining o‘qish sifati va o‘qilgan matni tushunish darajasi tekshiriladi. Bu tadqiqotlarga to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining tanlanishi shu bilan e‘tiborliki, aynan o‘qishning ushbu yilida o‘quvchilar o‘qishning yuqori saviyaga ega bo‘lishi, ularning keyingi ta‘limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi davrga erkin moslashuviga ko‘maklashadi. Bu jarayonga biz quyi sinf o‘quvchilarini tayyorlashni badiiy asar turlaridan biri ertaklarni PIRLS formatida o‘qitish misolida tadqiq etdik.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash, ertaklar g‘oyasi, o‘qish savodxonligi, PIRLS tadqiqoti, dars o‘tish metodikasi, topshiriqlar mazmuni.

Shodiyev F.T.

O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim
nazariyasi kafedrasini
mudiri, filologiya fanlari
nomzodi, dotsent.
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O‘zbekiston
shodiyevbt@gmail.com

Аннотация: С помощью исследования PIRLS исследуется качество чтения и уровень понимания прочитанного текста выпускниками четвертых классов стран с разной системой образования. Примечательно, что для данного обучения были отобраны учащиеся четвертого класса, так что в этом году обучения у учащихся высокий уровень учебы, у них формируется способность к получению знаний в дальнейшем обучении, и таким образом они свободны к текущему периоду, помощь в адаптации. Подготовку младших школьников к этому процессу мы изучали на примере обучения сказкам как одному из видов художественного произведения в формате PIRLS.

Ключевые слова: международная оценка, идея сказки, читательская грамотность, исследование PIRLS, методика преподавания, содержание заданий.

Abstract: The PIRLS study examines the reading quality and level of comprehension of the text read by fourth-grade graduates from countries with different educational systems. It is noteworthy that fourth grade students were selected for this training, so that this year of study the students have a high level of study, they are developing the ability to acquire knowledge in further education, and thus they are free for the current period. , assistance in adaptation. We studied the preparation of primary schoolchildren for this process using the example of teaching fairy tales as one of the types of works of art in the PIRLS format.

Keywords: international assessment, the idea of fairy tales, reading literacy, PIRLS research, teaching methodology, the content of tasks.

Olamning aksi adabiyotda ko‘zgulanadi. Insoniyat tafakkuri esa adabiyotda ezgulikni tarannum etadi. Bunda har bir gapning, iboraning, so‘zning qudrati namayon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, adabiyot so‘z san‘atidir, shu sababli ona tilini puxta o‘zlashtirmasdan turib, adabiyotning go‘zalligi va qudratini anglab bo‘lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslarida amalga oshirish lozim bo‘lgan asosiy masala o‘quvchida so‘zga qiziqish va e‘tibor hissini muntazam sur‘atda o‘stirib borishdan, ularga so‘zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o‘rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog‘lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rganish, u yoki bu fan bo‘yicha o‘rganilayotgan voqea-hodisa

haqida o'quvchida jonli mushohada qilish malakasini o'stiradi. Bu bilan o'quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'qituvchi ona tili, adabiyot hamda o'zbek tili fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog'lagan holda o'qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o'rni bilan bog'laydi va o'quvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o'quvchini ijodiy fikrlash, matnni tushunishga o'rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Yosh avlod ma'naviyatini rivojlantirish o'zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar va ularni o'zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an'ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Bunda, jumladan, o'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi. Bu jarayonda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, so'zni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, so'zlarni o'rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to'g'ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi. Til o'rganishda uzluksiz ta'limning boshlang'ich va umumiy o'rta bosqichlarida til ta'limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik va, muhimi, umumdidaktik va o'ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

O'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi. O'zbekistonning PIRLS-2021 baholash tizimida ishtirok etishi yuzasidan 25-yanvar kuni tashkil etilgan rasmiy uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan xalqaro baholash tadqiqotlar, jumladan, OECD tashkiloti bilan PISA-2021 xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Tadqiqot davriy ravishda - har besh yilda bir marta o'tkaziladi va hozirgacha besh marta: 2001, 2006, 2011, 2016 va 2021-yillarda o'tkazilgan.

PIRLS o'qish ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Davlatlar PIRLSdan global miqyosida ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini kuzatib borish, yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish, ta'limning zaif nuqtalarini

belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish, PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish, adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib borish va o'qishni va o'qitishni o'rganish kabi maqsadlarda foydalanadi.

Ko'pchilik davlatlarda bolalar 6 yoshdan maktabda o'qishni boshlashadi. Ammo Angliya va Yangi Zelandiyada ta'lim 5 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun, loyihada 4-sinfdan emas, 5-sinfdan o'quvchilar ishtirok etishadi. O'qish va matnni tushunish sifati tekshiriladigan o'quvchilarning yoshi 10,5 yoshni tashkil etadi. Sharq mamlakatlarida bolalar 7 yoshdan o'qishni boshlagani uchun ulardan 10,7-10,9 yoshdagi o'quvchilar tadqiqotda ishtirok etishadi.

PIRLS-2021 xalqaro tadqiqotida taxminan 70ga yaqin mamlakatlar, benchmark ishtirokchi sifatida qatnashadigan hamda 2001-yildan buyon avvalgi sikllarda ishtirok etgan ko'pgina boshqa mamlakatlar qatnashishi belgilangan. Har bir baholash sikli o'tkazilishi bilan PIRLS tadqiqotlari qamrov doirasining yangilab borilishi ishtirokchi mamlakatlarga o'zlarining yangidan-yangi g'oyalari hamda ularning o'quv dasturlari, standartlari, qamrov doiralari va yo'riqnomalari haqida so'nggi ma'lumotlarni o'rtoqlashish imkonini beradi. Bu esa qamrov doiralarini ta'limiy jihatdan mos bo'lishiga sharoit yaratib, har bir o'tkaziladigan baholash jarayonlarining bir-biriga bog'liqligini oshiradi va qamrov doiralari, topshiriqlar hamda tartiblarni yanada takomillashishiga xizmat qiladi. PIRLS-2021 xalqaro tadqiqotida qamrov doiralari PIRLS-2021 ensiklopediyasida ko'rsatib o'tilgan ko'rsatmalar, o'quv tadqiqoti va ishtirokchi mamlakatlardan tanlab olingan milliy tadqiqot koordinatorlari (NRC) tomonidan berilgan taqrizlar yordamida to'plangan ma'lumotlardan foydalanib yangilanadi. 2021-yilda o'tkazilgan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etdilar. Tadqiqotning natijalari 2022-yil dekabr oyida e'lon qilinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy ravonlik va fikrlash doirasini kengaytirish maqsadida badiiy asar turlaridan hikoya, she'r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy ravishda o'rgniladi. Bundan tashqari o'tilayotgan mavzular yuzasidan ilmiy-ommabop maqolalar ham o'qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, stilistik priyomlari jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarga ta'siri ham turlicha bo'ladi. Shuning uchun turli janrdagi badiiy asarlarni o'qitishda o'qituvchi unga mos metodlarni tanlashi talab etiladi.

Ertak o'rgatishning metodik shartlari

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shib ketadi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda

qiziqarliligidir. Ertakda qatnashuvchilar ko‘pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil, ochko‘z obrazlar bo‘ladi.

Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o‘quvchilar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, kambag‘al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya‘ni yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchranganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo‘lishini istaydilar. Masalan, 3-sinf darsligidagi “Halollik” ertagida asosiy fikr kambag‘allarga yordam ko‘rsatish, o‘z mehnati bilan hayot kechirish bo‘lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lsa, 4-sinf daarsligidagi “Hiylagarning jazosi” ertagida soddadilning to‘g‘riligi hiylagarning makri ustidan g‘olib kelishi, xiyonat jazosiz qolmasligi g‘oyasi ilgari surilgan. Har ikki ertak ham to‘g‘riso‘zlilikning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Bunday g‘alaba ezgulikning g‘alabasidir.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi.

Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo‘li bilan bog‘lanishli nutqni o‘stirish, nutqning ta‘sirchanligini oshirish lozim. Masalan, 1-sing darsligidagi “*Rostgo‘y bola*” ertagida bola o‘z rostgo‘yligi bilan podshoga ma‘qul bo‘lganligi hikoya qilingan. Ertak g‘oyasiga mos xulosa esa “*Boshingga qilich kelsa ham to‘g‘ri gapir*” maqoli bilan ifodalangan. O‘quvchilar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o‘zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin.

Ertakni o‘qib, mazmuni bilan tanishtirilgach, o‘quvchilardan *shaylanib, ro‘parasida, sharbat, xayrli ish, xivchin, muhayyo* so‘zlarining ma‘nosi so‘raladi. Javoblar to‘ldiriladi, umumlashtiriladi.

Ertak matni bilan ishlash jarayonida unda qo‘llangan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag‘alar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ertakni o‘rganishning metodik shartlari quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Ertak bilan tanishtirish:

a) o‘quvchilarni ertakni idrok etishiga tayyorlash;

b) o‘qituvchining ertakni ifodali o‘qishi, yoddan aytib berishi ;

2. Ertakni o‘quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o‘tkazish;

3. Ertakni qismlarga bo‘lib o‘qish va tahlil qilish; undagi ayrim tasviriy vositalar, ma‘nodosh so‘zlarni topish, lug‘at ishi (ayrim so‘zlar ma‘nosini tushuntirish);

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o‘qish);

5. Ertakni aytish;

6. Umumlashtiruvchi suhbat (ertak g‘oyasini ochish);

7. Ma‘lum vazifa bilan ertakni qayta o‘qish;

8. Vazifani tekshirish va yakunlash.

O‘qish darsliklaridagi ertaklar uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi

Quyida PIRLS tadqiqoti uchun adabiy kitobxonlik malakasini egallash bo'yicha uslubiy tavsiyalar berish maqsadida 3-sinf ona tili va o'qish savodxonligi kitobidan keltirilgan Xudoyberdi To'xtaboyevning "Vatan", Shukrullo Abdullaevning "Qo'rqoq bug'u", Donald Bissetning "Ikki to'lqin" (Mirjalol Madvaliyev tarjimasida) ertaklari uchun topshiriqlar tayyorlash va bu topshiriqlarning maqsad va vazifalari, ular ustida ishlash texnologiyasini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, topshiriqlarning namunaviy javoblarini ham keltirib o'tamiz.

Topshiriqlar

1-topshiriq: Podsho Nimalarga qiziqar ekan?

Javob: podsho gullarni yaxshi ko'radi. Uning bog'ida dunyodagi barcha gullar navidan mavjud.

Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda ertakka kirish mobaynida aslida ertak sujeti qanday boshlangani haqida ma'lumot beradi. Ushbu boshlang'ich nuqtani ilg'ab olgan o'quvchi matnni diqqat bilan tahlil qila oladi.

2-topshiriq: Ertakning har bir qismiga qisqacha mazmun yozish.

Javob: Ertakning birinchi va ikkinchi qismiga atab bir yoki ikki gapdan iborat xulosa yoziladi.

Maqsad: Ertakni qismga bo'lish orqali o'quvchilar har bir gapni to'g'ri analiz qilishga o'rganishadi, bayon yozish kompetensiyasi shakllanib boradi.

3-topshiriq: Matndagi qushga ta'rif bering.

Javob: Bu qush podsho bog'idagi qushlardan biri bo'lib, u insonlar kabi gapira olar ekan. Uning chiroyli ovozi bor ekan. U podshodan Vatanini bir bor ko'rib kelishni iltimos qilibdi.

Maqsad: Asar qahramonlariga ta'rif berish orqali insonlarni o'rganib, insonlardagi salbiy va ijobiy xislatlarni taqqoslash va farqlashga o'rganishadi.

4-topshiriq: Sizningcha bug'ular to'g'ri ish tutishdimi? Fikringizga 3 ta isbot keltiring.

Javob:

1. Yo'q, chunki niqob kiyish bilan hech kim botir bo'lib qolmaydi.
2. Aniq bilmay turib, oldindan maqtanish yaxshi emas.
3. Demak, bug'u boshqacha puxtaroq reja tutishi lozim edi.

Maqsad: Isbot, asos talab qilinadigan topshiriqlar o'quvchilarni aniq va asosli gapirishga o'rgatish bilan birga kelajakda maqsadli yashashga o'rgatadi.

5-topshiriq. Matnga yana qanday sarlovha qo'yish mumkin? Asoslang. Ertak nomi "Ikki to'lqin"

1-variant: "Aka-uka"

Asos: Chunki, bu matnda aka-uka to'lqinlar haqida ma'lumot berilgan.

2-variant: "Jahldorlik oqibati"

Asos: Chunki, bu matnda katta to'lqim qoyalarni yiqitaman deb qiyin ahvolga tushib qoladi.

Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllanishiga yordam beradi. O'quvchi o'qiganlari yuzasidan, chuqur mulohaza yuritadi.

6-topshiriq: Test.

1. Kichik to‘lqin nimani yegisi keldi?
A) Muzqaymoq B) Baliq D) Kema
2. Katta to‘lin taxshimi yoki kichigi?
A) Kattasi B) Kichigi D) ikkalasi ham

Xalqaro PIRLS tadqiqoti eng yaxshi o‘quv dasturlari va yosh o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasi haqida noyob axborot materiallarini taqdim etadi. PIRLSga qatnashish O‘zbekistonga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida o‘qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston ta‘limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta‘lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta‘minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent. 2020-yil, 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – 488-b.
4. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – T.: RBIMM, 2008. – 68-b.
5. Nazarov X., Ziyodullayev X., Jumanazarova Yu. Boshlang‘ich ta‘lim mazmunini takomillashtirish muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand, SamDU nashri, 2011.
6. Norpo‘latova X. O‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi. – T.: //“Kasb hunar” jurnali, 2010. №3.
7. Rabbonayeva D.T. PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: XTXQTMOHM, 2020.
8. Azimova I., Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi 3-sinf(1-qism). –Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. –144-b.
9. Mavlonova K. va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi: 3-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 160-b.

OLIV TA'LIM TALABALARINING MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH PARAMETRLARI

A.A.Xasanov¹

1. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirishda tafakkur tarzi, nutqning rivojlanganligi, harakat sur'ati, idrok etish imkoniyatini hisobga hisobga olish hamda shaxslararo munosabatlar madaniyatiga tizimli ta'sir ko'rsatish darajasini va individual rivojlanish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: muloqot kompetensiyasi, tafakkur, ong, nutq, harakat sur'ati, idrok etish, shaxslararo munosabat, individual rivojlanish, bo'lajak o'qituvchi.

Xasanov A.A.

Xorijiy tillar kafedrasi
mudiri, O'zbekiston-
Finlandiya pedagogika
instituti, Samarqand,
O'zbekiston
hasanov.0276@gmail.com
m

Аннотация: Важно учитывать образ мышления, развитие речи, скорость передвижения, возможности восприятия, уровень системного влияния на культуру межличностных отношений и целенаправленное выяснение параметров развития личности в улучшение возможностей развития коммуникативной компетентности студентов организаций высшего образования.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, мышление, сознание, речь, темп действия, восприятие, межличностные отношения, развитие личности, будущий педагог.

Abstract: It is important to take into account the way of thinking, the development of speech, the speed of movement, the possibilities of perception, the level of systemic influence on the culture of interpersonal relations and the targeted clarification of the parameters of personality development in improving the opportunities for the development of communicative competence of students in higher education organizations.

Key words: communicative competence, thinking, consciousness, speech, pace of action, perception, interpersonal relationships, personality development, future teacher.

Bo'lajak o'qituvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar mazmuni o'quv jarayonidagi muammoli masalalarni yechish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini bevosita amalga oshirish, referatlar, kurs ishlari va bitiruv ishlarini himoya qilish, institut, universitetlararo va boshqa konferensiyalar seminarlar, musobaqalarda qatnashishni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tafakkur tarzini individual rivojlantirish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish asosida takomillashtiriladi. Tafakkur erkinligi jamiyat va inson erkinligining ma'naviy, intellektual negizidir. Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, obyektiv borliqning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur – inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va

ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi [3].

Tafakkur – ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog‘langan holatda asosiy yangilikni qidirish va ochishdan iborat bo‘lgan, voqelikni analiz va sintez qilish uni bevosita va umumlashtirib aks ettiruvchi aqliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan psixik jarayondir. Tafakkur jarayonini qanchalik darajada yuksalishi insonni aqliy va ruhiy jihatdan mukammalroq, teranroq samarali va shu kabi ijobiy amaliy xatti-harakatlarining amalga oshishiga sabab bo‘ladi. Ong, tafakkur va nutq faqat insonlargagina xos jarayon bo‘lib, aynan mana shular odamni hayvondan ajratib turadi. Tafakkur orqali inson borliqni anglaydi. Sezgi a‘zolari yordamida olamni sezadi va idrok qilishni boshlaydi. Tafakkur sabab esa inson ongida g‘oya, hukm, fikr mulohazalar paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, tafakkur shunday jarayonki, u insonni atrof-muhit umuman borliqqa nisbatan firk mulohazalarining haqiqat, yolg‘on to‘g‘ri, noto‘g‘ri, aniq mavhum, eski, yangi, yetarli, yetarli emasligini aniqlashda ham ishtirok etadi.

Nutq - kishilarning ongida mavjud lisoniy imkoniyatlarni og‘zaki yoki yozma shakllarda voqelantirilishi. Masalan, aytgan yoki yozgan gaplarimiz nutq bo‘lib, u lisoniy bilim va malakamiz tufayli sodir bo‘ladi [5].

Nutq - bu til- deb ataluvchi, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining obyektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o‘zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo‘lishidir. Nutq bu rasmiy tildir. U keng ma‘noda so‘zlardan, so‘z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Nutq so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning muayyan ko‘rinishi ifoda bo‘lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda, aytilmoqchi bo‘lgan maqsadning tinglovchi yoki kitobxoniga to‘liq va aniq yetib borishi, ularga ma‘lum ta‘sir o‘tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra nutq oldiga muayyan talablar qo‘yiladi. Bu talablar nutqning kommunikativ sifatlari bo‘lib, unda nutqning mantiqan to‘g‘ri, fikran aniq, tuzilishga ko‘ra chiroyli va yo‘nalishiga ko‘ra maqsadga muvofiq bo‘lishi nazarda tutiladi [4].

Oliy ta‘lim talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini harakat sur‘atini aniqlashtirish asosida takomillashtirishda ta‘lim oluvchilar va ta‘lim beruvchilar faoliyatining harakat sur‘atiga ahamiyat qaratildi.

Oliy ta‘lim talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini idrok etish imkoniyatini hisobga olish asosida takomillashtirishda talabalarining idrok etish imkoniyatini ko‘rib chiqamiz.

Inson mavjud ekan, u o‘z hayotiy tajribasiga asoslanib, u yoki bu holda idrok etish, olamni anglash, narsa va hodisalarni ajratish kabi xususiyatlarga ega ekanligi haqida o‘ziga o‘zi hisob beradi. Idrok sezgilarga qaraganda miyaning ancha yuksak darajadagi tahlil qilish, umumlashtirish faoliyati hisoblanadi. Tahlil qilmasdan turib, idrokning anglangan bo‘lishi mumkin emas. Jumladan, notanish xorijiy tilda aytilgan nutq boshdan-oyoq tovushlar oqimi tarzida idrok etiladi. Nutqning anglangan holda idrok etilishi, ya‘ni u tushunishi uchun nutqning alohida iboralarga mohiyat e‘tibori bilan so‘zlarga ajratish shartidir. Ayni paytda nutqni idrok etish

jarayonida tahlil bilan bab- baravar tarzda sintez qilinadi, shu tufayli biz aloqida tarqoq tovushlarni emas, balki so'zlarni va iboralarni idrok etamiz. Muvaqqat nerv bog'lanishlarining o'rnatilishi sintezning negizini tashkil qiladi. Idrokning negizi nerv bog'lanishlarining ikki turidan, bitta analizator doirasida hosil bo'ladigan bog'lanishlardan va analizatorlararo bog'lanishlardan tarkib topadi. Idrok etish-perseptiv psixikaning yuqori darajasidir. Kishilarning bir-birini idrok etish jarayoni muloqotning ajralmas qismi bo'lib, u muloqotning perseptiv tomonini tashkil etadi. Muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun u albatta qayta aloqaga ega bo'lishi, ya'ni subyekt o'zaro ta'sir natijalari haqida axborot olishi kerak. Kommunikator o'zi uzatgan axborotni resipient qanday qabul qilishini va qanday munosabatda bo'layotganligini qayta axborot ma'lumotlariga asoslanib bilib oladi. Muomalada suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunishning asosiy shartidir. Agar o'qituvchi o'quvchilarini qanday idrok etayotganligini, tushunayotganligini anglay olmasa, pedagogik munosabat yaxshi bo'lmaydi. Ayniqsa, ma'ruza o'tayotganda bu juda muhimdir [7].

Qator tadqiqot ishlarida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini shaxslararo munosabatlar madaniyatiga tizimli ta'sir ko'rsatish darajasini va individual rivojlanish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish asosida takomillashtirish masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan.

Shaxslararo munosabatlar pedagogikaning asosiy o'rganadigan obyektlardan biridir. Avvalo, shaxs tushunchasining asl negiziga e'tibor beradigan bo'lsak, shaxs bu idrok qila oluvchi, esda saqlay oluvchi va fikr yuritish qobiliyatiga ega mavjudotdir. Shaxs insonga ta'lluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakati bilan boshqalardan ajralib turadigan, mavjud xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Shaxs ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli hamdir. Insonning falsafiy tafakkuri rivojida shaxs va jamiyat munosabati muhim o'rinda turadi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi globalashuvi jarayonida shaxs va jamiyat munosabatlari muammosiga e'tibor kuchayib bormoqda. Muloqot mavzuyi va yo'nalishiga ko'ra[6]:

- ijtimoiy yo'naltirilgan (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan);
- guruhdagi predmetga yo'naltirilgan (mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki biror topshiriq bajarish jarayonidagi muloqot);
- shaxsiy muloqot (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini yechish maqsadida o'rnatgan munosabatlari);
- pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni) [6].

Oliy ta'lim talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini tafakkur tarzi, nutqning rivojlanganligi, harakat sur'ati, idrok etish imkoniyatini hisobga hisobga olish hamda shaxslararo munosabatlar madaniyatiga tizimli ta'sir ko'rsatish darajasini va individual rivojlanish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish asosida takomillashtirishda individual rivojlanish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish masalasini alohida ko'rib chiqish lozim.

Individual rivojlanish parametrlari shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi va o'z-o'zini reflektiv baholash asosida maqsadli aniqlashtiriladi. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish, baholash orqali aniqlanadi. O'z ustida ishlash bu mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi tushuniladi. Mutaxassisning o'z ustida ishlashi quyidagilarda ko'rinadi [1]:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondoshuv asosida olib borish samarali hisoblanadi. Ularning loyihali yondashuv asosida o'z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o'tish imkonini beradi [1].

Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, oliy ta'lim talabalarining muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirishda tafakkur tarzi, nutqning rivojlanganligi, harakat sur'ati, idrok etish imkoniyatini hisobga hisobga olish hamda shaxslararo munosabatlar madaniyatiga tizimli ta'sir ko'rsatish darajasini va individual rivojlanish parametrlarini maqsadli aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmadjonov B.D. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish shakl va usullari. //Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. 815-825-b.
2. Karimqulova F., Oripova N. Thinking processes and stages of its formation. //Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 02 (2022) / ISSN 2181-1415. 215-221-b.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi VIII jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti 2008-yil. – B. 774, 299-b.
4. Rasulov R., Mo'yidinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2015. – 116 b.
5. Raupova L. Nutq madaniyati /darslik/. – Toshkent: "Innovatsiya-ziyo", 2019, 138 b.
6. Sabirova N.K. Shaxslararo munosabatlar tushunchasi va muloqot tushunchasi. //Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 4 | 2022. ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-609-613 SJIF: 5, 7 | UIF: 6,1. 609-613-b

OPTIKAGA OID LABORATORIYA ISHLARINI BAJARISHDA PHET DASTURIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Q.T. Xoliqov¹,
Z.U.Mamatov²

1.2.O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizika fanidan ko‘rgazma tajribalar va laboratoriya ishlarini virtual tarzda bajarish afzalliklari borasidagi adabiyotlar hamda dasturlar tahlili hamda «Physics Education Technology» (PhET) platformasi yordamida virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kompyuter texnologiyalari, virtual laboratoriya, laboratoriya mashg‘uloti, animatsiya.

Xoliqov Q.T.

Fizika-astronomiya
kafedrasi dotsenti,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O‘zbekiston
xoliqov1978@mail.ru

Mamatov Z.U.

Fizika-astronomiya
kafedrasi dotsenti,
O‘zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O‘zbekiston
zayniddinmamatov1970@gmail.com

Аннотация: В данной статье представлен анализ литературы и программ о преимуществах проведения виртуальных экспериментов и лабораторных работ по физике, а также представлена информация о реализации виртуальных лабораторных занятий с использованием платформы Physics Education Technology (PhET).

Ключевые слова: компьютерные технологии, виртуальная лаборатория, лабораторное обучение, анимация.

Abstract: This article provides an analysis of the literature and programs on the advantages of performing virtual experiments and laboratory work in physics and provides information on the implementation of virtual laboratory training using the Physics Education Technology (PhET) platform.

Key words: computer technologies, virtual laboratory, laboratory training, animation.

Kirish

Bugungi kunda ta‘lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, ya‘ni ta‘limni raqamlashtirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1, 2].

Ta‘limni raqamlashtirish bo‘lajak kadrlarning axborot va kommunikatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishlari bilan bir qatorda, aniq fan sohasida kadrlar tayyorlashni axborot va kommunikatsion texnologiyalarni kommunikatsion texnologiyalari vositalari yordamida jadallashtirish imkonini beradi. Keyingi vaqtlarda, ta‘limda axborot va kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish sohasida yangi atama “Virtual o‘quv laboratoriya” paydo bo‘ldi.

V.V.Truxin ta‘rifiga ko‘ra, virtual laboratoriya bu haqiqiy o‘rnatish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilmasdan yoki ular mavjud bo‘lmaganda tajribalarni amalga oshirishga imkon beruvchi dasturiy-apparat majmuasi. Birinchi holda, biz masofadan kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan laboratoriya sozlamalari bilan shug‘ullanamiz, u haqiqiy laboratoriyani, sozlashni boshqarish va olingan ma‘lumotlarni raqamlashtirish uchun dasturiy ta‘minot va apparat vositalarini, shuningdek aloqa vositalarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi holda, barcha jarayonlar kompyuter yordamida modellashtiriladi [3].

Virtual o‘quv laboratoriya ochiq va masofaviy o‘qitish g‘oyasiga muvofiq bo‘lib, ta‘lim jarayonidagi moddiy-texnik ta‘minot borasidagi muammolarni oz

bo'lsada dolzarbligini kamaytiradi.

Adabiyotlar tahlili

Virtual laboratoriya ishlarining qo'llanilish darajasi, usullari va istiqbollarini aniqlash hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganish maqsadida mavjud tajribalar atroflicha o'rganib chiqildi.

D.I.Troitskiy virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish orqali ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining 17,7% ga oshishiga, laboratoriya ishlarini bajarish vaqti esa 10-50% ga kamayishiga erishilganligini ta'kidlaydi [4].

M.T.Taher ham virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish ta'lim oluvchilar bilimni oshirishda samarali vosita ekanligini ta'kidlab, virtual laboratoriya ishlarini an'anaviy laboratoriya ishlari bilan birgalikda olib borishni, kombinatsion o'qitish strageiyasini taklif etadi [5].

Bugungi kunda fizika fanini o'qitishda qo'llanilayotgan virtual laboratoriya ishlarining aksariyati videolavha ko'rinishida bo'lib unda o'quvchining bevosita ishtiroki, mustaqil qaror qabul qilishi va izlanuvchanligi bilan bog'liq

-ishni bajarish uchun lozim bo'ladigan asbob-uskunalar uskunalar omboridan mustaqil tanlab olish;

-laboratoriya ishi qurilmasini shakllantirish;

-qurilma tarkibiy qismlarni o'zaro mutanosib joylashtirish (dizayn);

-o'rganilayotgan obyekt parametrlarni istalgancha keng diapazonda o'zgartirish;

-zarurat tug'lsa, qurilmaga o'zgartirishlar kiritish.

-zamonaviy o'lchov-nazorat uskunalaridan foydalanish imkoniyati jihatlar hisobga olinmagan [6]:

Fizika fanini o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, laboratoriya sharoitida to'liq namoyish qilish texnik jihatdan juda qiyin yoki umuman imkonsiz bo'lgan fizik hodisa va jarayonlarni namoyish qilish, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish imkoniyatlarini kengaytirib, turli jarayonlar va hodisalarni simulyatsiya qilishga imkon beradi [7]. Ushbu texnologiyaning asosiy afzalligi shundaki, u har qanday darsga moslasha oladi, o'qituvchi va o'quvchiga samarali yordam beradi. Yana bir muhim holat shundaki, laboratoriya sharoitida vizual ravishda kuzatib bo'lmaydigan ayrim jarayonlar yoki hodisalar mavjud, masalan, tirik organizmlarning ko'rish qobiliyatini o'rganish. Bunday holda, kompyuter simulyatsialari namoyishlari bebahodir, chunki ular ko'z ichida ro'y beradigan optik jarayonlarni kuzatish va shu bilan birga haqiqatga mos keladigan natijalarni olish va xulosalar chiqarish imkonini beradi. Fizikani o'qitishda an'anaviy laboratoriya bilan bir qatorda avtomatlashtirilgan tizim sifatida virtual tajribalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fizika darslarida kompyuterlar, avvalambor, o'quvchilarning eksperimental, tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Kompyuter simulyatsiyasi kompyuter ekranida fizik tajribalar yoki hodisalarning yorqin, esda qolarli dinamik tasvirini yaratishga imkon beradi va o'qituvchiga darslarni takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar ochadi [8].

O'quvchilar orasida eng katta qiziqish kompyuter modellari bilan bog'liq bo'lib, ular orqali matematik model asosida yotadigan sonli parametrlarning

qiyimatlarini o'zgartirib, kompyuter ekranidagi obyektlarning harakatlarini boshqarish mumkin. Ba'zi modellar eksperiment davomida bir vaqtning o'zida dinamik rejimda eksperimentni tavsiflovchi bir qator fizik kattaliklarning vaqtga bog'liqlik grafikalarini kuzatish imkoniyatini beradi. Bunday modellar ayniqsa qimmatlidir, chunki o'quvchilar grafiklarni chizishda va o'qishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Kompyuter modellari real jarayonlarni deyarli "jonli" namoyish etish imkonini beradi [9, 10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fizika fanidan darslarni animatsion namoyishlar va virtual laboratoriya ishlaridan foydalangan holda tashkil etishda bevosita virtual laboratoriyalardan foydalaniladi. Shunday platformalardan fizika fanini o'qitishga mo'ljallangan "Crocodile Physics", "Yenka Electricity and Magnetism", "Phun Physics", "Physics Education Technology" (PhET), "Maktabda fizika" platformalari o'rganib chiqilib, fizika fanini o'qitishda o'zining soddaligi va tushunariligi, fizika fanining bo'limlariga oid ko'plab animatsiyalar, tajribalarni qamrab olganligi bilan ajralib turuvchi "Physics Education Technology" (PhET) platformasi tanlandi.


TAHLIL VA NATIJALAR

PhET platformasi tabiiy fanlar yo'nalishida 2001-yildagi Nobel mukofotining laureati K.Viman tomonidan yaratilgan bo'lib, xohlagan foydalanuvchi bepul foydalanishi mumkin. PhETdagi modellar soni 100 dan ortiq bo'lib ular yordamida fizika, matematika, kimyo fanlariga oid namoyish tajribalarini o'tkazish, virtual laboratoriya ishlarini tashkillashtirish va modellashtirish mumkin[11].

Dasturdan foydalanish usullarini yoritish maqsadida "Yig'uvchi va sochuvchi linlazalarda tasvir yasash" laboratoriya ishini o'tkazish jarayonini yoritishga harakat qildik:


Ishni bajarish tartibi

1. Phet dasturini yuklang.




2-rasm.

2. Phet dasturi mundarijasi dan Fizika fani bo‘limini tanlang.




3-rasm.

3. Modellar ro‘yxatidan “Light& Radiation” bo‘limidan “ Geometrik optics” oynasi ustiga bosing.




4-rasm.

4. Yig‘uvchi linzani tanlab, oyna quyi qismidagi elementlar yordamida buyumning aniq tasvirini hosil qiling.



5-rasm.

5. Buyumdan linzagacha bo‘lgan d_1 masofani va linzadan tasvirgacha (ekrangacha) bo‘lgan f_1 masofani o‘lchash.



6-rasm.

6. Buyum bilan linza orasidagi masofani d_2 va d_3 ga o'zgartirib, tajribani takrorlang. Ekranda lampa tolasining eng aniqroq tasviri hosil bo'lgan masofada f_2 va f_3 larni o'lchang.

7. Linza formulasidan foydalanib har bir tajribadan olingan d_1 va f_1 , d_2 va f_2 , d_3 va f_3 uchun fokus masofasi F_1 , F_2 , F_3 ni hisoblang.

8. $F_{o'rt} = (F_1 + F_2 + F_3) / 3$ formulaga qo'yib, fokus masofasining o'rtacha qiymatini hisoblang.

9. $D = 1 / F_{o'rt}$ formuladan linza optik kuchining o'rtacha qiymatini hisoblang.

10. O'lchash va hisoblash natijalarini jadvalga yozing.

No	d, m	f, m	F, m	$F_{o'rt}$, m	D, dptr
1					
2					
3					


11. Buyumni linzadan $d = 2F$ masofaga qo'ying..

12. Buyumni linzadan shunday masofaga qo'yingki, bunda $F < d < 2F$ shart bajarilsin.

13. Buyumni linzadan $d < F$ masofaga qo'ying. Ekranda buyum tasvirini qidiring. Linza orqasida tasvir hosil bo'lmaganligiga ishonch hosil qiling.


14. Sochuvchi linza uchun ham shu amallarni bajaring

15. Sochuvchi linza bo'limini tanlaymiz. Ekranda tasvir xosil bo'ladi.




7-rasm

16. Fokus masofasi va tasvir shakli o‘lchab olamiz.




8-rasm

17. Many buyrug‘ini beramiz va bu xolatda ham fokus masofa va tasvir balandligini o‘lchab olamiz.



9-rasm

18. Marginal bo‘limini tanlaymiz fokus masofasi va tasvir o‘lchamlarini o‘lchab olamiz.



10-rasm

Hisobot tayyorlash

Botiq linza uchun

1. Fokus masofa F ni o'lchaymiz.
 - a) linza qalinligini o'zgartirib
Sportda qo'pollik va do'q-po'pisa qilish holatlari ko'p uchrasa-da, lekin sport qabul qilingan qonun va qoidalar asosida musobaqalashishni talab qiladi. Ayrim sport turlarida: figurali uchish, badiiy va sport gimnastikasi kabilarda do'q-po'pisa, tajovuz qilish butunlay taqiqlangan. Ba'zi bir sportchilar o'zini boshqara bilmasdan tajovuzkorlik munosabatida bo'ladilar, natijada musobaqa qoidasini buzadilar.

Sportchi musobaqada g'alaba qilish uchun bor kuchini sarf qiladi, lekin o'ylaganidek natijalarga erisholmagach, tajovuzkor harakatlar qilishga o'tadi. Biroq u o'zining bunday harakatlari bilan musobaqada yaxshi ko'rsatkichlarga erisha olmaydi. U ixtiyorsiz bunday xulq-atvorga moslashib qolganidan o'zi ham pushaymon bo'lib yuradi. Bir-birlari bilan jismoniy to'qnashganida tajovuzkorlik harakatlar qilish hayvonlarga xos ekanligini olimlar ilmiy tajribalar asosida isbotlab berganlar.

Yangidan tug'ilgan chaqaloq hayotining dastlabki kunlarida atrofidagi kishilarga, ota-onalariga va boshqa oila a'zolariga, tengdoshlariga bir xil munosabatda bo'ladi. Lekin bolada bir yoshdan keyin, o'z ehtiyojlarining qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog'liq bo'lgan to'siqlarning paydo bo'lishi natijasida tajovuzkorlik munosabatlarining ayrim ko'rinishlari vujudga kela boshlaydi. Ba'zi bir bolalarda kattalar yoki kichiklarga tajovuzkorlik munosabatlari ochiq va aniq ko'rinib turadi. Biz quyida bolalardagi agressivlik munosabatlari shakllanishining bir necha holatlarini ajratib ko'rsatishga harakat qilamiz:

1. Ba'zi ota-onalar farzandlarining boshqalarga ko'rsatgan tajovuzkor munosabatlari uchun bolasini maqtab ham qo'yadi yoki boshqa bolalardagi tajovuzkorlik harakatlarini ibrat qilib misol tariqasida ko'rsatadi. Umuman, bolalar kattalarning tajovuzkorlik harakatlarini kuzatib boradilar. Agar katta kishi bola uchun ishonchli shaxs bo'lsa, o'sha odamning harakatlaridagi tajovuzkorlik harakatlarini o'ziga qabul qiladi va shu odamga o'xshashga harakat qiladi.

2. Ayrim ota-onalar bolalarining tajovuzkor harakatlari uchun ularga maxsus jazo chorasini qo'llamaydilar.

3. Ko'pchilik ota-onalar farzandlarida paydo bo'layotgan tajovuzkorlik harakatlarini aql bilan pasaytirishga va tarbiyalashga harakat qiladilar.

4. Ota-onalar bolalarida paydo bo'layotgan tajovuzkor harakatlarni qattiqqo'llilik, do'q-po'pisa qilish yo'li bilan yo'qotishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. Lekin bunday bolalar ulg'ayganida, ularda tajovuzkor harakatlarning vujudga kelishi tajribada isbotlangan.

Agar bola tengdoshlariga yoki o'yin paytida o'z do'stlariga tajovuz qilsa, kattalarning e'tiboridan chetda qoladi, shuning uchun ba'zi bir yoshlarning xarakteridagi tajovuzkorlik o'zgaruvchan bo'ladi. Ba'zi holatlarda o'zidan kichik yoki jismonan o'jiz bolalarga ham tajovuzkorlik qilish holatlari uchrab turadi.

Bola yigitlik yoshiga yetgandan keyin o'zini erkin his qiladigan bo'ladi. Kattalarga va tengdoshlariga tajovuzkorlik qilgan bolalarda ota-onaning tanbehi natijasida uyalish, bezovtalanish, qayg'urish holatlari turlicha bo'ladi. Ota-onaning tarbiyasi natijasida bola ulg'aygandan keyin tajovuzkor harakatlardan ta'sirlanishi va hayajonlanishi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan: (4.212)

<i>Ota-onaning xulqi, fe'l-atvori, bola tarbiyasiga yondashuvi</i>	<i>Bolaning ulg'aygandan keyin tajovuzkor harakatlardan ta'sirlanish darajasi</i>
1. Bolaning ota-onaga yoki kattalarga tajovuzkorligi taqiqlanmagan.	Bola kattalarga tajovuzkorlik qilganida o'zini gunohkor deb hisoblamaydi yoki past darajada his qiladi.
2. Bolaning kattalarga tajovuzkor harakatlari taqiqlangan.	Bola kattalarga bilmasdan tajovuz qilsa, o'zini aybdor deb hisoblaydi.
3. Bola tengdoshlariga tajovuzkorona harakatlar qilganida ota-onalar tomonidan tanbeh berilmagan.	Bola tengdoshlariga tajovuzkorona harakatlar qilganida o'zini aybdor deb hisoblamaydi yoki past darajada his qiladi.
4. Bolaning tengdoshlariga va do'stlariga tajovuzkorona harakatlar qilishi taqiqlangan.	Bola tengdoshlariga, do'stlariga va komandadagi raqiblariga tajovuzkorona harakat qilganida o'zini aybdor deb hisoblaydi.

Bola ulg'ayib borgani sayin o'zining ijtimoiy haq-huquqi va intizom tushunchalarini ongli ravishda his qila boshlaydi. Bola atrofda odamlarga bilmasdan tajovuzkorona harakat qilganligini yaxshi tushunadigan bo'ladi. Yosh sportchi esa sport musobaqasi qoidalarini o'zlashtirib olganidan keyin o'zining tajovuzkorona harakatlarini his qiladigan bo'ladi. Agar yosh sportchi musobaqada o'z raqibiga nisbatan qonunga xilof tajovuzkorona harakatlar qilsa, sport musobaqasi hakamlari tomonidan tegishli jazo va tadbirlar qo'llanilishini yaxshi biladi. Ba'zi bir yosh sportchilar o'zining tajovuzkorlik harakatlaridan qattiq ta'sirlanadi, aynan shu ta'sirchanligi bois, o'zining xarakteriga mos sport turini tanlashda qiynaladi yoki xatoliklarga yo'l qo'yadi. Masalan, agar sportchida insonparvarlik his-tuyg'ulari yaxshi rivojlangan bo'lsa, u sportning tajovuzkor harakatlar qilishi mumkin bo'lgan turlari bilan shug'ullanmagani ma'qul. Lekin sportning ayrim turlarida tajovuzkorlik juda zarur. Busiz sportda g'alabaga erishish juda qiyin kechadi. Ba'zi bir sportchilar yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lsada, sport musobaqalarida tajovuzkor harakatlar ko'rsata olmaydi. Biroq shu jamoadagi do'sti o'rtacha jismoniy tayyorgarligi bilan musobaqada tajovuzkor harakatlar ko'rsata oladi. Yosh sportchi sport faoliyati jarayonida kattalar va murabbiylari tomonidan tegishli tarbiya olmaganidan undagi vijdotsizlik va beodoblik hislatlari tez shakllanadi. Sportchi yoshining o'tishi va sportda ketma-ket mag'lubiyatlarga uchrayverishi natijasida sport bilan tamoman xayrlashadi. Biroq shundan keyin ham o'zining tajovuzkorlik harakatlarini to'xtata olmaganidan ruhiy qiynchiliklarga ko'p uchraydi. U o'zining xulq-atvorini o'zgartira olmaganidan boshqa odamlardek osoyishta hayot kechirishda juda qiynaladi.

Shuning uchun murabbiy sportchilarni tajovuzkor harakatlarni faqat raqibiga qarshi sport musobaqasi qoidalari asosida qo'llashga odatlantirishi lozim.

Sportchi musobaqada o'zining tajovuzkor harakatlardan kuchli hayajonlanadi yoki o'zida sportchi uchun nuqson hisoblangan quyidagi xulq-atvor vujudga kelganini yaqqol sezadi: o'zining musobaqadagi xulq-atvoridan shubhalanish, o'z-o'zini ayblash, o'ziga ishonmaslik, murabbiydan arazlash, unga keskin ziddiyatli munosabatda bo'lish kabilar. Sportchida bunday xususiyatlarning paydo bo'lishi sportchi mashq qilayotgan muhitning ta'siriga va ota-ona tomonidan bolani tarbiyalashda qo'llanilayotgan uslublarning noto'g'riligiga bog'liq. Tajovuzkorlik va boshqa salbiy holatlarning sportchi hayotida tez-tez takrorlanaverishi tufayli bular bolaning xarakteriga aylanib qoladi. Agar o'smirda murabbiy bilan uchrashmasdan oldin tajovuzkor harakatlar shakllanmagan bo'lsa, murabbiyning musobaqada qattiq g'azab bilan «ur», «yiqit», «bos» degan baqiriqlari, sportchida tajovuzkor harakatlarni vujudga keltirmaydi. Bunday sharoitda murabbiy sportchining xarakterini tushunib, unga o'z munosabatini moslashtirishi maqsadga muvofiqdir. (3.95)

Katta yoshdagi kishilarda va o'smirlarda paydo bo'ladigan tajovuzkor harakatlar faqat tarbiyaning ta'siriga bog'liq bo'lmasdan, boshqa turli xil voqea va hodisalarning ta'siri natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, o'smirning hayotida tajovuzkorlik bir necha marta muvaffaqiyat keltirgan bo'lsa, tajovuzlik o'smirning xulq-atvoriga aylanib qoladi. Agar sportning agressiv turlarida sportchi tajovuz yo'li bilan musobaqada bir necha marta g'alaba qozongan bo'lsa va kattalar tomonidan bu g'alaba yuqori baholanib, rag'batlantirilgan bo'lsa, sportchidagi bu taassurot yoshligida ota-onasi bergan tarbiyaga nisbatan kuchliroq bo'lishi aniqlangan.

Kishilarning tajovuzkor harakatlari to'g'risida bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan ilmiy nazariyalar mavjud. Ayrim psixologlar tajovuzkorlik uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizdan bizga tug'ma yo'l bilan o'tib kelayotgan hamma insonlarga xos xususiyat ekanligi, kishilar o'zidagi tajovuzkorlikni boshqarish imkoniyatiga hamma vaqt ega bo'lavermasligini ta'kidlashsa, boshqa bir guruh olimlar kishilardagi tajovuzkorlikni faqat evolyusiya, ya'ni tarixiy rivojlanish jarayoniga bog'liq bo'lmasdan, balki vaziyatga qarab, turli xil to'siqlarni yengish yo'lida ishlatiladigan uslub bo'lib, asta-sekin insonning xulq-atvoriga aylanib qolgan odatdir, degan fikrni oldinga suradilar.

Biz kurashchilarda musobaqadan oldin yoki keyin tajovuzkorona harakatlarni ko'p ishlatilganligini, lekin musobaqadan keyin tajovuzkorlik holatining sekin pasayishini kuzatdik. «Siz hujum qilishni qanday tushunasiz?» degan savolga sportchilar quyidagicha javob berdilar: «Agar meni kimdir birinchi haqoratlasa yoki ursa, men ham xuddi shunday javob qaytaraman», «Men o'zimni tuta olmasam, birovni tarsakilab yuboraman». Shundan ma'lumki, ayrim sportchilarning musobaqadagi tajovuzkor harakatlari boshqa bir sportchida tajovuzkorlikni vujudga keltiradi. Bu esa sport musobaqasi qoidasini buzishga olib keladi. Sportchining musobaqada o'zida tajovuzkor harakatlarni his etishi turli vaziyatlarda turlicha bo'ladi.

Masalan, futbolchining to'pni o'yinda zarb bilan tepgandagi holati bokschining ringda qattiq zarb bilan urgandagi holatiga qaraganda qanoat hosil qilishi o'ziga xos bo'ladi. Sport faoliyatida ba'zi sportchilardagi tajovuzkor harakatlar

raqibiga, jamoaga, murabbiyga va tomoshabinlarga qaratilgan bo‘ladi, lekin bu sport musobaqasi qoidasi asosida bajariladi. Biz turli vaziyatlarda futbolchilardagi tajovuzkorlikni o‘rganib, uning kelib chiqishi haqida quyidagi xulosalarga keldik:

1. O‘yinda yutayotgan jamoaga nisbatan yutqazayotgan jamoa o‘yinчилari o‘yin qoidasini ko‘proq buzadilar. Bundan ma‘lumki, sportchining musobaqadagi mag‘lubiyati tajovuzlik harakatlarini vujudga keltiradi.

2. O‘z maydonida o‘ynayotgan jamoa o‘yinga kelgan jamoa o‘yinчилariga qaraganda o‘yin qoidasini ham buzadi. Mehmon jamoa o‘yinчилari o‘z maydonida o‘ynayotgan o‘yinчилarni xuddi dushmandek qabul qiladi. Ular o‘z raqiblaridan tashqari, tomoshabinlarga nisbatan ham tajovuzkor tuyg‘uda bo‘ladilar.

3. Qaysi jamoada ochkolar va darvozaga urilgan to‘plar soni ko‘p bo‘lsa, kam ochko to‘plagan va oz to‘p urgan jamoa o‘yinчилariga nisbatan o‘yin qoidasini kam buzadilar. Futbolchi raqib darvozasiga har to‘p urganida unda ruhiy tanglik pasayadi va o‘sha jamoa o‘yinчилarida ruhiy va jismoniy qayta tiklanish kuchayadi. Lekin o‘yinda kam to‘p kiritgan jamoa o‘yinчилarida ruhiy keskinlik saqlanadi yoki ruhiy keskinlikning kuchayishi tufayli o‘yinчилardagi tajovuzkorlik harakatlari ortadi, ular o‘yin qoidasini ko‘proq darajada buzadilar.

4. O‘yin jadvalidan yuqoriroq joy olgan jamoa o‘yinчилariga qaraganda, quyiroy joy egallagan komanda o‘yinчилari o‘yin qoidasini ko‘p buzadilar. O‘yin jadvalida oxirgi o‘rinni olgan komanda o‘yinчилari hatto o‘yinda yutayotgan bo‘lsalar ham qo‘pol tajovuzkorona harakatlari qiladilar.

5. O‘yinda 8 va 9-joyni egallab turgan jamoalar o‘ynaganida, 9-o‘rinni egallagan jamoa o‘yinчилari o‘yin qoidasini ko‘p buzadi. Ayniqsa, 12 va 13-o‘rinni egallab turgan jamoalar o‘yinчилari 8 va 9-joyni egallagan jamoa o‘yinчилariga qaraganda o‘yin qoidasini ko‘p martalab buzadilar. (2.261)

Yaxshi natijalarga erishgan jamoa o‘yinчилari chempionatda yutqazishdan yoki yuqori o‘rindagi joyini yo‘qotishdan cho‘chib, g‘ayrat bilan o‘ynaydilar, lekin o‘yinda tajovuzkorona harakatlarni takror va takror sodir etadilar. Shuningdek, yuqori natijalarga erishayotgan jamoa o‘yinчилari chempionatda yutqazishdan yoki yuqori o‘rindagi joyini yo‘qotishdan qo‘rqanidan, kuchli o‘yin ko‘rsatishga harakat qiladilar, shu bois, ular o‘yinda tajovuzkor harakatlarni ko‘p marotaba sodir etadilar. Shu jamoadan pastroq joyni olgan jamoa o‘yinчилari jadval oxiriga tushib qolishdan qo‘rqanlaridan, o‘yinda tajovuzkorlik va do‘q-po‘pisanini ko‘p qiladilar.

Xulosa

Sport jamoalaridagi o‘yinчилarning musobaqada tajovuzkor harakatlari, do‘q-po‘pisa qilishlari va ayrim hollarda o‘yin qoidasini buzishlari tabiiy hodisadir. Musobaqada o‘yin qoidasining buzilishi asosan quyidagi to‘rt xil vaziyatda vujudga kelishi aniqlandi: 1) jamoaning yutishi yoki yutqazishi; 2) o‘yin o‘zining yoki boshqa jamoalar maydonida o‘ynalishi; 3) ochko va to‘plar farqi biri ikkinchisidan yuqori bo‘lishi; 4) jamoa o‘z raqiblariga nisbatan o‘yin jadvalining qayeridan joy olganligi.

Ko‘pgina sport turlarida sportchilarda tajovuzkorlikni boshqarish murabbiyning asosiy vazifasidir. Murabbiylar sportchilardagi jismoniy kuchni to‘pga, nayzaga, raqibga yoki boshqa obyektga to‘g‘ri yo‘naltirishga odatlantirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Masharipov Y. Sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. 104-113-b.
2. Masharipov Y. Umumiy va sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2012. 260-272-b.
3. Masharipov Y. Sport psixalogiyasi. Darslik. – Samarqand: SamDU, 2020. 94-96-b.
4. Strachan S.M., Whaley D.E. Identities, schemas, and definitions: How the aspects of the self influence exercise behavior. In P. Ekkekakis (Ed.) *Routledge Handbook of Physical Activity and Mental Health*. – New York, NY: Routledge. 2013. – pp. 212-223.

SPORTCHILARDA STRESS HOLATIDAN CHIQUISHNING PSIXOLOGIK MASHQLARI

A.A.Radjabov¹

1. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Radjabov A.A.

Pedagogika kafedrası
assistenti, O'zbekiston-
Finlandiya pedagogika
instituti, Samarqand,
O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada sportchi faoliyatiga ta'sir etadigan stresslarning kelib chiqish sabablari, ta'sir doiralari va ularning psixologik xususiyatlari, stressli kechinmalarni yengish hamda bartaraf etish, shuningdek, barqaror emotsional holatni vujudga keltirish uchun quyidagi asosiy usullar va bo'shashtiruvchi mashqlardan foydalanish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sportchi, stress, stressorlar, nerv sistemasi, musobaqa jarayoni.

Аннотация: В статье описаны причины, сферы влияния и их психологическая характеристика стресса, влияющего на работоспособность спортсмена, применение следующих основных методов и релаксационных упражнений для преодоления и устранения стрессовых переживаний, а также для создания стабильного эмоционального состояния у спортсменов.

Ключевые слова: Спортсмен, стресс, стрессоры, нервная система, соревновательный процесс.

Abstract: The article describes the causes, spheres of influence and their psychological characteristics of stress that affect the athlete's performance, the use of the following basic methods and relaxation exercises to overcome and eliminate stressful experiences, as well as to create a stable emotional state in athletes.

Keywords: Athlete, stress, stressors, nervous system, competition process.

Sportchilarning o'yin oldi va o'yin faoliyatidagi emotsional holatini barqarorlashtirish, g'alaba uchun jismoniy-psixologik yo'nalganligini boshqarish muammosi borasida ko'pgina nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, sport turlarining takomillashib borishi, sportda natijaga erishish uchun bo'layotgan keskin kurashlar bu boradagi izlanishlarni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda. Yuqori stress holatida bo'lgan sportchilarning musobaqada muvafaqiyatga erishishi ancha murakkab, shuning sportchilarning stress holatga tushmasligi uchun zarur psixologik chora-tadbirlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Stressli kechinmalarni yengish va bartaraf etish, shuningdek, sportchilarda barqaror emotsional holatni vujudga keltirish uchun quyidagi asosiy usullar va bo'shashtiruvchi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Koping strategiyalar – stressni yengishga yo'naltirilgan psixologik usullar bo'lib, ular ikki guruhga ajratiladi:

- emotsional fosed coping: subyektga nisbatan bo'lgan obyektiv ta'sir avvalo uning emotsional olami orqali kechadi. Bunga nisbatan shaxsda emotsional o'zgarishlar paydo bo'ladi. Ta'sirning ijobiy yoki salbiy ekanligiga bog'liq ravishda javob reaksiyasi ham ijobiy yoki salbiy bo'lishi tayin. Bunga asosan shaxsda emotsional stress paydo bo'ladi. K.V.Sudakovning [1,2] talqiniga asosan, emotsional stress hayot uchun zarur bo'lgan biologik va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarni amalga oshirish jarayonida biror ijobiy natijaga erisha olmagan vaqtda kuchayadi. Emotsional fosed soping - stressli holatda subyektda kechayotgan emotsional rektsiyani nazorat qilish imkonini beradi. Emotsional fosed soping-

metodi shaxs stressogen vaziyatni o'zgartira olmaganda qo'llaniladi. Ular o'z navbatida quyidagi ikki ko'rinishdan iborat:

a) stressli vaziyatlarga nisbatan emotsional reksiyaning nazorat qilishning bixevioral yo'li – stress holatida subyektning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish bilan bog'liq bo'lib, buning asosini chalg'ituvchi faoliyatga yo'naltirish usuli tashkil etadi. Bunga quyidagilar misol bo'ladi: do'stlar davrasida bo'lish, boshqa sport turi bilan shug'ullanish, tog' qo'ynida dam olish, cho'milish havzasiga borish, qiziqarli kitob o'qish va boshqalar;

b) stressli vaziyatlarga nisbatan emotsional reksiyaning nazorat qilishning kognitiv yo'li bo'lib, unda shaxs o'z stress holatiga ongli munosabat bildirgan holda vaziyatga ijobiy nuqtayi nazardan yondashishi lozim. Buning natijasida sportchida vaziyatni keskinlashtiruvchi salbiy fikrlar emas, aksincha vaziyatdan chiqish uchun ijobiy va yoqimli fikrlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir;

- problem fossed soping: ko'p holatlarda stressogen vaziyatlarning kelib chiqishi bilan bog'liq. Muammoli vaziyatlarda ortiqcha hissiyotga berilish tafakkur jarayonini tormozlash xususiyatiga ega. Buning oqibatida har doim stress holatining kuchayish ehtimoli kuzatiladi. Problem fossed soping-metodining qulay va afzal tomonlari shundaki, stressli vaziyatlarda muammoni yechishga, xavflilik darajasini anglash va kamaytirishga hamda shaxs resurslarini kuchaytirishga qaratilganligi bilan xarakterlidir. Muammoli vaziyatda shaxs muammoning nima uchun kelib chiqqanligiga emas, muammoga qanday tezkor va to'g'ri yechim topish kerakligiga ko'proq e'tibor berishi lozim.

2. Stressni kamaytirish usuli – stressogen vaziyatda stressorlar ta'sirini kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu metodning quyidagi usullari farqlanadi:

- ijtimoiy qo'llab-quvvatlash usuli – yaqinlarning ko'magiga tayanish;
- o'z ustida shaxsiy nazoratni kuchaytirish usuli - stressli vaziyatlarda mustaqil bo'lish, yangi ijobiy fikrlar yaratishga asoslanish;
- stressogen vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish usuli – avvalgi faoliyat natijalariga tayanib stressogen vaziyatga to'g'ri baho berishga intilish.

3. Stressga qarshilik qilish – kundalik faoliyatni reja asosida tashkil qilish va unga qat'iy amal qilish bilan bog'liq, masalan, kun tartibiga ko'ra to'g'ri uyqu va dam olish, jismoniy mashg'ulotlarni belgilangan tartibda amalga oshirish, to'g'ri ovqatlanish qoidalari.

4. Stress menejment – stressni boshqarish usuli hisobdanadi. Stressogen vaziyatlarda stress insonni emas, inson stressni boshqarishga intilishi zarur. Bunda stresslarni "Modellashtirish" lozim, ya'ni faoliyatni boshlashdan oldin stress holatini keltirib chiqarish ehtimoli bo'lgan vaziyatlar bilan avvaldan tanishib chiqish juda ham muhim, masalan, sportchilar musobaqaga qatnashishdan oldin musobaqa o'tkaziladigan joyga borib, joyning holati va sport jamoasining faoliyati hamda boshqa reyting natijalari bilan tanishishlari mumkin. Shu bilan bir qatorda, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan stress holatini yengish uchun quyidagi metodlardan ham samarali foydalanish mumkin:

- relaksatsiya nerv tizimi faoliyatini faollashtirish bilan birga, kayfiyatni va psixik hayajonni boshqaradi va stress tufayli yuzaga keluvchi psixik va mushak kuchlanishlarini yo'qotadi yoki pasaytirishda ko'maklashadi;

- diqqatning kontsentratsiyasi, ya'ni fikrni bir joyga to'play olmaslik ham stress bilan bog'liq bo'ladi. Buning uchun xonada yolg'iz, stulga erkin o'tirgan holatda, osuda nafas olib quyidagi mashqni bajarish mumkin;

- diqqatni raqamlarga to'plash birdan o'ngacha bo'lgan raqamlarni asta-sekin sanab raqamlarga diqqat to'planadi;

- diqqatni so'zlarga to'plash, yoqimli hissiy kechinmalarni yuzaga keltiruvchi so'zlarni tanlab ularga diqqat to'planadi.

Mashqlar bir necha minut davomida bajarilgandan so'ng, kaft bilan yuzni silab, sekin ko'zlar ochiladi va fikrlar tarqoqligini yengganlik qayd etiladi. Emotsional taranglikni yechish istagida bo'lgan kishi muammoga o'sha zahoti yechim topa olmaydi, bunga albatta ma'lum bir vaqt talab etiladi. Ingliz olimi Grem Uolles 1926-yili muammoni yechishda ijod jarayonining quyidagi to'rt bosqichidan foydalanish mumkinligini ajratib ko'rsatgan edi:

1. Tayyorgarlik - vazifani puxta rejalashtirish; uni yechishga harakat qilish.
2. Inkubatsiya - vazifadan vaqtincha chalg'ish.
3. Nogahon esga tushish - intuitiv yechimning paydo bo'lishi.
4. Nazorat - yechimni sinab ko'rish yoki amalga oshirish.

Taklif qilingan bu to'rtta savolga javob topish uchun sportchilar muammoga daxldor bo'lgan barcha ma'lumotlarni yig'ishiga va ularni taqqoslab tahlil qilishiga to'g'ri keladi.

Sportchilar psixologik jixatdan tayyorlanish jarayonida ortiqcha emotsional ko'zg'alish holatlarini yengishga o'rganish lozim. Chunki ortiqcha asabiy qo'zgalish sportchining tayyorgarlik holatiga (sport formasiga) yomon ta'sir etadi va ularning yaxshi natija ko'rsatishiga xalaqit beradi. Keyingi paytlarda ortiqcha asab qo'zg'alishini kamaytirish uchun sportchilar o'z-o'zini ishontirish mashg'ulotlaridan foydalanmoqdalar. Shulardan biri autogen mashqi hisoblanadi. Autogen mashqlar yordami bilan sport faoliyatida organizmning funksional holatini boshqarish, tartibga solish va nazorat qilish usullari asosan keng qo'llanilmoqda.

Sport sohasi va amaliyotida "o'zini-o'zi psixik boshqarish mashqi" keng miqiyosida ommalashib ketganini (A.V.Alekseev, L.D.Gissen; A.V.Alekseev, V.E.Rojkov), keyinchalik esa "psixomushak mashqi" (A.V.Alekseev) va sportchilarni "hissiy-irodaviy tayyorlash" (A.T.Filatov) nomi bilan keng tarqalganini kuzatishimiz mumkin. Har ikkala ko'rinish ham mualliflar tomonidan yetarli darajada ta'riflangan, ular orasida biroz farqlar bo'lgani bilan sportchilarni tayyorlashda umumiylik xarakteriga ega hisoblanadi. O'rgatuvchi kurs maqsadiga ko'ra bosh miya qobig'ida faza holatini chaqiruvchi muskul relaksatsiyasi mashqi yotadi. Keyingi holatlarda umumiy tinchlantiruvchi mashqlar o'rganiladi; maqsadga yo'naltirgan holda sensor xotirada qolgan narsalarni tiklash qobiliyati shakllantiriladi; o'zini-o'zi ishontirish qobiliyatini rivojlantiruvchi usullar qo'llaniladi. Sportda autogen mashqlarni qo'llashning asosiy variantlarini uch kompleks mashqlarga birlashtirish mumkin: 1) "yo'naltiruvchi", u startoldi loqaydlik va ko'p mashq qilishni oldini olish uchun mo'ljallangan; 2) "tinchlantiruvchi", u yuqori

startoldi hayajonida hamda musobaqadan keyingi holatda qo'llaniladi; 3) "bo'shashtiruvchi" bo'lib, u keskinlik holatida va musobaqa oldidan uyquini buzilishida foydalaniladi.

Yuqorida aytilgan ikkala ko'rinishda ham asosiy e'tibor ichki organlar funksiyasini boshqarishga, asosan nafas olish, yurak faoliyati, shu bilan birga asab-muskul apparatining ideomotor mashqlarini o'rgatishga qaratiladi.

Psixomushak mashqlari. A.V.Alekseevning fikriga ko'ra, psixomushak mashqlari asosida to'rtta komponent yotadi: "muskullarni bo'shashtirish mahorati", "o'zini-o'zi ishonitirish formulasining mazmunini psixik zo'riqishsiz aniq tasavvur qilish qobiliyati", "tanlangan obyektga diqqatni ushlash mahorati" va "kerakli so'zlar bilan o'ziga-o'zi ta'sir ko'rsata olish mahorati". Ushbu shakldagi autogen mashqlar geterotrening usulida o'tkaziladi. Muallifning ta'kidlashicha, mushaklarning navbatma-navbat taranglashishi va bo'shashishi bilan bog'liq bo'lgan sport mashqlarini muntazam bajarishni sportchilar yengil o'zlashtirib oladilar. Turli mushak guruhlarini bo'shashtirishning izchilligi qo'ldan boshlanadi. Ushbu qo'llaniladigan usul ko'p jihatdan M.Jeykobson tomonidan ishlab chiqilgan usullarga o'xshab ketadi. Nafas olganda mushaklar sekin taranglashadi, shu bilan birga "mening qo'lim" deb aytiladi, so'ngra nafas o'pkada ushlab turiladi va mushaklarni 2-3 sekund davomida tarang holda ushlab turiladi, keyin nafas chiqarishda "bo'shashmoqda" deb aytiladi. So'ngra yana nafas olinadi, nafas chiqarayotganda esa "isiyapti" degan so'z aytiladi. Bu o'zini-o'zi ishonitirish qo'llarga tarqalayotgan issiq harorat haqidagi tasavvur bilan birga yuz beradi. Shunday qilib, birinchi mashg'ulotdan boshlab, muallif mushak relaksatsiya mashqini issiqni his qilish mashqi bilan birlashtiradi.

Avvalo qo'l uchun beriladigan mashqlarni egallab olgandan so'ng oyoq, bo'yin va badan mushaklariga beriladigan mashqlarga o'tiladi. Ushbu mashqlar ham xuddi shu printsip asosida bajariladi. Qachonki barcha mushaklarning "bo'shashish, taranglashish" jarayoni yaxshi egallab olingandan so'ng, sportchilar "Men bo'shashib ketyapman va tinchlanayapman" formulasi asosida shug'ullanishni boshlaydilar. Bu mashqlar ham oldingi tartib va belgilangan qoidalar asosida o'tkaziladi. A.V.Alekseevning fikricha, mashqning asosiy printsiplari oddiyligi sportchilarning autogen mashqlari psixomushak variantini yaxshi o'zlashtirib olishiga yordam beradi. Mashg'ulotlar quyidagi formulalar bilan yakunlanadi: "Chuqur tinchlanish holatidaman", "Butun organizmim dam oldi", "Men dam oldim va tinchlandim", "Kayfiyatim oldingidan ancha yaxshi".

Sportchilar asosiy psixomushak mashqlarini o'zlashtirib olganlaridan so'ng qo'rquvni yengish, og'riqni his qilmaslik, psixofiziologik holatni faollashtirish usullariga qaratilgan o'ziga ta'sir ko'rsatuvchi psixotrening usullarini ham o'rganadilar. Yaxshi shug'ullanish asosida har qanday vaqtda uyquga ketish va qat'iy belgilangan vaqtda uyg'onish mumkinligini e'tirof etgan holda A.V.Alekseev sportchi uchun ancha foydali ma'lumotlarni keltiradi. Uning ma'lumotiga ko'ra, pedagog-psixolog V.B.Gorskiyni kuzatishicha, yosh sportchilar basseynida masofani suzib o'tish vaqtida 5-8 sekund davomida uyquga ketishni o'rganib olganlar, lekin bu vaqtda tezlikni ham, yo'nalishni ham yo'qotmaganlar. Psixomushak mashqlarining biron bir maqsadga qaratilganligini hisobga olib,

asosiy diqqat nafas va yurak tizimi funktsiyalarini boshqarish usullarini o'rganishga qaratiladi.

Sportchilarni bo'lajak musobaqalarga tayyorlashda obrazli tasavvur-dan keng foydalanish ham ahamiyatlidir. A.V.Alekseev bo'larni uch guruhga ajratadi: "jangovar holat" tasavvuri, "harakatlarni a'lo darajada bajarish" va "ishtiroki juda muvaffaqiyatli bo'lganini tasavvur qilish holati". Obrazli tasavvurni "aniq so'zlar pardasida" ifodalash kerak, chunki bu ularning ta'sirini oshiradi. Shu bilan birga, psixomushak mashqlarida foydalaniladigan o'zini-o'zi ishontirish formulalari cheksizdir.

Autogen so'zi grekcha "auto" - o'zim, genno - "yarataman, erishaman" mazmunidagi so'zlardan olingan. U o'z-o'zini ishontirish mashqi bo'lib, ikkinchi signal tizimiga tayanadi, ma'lum so'zlar bilan sportchi o'zidagi ortiqcha asab qo'zg'alishlarini nazorat qiladi va stressni pasaytiradi. Aytiladigan so'zlar mushaklarni bo'shashtiradi, nafas olishni chuqurlashtiradi va boshqa fiziologik jarayonlarni me'yorlashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Autogen mashqlarni bajarishdan maqsad sportchi oliy nerv faoliyatini belgilangan tartibga monand boshqara olishni o'rganishdir. G'azablangan insonning peshonasi tirishib, bo'yin va lablari taranglashishi, qo'llari musht holatga kelishi yoki barmoqlari tartibsiz harakatlanishi, qaltirashi kuzatiladi. Bunday vaziyatda inson muskullar tonusini kamaytirsada, u bo'shashtiradi, natijada bosh miyada faollikning pasayishi haqida signallar paydo bo'ladi va ushbu bo'shashtirish bevosita javob reaksiyasi sifatida markaziy nerv sistemasiga tarqaladi, bu esa sportchidagi ortiqcha zo'riqishlarning pasayishiga olib keladi.

Sportchi maxsus mashq qilish yordamida o'zini ishontira oladi. Buning uchun avvalo sportchi metodika shartlarini bilib olib va uch-to'rt marta mashq qilishi lozim hisoblanadi. Shundagina ma'lum natijaga erishish mumkin. Mashg'ulotni o'tirib va yotib bajarish mumkin. Albatta, yotib bajarish afzal, chunki bunda mushaklarning bo'shashtirishi oson, o'tirib bajarish qulayroq, nega deganda ko'pincha yotishga imkoniyat bo'lmaydi. Hozircha sportchilar qullayotgan mashg'ulot aslida shifokor I.Shultsning mashg'ulot tizimiga asoslangan.

Mazkur mashg'ulot tizimi Polshalik psixolog S.Rotkevich tartibini biroz o'zgartirib sportchilarga tatbiq etilgan. Xullas, sportga nisbatan yoga tizimidan faqat foydali tomoni olingan, keraksiz tomoni chiqarib tashlangan. Hozirgi vaqtda, asosan, ikki xil o'zini-o'z ishontirish mashg'ulot tizimidan foydalanish an'anaga aylangan.

Psixonevrolog A.Gessen fikriga ko'ra, sport faoliyatidan ma'lumki, trener so'z orqali sportchi qayg'urgan paytlarida yaqindan yordam bera oladi. Ya'ni murabbiy sportchini so'zlar bilan ishontira oladi. Trenerning o'z obro'si jamoada va sport sohasida qanchalik yuksak bo'lsa sportchini o'zining so'zlariga shunchalik ishontira oladi. Lekin musobaqalar jarayonida murabbiy har doim ham sportchining oldiga kelib, yordam bera olmaydi. Shuning uchun sportchi murabbiyning ko'rsatmalariga tayanib, o'zini ishontira olsa, musobaqalarda o'zini yaxshi his qilishi mumkin [68].

Autogen mashqi ko'pincha quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

1) Mashg'ulot yoki musobaqadan keyingi jismoniy toliqishni yo'qotish yoki pasaytirish va sport bilan shug'ullanish qobiliyatini kuchaytirishda;

2) Musobaqa paytidagi emotsional zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan umumiy asab toliqishini yo'qotish yoki pasaytirishda;

3) Musobaqa paytida yoki o'yin oldidan vujudga keladigan ko'ngilsiz holatlarda haddan tashqari qo'zg'algan asab tizimini vazminlik holatiga tushirishda;

4) Uyqusizlik holati bilan kurashishda (uyg'oqlik va uxlash holatini me'yorlashtirishda).

O'zini ishontirish usulining sportda qo'llanilishi qo'yidagi vazifalarni ta'minlaydi:

1) mashg'ulotdan oldin oladigan dam unumli bo'ladi;

2) uyqusizlik holati bilan kurashishga yordam beradi, ayniqsa, musobaqa oldidan;

3) emotsional holatning haddan tashqari oshib ketishiga yo'l qo'ymaydi;

4) musobaqa paytidagi hayajonlanish holatlarini kamaytirishga yordam beradi (start lixoradkasi) va boshqalar.

N. Bashankovskiyning aytishicha, bunday mashqlar sportchining chempion bo'lishiga katta yordam beradi. Sportchilar o'zini ishontirish qobiliyatiga ega bo'lish uchun u maxsus metodika bo'yicha 3-4 oy davomida autogen mashqlar bilan murabbiyning nazorati ostida shug'ullanishlari shart hisoblanadi [7, 8].

Relaksatsion trening esa guruhiiy psixokorreksion faoliyatda hamda individual psixokorreksion faoliyatda qo'llanilishi, ya'ni emotsional-hissiy sohadagi buzilishlarni, nerv tizimida yuzaga kelgan o'zgarishlarni tartibga solishda, xarakter aktsentuatsiyasini psixokorreksiya qilishda, shuningdek, motivatsion sohani rivojlantirishda va psixologik resurslarni shakllantirishda keng foydalanish mumkin.

Mayin va yoqimli musiqa (sportchini bo'shashtiruvchi va ruhiyatida sokinlik uyg'otuvchi) qo'yiladi, relaksatsion matn o'qib eshittiriladi. Dastlab ishtirokchilardan butun diqqatni nafas olishga qaratish so'raladi, va nafas olgan sari ishtirokchilar ongining tiniqlashib borayotgani va nafas chiqarish orqali ortiqcha fikrlar chiqib ketayotganligi ustanovka sifatida qo'yiladi. Shundan so'ng "endi esa butun e'tiboringizni mening so'zlarimga qarating deya matn o'qib boshlanadi".

"Chuqur nafas olib chiqaring, diqqatingizni nafas olishingizga qarating. Har nafas olishingizda kislorod bilan ichingizga ijobiy hislar to'lib borayotganini his qiling, har nafas chiqarayotganingizda karbonat angidrit bilan barcha salbiy hislarni chiqarib yuboring. 5-10 sekund o'tgach so'z davom ettiriladi. Siz sharshara yonidasiz, undan sehrli buloq suvi sharros quyilib turibdi, sharshara ostiga sekin kirdingiz, ustingizdan iliq va toza buloq suvi butun vujudingizni silab oqib tusha boshladi, suvning taftini his eting, sehrli buloq suvi nafaqat vujudingizni balki butun qalbingizni poklab yubormoqda, barcha g'am va tashvishlaringiz, hatto gunohlaringiz ham suv bilan yuvilib ketmoqda. Siz yengillikdan osmonga ko'tarilmoqdasiz, bulutlarga yaqin parvozdasi, bulutlardagi yomg'ir tomchilari

yuzlaringizga tekkanini sezmoqdasiz, uzoq uchdingiz, siz o'zingizning manzilingizdasiz, siz o'zingizning manzilingizda eng baxtiyor, eng samimiy, hurmat va izzatga sazovor bo'lgan eng mamnun insonsiz, barcha sizdan mamnun va siz ham atrofda gilaringizdan mamnunsiz, hamma sizni tushunadi va siz ham atrofda gilaringizni tushunasiz, barcha alam va xafagarchiliklar kechirilgan va unutilgan. Yuzingizda samimiy tabassum, sizning insoniyligingiz hammani maftun etadi. Siz mas'uliyatli insonsiz, sizda orzu va maqsadlaringizga erishish uchun shijoat va kuch bor, buni his eting! Maqsad va orzular sari doimo olg'a yuring! Albatta shu kuch shu mamnuniyat ko'tarinki kayfiyat har vaqt sizga yor bo'lsin!"

Polshalik psixolog S.Rotkevich taklif qilgan o'z-o'zini ishontirish mashg'uloti chalqancha yotib yoki kresloda o'tirib bajariladi, chunki bunday holatlarda mushaklarning bo'shashtirish osonroq kechadi. Mashg'ulot faqat karavot yoki divanda o'tkazilmay balki ochiq xavoda o'tkazilishi sportchida yanada yaxshiroq ta'sir etadi [5]. Faqat chalqancha yotganda boshning tagiga yostiq yoki shunga o'xshash yumshoq narsa qo'yiladi. Qo'l bir oz bukilgan va qo'lning kafti pastga qaragan bo'ladi. Qo'l oyoqqa tegmaydi, oyoq to'g'ri uzatilgan bo'lib, oralig'i bir-biridan taxminan 20 smda joylashgan bo'lishi kerak. Shundan keyin oyoq mushaklari ham bo'shashtiriladi, oyoq-qo'lning mushaklari bo'shashtirilgandan so'ng, ko'z yumiladi. Undan keyin doktor yoki psixolog so'z orqali mashg'ulot bilan shug'ullanuvchilarni tinch holatga olib keladi. Shug'ullanuvchilar bilan quyidagi mashg'ulotlar olib boriladi:

1. Mushaklarni bo'shashtirish mashqi.
2. Issiq nafasni his kilish.
3. Yurak faoliyatini tartibga solish.
4. Nafas olishni tartibga solish.
5. Qorin bo'shlig'ida (diafragma) issiqni his qilish.
6. Peshanani muzlatish.

Mushaklarni bo'shashtirish mashqi. Mashqni boshlashdan oldin trener yoki psixolog sportchini tinchlantirishi kerak. Buning uchun trener yoki psixolog quyidagi formulalarni aytadi. "Odam hamma qiyinchiliklarni yenga oladi", "Men tinchlanyapman", "Men juda tinchlandim", "Mening atrofimda hech kim yo'q", "Men juda yaxshi tinchlandim". Bir necha marta qaytarilgandan keyin qo'l mushaklarini bo'shashtirishga o'tiladi. "Mening o'ng qo'lim og'irlashyapti". "Mening chap qo'lim og'ir". Mana shu formulalarni qaytarish natijasida o'ng qo'l og'irlashadi (ya'ni qon tomirlar kengayadi) Shuning uchun qo'l og'irga o'xshaydi. Xuddi shunday qilib chap qo'l bo'shashtiriladi, so'ng o'ng oyoq, chap oyoq, qorinning mushaklari, ko'krak mushaklari, bo'yinning mushaklari va yuzning mushaklari bo'shashtiriladi. Keyinchalik irradiatsiya bo'lish tufayli mushaklarni bo'shashtirish osonroq bo'ladi. Ya'ni tormozlanish jarayoni markaziy nerv tizimiga tez tarqaladi. Mushaklarni bo'shashtirish mashqi jarayoni 10-14 kun tizimli bajariladi. Har kun 3 martadan amalga oshiriladi. Sportchilar boshqalarga qaraganda tezroq mashqni o'zlashtiradilar.

Issiqni his qilish mashqi. Ma'lumki, skelet mushaklarini boshqaruvchi asab markazlari bilan qon tomirlarini boshqaruvchi asab markazlari o'rtasida bevosita aloqa bor. Nazarda tutilgan mushaklar bo'shashtirilganda, uyqu holatida, gipnoz

holatida qon tomirlari kengayadi. Shuning uchun mushaklarni bo'shashtirish mashqini egallab olgandan keyin issiqni his qilish mashqiga o'tiladi, sport bilan shug'ullanmaydigan kishilarda qo'l og'irlashganda issiqni his qiladi. Sportchilar bir-ikki kundayoq, issiqni his qiladilar. Issiqni his qilish qon tomirlarining kengaytirilishga asoslanadi. Bu mashqning asosiy formulalari o'ng qo'lim isiyapti, o'ng qo'lim issiq, so'ng chap qo'l, o'ng oyoq, chap oyoq. Sekin-sekin mushaklarni bo'shashtirish bilan issiqni his qilish aralashib boradi. "Mening oyoq qo'lim og'ir" degan ishonch so'zi bir necha marta qaytarilgandan keyin "mening o'ng qo'lim isidi" va hokazo tizimli takrorlanaveradi. Keyinchalik formulalar qisqaradi. "Mening qo'llarim isidi". Bu mashqni 4-8 hafta o'tkazish lozim. Agar issiq his qilinmasa mashq qilishdan oldin oyoqlarni issiq suvga solib so'ng mashqni boshlash kerak.

Yurak faoliyatini tartibga solish mashqi. Bu mashqni qilishda o'ng qo'l yurakning ustiga qo'yiladi. Bu kamlik qilsa chap qo'l, o'ng qo'lning ustiga qo'yiladi. Ko'p odamlar o'z yurak urishini sog'lom paytlarida sezmaydilar. Shuning uchun mashqni boshlashdan oldin, yurak urgandek faraz qilish kerak, so'ng quyidagi formulani aytish o'rinli hisoblanadi. "Yuragim tinch va bir xilda uryapti", keyinchalik "yuragim tez uryapti" formulasini ishlatish kerak. Bu mashqdan juda ehtiyotlik bilan foydalanish zarur, chunki yurak faoliyatini butunlay tartibsizlantirish holati ham yuz berishi mumkin.

Nafas olishni tartibga solish mashqi. Yuqoridagi mashqlar egallab olingandan keyin bu mashq boshlanadi. Bu mashg'ulotning asosiy vazifasi sportchi nafas olishini yengillashtiradi. Buning asosiy formulasi "nafasimni erkin olayapman". Bu mashq natijasida nafas olish chuqurlashadi, nafas olish tezligi kamayadi.

Nafas olishni autoboshqarish. Jismoniy zo'riqish va stressli holatlarda yoki qattiq qo'rquvga tushganimizda nafas olish qiyinlashadi. Inson o'zi anglagan holda o'z nafasini boshqara oladi va bundan tinchlanish, psixik va mushaklardagi zo'riqishlardan xolos bo'lish uchun foydalanish mumkin. Stressga qarshi nafas olish mashqi umurtqa pog'ona vertikal yoki gorizontal holatda bajariladi, erkin holatda, tabiiy zo'riqishlarsiz nafas olinib, ko'krak va qorin mushaklariga cho'zilish imkonini beradi.

Qorin bo'shlig'ida issiqni his qilish mashqi. Fizioterapiyadan ma'lumki, qorin bo'shlig'ida bo'lgan (issiq) holatdan odam organizmi bo'shashadi, asab tizimi tinchlanadi, mashq mushaklarni yanada bo'shashtirishga yordam beradi. Bu mashqda qorinni ichi isiydi. Asosiy formula quyidagi tartibda amalga oshiriladi: "mening diafragmam issiq", "diafragmamga issiq yetib bordi". Ushbu mashq bilan shug'ullanuvchilarning ko'pchiligi diafragma nimaligini tushunmaydi. Shuning uchun oldindan tushuntirish lozim hisoblanadi.

Yuqoridagi mulohazalardan ma'lumki, sport faoliyatida paydo bo'ladigan stressli kechinmalarni yengib o'tish va tezda bartaraf etish uchun ushbu mashqlarning xizmati beqiyos hisoblanadi. Mashqlar sportchilarning keyingi musobaqalarga yaxshi va puxta tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Некрасов В.П. Психорегуляция в подготовке спортсменов. –Москва: 1995. – 132 с.
2. Лазарус Р. Теория стресса и психофизиологические исследования. - В кн.: Эмоциональный стресс. – М.: Медицина, 2010. – 78.
3. Газиева Ф.Э. Спортда гуруҳий жипслик шаклланиши ва ривожланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. –Тошкент.: 2019. –55 бет.
4. Фромм Э. Характер и социальный процесс// Психология личности. – М.:1992. -С.49-54.
5. Бакшин С.Г. Оценка пространственно-временных характеристик двигательной деятельности футболистов высокой квалификации: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Малаховка: 1997. – 23с.
6. Белинская Е.П. Временные аспекты «Я-концепции» и идентичности // Мир психологии. №3. – М.:1999. – С.140-147.
7. Файзиев З.Х. Казусли вазиятларда спорчи эмоционал ҳолатини коррекциялашнинг ижтимоий-психологик механизмлари. Автореферат. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). – Бухоро. 2020. –52-б.
8. Бордов В.А. Когнитивные процессы и психологический стресс. // Психол. журн., 1996. – Т.17. №4. – С.32-42.
9. Варданыан Б.Х. Механизмы регуляции эмоциональной устойчивости // Категории, принципы и методы психологии. Психические процессы. – М. Дело, 2011. –194 с.
10. Величовский Б.Б. Многомерная оценка индивидуальной устойчивости к стрессу. Автореф. дис.канд. психол. наук. – М., 2007. – 28 с.

MAMLAKATIMIZ PSIXOLOG OLIMLARI TOMONIDAN SPORTCHILARDA STRESS HOLATLARINING O'RGANILISHI

A.A. Radjabov¹

Sh.O.Murodullayeva²

1.2. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada sportchi faoliyatiga ta'sir etadigan stresslarning kelib chiqish sabablari, ta'sir doiralari va ularning psixologik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sportchi, stress, stressorlar, nerv sistemasi, musobaqa jarayoni.

Radjabov A.A.

Pedagogika kafedrası assistenti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Аннотация: В статье описаны причины стресса, сферы влияния и их психологические особенности, влияющие на результативность спортсменов.

Ключевые слова: Спортсмен, стресс, стрессоры, нервная система, соревновательный процесс.

Murodullayeva Sh.O.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-bosqich talabasi, Samarqand, O'zbekiston

Abstract: The article describes the causes of stress, the spheres of influence and the psychological characteristics that affect the performance of athletes.

Keywords: Athlete, stress, stressors, nervous system, competition process.

Bugungi kunda tub islohotlar ta'sirida shiddat bilan rivojlanayotgan yangi O'zbekistonni rivojlangan davlatlar safidan munosib o'rin topishi uchun mamlakatimizda yashayotgan har bir ongli fuqaro zimmasida, jumladan, jismoniy madaniyat xodimlari hamda sportchilar zimmasida ham mas'uliyatli va sharafli vazifalar turibdi. Mamlakatimiz sportchilarining jahon miqyosida o'tkazilayotgan yirik musobaqalar va olimpiada o'yinlarida qatnashib, nufuzli o'rinlarni qo'lga kiritayotganligi ular bu mas'uliyatli vazifani bajarishga astoydil kirishganligidan dalolatdir. Albatta, nufuzli musobaqalarda ishtirok etish o'z-o'zidan bo'lmasligi hammaga ayon. Buning uchun sportchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini yanada oshirish, ularda vatanparvarlik hissini kamol toptirish, Vatanimiz sportini qisqa muddat ichida jahondagi yirik va yuksak taraqqiy etgan davlatlar sporti darajasiga ko'tarish lozim.

Sport turlari har xil bo'lganidek, sportchilarning musobaqaga tayyorligi va ularda musobaqa jarayonida paydo bo'ladigan hissiy-emotsional ta'sirlanish darajalari ham turlicha bo'ladi. Ba'zi bir sportchilar muvafaqqiyatga qiyinchilik bilan erishsalarida, boshqalarida esa kuchli hissiy ta'sirlanish, xavotirlanish, vahimaga tushish, uchinchisida esa asab tizimining zaifligi, to'rtinchisida hissiyotlarning tez o'zgaruvchanligi va stressli kechinmalarning mavjudligi sababli sport musobaqalarida yuqori ko'rsatkichlarga erishishi juda og'ir kechadi. Shunga ko'ra, sportchilar bilan psixologik tayyorgarlik ishlari olib borilmas ekan, sport musobaqalari muvofaqqiyatsiz va samarasiz bo'lishi kuzatiladi.

Mamlakatimiz psixolog olimlari (E.G.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, N.S.Safoev, D.G'.Muxamedova, R.S.Samarov, Z.G.Gapparov, R.Z.Gaynutdinov, R.A.Abdurasulov, F.G.Gazieva, Z.H.Fayziev, A.Nazarov va boshq.) tomonidan sport faoliyatida stressli kechinmalarni yuzaga kelish sabablari, stresslarni chaqiruvchi omillar, stressli kechinmalarning psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi hamda psixoprofilaktik chora-tadbirlar tizimi sohasida bir qator

nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari olib borilganligini e'tirof etishimiz mumkin.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan yetakchi psixolog olimlarning sport faoliyatida stressli kechinmalarni psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasiga doir ilmiy-nazariy qarashlari yoshlarni sport faoliyati bilan shug'ullanishlarini ilmiy asosda tashkil etishda, ularning hayotga to'g'ri yo'nalganligi va jismonan barkamolligini ta'minlashda, sportchi psixologiyasiga xos qadriyatlarni e'tiborga olishda, sport turi va sohalari bilan bog'liq milliylik va milliy mentalitetimizni saqlash hamda avaylab-asrashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, G'.B.Shoumarov[2] o'z tadqiqotlarida yoshlar kamolotida jismoniy va psixologik taraqqiyotning uyg'un kechishiga, sportchining jismoniy sog'lom, ruhiy baquvvat, sport faoliyatida muvafaqqiyatga erishishda emotsional kechinmalarni boshqarish va ularni bartaraf etish hamda sportda engish masalasini ijobiy hal qilish mumkinligiga alohida e'tibor bilan qaraganligini ko'ramiz. U sportchilarni tayyorlab beradigan o'quv muassasalarida psixologik xizmat masalasini tadqiq etish asosida sportchining individual xususiyatlari bilan emotsional-hissiy kechinmalari o'zaro uzviy bog'liqlikda ro'y berishini ilmiy o'rganib, yuzaga keladigan salbiy hissiyotlarni engish va bartaraf etishning muhim jihatlarini mahalliy misollar yordamida tahlil qilgan. Shuningdek, muallifning sportchi faoliyati va emotsional holati o'zgarishi muammosiga doir sobiq ittifoq va xorijiy mamlakatlar psixologiyasidagi turli qarashlar, yondashuvlarga tahliliy va tanqidiy yondoshuvlarini ham kuzatamiz.

A.M.Jabborov[3] tadqiqotlarida milliy sport o'yinlarining jamiyat taraqqiyotidagi nufuzi va sportda shaxs takomillashuvidagi muhim xususiyatlarning psixologik mohiyatini yoritishdagi ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy sport turlari millat yoshlari hayotida, faoliyatida, kamol topishi va rivojlanishida zarur jismoniy hamda tarbiyaviy psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Muallifning ilmiy izlanishlarida hissiy kechinmalarning metodologik asoslari, ilmiy nazariy jihatlarini, chet el va mamlakatimiz psixologlarining stressli kechinmalar namoyon bo'lishiga nisbatan yondashuvlari, uning sport faoliyatida o'rganilishi, muayyan mezonlarga ko'ra tasniflanishi, tatbiqiy jihatlariga doir ilmiy-nazariy fikrlari va tahlillarini uchratamiz. Ayniqsa, sportchilarni musobaqaga tayyorlash bosqichlarida va sport faoliyatida stressli kechinmalarni psixodiagnostika qilish, stresslarni tasniflash va psixokorreksiyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini yaratish zarurat sifatida muhimligini ko'rsatib o'tganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Sh.R.Barotov [4] sport jamoalari va jamiyatda psixologik xizmat ko'rsatishni tashkil etishning ilmiy asoslari va amaliy yo'nalishlari sohasida qator tadqiqotlar olib borish bilan birga, sport faoliyatining o'ziga xos jihatlari va sportchi kamoloti bilan bog'liq sog'lom turmush tarzining muhim tomonlarini ilmiy asoslashga harakat qilgan. Shuningdek, u sport jamoalaridagi psixologik muhitni mo'tadillashtirish, sportchi-murabbiy munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, emotsional zo'riqishni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, tasniflash, oldini olish va bartaraf etish bilan bog'liq chora-tadbirlarda psixologik xizmatning

oʻrni va ahamiyati ancha muhim ekanligini yetarlicha ilmiy dalillar bilan asoslaganligini koʻrishimiz mumkin.

Z.T.Nishonova [5] ilmiy izlanishlarida sportga qiziqqan va sport muassalarida tahsil olayotgan sportchilarning turli tashqi taʼsirlar hamda kutilmagan vaziyatlarda emotsional kechinmalari oʻzgarganda korreksiya qilishning ilmiy-metodik jihatlari haqida toʻxtalib, psixologik yordam amaliyotida emotsional buzilishlarni korreksiya qilishda turli xildagi terapiya yaʼni kognitiv terapiya, geshtalt terapiya va boshqa psixoterapevtik yoʻnalishlarga xos milliy-madaniy qadriyatli usullardan foydalanish ahamiyatli ekanligini eʼtirof etadi. U sport faoliyatida samarali hisoblangan ijtimoiy-psixologik trening dasturlarini ishlab chiqqan va sport faoliyatida stressli kechinmalarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga yoʻnaltirilgan mashqlar tizimini yaratgan: shaxsning oʻzini-oʻzi va oʻz his-tuygʻularini anglash, oʻz shaxsini qayta baholash, hissiyotlar ustida ishlash va ular keltirib chiqaruvchi oqibatlarini anglash, shaxslararo munosabatdagi qiyinchiliklar, kognitiv jarayonlarni rivojlantirish, barkamollikka intilish, sport jamoasi va murabbiylar bilan ishlash dasturlari yaratilgan va uni amaliyotga keng joriy qilish mumkinligi asoslab berilgan.

N.S.Safoev [6] talaba yoshlarda oʻzligini anglashning psixologik xususiyatlari haqida tadqiqotlar olib borib, turli vaziyatlarda sportchi talabalar shaxsida paydo boʻladigan salbiy emotsional kechinmalarni oldini olishda oʻzini-oʻzi anglashning muhim qonuniyatlarini izohlashga intiladi. Bundan tashqari, muallif shaxsda roʻy beradigan salbiy oʻzgarishlar va muammoli vaziyatlar paytida oʻzini-oʻzi nazorat qilish, oʻzini toʻgʻri boshqarish, muammolarni engib oʻtish mexanizmini oʻrganib, ularning ijtimoiy-psixologik va milliy-madaniy jabhalari haqida keng toʻxtalganligini guvohi boʻlamiz.

D.G.Muxamedova [7] boshqarish menejmentining muhim zamonaviy xususiyatlari haqida toʻxtalib, sport faoliyati tizimining funksional psixologik modeliga asoslangan holda boshqarishga xos muhim tavsiya va yechimlarni izohlaydi. Muallif sport faoliyatidagi stressli kechinmalarni, sport faoliyatini boshqarish va tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari, ularning dasturlari, shakllari, bosqichlari toʻgʻrisida kengroq toʻxtalib, sport menejmenti faoliyatiga doir sportchilarni musobaqaga tayyorlash, oʻyin jarayonidagi stresslarni aniqlash va unga qarshi kurashish usullariga zarur ilmiy tavsiya va xulosalarni ilgari sura olgan.

R.S.Samarov [8] oʻz tadqiqotlarida turli faoliyat bilan shugʻullanuvchi shaxslarda, xususan, sport faoliyati bilan shugʻullanuvchi sportchilarning yolgʻon axborotlar qabul qilish jarayonida ularning axborot xavfsizligini taʼminlashga doir zarur mulohazalar bildirgan. Muallif sportchi faoliyatida yuzaga keladigan stressli kechinmalar, sport faoliyatini muayyan tizimga solish, sportchilarni toʻgʻri yoʻnaltirish, murakkab vaziyatlarda toʻgʻri karor qabul qilish va emotsional oʻzini oʻzi boshqarish va nazorat qilib borish zarur ekanligini asoslab berishga erishgan.

Etakchi psixolog olim E.G.Gʻoziyevning mamlakatimiz psixologiya fanida hissiy-emotsional va irodaviy holat muammolarini tadqiq etish hamda uning psixologik mohiyatini yoritishdagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sport faoliyatida stressli kechinmalar inson hayotida, u bajarayotgan faoliyatda va kamol

topishida zarur psixologik omil sifatida ta'sir ko'rsatishi keng izohlab bergan. Muallifning ilmiy izlanishlarida hissiy kechinmalarni metodologik asoslari, ilmiy-nazariy jihatlari, chet el va mamlakatimiz psixologlarining hissiy emotsional holatga nisbatan yondashuvlari, uning sport faoliyati va sporchi shaxsida namayon bo'lishini o'ziga xos jihatlari o'rganilgan, muayyan mezonlarga asoslangan holda tasniflab, tatbiqiy jihatlari oid ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan.

Muallif emotsiyani biror bir hissiyotning inson tomonidan bevosita kechirilishi (kechishi) jarayonidan iborat deb qaraydi. Qo'rqinch, dahshat kuchli hissiy kechinma sifatida obyektlarga shaxsning munosabatini aks ettirib, turlicha shaklda namoyon bo'lishi mumkin: odam dahshatdan qotadi, qo'rquvdan angrayib qoladi, o'zini idora qila olmay har tomonga uradi, hatto xavf-xatarga o'zini tashlashi ham mumkin.

E.G'oziyev o'z mulohazalarida, stress - og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar yuzaga kelganda, ishlar me'yoridan oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug'ilganda zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'riqishdir deb baholaydi. Mana shunday sharoitlar va vaziyatlarning barchasini biron-bir emotsiya turi ro'yobga chiqaradi. Stress emotsional holatining paydo bo'lishi hamda kechishining psixologik xususiyatlarini aniqlash nafaqat uchuvchilar, kosmonavtlar, dispetcherlar (inglizcha ishlab chiqarishni muvofiqlashtiruvchi ma'nosini anglatadi) uchun, balki sudyalari, korxonalar rahbari, ta'lim tizimi xodimlari uchun ham alohida ijtimoiy-psixologik ahamiyat kasb etishi haqida to'xtalib o'tgan [9].

Muallifning fikricha, stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o'ziga xos tarzda o'zgaradi, unda qo'zg'alishning umumiy reaksiyasi paydo bo'ladi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomondan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni echishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalikni stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilish mumkin. Shaxs stress holatida vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati engil tormozlanadi, idrok ko'lami torayadi.

Stress holatida shaxsning psixologik xususiyatlari, turmush tajribasi, shakllangan malakasi muhim rol o'ynaydi. Keskinlikning oldini olishda shaxsning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Undagi yuksak his-tuyg'ular (mas'uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va boshq.) stress holatida xatti-harakat buzilishining oldini olishga xizmat qiladi deb ta'kidlaydi.

Z.G.Gapparov olib borgan tadqiqotlarida sport faoliyatida yuzaga keladigan stressda jismoniy va psixologik bog'liqlikni ilmiy asoslashga harakat qilgan. Sport musobaqalarida sportchilarning hissiy holatini o'rganish asnosida start oldi hayajoni va uni nazorat qilish hamda boshqarish usullari to'g'risida atroflicha ma'lumot bergan [10].

R.Z.Gaynutdinov olib borgan tadqiqotlar sport faoliyatining ilmiy va empirik o'rganishga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. U o'z izlanishlarida muvafaqqiyatga erishish va muvafaqqiyatdan qochish motivlarini nazariy va

amaliy jihatdan chuqur tahlil etgan. Ayniqsa, muvafaqqiyatsizlikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik sabablarini batafsil yoritilganligini ko'rishimiz mumkin.

Muallifning sportchilar psixologik holatini milliy madaniy muhit sharoitida tadqiq etishdagi ishlari e'tiborga loyiqdir. R.Z.Gaynutdinov o'z tadqiqotlarida sportchilar faoliyatida stressli kechinmalarni yuzaga kelishi, ko'rinishlari, davomiyligi, uni keltirib chiqaruvchi oqibatlari haqida to'xtalib, sportchilarni o'yin jarayonida tayyorlanishlari va o'yin jarayonini o'tkazishlarida jismoniy va psixologik tayyorgarlik uyg'un holda kechishi, jismoniy va psixologik tonning pasaymasligi engishning eng muhim omili ekanligini asoslashga intilgan.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sportchilarni psixologik holatini o'rganish borasida R.Abdurasulovning olib borgan tadqiqot ishlari ham nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. U shaxs shakllanishida sportning o'rni va roli haqida alohida to'xtalib, sportchilarning musobaqadan oldin va musobaqadan keyingi stressli kechinmalarini oldini olish, boshqarish va bartaraf etish usullari to'g'risida keng mulohazalar bildirgan.

Muallif sportchilarning musobaqaga psixologik-fiziologik tayyorgarlik jarayonida nerv tizimining muvozanatlashganligi va nafas olish tizimi faoliyatining boshqarish usullarini ham tadqiq etgan. Sportchilarni psixologik tayyorgarligi jarayoni yakunida psixolog-psixoterapevt yoki sport psixologi va murabbiy yordamida sportchi o'zi uchun zarur bo'lgan xarakter hislatlari hamda shaxsiy sifatlarini tarbiyalash uchun yakka tartibdagi rejani tuzishda psixoprofilaktik yordam olishlari muhim ekanligi ko'rsatib o'tilgan [10].

Yosh olim F.Gazieva [11] sportda guruhiy jipslik shakllanishi va rivojlantirishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to'g'risida to'xtalib, futbol jamoasining ijtimoiy va faoliyat jarayonidagi jipsligini muayyan mezonlar asosida o'lchash, ularga ta'sir etuvchi umumiy bog'liqlikni aniqlash, ijtimoiy jihatdan jamoa a'zolarini yaqinlashtirish, komandani jipsligini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tgan. Shu bilan birgalikda, muallif sport faoliyatida jamoaviy jipslikdan qochishning asosiy sababi stressga moyil sportchilarning mavjud ekanligi bilan bog'lab tushuntirgan. Demak, sport faoliyatida stressli kechinmalarni oldini olish va uni bartaraf etish jamoaviy jipslikning asosiy manbai hisoblanishini ta'kidlaydi.

Kazusli vaziyatlarda sportchi emotsional holatlarini tadqiq etgan Z.Fayziev o'z izlarnishlari natijalariga tayanib, sport faoliyatida barqaror emotsional holatlarni ta'minlovchi quyidagi tavsiyalarni ilgari surganligini ko'ramiz:

1. Sportchilarda o'zini-o'zi boshqarish, nazorat qilish, faoliyat natijalarini baholash, o'yin jarayonida emotsional barqarorlik, muvafaqqiyatni his qilish ko'nikmalarini shakllantirishda ularning tipologik va shaxslilik xususiyatlarini hisobga olish lozim.

2. Sportchilarning hamkorlikda olib boradigan faoliyati kazusli vaziyatlarni engishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Sportchilar jamoasida hamkorlikdagi jismoniy-psixologik mashg'ulotlarni olib borish, jipslikni ta'minlash va salbiy emotsional holatlarning oldini olish hamda uni bartaraf etish uchun xizmat qiladi.

3. Sportchilarda xavotirlanish darajasini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida o'zini-o'zi musobaqaga psixologik tayyorlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

4. Sport faoliyatida musobaqadan oldingi maqsadli ijtimoiy-psixologik treninglar kuzusli vaziyatlarni engish va muvaffaqiyatga erishish hissini shakllantiradi.

5. Sportchi shaxsida paydo bo'ladigan salbiy emotsional holatlarni boshqarishda jismoniy-psixologik mashqlardan foydalanish muvaffaqiyat garovi ekanligini ta'kidlagan [13].

A.Nazarov sport sohasida olib borgan tadqiqot natijalariga tayanib, sportchilardagi psixologik muhofazani o'rganishga imkon beruvchi psixodiagnostik metodikalarni qo'llashning samarali imkoniyatlarini aniqlashga erishgan. Sportchilardagi psixologik muhofaza omillarini rivojlantirish modelini yaratgan va sportchi talabalar faoliyatida qo'llagan. Mualliy tadqiqotlariga asoslanib, sportchilarning psixologik muhofaza omillarini rivojlantirishga mo'ljallangan psixologik trening dasturini ishlab chiqqan va shu asosida amaliy tavsiyalar bergan [14].

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti professori Z.G.Gapparov rahbarligida R.D.Xolmuhammedov, F.K.Turdiyev, A.A.Shabanov, D.R.Rapidjonova va boshqalar sport faoliyatida sportchilarning emotsional holatlarini va ularning maxsus malakalarini takomillashtirish bo'yicha olib borayotgan ilmiy izlanishlari sportchilarni sport musobaqalariga psixologik tayyorlashda alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoumarov G'.B. O'zbekiston ta'lim tizimida psixologik xizmat muammolari. –T.: 1998. – 13-15-b.
2. Jabborov A. M. O'qituvchi etnopsixologiyasi. – Qarshi.: “Nasaf”, 2015. – 180-b.
3. Barotov Sh. R. Psixologik xizmat. –T., 2018. –33-b.
4. Nishanova Z.T., va boshq. Psixologik xizmat. –T., 2014. –106-b.
5. Сафаев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи: Дис. д-ра. псих. наук. – Т., 2005. –124 с.
6. Мухамедова Д.Г. Менеджмент в образовании: аспекты содержания подготовки кадров // Педагогика таълим. –Ташкент.: –№3. 2013. – 17-21с.
7. Samarov R.S. Shaxs va stress. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2004. – 40-b.
8. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. –T., 2010. – 544-b.
9. Гаппаров З.Г. Спортивная психология: Учебник для студ. ин-та физкультуры /З.Г.Гаппаров; МВ и ССО РУз. – Т.: “Мехридарё”, 2009. –212-б.
10. Abdurasulov R.A. O'quvchi shaxsini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining o'rni. Monografiya. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. –204-b.
11. Gaziyeva F.E. Sportda guruhiy jipslik shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari:Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa

doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent: 2019. – 55-b.

12. Fayziev Z.X. Kazusli vaziyatlarda sporchi emotsional holatini korrektsiyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Avtoreferat. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). – Buxoro. 2020. – 52-b.

13. Nazarov A.M. Sportchilarda psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Avtoreferat. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). – Buxoro. 2021. – 57-b.

XV-XVI ASRLARDA DASHTI QIPCHOQDA KECHGAN ETNIK JARAYONLARNING MARKAZIY OSIYO XALQLARI ETNIK SHAKLLANISHIDA TUTGAN O'RNI

I.U.Turdiyev¹

1. Samarqand davlat universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: XV-XVI asrlarda Dashti Qipchoqda kechgan etnik jarayonlarning Markaziy Osiyo xalqlari etnik shakllanishida tutgan o'rning ayrim jihatlari bilan tanishib chiqish shuni ko'rsatdiki, bu davr mintaq va unga yaqin qo'shni hududlarning bir qator xalqlari – o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, no'g'oylar, boshqirdlarning etnik shakllanishida o'ziga xos o'rin egalladi.

Kalit so'zlar: *Dashti Qipchoq, Oltoy, O'rta Osiyo, Ko'k O'rda, Barlos, Arlot, Mo'g'ul (mo'g'ul), Karluk, Turkman, Yettisuv, Volga va Ural.*

Аннотация: Короче говоря, знакомство с некоторыми аспектами этнических процессов, происходивших в Дашти Кипчаке в XV - XVI веках в этническом формировании народов Средней Азии, показало, что в этот период ряд народов региона и соседних областей - Узбеки, казахи заняли особое место в этническом формировании каракалпаков, ногоев и башкир.

Ключевые слова: *Дашти Кипчак, Алтай, Средняя Азия, Синяя Орда, Барлос, Арлот, Могол (Монгольский), Карлук, Туркмен, Еттисув, Волга и Урал.*

Abstract: In short, getting acquainted with some aspects of the ethnic processes that took place in Dashti Kipchak in the 15th - 16th centuries in the ethnic formation of the peoples of Central Asia showed that during this period, a number of peoples of the region and neighboring areas - Uzbeks, Kazakhs, took a special place in the ethnic formation of Karakalpaks, Nogoys, and Bashkirs.

Keywords: *Dashti Kipchak, Altai, Central Asia, Blue Horde, Barlos, Arlot, Mogul (Mongolian), Qarluq, Turkmen, Yettisuv, Volga and Ural.*

Kirish

Dunyo xalqlari orasida globallashuv jarayonlari tobora kuchayib borayotgan va turli madaniyatlarning o'zaro qorishuvi jadallashayotgan bugungi kunda milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ajdodlardan meros moddiy va ma'naviy an'analarni kelgusi yosh avlodga yetkazib berish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu masala o'zbek xalqi uchun ham xos bo'lib, bir tomondan dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashish, ikkinchi tomondan esa o'z milliy madaniyatini avaylab-asrash diqqatga sazovordir.

Adabiyotlar tahlili

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan bir qator izlanishlarda ham bu mavzu birmuncha o'z ifodasini topgan bo'lib, B.To'ychiboyev, A.Ashirov, B.Axmedov, M.Pardayev, M.Abuseyitova, G'.Boboyorov va boshqalarning ilmiy ishlari ham metodologik, ham ilmiy va amaliy jihatdan tanlab olinayotgan tadqiqot uchun qo'llanma vazifasini bajaradi. Garchi ushbu tadqiqotlarning ko'pchiligi o'rganilishi ko'zda tutilayotgan mavzuga to'g'ridan-to'g'ri tegishli bo'lmasa-da, regionlarni o'zaro taqqoslashda asqotadi deb o'ylaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolaga ma'lumotlar to'plashda asosan dala kuzatuv va taqqoslash metodlaridan keng foydalanildi. Bunda Jizzax vohasida hozirda yashayotgan bir

Turdiyev I.U.

SamDU 2-bosqich
tayanch doktoranti,
Samarqand, O'zbekiston
ilyosturdiyev@gmail.com
m

qancha urug'larni joylashuvi, madaniyati o'rganilgan holda ilmiy asarlardagi ma'lumotlar bilan qiyosiy taqqoslangan.

Tahlillar va natijalar

Yevrosiyo kengliklarida, ya'ni Sharqiy Yevropadan Oltoy hududlarigacha bo'lgan keng tekisliklar XV-XVI asrlarda kechgan siyosiy va etnomadaniy jarayonlar bugungi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu davrda geografik jihatdan Dashti Qipchoq, siyosiy jihatdan esa Oltin O'rda yoki Jo'chi ulusi deb nomlangan Yevrosiyo dashtlarida ko'proq turk va turklashgan mo'g'ul elatlari siyosat sahnasida faol bo'lib, asosan, bitta til – turkiy tilning qipchoq lahjasi, din – islom, turmush tarzi – ko'chmanchi chorvador va hokozo tomonlardan umumiylikka ega edilar. Aynan shu davrlarda turkiy, mo'g'ul, tatar kabi etnosiyosiy atamalar qatoriga “o'zbek” yoki bugungi kundagi atalishi “ko'chmanchi o'zbek” degan atama kirib keladi.

Ma'lumki, “ko'chmanchi o'zbek” atamasi ostida dastlab shayboniylar bilan Amudaryo – Sirdaryo oralig'iga kirib kelgan ko'chmanchi turkiy aholi tushunilsada, o'zbek xalqi deganda asosan bugungi O'zbekiston va unga qo'shni hududlarda qadimdan yashab kelgan o'troq va ko'chmanchi turkiylar tushuniladi. Mintaqadagi o'troq turkiylar bilan ko'chmanchi o'zbeklarning o'zaro birikuvi natijasida keyinchalik yagona o'zbek xalqi tashkil topgan bo'lib, shayboniylar davri o'zbek xalqi etnik shakllanishining so'nggi bosqichlaridan biri bo'ldi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar orasida “92 bovli o'zbek urug'i” iborasi, umuman olganda, yaqin o'tmishda o'zbeklarning 92 ta uruqqa bo'linish an'anasi bo'lgani [1] va bu borada birmuncha yakdil fikrga kelinganiga qaramay, keyingi yillarda ayrim izlanuvchilar farqli qarashlarni o'rta tashlayotganliklari ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, qozog'istonlik tarixchilar orasida masalaga yondashilganda biryoqlamaliklarga yo'l qo'yilayotganiga duch kelish mumkin. Qozoq tarixchilari orasida bu masalada 2-3 xil yondashuv mavjud bo'lib, ayrim qozoq olimlari, ayniqsa, XX asrning 90-yillaridan oldingi tadqiqotlarda “92 o'zbek urug'i” deganda ko'proq dashti qipchoqlik ko'chmanchi o'zbeklar haqida so'z borishi [2], ular siyosiy uyushuv, etnik, til va madaniyati bilan qozoq, qoraqalpoq, no'g'oylar bilan yaqin o'xshashlikka ega bo'lganliklariga e'tibor qaratgan bo'lsalar [3], keyingi yillarda, xususan, mustaqillik yillarining ilk o'n yilliklarida olib borilgan izlanishlarda ko'proq biryoqlamalikka yo'l qo'yilganini aytib o'tish kerak. Jumladan, qozoqlarning etnik shakllanishi, qozoq xonliklarining paydo bo'lishi, qozoqlar xalqining urug'-qabilaviy tarkibi masalasiga e'tibor qaratgan bir qator qozog'istonlik tadqiqotchilarning “92 bovli o'zbek urug'i” iborasining o'rniga “92 bovli qipchoq urug'i” [4], “92 bovli elatiya” degan iboralarni nisbatan ko'proq qo'llayotganliklari diqqatni tortadi.

Qozoq olimlarining bunday yondashuvlarining negizida bir qator omillar yotib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Agar bu iborani yozma manbalarda uchraganidek “92 bovli o'zbek urug'i” deb ishlatsalar guyo bu ibora qozoqlarga ham aloqadorligini birmuncha yo'qotadi;

2) Ayrim qozoq olimlari “92 bovli qipchoq urug'i” iborasini ishlatish orqali aslida bu tarixiy tushuncha qozoqlarga ko'proq aloqador ekaniga urg'u bermoqchi bo'ladi.

3) Qozoq olimlarining sezilarli bir qismi qipchoqlarga xos tarixiy merosni ko'proq qozoqlarga tegishli deb qarashga intiladilar[5]. Ayniqsa, tarixiy Dashti Qipchoq, aniqroq aytganda, bugungi Yevrosiyo kengliklarida tarix sahnasiga chiqib tushgan o'nlab turkiy sulolalarning, xususan, Oltin O'rda va uning izdoshlari bo'lmish bir qator siyosiy uyushmalar (Oq O'rda, Ko'k O'rda va b.) tarixini qozoqlarning ajdodlari bilan bog'lashga urinish kayfiyati kuchli. Shunday maqsadni o'zlariga vazifa qilib olgan ayrim qozoq tadqiqotchilari "92 bovli o'zbek" degan iborani ishlatishdan qochib, uning o'rniga "92 bovli qipchoq" iborasini qo'llaydilar va shu yo'sinda Dashti Qipchoq merosining o'zbeklarga ham tegishli ekanini xaspo'shlashga tirishadilar.

Aslida, Dashti Qipchoq tarixiga tegishli o'rta asr yozma manbalari, xususan, fors va turkiy tilli tarixiy asarlar, rus yilnomalari va boshqa tillardagi tarixiy asarlardagi ma'lumotlarga asoslanilsa, ushbu hudud tarixi va merosi birgina qozoqlarga emas, ko'chmanchi o'zbeklar, qoraqalpoqlar, no'g'oylar, boshqirdlar va tatarlarga ham birday tegishli ekani ma'lum bo'ladi[6]. Buni yozma manbalarda tilga olingan Dashti qipchoqlik yuzlab etnonimlarning ushbu xalqlar tarkibida deyarli birday uchrashi, ayrim o'rinlardagina qaysidir etnonimlarning o'zbeklarda, no'g'oylarda va qoraqalpoqlarda birmuncha ko'proq uchrashi, qaysidir etnonimlarning esa qozoq yoki boshqirdlarda nisbatan ko'proq saqlangani tasdiqlab turibdi. Masalan, "92 bovli o'zbek urug'i" ro'yxatida o'rin olgan *qirq, yuz, ming, mang'it, kenagas* etnonimlari o'zbek, qoraqalpoq, no'g'oy va boshqirdlarda uchrab, qozoq urug'lari orasida bunday etnonimlar qayd etilmagan[7]. Bunday misollarda yana bir nechasini keltirib o'tish mumkin. Holbuki, ushbu urug'lar turkiy xalqlardan yana bir nechasining tarkibida uchrab, ular nafaqat Dashti Qipchoqda, balki Markaziy Osiyo, Oltoy va Janubiy Sibirdagi siyosiy va etnik jarayonlarda faol qatnashganliklari bilinadi.

"92 bovli o'zbek urug'i" iborasini to'g'ridan-to'g'ri "92 bovli qipchoq urug'i" deyishga yo'l qo'ymaydigan yana bir qator omillar bor. Birinchidan, ushbu ro'yxatda faqat Dashti qipchoqlik urug'lar emas, *barlos, arlot, mo'g'al* (mo'g'ul), *qarluq, turkman, "turk"* kabi bir qator turkiy urug'lar ham o'rin olgan[8]. Qizig'i shundaki, ushbu etnonimlarning deyarli barchasi qozoq urug'lari ro'yxatlarida tilga olinmagan. Ya'ni bunday etnonimlar uchala qozoq juzi tarkibida ham uchramaydi. Bizningcha, buning negizida qozoqlar alohida etnik guruh bo'lib shakllanayotgan pallalarda yoki 3 ta juzga bo'linish jarayonlarida [9], ya'ni XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab to XVII asrlargacha bo'lgan davr oralig'ida Dashti qipchoqlik bir qator urug'larning ushbu jarayonlardan birmuncha chetda qolganliklari omili yotadi. Ma'lumki, qozoqlarning asosini tashkil etadigan turkiy yoki turk-mo'g'ul urug'larining katta qismi va uning atroflarida, xususan, Balxash ko'li tevaraklari, Chu, Talas va Ili daryolari oralig'ida yashagan va Uli-juz (Katta-juz) qozoqlari sifatida bilinadigan urug'lar bo'lgan: ayniqsa, *dug'lat, uysin* (uyshun), *qangli* urug'lari. Ushbu hududlar Dashti Qipchoqning kunchiqar tomonlarida – Jo'chi ulusi (Oltin O'rda)ning sharqida, Chig'atoy ulusining shimoli-sharqiy qismlarida joylashgan bo'lib, o'rta asrlar "Mo'g'uliston" deb yuritilgan va haqiqiy mo'g'ul yurti – O'rxun, Tola va Selenga daryolari qirg'oqlari, Gobi cho'li va Ordos o'lkasi (bugungi XXRdagi Ichki Mo'g'uliston avtonom rayoni)dan farq qilgan. Uli-juz qozoqlarining tarkibida turkiy elementlar bilan birga mo'g'ul va turklashgan mo'g'ul urug'lari birmuncha ko'pchilikni tashkil

etgan bo‘lib, ular Sharqiy Chig‘atoy ulusining tayanch urug‘lari – dug‘lat, uysin (uyshun), jaloyir va hokazo kabi turk-mo‘g‘ul urug‘larini o‘z ichiga olgan.

Qozoqlarning O‘rta va Kichik-juz (Kishi-juz)lari esa o‘z etnik tarkibiga ko‘ra Uli-juz urug‘laridan birmuncha farqlanib, ular orasida qipchoq elementlari nisbatan yuqori bo‘lgan. Ayniqsa, O‘rta-juz tarkibidagi yetakchi urug‘lardan bo‘lmish *arg‘in, qipchoq, nayman, qo‘ng‘irot* kabi urug‘larning sezilarli bir qismi qadimgi turk urug‘lari bo‘lib, ularning deyarli barchasi Dashti Qipchoqdagi ko‘chmanchi o‘zbek, qoraqalpoq, no‘g‘oy, boshqird kabi turkiy elatlarning etnik shakllanishida faol ishtirok etgan urug‘lar sifatida bilinadi. To‘g‘ri, qo‘ng‘irot va naymanlarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi Chingiziylar davrida – XIII asrning ilk choragida yuz bergan, biroq ular bu yerga kelishlari chog‘idayoq turkiy tomonlari ustun elatlar sifatida bilingan. Qo‘ng‘irot va naymanlarning bir qismi Amudaryo – Sirdaryo oralig‘ida, bir qismi esa Volga – Uralbo‘ylarida joylashib, ushbu hududlardagi siyosiy va etnik jarayonlarda faol qatnashgan urug‘lar sifatida yozma manbalarda tilga olingan. Ma‘lumki, O‘rta-juz qozoqlari ko‘proq bugungi Qozog‘istonning markaziy va shimoliy hududlarida, Oltoy (Sharqiy Qozog‘iston) va G‘arbiy Sibirda, shuningdek, sezilarli bir qismi, ayniqsa, qozoqlarning qo‘ng‘irot urug‘i vakillari Sirdaryoning o‘rta havzalarida, Chimkent va Turkiston shaharlari atroflarida yashaganlar. Qiziqarlisi, son jihatdan anchagina salmoqqa ega bo‘lgan qozoq qo‘ng‘irotlari o‘z tarmoq urug‘lariga ko‘ra o‘zbek va qoraqalpoq qo‘ng‘irotlari anchagina farq qilgan. O‘zbek va qoraqalpoqlar tarkibidagi qo‘ng‘irotlar ham son jihatdan ancha katta salmoqni tashkil etib, ularning ichki urug‘lari orasida bir xil nomdagi o‘nlab etnonimlar borligi ko‘zga tashlanadi. Muhimi shundaki, O‘rta-juz qozoqlarining yirik urug‘lari bo‘lmish *arg‘inlar* qoraqalpoqlar tarkibida uchramasa-da, o‘zbek va no‘g‘oylar orasida anchagina salmoqqa ega, biroq so‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbeklar orasidagi *arg‘inlar* birmuncha kam sonni tashkil eta boshlagan. Qozoqlar ichida birmuncha miqdorni tashkil etgan “qipchoq”lar esa o‘zbek, no‘g‘oy va qoraqalpoqlar orasida birmuncha ko‘p salmoqqa ega urug‘ sifatida bilingan.

Kichik-juz qozoqlari esa Uli-juz va O‘rta-juz qozoqlaridan birmuncha farq qilib, ular asosan so‘nggi o‘rta asrlarda Volga – Uralbo‘yi va Orolbo‘yi oralig‘ida yuz bergan etnik jarayonlar mahsuli sifatida Dashti Qipchoqning sharqiy emas, markaziy va birmuncha janubiy hududlarida yashaydigan turkiy urug‘lar negizida shakllanganlar. O‘z etnik tarkibiga ko‘ra ko‘proq no‘g‘oylarga yaqin bo‘lgan ushbu juz vakillari alimuli: *shekti, sho‘mekey, to‘rtqara, jetiru* (yetti-urug‘): *jag‘albayli, tleu, tabin, tama, ramadan*; bayuli (boy-o‘g‘li): *aday, bersh, taz* (toz), *alshin* (olchin) va b. kabi urug‘larga bo‘lingan. O‘z navbatida ular ham Uli-juz va O‘rta-juz qozoq urug‘lari kabi o‘nlab katta-kichik tarmoq urug‘lardan iborat bo‘lgan. Qizig‘i shundaki, O‘rta-juzda bo‘lgani kabi Kichik-juz qozoqlari ichki urug‘larining ko‘pchiligi o‘zbek, no‘g‘oy, qoraqalpoq va boshqirdlarda ham uchraydi. Masalan, “92 bo‘li o‘zbek urug‘i” tarkibida *ramadan, tama, tabin, tilav* etnonimlari uchraganidek [10], ulardan bir qanchasi qoraqalpoqlar orasida ham birmuncha keng tarqalgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, bunday urug‘ nomlari no‘g‘oylar tarkibida unchalik katta salmoqqa ega emas, ayrimlari esa umuman no‘g‘oy urug‘i sifatida uchramaydi. Bu esa ularga ko‘proq Kishi-juz qozoqlari etnik shakllanishining keyingi bosqichlari Orol dengizi qirg‘oqlari – Quyi Sirdaryodagi etnik jarayonlar bilan bog‘lash kerak, degan qarashga undaydi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Dashti Qipchoqda ham qadimda, ham o'rta asrlarda yuz bergan tarixiy voqeliklar o'zbek xalqi tarixi uchun ham muhimligini tushunib yetish vaqti keldi. Shunga qaramay, ayrim o'zbek olimlari orasida tariximizning bu bo'lagiga birmuncha "o'gay ko'z" bilan qarashlari, o'zbek xalqi etnik shakllanishida guyoki Dashti Qipchoqning unchalik o'rni yo'qligi, o'zbeklar xalq sifatida shakllanar ekan asosan Amudaryo – Sirdaryo oralig'idagi o'rtoq vohalardagi tarixiy voqeliklar asosiy rol o'ynaganiga urg'u berib kelganliklari va hali ham shunday yondashuv birmuncha ustun bo'lib turganiga ko'zimiz tushadi. Ayniqsa, bunday yondashuv Shayboniylar sulolasi (1500-1601) va uning doirasida kechgan etnik jarayonlarni baholashda yaqqol ko'rinadi. Ayrim o'zbek tarixchilari "o'sha davrda Dashti Qipchoqdan bor-yo'g'i 30 ming qo'shin kirib kelgan, ular bu paytda Amudaryo – Sirdaryo oralig'i aholisining etnik tarkibiga katta ta'sir ko'rsata olmaganlar" deb yozma manbalarda keltirilgan tarixiy haqiqatga ko'z yumadilar. Holbuki, "92 bo'li o'zbek urug'i" ro'yxatidagi o'zbek urug'larining ko'pchiligini Dashti qipchoqlik urug'lar tashkil etishi, ayniqsa, ularga boshchilik qilgan *mang'it, kenagas, chuyut, qirq, yuz, ming, saroy, qipchoq, do'rman, qo'ng'iroq, qushchi, olchin* va hokazo urug'larning[11] har biri bir necha ming nafar askarga ega bo'lganidan kelib chiqilsa, Dashti qipchoqlik urug'larning Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga qo'shni hududlarga kelib joylashishlari va yuzlab aholi maskanlari – qishloqlarga asos solishlari o'z-o'zidan bo'lmagani anglashiladi.

Qolaversa, shayboniylar oz sonli qo'shin bilan kirib kelganda edi, o'z davrining yirik saltanati bo'lmish temuriylar davlati bunchalik qisqa muddatda tarix sahnasidan tushib ketmagan bo'lar edi. Bundan tashqari, o'sha kezlarda Markaziy Osiyoning shimoliy qismida – qozoq dashtlarida tashkil topgan Qozoq xonligini Turkiston va Toshkent shaharlari atroflarida to'xtata olgan Shayboniylar oz sonli qo'shi bilan bu ishni eplay olmagan bo'lardi. Shayboniylarning ko'p sonli qo'shini va kuch-qudratiga to'g'ridan-to'g'ri guvoh bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asari "Boburnoma"da qozoq xoni Qosimxon qo'shinining soni haqida quyidagicha ma'lumot beradi: "*Deydilarki, qozoq xon va sultonlarining orasida hech kim bu ulusni Qosimxonchalik zabt qilgan emas. Lashkari uch yuz mingga yaqin hisoblanardi*"[12]. Bobur keltirgan bu raqam – 300 minglik qo'shin birmuncha mubolag'ali bo'lishi mumkin. Bu yerda "300 ming" deganda qozoq xoni qo'l ostidagi askarlarning o'zi emas, balki oila a'zolari ham qo'shib tushunilgan bo'lishi mumkin. Ma'lumki, ko'chmanchilarda oila a'zolarining ko'pchiligi askar sifatida tushunilib, oilaning qolgan a'zolari ham qo'shin bilan birga ko'chib yurganliklari yoki harbiy yurishlar paytida ularga hamroh bo'lganliklari hisobga olinsa, Qosimxon qo'shinining salmog'i ancha katta bo'lgani anglashiladi. Qolaversa, Bobur "*Bu ulusni hech kim Qosimxonchalik zabt qilgan emas*" deb yozar ekan, Dashti Qipchoqda juda katta miqdorda qo'shin to'plangani haqidagi ma'lumotlar birmuncha haqiqatga yaqin bo'lib chiqadi. Ana shunday harbiy kuchga ega Qosimxonga qarshi Shayboniylarning qarshi tura olishi uchun ularda ham son jihatdan ancha ko'pchilikni tashkil etgan askarlar mavjud bo'lgan, deya olamiz. Bu esa "Amudaryo – Sirdaryo oralig'iga ko'chib kelgan ko'chmanchi o'zbeklar son jihatdan kamchilikni tashkil etgan va ular mintaqa aholisi tarkibiga yetarlicha ta'sir ko'rsatgan" degan mazmundagi qarashlarning biryozlamali ekanini ko'rsatadi.

Xulosa

XV-XVI asrlarda Dashti Qipchoqda kechgan etnik jarayonlarning Markaziy Osiyo xalqlari etnik shakllanishida tutgan o'rnining ayrim jihatlari bilan tanishib chiqish shuni ko'rsatdiki, bu davr mintaq va unga yaqin qo'shni hududlarning bir qator xalqlari – o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, no'g'oylar, boshqirdlarning etnik shakllanishida o'ziga xos o'rin egalladi. Bundan oldingi jarayonlarda bu hududda asosan o'g'uz va qipchoqlarning mavqei yuqori bo'lib, etnik jarayonlar ushbu elatlar doirasida yuz bergan bo'lsa, bu davrga kelib esa o'nlab, hatto yuzlab turk va turklashgan mo'g'ul urug'lari siyosat sahnasiga chiqdi. Ular orasida bir necha bor birikish va parchalanish jarayonlari natijasida yangi-yangi siyosiy ittifoqlar paydo bo'ldi. Bu esa mintaq xalqlari orasida o'zaro yaqin urf-odatlar, o'xshash etnonimlar, umuman olganda, umumiy etnomadaniyat shakllanishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв.: письменные памятники. – Ташкент: Фан, 1985. – С. 130-131.
2. Абусейтова М.Х. История Казахстана и Центральной Азии: учеб. пособие / М.Х.Абусейтова и др. – Алматы: Дайк-Пресс, 2001. – С. 201.
3. Алпысбес М. Шежире казахов: источнике и традиции. – Астана, 2013. – С. 104, 193, 199.
4. Трепавлов В.В. История Ногайской Орды. – М.: Изд. фирма «Восточная литература» РАН, 2002. – С. 472-496.
5. Жданко Т.Ж. Очерки исторической этнографии каракалпаков. – М.-Л.: АН СССР, 1950. – С. 161-168; Керейтов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. Ставрополь: Сервисшкола, 2009. – С. 34-123.
6. Муканов М. С. Этнический состав и расселение казахов Среднего жуза. – Алма-Ата: Наука КазССР, 1974. – С. 281.
7. Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен иланий». – С. 165-176.
8. Керейтов Р.Х. Ногайцы. Особенности этнической истории и бытовой культуры. – С. 34-123.
9. Исхаков Д.М. Тюрко-татарские государства XV-XVI вв. – Казань: Институт истории им. Ш.Марджани АН РТ, 2004. – С. 16.
10. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: “O'qituvchi” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008. – Б. 35.

O‘ZBEK VA JAHON XALQLARI TOPISHMOQLARINING G‘OYAVIY O‘XSHASHLIKLARI HAMDA FARQLI JIHATLARI

S.U.Akramova¹

1. O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti magistranti, Samarqand, O‘zbekiston

Akramova S.U.
O‘zbekiston-Finlandiya
Pedagogika instituti
magistranti, Samarqand,
O‘zbekiston
sitora.utkirovna2108@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada topishmoq janrining o‘ziga xos xususiyatlari, kelib chiqish tarixi, tarbiyaviy ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan. O‘zbek va jahon xalqlari topishmoqlarining badiiy-g‘oyaviy jihatdan o‘xshashliklari hamda farqli tomonlari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: topishmoq, tabiat hodisalari, hayvonlar, qushlar, hasharotlar, o‘simlik, metafora, obraz, tematika.

Аннотация: В статье рассматриваются уникальные особенности жанра загадки, его история и воспитательное значение. Сравнительно анализируются художественно-идеологические сходства и различия загадок узбекского и мировых народов.

Ключевые слова: загадка, природные явления, животные, птицы, насекомые, растение, метафора, образ, тематика.

Abstract: The article discusses the unique features of the riddle genre, its history, and its educational significance. The artistic and ideological similarities and differences of the riddles of Uzbek and world nations are comparatively analyzed.

Keywords: riddle, natural phenomena, animals, birds, insects, plants, metaphor, image, subjects.

Topishmoqlar qadimdan xalq tomonidan faol ishlatiladigan va sevimli janrlaridan biri bo‘lib, ular asosan, xalqlarning turmush tarzi, urf-odat va an‘analari, dunyoqarashlarini ifodalaydi. Shuning uchun aksar topishmoqlar tabiat hodisalari, hayvonlar, qushlar, hasharotlar va o‘simliklar haqida aytilgan. Topishmoqlarning qadimdan mavjudligini hisobga olsak, ularning badiiy va lirik tuzilishi, hatto hozirgi globallashuv zamonida ham nafaqat dolzarb, balki qiziqarliligini yo‘qotmaganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Eng qadimgi xalqlarda o‘g‘il bolalarni nasl davom ettiruvchisi sifatida ovchilar safiga qo‘shish marosimlari o‘tkazilgan. Voyaga yetganlik sinovi sifatida, yigitlar o‘z jismoniy kuchini, epchilligini, jasoratini – ulkan yirtqich hayvonni o‘ldirish va og‘riqqa chidash bilan isbotlagan. Bilimlarini esa topishmoq topish bilan. Ko‘rinib turibdiki, topishmoqlar odamning bilimlari ko‘rsatkichi va dalili hisoblangan. Qadimgi yunonlar va nemislarda esa topishmoq topish jang san‘atiga teng bo‘lgan. Afsonalarda qayd etilishicha, topishmoqlarni topa olmaganlar o‘limga hukm qilingan. Rus xalqining to‘ylarida ham XIX asrgacha topishmoq topish to‘yning ajralmas qismi bo‘lgan. Kelin dugonalari kuyovga va uning do‘stiga qiyin topishmoq berishgan, agar topa olmasa, kulbaga – kelinning oldiga kiritishmagan. Qadimgi Yunonistonda esa topishmoq musobaqalari simpoziumlarda intellektual o‘yin-kulgu sifatida mashhur bo‘lgan. Bu madaniyatning asosiy manbai Afinadir.

O‘zbek xalqida ham juda qadimda topishmoq aytish rasm-rusumlari bo‘lgan. Ota-bobolarimiz kundalik mehnatdan bo‘shaganidan so‘ng, kechalari topishmoq aytishar ekan, deydi folklorshunos Zubayda Husainova.

Topishmoq shaklan nasriy va nazmiy bo‘lib, unda shaxs, narsa yoki hodisalar obrazli tasvirlanadi. Topishmoq aytuvchi, avval obyektini tanlab oladi, uning belgilarini sanab, jumboqli tarzda topishmoq tuzadi. Topishmoqda berilgan belgilarga qarab, nima haqida gap ketayotganini topish talab etiladi. “Haqiqiy topishmoq javob beruvchini, uning ustida ishlashga, fikrlashga chorlaydi. Zamonaviy odamlar ushbu hurmatga sazovor janr haqida qanday fikrda bo‘lishidan qat’i nazar, topishmoqlar juda jiddiy ishdir, ayniqsa, afsonaviy fantaziya olamida”, deb fikr bildiradi AQSh folkloristi Stefen D. Vinik.

Janrning nomiga e’tibor bersak, “top” so‘zidagi o‘yla, izla, axtar ma’nolarini ifoda etadi. – ish qo‘shimchasi qo‘shilganda, uning vazifasi aniqlashadi. “moq” harakat nomi qo‘shimchasi qo‘shilgandan keyin “qo‘lingdan kelsa”, “eplasang”, “uddalay olsang” tushunchalari ifodalanadi. [4; 77,78]

Tabiat hodisalari, osmon, yer va suv haqidagi topishmoqlar, inson o‘zi ko‘ra oladigan, eshita oladigan va seza oladigan hodisalar bo‘lganligi sabab, qadimdan har qanday xalqning samimiy qiziqishini egallagan.

Oyog‘i yo‘q, qochadi,

Qanoti yo‘q, uchadi.

Topishmoqda bulutga aniq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’rif berilgan, hajm jihatdan qisqa va ixcham, hech qanday metafora qo‘llanmagan. Bulutning osmonda erkin suzib yurishini “oyog‘i yo‘q, qochadi” deb, osmonda bo‘lishiga qaramay, uning qulab tushmaslik qobiliyatini esa “qanoti yo‘q, uchadi” deb ta’riflangan.

Бегут кудрявые Бараишки

У ветра в упряжке...

(Jingalak qo‘zilar yugurib ketishyapti

Shamoldagi jamoada)

Ushbu rus xalq topishmog‘i hajm jihatdan qisqa va ixcham bo‘lib, bulutga nisbatan metafora ishlatilgan. Oppoq jingalak qo‘zichoqlarni ko‘z oldimizga keltiraylik. Bir poda jingalak oppoq qo‘zichoqlar, shubhasiz, osmonda suzib yurgan bulutlarni eslatgani uchun, “jingalak qo‘zilar yugurib ketishyapti” deb ta’rif berilgan. Bulutlar shamol oqimi bo‘ylab suzishi hech kimga sir emas, bulutlarning zich va ko‘pligidek. Shuning uchun shamolda jamoa bo‘lib yugurib ketishyapti, deb ta’riflangan.

I can fly but I have no wings

I am in the sky but not a bird

I can cry but I have no eyes

Wherever I go darkness follows me

What am I?

(Men ucha olaman, lekin qanotim yo‘q

Men osmondaman, lekin qush emasman

Yig‘lay olaman, lekin ko‘zlarim yo‘q

Qayerga borsam, zulmat meni kuzatib boradi

Men nimaman?)

Ushbu ingliz xalq topishmog‘i bulut nomidan aytilgan bo‘lib, ixcham tuzilgan, bulutga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’rif berilgan. Bulutlarning osmonda

qanotlarsiz ham suza olishi, qanotlarim bo'lmasa ham ucha olaman, qush emasman, lekin osmonlarda parvoz qilaman deya ta'riflangan. Topishmoqdagi yig'lay olish qobiliyati esa yomg'ir haqidagi tasavvurdir. Bulutlar bor joyda qorong'ulik bo'lgani sabab, zulmat meni kuzatib boradi, deyilgan.

Tabiatning ko'zga ko'rinadigan, seziladigan olamini tasvirlash uchun, topishmoqlar, asosan, insonga tanish bo'lgan suratlardan obraz yaratadi. Mavhum tavsiflar berilmaydi, obrazlar aniq ko'rinadigan bo'lishi lozim.

Daryo, oqim, ariqlar haqidagi topishmoqlar, asosan, suv bilan bog'liq bo'lib, asosiy beligisi suv hisoblanadi.

Ketaveradi, ketaveradi,

Orqasiga qaramaydi.

Topishmoq qisqa va ixcham tuzilgan. Daryodagi suv hech qachon to'xtamasligi sababli, u faqat "ketaveradi". Daryo oqimi o'ngga, chapga yoki qarama-qarshi yo'nalishga oqmagasligi tufayli, daryo hech qachon "orqaga qaramaydi".

I have a bed, but I do not sleep.

I have a mouth, but I don't eat.

You hear me whisper, but I never talk.

You can see me run, I never walk.

What am I?

(Menda to'shak bor, lekin uxlamayman.

Mening og'zim bor, lekin men ovqat yemayman.

Siz mening shivirlayotganimni eshitasiz, lekin men hech qachon gapirmayman.

Yugurayotganimni ko'rasiz, men hech qachon yurmayman. Men nimaman?)

Daryo haqidagi ingliz xalq topishmog'i ixcham, nasriy savol tarzida tuzilgan bo'lib, metaforalar qo'llangan. Daryoning suv ostidagi yerni to'shak, yotoq deb tasavvur qilaylik, ammo oqayotgan suvning uxlashga vaqti yo'q. Daryodagi suvning oqib tushadigan joyini o'giz deb tasavvur qilamiz va u yeya olmaydi. Daryodagi suv oqayotgan paytda o'ziga xos tovushlar chiqaradi va go'yo shamol pichirlagandek ovozlarni eshitish mumkin. Daryoning oqishi yurishdan ko'ra ko'proq yugurishni eslatadi.

여름에는 들어가도 겨울에는 못 들어가는 것은?

(Yozda nima yurishi mumkin, lekin qishda emas?)

Ushbu koreys xalq topishmog'i hajm jihatdan qisqa va ixcham hamda savol tarzida tuzilgan. Daryo faqat yozda, ya'ni issiq kunlarda oqishi mumkinligiga asosiy e'tibor qaratilgan. Janubiy Koreyada qish kunlari nisbatan sovuq bo'lgani sababli, daryo va ko'llar qishda, shubhasiz, muzlab qoladi.

Topishmoq oddiy tuzilsa ham, murakkab tuzilsa ham o'z jozibasini yo'qotmaydi. Aksincha, xalqning ziyrakligi, donoligi va topqirligi kishini hayratga soladi. Ko'pincha maqolni ma'noga boy deb hisoblaymiz, ammo topishmoq va tez aytilishlar tarkibida ham metaforik ma'noni uchratishimiz mumkin. Maqollar insonni to'g'rilikka yo'naltiradi, topishmoqlar esa aqlni charxlaydi. Shuning uchun ham, topishmoq topish qadimdan xalq hayotining uzilmas bo'lagi bo'lib kelgan.

O‘simliklar to‘g‘risidagi topishmoqlar ham tabiat hodisalari kabi tavsiflanadi. O‘zbek xalq topishmoqlarida o‘simliklar orasida eng ko‘p uchraydigan o‘simlik barcha biladigan, taniqli daraxtlardir: anor, yong‘oq, jiyda. Mevali daraxtlar haqida kamroq, ayrimlari turlari haqida esa deyarli mavjud emas.

*Kichkina tandircha,
Ichi to‘la kulcha. (yong‘oq)
Qopcha, Qopcha ichida uncha,
Uncha ichida ustuncha. (jiyda)
Kichkina dekcha,
Ichi to‘la mixcha. (anor)*

Rus xalq topishmoqlari orasida ham yong‘oq haqidagi topishmoqlar nisbatan ko‘p uchraydi. Bundan tashqari, daraxt barglari, qayin, qo‘ziqorin ham taniqli. Eng kam uchraydigan turi esa, bizning xalqimizdan farqli o‘laroq, mevali daraxtlar va mevalardir. Masalan, olma haqidagi topishmoq kam bo‘lib, asosan, diniy qarashlar bilan bog‘liq.

*Летают, кружатся, на землю ложатся,
С земли не вставают и тут изгнивают.
(uchishadi, aylanishadi, yerga yotishadi,
yerdan turmaydilar va keyin chiriydilar). (barglar)
Летом мохнатенька, зимой сучковатенька.
(Yozda momiq, qishda tugun). (qayin)
Маленький, удаленький сквозь землю прошел,
красную шапочку нашел.
(Kichik, jasur er yuzidan o‘tdi,
qizil shapka topdi)(qo‘ziqorin).*

Fransuz xalqi esa atirgul va qo‘ziqorinlarni nisbatan afzal ko‘rishadi. Fransuzlar topishmoqlarida atirgulga go‘zal ta‘riflar berishi hech kimga sir emas, chunki ular azaldan romantik xalq deb tanilgan va atirgul romantika belgisi hisoblanadi.

*Le matin, les perles scintillaient,
Toute l’herbe était rentrée.
Et allons les chercher dans l’après-midi
Nous cherchons, nous cherchons - nous ne trouverons pas (Rosa.)
(Ertalab marvarid porladi,
Hamma o‘tlar kirib keldi.
Va ularni tushdan keyin tering
Izlaymiz, qidiramiz – topolmaymiz. (atirgul)
Caché derrière une souche
Chapeau de côté.
Qui s’approche
S’incline bas. (Gib)
(Bir dumning orqasiga yashirinadi
Shlyapa chetga,
kimdir yaqinlashganda
chuqur ta‘zim qiladi) (qo‘ziqorin)*

Baliqlar, sudralib yuruvchilar va hasharotlar haqida topishmoq barcha xalqlarda qushlar va hayvonlarga nisbatan kamroq. Mavjud topishmoqlar, asosan, metaforik shaklda bo‘lib, baliqlarning suzishi, qurbaqa va qo‘ng‘izlarning yovuz obrazda tasvirlanishi va chumoli, asalarilarning mehnatkashligi gavalantiriladi. Qushlar haqidagi topishmoqlar orasida uyda boqiladiganlar parrandalardan tovuq va xo‘rozlar, erkin yashaydigan qushlardan esa qaldirg‘och va zag‘izg‘onlar e‘tiborni tortadi.

Zuv-zuv borag‘ay,

Tomdan qarag‘ay.

Cho‘p, loy cho‘qig‘ay,

Savat to‘qig‘ay.

Qaldirg‘ochlar o‘zlarining tinim bilan uchishlari, chug‘urlashlari bilan mashhurdir. Cho‘p va loy to‘plab, bahor kelishi bilan uy qura boshlashadi. O‘zbek xalqi qaldirg‘ochlarni yaxshilik va mo‘l-ko‘lchilik alomati deb bilishadi.

Rus xalqi qaldirg‘ochni bahor elchisi deb yaxshi ko‘rishadi, ayniqsa, dehqonlar ularni iliqlik bilan tilga olishadi. Quyidagi topishmoqda qaldirg‘ochning uzoq yo‘l bosib kelib, yangidan hayot boshlash uchun uy qurishi tavsiflangan:

Прилетает к нам с теплом,

Путь проделав длинный,

Лепит домик под окном

Из травы и глины.

(U bizga iliqlik bilan keladi,

Uzoq yo‘l bosib,

Deraza ostidagi uyni

o‘t va loydan haykalga soladi).

Britaniya xalqi ham bahor yaqinlashishi bilan qaldirg‘ochlarning uchib kelishini intiq bo‘lib kutishadi. Qaldirg‘och ular uchun issiq, quyoshli va quvonchli kunlar belgisidir. Britaniyaliklarning fikricha, hozirgi modernizatsiyalashgan zamonda uyingiz tomi yoki derazasi ostida ajoyib qushchalar chug‘urlashib uy qurishi o‘zgacha quvonch va rohat baxsh etadi.

What bird can be heard at mealtimes?

(Ovqatlanish vaqtida qaysi qushni eshitish mumkin?)

Xalq topishmoqlari orasida keng tarqalgan mavzulardan biri hayvonlar to‘g‘risida. Hayvonlar haqida topishmoqlarni tuzish biroz qiyin, chunki ularni birlashtirib turadigan belgilarni sanash murakkabdir.

Dalama-dala qidiradi,

Qo‘y bilan echki oh uradi. (bo‘ri)

Asalni xush ko‘radi,

Qishda tushlar ko‘radi.

Bahorgacha uxlaydi

Barmoqlarin so‘radi. (Ayi)

Bo‘rilarni tasvirlash uchun urg‘u, asosan, bo‘rining yirtqich tabiatiga beriladi. Ayiqlar esa tinchlik ramzi sifatida gavalanadi. Rus xalq topishmoqlarida ham bunday o‘xshatishlarni uchratish mumkin.

Спит всю зиму напролет,

*Лапу нехотя сосет
 Любит мед, малину, шишки,
 Это старый добрый... (медведь)*
 Butun qish davomida uxlaydi
 Panjasini istamay so'radi
 Asal, malina, konusni yaxshi ko'radi,
 Bu yaxshi eski ... (ayiq)
*Поздно ночью зверь лесной
 Громко воет под сосной. (Волк)*
 Kechqurun o'rmon hayvoni
 Qarag'ay tagida baland ovozda uvillaydi. (Bo'ri)

Bunday o'xshatishni qozoq xalq topishmoqlarida ham kuzatish mumkin. Aksariyat topishmoqlar bolalarga mo'ljallanadi, shuning uchun hayvonlar, tabiat qonunlaridan kelib chiqqan holda ta'riflanadi.

*Аузы бейне шалғы орақ,
 Шөп емес, бірақ мал орадыю (Қасқыр) [5; 84]*
 Uning og'zi o'tloq o'roqdek,
 O't emas, balki mol o'radi. (Bo'ri)
*Қыс бойына жатады,
 Тәтті ұйқыға батады. (Аю)*
 Butun qish davomida,
 U shirin uyquga ketadi. (Ayiq)

Ayrimlar topishmoqlar oddiy xalq tomonidan yaratilgan va topishmoq tabiati ham shunga xos deb bilishadi, topishmoqning tuzilishi va ma'nosi esa oddiy va boy insonlar o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi deb hisoblashadi. Bir qarashda haqiqatdan ham shunday ko'rinadi. Ammo topishmoq tematikasiga chuqurroq nazar tashlasak, oddiy dehqonning turmush tarzi shaharda yashovchi insonga ham notanish emas. Shaharlik ham qushlar va hasharotlar haqida yetarlicha biladi, oddiy dehqon esa ularning turlarini sanab berishi mumkin. Oddiy dehqonda taassurot uyg'otmaydigan kapalak esa, shaharlikni hayratga soladi. Topishmoqlar mana shu qarama-qarshiliklarni to'g'irlaydi va turli qiziqishlarni bir-biri bilan mujassamlashtiradi. Yuqorida keltirilgan topishmoqlar kabi, kim ayiqning qishda shirin uyquga ketishini bilmaydi? Qaldirg'och bahor elchisi ekanligini yoki barchaning jig'iga tegadigan zag'izg'onnihi? Shunday ekan, xalq topishmoqlarini ayrimlar tushunmaydi, degan xulosaga qo'shilish qiyin.

Yuqorida keltirilgan topishmoqlarga asoslanib, turli xalqlarda turlicha an'ana, urf-odat, til, din, dunyoqarash bo'lishiga qaramay, nafaqat xalqlar orasidagi farqlarni, balki ular orasidagi o'xshashliklarni ham ko'rish mumkin. Bunday topishmoqlar xalqlar aro qiziqishlarni birlashtirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Jahon xalq topishmoqlarini o'rganish va ularni tahlil qilish ilmiy jihatdan qiziqarlidir. Chunki har bir xalqning topishmog'ini tahlil qilish jarayonida, nafaqat ushbu xalqning madaniyati va urf-odatlarini, balki insonlarning tafakkuri va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini tushunishimiz mumkin.

Umuman olganda, jahon xalq og‘zaki ijodi topishmoqlarini ilmiy jihatdan o‘rganish insoniyat madaniyati, tafakkur taraqqiyoti va turli xalqlar merosini chuqur anglash imkonini beradi. Bu bizning dunyo va inson tabiati haqidagi bilimimizga o‘z hissasini qo‘shishda davom etadigan qiziqarli tadqiqot sohasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husainova Z. O‘zbek topishmoqlari. – T.: “Fan”, 1996. – 153-b.
2. Митрофанова В.В. Русские народные загадки. – Ленинград: “Наука”, 1991. – 179-с.
3. Митрофанова В.В. Загадки. – Ленинград: “Наука”, 1988. – 354-с.
4. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T.: “Mumtoz so‘z”, 2010. – 234
5. Бабалар сөзі: Жузтомдық. – Астана: “Фолиант”, 2010. Т.64: “Жұмбақтар”. – 432-b.
6. www.wikipedia.uz
7. www.ziyouz.com
8. stevewinick.com/riddles.
9. www.naver.com.
10. www.riddles.net.

AYRIM JOY NOMLARINING MORFOLOGIK TARKIBINI O'RGATISH USULLARI

O.Y. Gadayev¹

1. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada ayrim joy nomlarining morfologik tarkibini o'rgatish usullari haqida qisqacha ma'lumot berildi. Biz yashayotgan hozirgi makonda har narsaning nomi bor. Eng ulkan predmetlardan tortib ko'zga ko'rinmas zarrachalarning o'z nomi mavjud. Nomsiz bu dunyoda mavjud bo'lish mumkin emas. Nom, narsa va hodisalarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir.

Kalit so'zlar: *toponim, toponimiya, morfologik tuzilish, nom, qo'shma so'z, urug', atama.*

Аннотаци: В статье дана краткая информация о методах обучения морфологическому строению некоторых топонимов. В нынешнем пространстве, в котором мы живем, у всего есть имя. От самых крупных объектов до невидимых частиц имеют свое имя. Невозможно существовать в этом мире без имени. Имя необходимо для различения вещей и событий.

Ключевые слова: *топоним, топонимия, морфологическая структура, название, сложное слово, род, термин.*

Abstract: The article gave brief information about the methods of teaching the morphological structure of some place names. In the current space we live in, everything has a name. From the largest objects to the invisible particles have their own names. It is impossible to exist in this world without a name. A name is necessary to distinguish *between things and events.*

Key words: *toponym, toponymy, morphological structure, name, compound word, genus, term.*

Mamlakatimizda "Bugungi globalashuv davrida har bir mustaqil davlat o'z milliy manfaatini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy" [1] bo'lgan hozirgi bir sharoitda ishlab chiqilgan toponimik siyosat toponimika sohasini ilmiy-nazariy va amaliy yo'nalishlarda jiddiy rivojlantirishni ham talab etadi.

Joy nomlarining katta bir qismini etnotoponimlar tashkil etadi. Etnotoponim yasalish negizi etnonimlar tashkil qilgan joy nomlaridir. Etnonim yunoncha etnos – "xalq" va "onim" – "nom" so'zlaridan tarkib topgan. Etnonimlar majmui etnonimiya, etnonimlarni o'rganadigan fan etnonimika deyiladi [2:75].

Etnik nomlar tildagi eng qadimiy so'zlar sanaladi. Etnonimlarning asosiy ko'pchiligi toponim yoki toponim tarkibida etnik element sifatida saqlanib qolgan. Taniqli toponimist olim S.Qorayev har qanday etnonimning ma'nosi borligini, ularning qadimiylikini, shu sababli ayrimlariningetimologiyasini aniqlash borasida bir qancha qiyinchiliklar mavjudligini ta'kidlaydi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq kabi millat nomlari, qo'ng'iroq, mitan, qangli, qipchoq, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug'-qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari ilmiy asosda uzil-kesil hal qilingan emas[2:85].

Urug', qabila va xalq nomlari asosida paydo bo'lgan joy nomlari fanda etnotoponim deb yuritiladi. Ular o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday joy nomlarini o'rganish xalqimiz tarixini chuqur o'rganishda muhimahamiatga ega.

Etnonimlarning joy nomiga aylanishi ikki ko'rinishga ega. Birinchidan, etnonim to'g'ridan to'g'ri joy nomi ma'nosini ifodalaydi, ikkinchidan esa ayrim

Gadayev Oybek
Yaxshiboyevich,
Boshlang'ich ta'lim
nazariyasi kafedrasi
katta o'qituvchisi,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston
oybekgadayev76@gmail.com

nomlar etnik element (etnonim)ning boshqa soʻzlar bilan qoʻshilishidan hosil boʻlgan.

Joy nomlarining paydo boʻlishi maʼlum bir sabab va qonuniyatlar asosida roʻy beradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hududdagi geografik obyektlarning nomlari biror sabab, yoki biror asosning natijasidir. Toponimlarning shakllanish yoʻli, paydo boʻlish jarayoni muayyan lisoniy qonuniyatlarga amal qilingan holda hamda bevosita mahalliy aholi tili (shevasi)ning lisoniy imkoniyati va birliklari ishtirokida kechadi. Joy nomlarining yuzaga kelishiga sabab boʻlgan lisoniy omillar tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Joy nomlarini qoʻyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

1) faqat kishi ismidan iborat: A.Navoiy, A.Yassaviy, M.Ulugʻbek, Xoʻja Ismoil, Bobur, Fitrat kabilar;

2) kishi ismi+ota, ona, bobo, bola soʻzi qolipli: Javshar ota, Gʻoyib ota, Turkibola, kabilar;

3) kishi ismi + shayx qolipli: Tohirshayx kabi;

4) kishi ismi + obod qolipli: Dehqonobod, Yangiobod, Aliobod, Doʻstlarobod, Maniobod, Xalqobod, Xoʻjaobod kabilar;

5) kishi ismi + qoʻrgʻon qolipli: Ernazarqoʻrgʻon kabi;

6) sifat + ot qolipli: Oqtosh, Oqqoʻrgʻon, Yangi hayot, Koʻktepa kabilar;

7) son + ot qolipi : Qirqovul, Beshqoʻrgʻon, kabilar.

Antroponimlarga asoslangan joy nomlari juda koʻplab uchratish va quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

1) ot + ot qolipli; Zarbuloq, Yoʻltepa, Buluqboshi, Turkmanovul, Tuyatosh, Mirzaovul, Lolahovuz, Kamarovul, Ernazarqoʻrgʻon, Sultonqozi, Oykul, Qozoqxoʻja, Mullatoir kabi;

2) ot + sifat qolipli; Dehqonobod, Aliobod, Doʻstlarobod, Oytamgʻali, Eshimoqsoq, Xalqobod kabilar;

3) sifat + ot qolipli: Oqchelak, Qorakamar, Koʻtarakal, Damariq, Qoraqalpoq, Kattabogʻ, Koʻktepa, Yangirovot, Oqtosh, Yugʻontayoq, Qizilquloq, Koʻrsafor, Mitanoobod, Qizilolma, Chalaqargʻa, Qoʻtirbuloq, Kattasaydov, Qoraqipchoq, Oqqoʻrgʻon, Qoraboyir kabilar;

4) sifat + sifat qolipli; Chinobod, Yangiobod kabilar;

5) son + ot qolipli; Toʻrtkoʻl, Qirqovul, Yettiurugʻ, Beshkapa, Beshbek, Qirqsaydov kabilar;

Antroponim ishtirok etgan nomlar sirasida keyingi navbatda qabriston nomlari turadi. Aytish mumkinki, etnonimlar joʻda koʻp geografik obyekt nomlarining shakllanishi uchun asos boʻlgan. Aslida Oʻzbekiston toponimiyasida etnonimlar yuzlab toponimlarning paydo boʻlishiga sabab boʻlgan[2:76-85].

Etnonimlar borasida keng qamrovli tadqiqot olib borgan X.Doniyorov oʻzbek millatining etnik tarkibini turk-oʻzbek, qipchoq-oʻzbek, oʻgʻuz-oʻzbeklari tashkil etganligini, bulardan turk-oʻzbeklar, asosan, qarluq, chigil, tuqsi, yagʻmo, yagʻbu, yoboqu, tangut, argʻu kabi turkiy qabila-urugʻlarning birlashishi natijasida tashkil topganligi, bular oʻzbek millatining eng qadimgi va eng birinchi komponenti boʻlib hisoblanishini qayd etgan[3:8].

Manbalarda 92 oʻzbek urugʻi bor deb qayd etilgan. Bundan tashqari, har bir urugʻ oʻz navbatida yanada mayda guruhlarga boʻlinib ketadi. Etnograf K.Shoniyozovning taʼkidlashicha, birgina qoʻngʻirot urugʻi 200 dan ortiq kichik shox – toʻplarga ajralib ketadi. Shunday qilib, oʻzbek millati turli qabila va urugʻlardan tarkib topgan.[2:76]

Ayrim urugʻ-aymoqlarning tarmoqlarini ham kuzatish mumkin. Qipchoqlarning Qoraboʻz qipchoq, Parcha qipchoq, Qoraqalpoqlarning Mangʻit, Qoraqalpoq qabila tarmoqlari yuqoridagi hududlarda roʻyxatga olingan. Payariq, tumani

yaqinidagi tumanlarda ba'zi urug' - aymoqlarning turli tomonlarga tarqalish natijasida ular o'z nomlariga "parcha" so'zini qo'shib qo'yishgan. Bunday nomlar qabilalar yashayotgan qishloqlarning nomiga ham o'tgan: Parcha qipchoq, Parcha orlat va hokazo.

Toponimlar shakllanishi jarayonida ishtirok etuvchi leksik birliklarning orasida rang-tus, hajm-o'lehov, o'rin-joy, ko'lam-masofa ma'nolarini ifodalovchi elementlar son jihatdan ko'pchilikni tashkil etadi.

Hududlarda oq, qora, ko'k toposhakllar ishtirokidagi toponimlar ham uchraydi: Oqchelak, Qorakamar, Qoraboyir, Qoraqalpoq, Ko'ktepa, Oqtosh, Qizilquloq, Qizilolma, Oqqo'rg'on, Sariboy, kabi.

Bu toposhakllar toponimik tarkibda avvalgi element sifatida ishtirok etadi va ikkinchi so'zning aniqlovchisi bo'lib keladi. Aytish lozimki, bunday ko'rinishda ishtirok etish aniqlovchilik vazifasini bajarayotgan so'zning boshqa holat yoki qurshovdagi belgini anglatish xususiyatidan o'zgarib qolgan. Chunonchi, oq, qora, ko'k kabi rang bildiruvchi birliklar toponimlar tarkibida rangni anglatish ma'nosi va vazifasidan chetlashadi. Oq bulut, oq ko'ylak, qora kostyum, qora chiziq kabilarda rang ifodalagan so'z aniqlovchi vazifasida qo'llangan bo'lsa, Qorakamar, Qoraboyir, Qoraqalpoq, Ko'ktepa, Oqtosh, Qizilquloq, Qizilolma kabilarda tarkibidagi birinchi elementlar katta, ulkan, keng kabi ma'nolarni o'zida mujassamlashtirgan. Respublikamiz toponimiyasida uchraydigan Oqsuv, Qorasuv toponimlari haqida taniqli toponimist E.M.Murzayevning bildirgan fikrlari[4:200-201] ham bu holatni tasdiqlaydi.

Yuqorida qayd etilgan toponimlar tarkibidagi oq toposhakli bugungi kunda rang-tus ifodalovchi so'z sanalmasligini ta'kidlagan edik. Oqrabot toponimiga izoh berar ekan, professor T.Nafasov Oqrabot degan qishloqlar respublikada anchaligi, rabotning arab istilosidan so'ng savdo yo'llarida qurilgan tevaragi devor bilan o'ralgan manzil, karvonsaroy, harbiy istehkom, shahardan tashqarida qurilgan saroy ekanligi hamda Oqrabot – katta rabot, ulkan istehkom[5:198-199] ekanligini qayd etgan.

Xuddi shunday Oqpo'lat toponimi tarkibidagi oq toposhakli ham rang-tus ifodalovchi birlik emas. Manbalarda turkiy urug' nomlari orasida po'latchi/po'ladchi nomi mavjudligi, barloslarda ham po'latbachcha degan urug' tarmog'i borligi, qoraqalpoqlarning kandakli urug'ining bir shoxobchasi toq po'lat deb atalishi, Qashqadaryo viloyatida Po'lati va Buxoro viloyatida Oqpo'lat nomli qishloqlar borligi va etnonimdan qishloq nomi kelib chiqqanligi keltirilgan[6:212].

Toponimlar tarkibidagi qora toposhakli bir qancha o'ziga xosliklarni namoyon etadi. Bu haqda so'z yuritir ekan, professor T.Nafasov ushbu so'zning turkiy va mo'g'ul tillarida qora/xara – balandlik..., tekislikdagi kichikbalandlik, do'ng joy, kichik tepa ma'nolarida qo'llanishini ta'kidlagan[5:379].

Tadqiqotchi A.Pardayev o'zining nomzodlik dissertatsiyasida qora sifat leksemasi xususida so'z yuritib, manbalarda bu so'z "katta", "yirik", "muhtasham", "ulug'", "qudratli", "kuchli", "pokiza", "musaffo", "quruqlik", "yer", "zulmat ko'ki", "shimol" kabi ma'nolarda qo'llanishi borasida ma'lumotlar mavjudligini ko'rsatgan[7:8].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, hududlardagi Qorakamar, Qoraboyir, Oqtosh, Qizilquloq, Qizilolma kabilarda rang ma'nosi emas, balki boshqa belgi-xususiyatlar ifodalangan.

Hududlarda o'rta, katta birliklari ishtirokidagi aholi punkti nomlariga uchraydi. Bir qator birliklarning tez-tez uchrashiga, hududdagi mavjud toponimlarga ushbu birliklarni qo'shib, yangi nom hosil qilinganiga guvoh bo'lish mumkin:

– o'rta: O'rtato'sin, O'rtabuz, O'rtasaydov;

– katta: Kattasaydov, Kattabog‘, Kattaturk kabi.

Bu turdagi nomlar toponimik hududning kengayishi, aholi sonining ortishi, aholi punktining yiriklashishi natijasida yuzaga kelgan. Aholi punktining yiriklashishi hududning o‘rta, katta kabi nisbiybo‘linishlariga sabab bo‘lgan.

Yangidan paydo bo‘lgan yoki mavjud obyektning yiriklashishi natijasida yuzaga kelgan obyektga nom berishda uning joylashgan o‘rnini e‘tiborga olish, obyektning geografik jihatdan joylashganligini mo‘ljallash muhim sanaladi.

Geografik nomning paydo bo‘lish davri ular tarkibida qo‘llangan yangi so‘zi yordamida aniqlanadi: *Yangiobod, Yangirovot, Yangihayot* kabi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da yangi so‘zining o‘nta ma‘nosi mavjudligi qayd etilgan. Toponimik obyekt nomi tarkibidagi yangi so‘zi lug‘atda ushbu so‘zga berilgan ta‘rifning birinchisiga to‘g‘ri keladi, ya‘ni “ilgari bo‘lmagan, yaqindagina paydo bo‘lgan; yaqinda bunyod etilgan yoki qurilgan”[8:482]. Yangiturmush – yangidan boshlangan turmush, hayot; Yangikuch – yangidan boshlangan kuch, yoshlar; Yangiobod – yangi qurilgan yoki yaqinda obod qilingan; Yangihayot – turmush tarzining o‘zgarishi, yangi hayotning boshlanishi.

Shuni ham ta‘kidlash kerakki, ba‘zida ushbu toponimlarning imlosi borasida har xilliklar yuzaga keladi. Yozma nutqda ularni chiziqcha bilan yoki ajratib yozish holatlari uchraydi. Aslida ushbu toponimlar ot yasalishining [sifat+ot] qolipi hosilasi bo‘lib, birinchi komponenti sifat, ikkinchi komponenti ot bo‘lgan atoqli otlar qo‘shib yoziladi.

Qo‘shma geografik nomlarni yozishda ko‘pincha xatoga yo‘l qo‘yiladi. Agar geografik xaritalarni ko‘zdan kechirsangiz bunday nomlar bir joyda qo‘shib yozilganini (Kattaqo‘rg‘on, Qorasuv), boshqa joyda ajratib yozilganini (Moyli suv) (O‘zbekiston iqtisodiy xaritasida) ko‘rasiz. Ba‘zi nomlar defis bilan ajratib yoziladi (Volga-Don, Petropavlovsk-Kamchatsk).

O‘zbekistondagi bunday geografik nomlarni yozishda quyidagi qoidaga amal qilinadi: agar murakkab (qo‘shma) geografik nomlarning ikkinchi o‘zagi (komponenti) atoqli ot bo‘lsa, ularning har biri alohida – alohida va bosh harf bilan yoziladi. Masalan; Eski Toshkent, Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq, O‘rta Chirchiq, Yangi Urganch, Qo‘hna Urganch va h.k. Agar murakkab geografik nomlarning ikkinchi komponenti turdosh ot bo‘lsa, u holda qo‘shib yoziladi; Kattaqo‘rg‘on, Yangiyo‘l, Jumabozor, Bekobod. Murakkab geografik nomlarning har ikkala komponenti bosh kelishidagi atoqli otlardan iborat bo‘lsa, u holda defis orqali bosh harf bilan yoziladi; Orexovo-Zuyevo, Volga-Don, Kualo-Lumpur, Buenos-Ayres va boshqalar.

Bundan shunday mulohaza kelib chiqadiki, rang-tus bildiruvchi so‘zlar ishtirokida hosil bo‘lgan toponimlar o‘ziga xos bir guruhni tashkil qiladi. Bunda ularning belgi anglatish imkoniyati kengayadi va shartlilik mazmunini kasb etadi.

Shunday qilib, narsa-hodisaning belgi-aniqlovchisi bo‘lgan so‘z toponimik element tarkibida muhim komponent sifatida ishtirok etadi va alohida ottenka kasb etadi. Bu esa toponimik maydonda til birliklari ma‘nolarining yana ham kengayishiga sabab bo‘ladi.

Hududlarda son, miqdor ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar ishtirokida hosil bo‘lgan toponimlar ham mavjud. Bular sirasida alohida toponimik birlik tarzida uchraydigan nomlar mavjud emas. Bu tizimda faqat raqam ko‘rinishidagi nomlar uchramaydi. Raqamlardan ikki sonini ifodalashga xizmat qiladigan qo‘sh so‘zini kuzatish mumkin: Qo‘shxodim, Qo‘shrabot, Qo‘shitol, Qo‘shitut. Ikki so‘ziga ma‘nodosh sifatida qaraladigan qo‘shelementi toponimik atamalar orasida yolg‘iz qo‘llanmaydi. Sababi qo‘sh so‘zi omonimiklik xususiyatiga ega bo‘lib, u ikki soni bilan aloqador ma‘nolarni hamda “safar, sayohat va sh.k.da vaqtincha qo‘nish

joyi; vaqtinchalik qarorgoh"[8:642] ma'nosiga ega. Qo'sh elementi toponim tarkibida joyning sonini emas, balki uning alohidaligini ajratib ko'rsatishga, ta'kidlashga, joyi boshqalardan farqlashga xizmat qiladi.

Tarkibida son ifodalovchi so'zlar ishtirok etgan toponimlarni tahliletish jarayonida shunga amin bo'lindiki, hududning relyefida alohida ko'zga tashlanadigan narsa, mo'ljal toponimning alohidaligini ta'minlaydi. Son bilan farqlangan relyef hududning atoqli otiga aylanadi.

Respublika toponimiyasida bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz soni ishtirok etgan toponimik nomlar ko'plab uchraydi [9]. Bu sonlar ariq, buloq, bek, gumbaz, ovul, xo'ja, kal, kapa, ko'l, machit (masjid), soy, tol, tom, tut, chashma, o'choq, quduq, qo'rg'on, qo'ton kabi otlar bilan qo'shib, toponim hosil qiladi. Payariq tumani toponimiyasida esa o'ziga xos bir holat kuzatildi: hududda faqat to'rt, besh, yetti, qirq soni ishtirokida To'rtko'l, Beshbek, Beshxo'ja, Beshkapa, Beshkal, Yettiurug', Qirqsaydov toponimlari mavjud.

Toponim tarkibida besh so'zining ishtiroki haqida T.Nafasov shunday fikr bildiradi: Beshariq – beshta ariq, Beshbek – beshta o'g'il tashkil etgan qishloq, Beshbola - besh bola tashkil qilgan qishloq, qo'ng'irotlarning oyinli bo'limiga xos urug' nomi[9:52-67]. Shuningdek, manbalardan turkmanjuz, qipchoq, qatag'on va saroy urug'larining tarmoqlaridan biri beshbola ekanligi ma'lum. Demak, toponimlar tarkibidagi besh doim ham sonni ifodalamasligi mumkin.

Umuman olganda, nafaqat Payariq tumani, balki respublikamizning boshqa hududlarida ham besh so'zi ishtirokida ko'plab geografik nomlar mavjud. Birgina Qashqadaryo hududida Beshariq, Beshbek, Beshbola, Beshbuloq, Beshgumbaz, Beshkent, Beshdarak, Beshkal, Beshkaltak kabi 25 ta nom borligi qayd etilgan[9:52-67].

S.Qorayev esa "chayla hamda urug' nomi (masalan, kanasaroy)" tarzida izoh bergan[2:193].

T.Nafasov "tarkibi besh+kapa. Kapa – vaqtinchalik turish, yashash uchun qilingan boshpana. Kech bahor, yoz va kuzda yashash uchun qilingan vaqtinchalik boshpanalar ko'p qilingan joyda bunyod etilgan qishloq"[5:59], deya sharh bergan.

Shunday qilib, sonlar ishtirok etgan toponimlar ikki va undan ortiq komponentdan iborat bo'lib, ular tarkibida obyektning mohiyatini anglatuvchi so'z, topoidikator yoki topomorfant ishtirok etadi.

Xulosa

Geografik nomlar tarkibida ishtirok etgan son, sifat turkumlariga mansub birliklar ba'zan miqdor va sifat ma'nosida, ba'zan boshqa ma'nolarda qo'llangan. Joy nomlarining paydo bo'lishida *oq, qora, katta, kichik, yuqori, o'rta, quyi, baland, chuqur* kabi aniqlovchi elementlar faol ishtirok etgan. Tuman hududida tarixan turli xalq va elatlarga mansub aholi istiqomat qilganligi sababli etnonimlar asosida shakllangan toponimlar salmog'i miqdoran katta. Tuman geografik jihatdan Zarafshon daryosi oqimida joylashganligi sababli gidronimlar asosida shakllangan toponimlar joy nomlarining asosini tashkil etadi.

Tuman hududi bo'yicha to'plangan faktik materiallar undagi toponimlarning yuzaga kelishida antroponim, etnonim, belgi va miqdor bildiruvchi so'zlar, litonim va gidronimlar muhim asos bo'lganini namoyon etadi. Lekin bunda geografik nomlar tarkibida ishtirok etgan son, sifat turkumlariga mansub birliklar ba'zan miqdor va sifat ma'nosida, ba'zan boshqa ma'nolarda qo'llangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 21- oktyabrdagi PF-5850-sonli «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni // www.lex.uz
2. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
3. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: Наврўз, 2017.
4. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М., 1974.
5. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Т.: Муҳаррир, 2009.
6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 7-жилд. – Т.: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат нашриёти, 2004.
7. Пардаев А.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 2-том. – М.: Рус тили, 1981.
9. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати (Ўзбекистоннинг жанубий районлари) –Т.

G‘AZAL NAMUNASI ASOSIDA ARUZ VAZNIGA DOIR BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH

A.Namazov¹

1. O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada mumtoz she‘riyatimizning yetakchi janrlaridan biri bo‘lgan g‘azalning aruz vaznida yozilishi haqida ma‘lumot berilib, uni aruzning qaysi bahrida yaratilganligini aniqlash yuzasidan uslubiy tavsiyalar va amaliy ishlar bayoni berilgan.

Kalit so‘zlar: aruz, bahr, rukn, ramal, musamman, maqsur, bo‘g‘in, hijo, vazn, cho‘ziq bo‘g‘in, qisqa bo‘g‘in.

Аннотация: В статье приведены сведения о написании газели, являющейся одним из ведущих жанров нашей классической поэзии, в весе аруз, а также даны методические рекомендации и постановка на практическую работу по определению, в какой части аруза она создана.

Ключевые слова: аруз, бахр, рукн, рамаль, мускам, максур, слог, хиджа, вес, долгий слог, краткий слог.

Abstract: The article provides information about writing a ghazal, which is one of the leading genres of our classical poetry, in the weight of aruz, as well as methodological recommendations and setting up practical work to determine in which part of the aruz it was created.

Keywords: aruz, bakhr, rukn, ramal, muskam, maksur, syllable, hija, weight, long syllable, short syllable.

Ma‘lumki, aruz vazni Sharq, xususan, turkiy mumtoz she‘riyatning asosiy she‘riy o‘lchov birligi hisoblangan. Dastlab aruz vazni arab adabiyotida paydo bo‘lgan. Shu sababli vazn doirasida qo‘llaniladigan barcha so‘z va atamalar arabcha. Keyinchalik aruz vazni forsiy she‘riyatga kirib kelgan, undan so‘ng turkiy adabiyotda qo‘llanilgan. Uzoq yillar davomida qo‘llanilgani sababli uning ta‘rif-u qoidalari, o‘ziga xos xususiyatlari shakllanib yakunlangan. U she‘riy o‘lchov birligi - vazn sifatida ham forsiy, ham turkiy she‘riyatda o‘ziga xos tarzda shakily va mazmuniy jihatdan boyitilgan. “Arab aruz tizimi boshqa xalqlar poeziyasiga o‘zgarishsiz kirib kelgani yo‘q. U har bir xalq tilining fonetik va morfologik imkoniyatlari, musiqa san‘ati xususiyatlari bilan bog‘liq holda ma‘lum darajada islohlarga uchrab, o‘ziga xos bahrlari vujudga keldi. Adabiyotshunoslikda “aruzi arabi” yoki “aruzi forsi”, “aruzi turkiy” kabi terminlar qo‘llanib kelganligining sababi ham shunda” [1. 170.].

Vaznga doir ilmiy asarlar birinchi bo‘lib arab adabiyotshunosligida yaratilgan bo‘lib, ularda ko‘plab nazariy fikrlar bayoni bor. Bu o‘rinda arab adabiyotshunosi Halil ibn Ahmad binni Umar binni Tamim ul-Basriyning aruzga doir ilmiy izlanishlar olib borgani hamda arab adabiyoti she‘riy durdonalari misolida fikrlarini ilmiy asoslab berganini ta‘kidlash o‘rinli. Forsiy va turkiy aruz haqida ham ilmiy asarlar yaratilgan. Xususan, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”i turkiy aruz masalalariga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy asar bo‘lishi bilan birga bu asar keyinchalik ko‘plab aruzga doir tadqiqotlarga yo‘l ochganligi uchun

Namazov A.N.
Boshlang‘ich ta‘lim
nazariyasi kafedrasida
dotsenti, O‘zbekiston-
Finlandiya pedagogika
instituti, Samarqand,
O‘zbekiston
nomozov@gmail.com

ham qadrlidir. Bu o'rinda Zahiriddin Muhammad Boburning "Mufassal" va Abdurauf Fitratning "Aruz haqida" asarlarini eslashimiz o'rindir.

Haqiqatan ham, mumtoz adabiyotdagi boy adabiy she'riy merosimiz shu vaznda yaratilganligini e'tiborga olsak, aruz vazni va uning bahrlari, har bir bahrning tarmoqlarga bo'linishi, vazn doirasidagi ko'plab atamalarni yanada chuqurroq o'rganish zarurligini his etamiz. Xush, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarimiz ko'ngildagidekmi? Murakkab tuzilishga ega bo'lgan aruz vaznini o'rganuvchilarga soddalashtirib o'rgatish, baytlar misolida tushuntirishdagi amaliy ishlarimizning ahvoli qanday? Talabalarning mumtoz she'r va uning vazniga oid bilim va qiziqishlari qay darajada?

Darhaqiqat, filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning amaliy va seminar mashg'ulotlardagi faolligi, intiluvchanligi ularda aruz vaznini o'rganishga ishtiyoq balandligini ko'rsatadi. Ularning mumtoz she'riyat malohatini, badiiyatini aruz vaznini bilmasdan, tushunmasdan turib idrok etib bo'lmasligini anglab yetishgani quvonarli hol, albatta. Biz filologiya yo'nalishi talabalariga aruz vaznini o'rgatishda ishni nazariy qoida va ta'riflarni yozdirish, ularni yodlatish yo'lidan bormadik. An'anaviy ta'lim berish shaklidan chekinib, jarayonga o'zgartirish kiritishni ma'qul ko'rdik. Amaliy tajribamizga tayanib, aruzga doir xulosa va ta'riflarni o'zimiz shakllantiradigan bo'ldik. Amaliy mashg'ulotda mumtoz she'riyatimizning yetakchi janri hisoblangan g'azal namunasini xattaxtaga yozdik. Dastlab g'azalni talabalarga birma-bir o'qitdik. Aruzdan bexabarlik sabab, talabalar g'azalni zamonaviy she'riyatimiz namunalarini o'qiganday taqdim etishdi. Hatto, matndagi ayrim so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilishdi, nafas olish va so'zlar talaffuzida qiyinchilik mavjudligi shundoq sezilib turdi. Ayrim talabalarning fikricha, g'azal uzun she'r (misrani nazarda tutishdi, shekilli), shu sababli uni o'qish va yodlash qiyinchilik tug'diradi. Shubhasiz, ana shunday xulosaga ega bo'lgan talabalarga mashg'ulotda o'z so'zimizni aytishimiz, g'azal o'qish ko'nikmasini shakllantirishimiz, qisqasi, amaliy harakatimiz misolida ulardagi noto'g'ri qarashlarni yo'qotishimiz zarur edi. Qolaversa, talabalar bajarishi kerak bo'lgan mustaqil ta'lim topshiriqlarida ham mumtoz she'r namunalarini o'rganish, yod olish, vazn va bahrini aniqlash kabi vazifalar ko'zda tutilgan edi. O'z-o'zidan ravshanki, bunday vaziyatda talaba vazn talablariga rioya qilishi, g'azalni to'g'ri o'qishga odatlanishi kerak edi. Amaliy mashq qilishlar natijasida esa o'zida muayyan nazariy tushunchalarni hosil qilishi, ularni o'rinli qo'llash malakasiga ega bo'lishi zarur edi.

Biz ham amaliy mashg'ulotlarimizda aynan shunga e'tibor qaratdik. Talabalarga baytlarning vaznini, bahrini aniqlash, misralarni ruknlarga to'g'ri ajratish yo'llari yuzasidan bajariladigan yumushlarni o'rgatdik. Fikr va xulosalarimizni mustahkamlash maqsadida Alisher Navoiyning "Badoye' ul-vasat" devonidagi 156-g'azal [2. 161] ni tanladik.

Talabalar ishtirokida "O'n sakiz ming olam oshubi..." deb boshlanuvchi g'azalni baytma-bayt vazn jihatdan tahlil qilishga harakat qildik. Dastlab g'azalning matla'sini olib, uning qaysi bahrda yozilganligini aniqlash bo'yicha amaliy ish qildik. Mashg'ulotda aruz vazni talabiga ko'ra yopiq bo'g'in cho'ziq, ochiq bo'g'in esa qisqa deb belgilanishi haqida qisqacha ma'lumot berildi. Biroq

chizma talabiga ko'ra ochiq bo'g'in ham misrada cho'ziq bo'g'in hisoblanishi mumkin. Aytish mumkinki, bu holat bahrni aniqlashdagi dastlabki murakkablik. Demak, ana shu nozik jihat o'rganuvchining e'tiborida bo'lishi kerak, chunki cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning muayyan tartibda takrorlanib kelishidan bahrning chizmasi kelib chiqadi. Bahr chizmasida qisqa bo'g'in V belgisi bilan, cho'ziq bo'g'in --- belgisi bilan ko'rsatiladi.

O'n sakiz ming / olam oshu/ bi agar bo / shindadur,

- V - - / - V - - / - V - - / - V - -

Ne ajab, chun/ sarvinozim/ o'n sakiz yo / shindadur.

- V - - / - V - - / - V - - / - V - -

Keltirilgan bayt aruzning ramal bahrinda yozilganligining dalili misralar tagiga shu bahrining chizmasi (- V - -) chizilganidir. Bu chizma fo- i –lo- tun deb o'qiladi. Fo- i – lo – tun ramal bahrining asl rukni hisoblanib, u misrada uch marta o'zgarishsiz takrorlangan, misra oxirida o'zgarishga uchragan, ya'ni bir bo'g'inga kamaygani uchun (- V - -) fo – i – lun tarzida o'qiladi. Ikkinchi misradagi so'zlar tagiga ham, g'azalning qolgan misralaridagi so'zlar tagiga ham yuqoridagi chizma o'zgarishsiz shunday chiziladi. Havola qilingan baytning to'liq nomlanishi quyidagicha: ramali musammani maqsur. Bu nomlanish quyidagicha izohlanadi, ya'ni ramal so'zi bahrning nomini, musamman so'zi baytdagi ruknlarning miqdori sakkizta ekanligini, maqsur so'zi asl ruknning o'zgarishga uchraganligini anglatadi. Bayt chizmasini chizayotganda talaba yana bir jihatga e'tibor qaratishi lozim. Birinchi misradagi birinchi rukn, ya'ni misra bo'lagining chizmasini chizayotganda ikkinchi misradagi birinchi ruknni e'tibordan qochirmasligi kerak. Odatda, bo'g'inlarning cho'ziq-qisqaligi ikki misradagi ruknlarning taqqoslanishi asosida belgilanadi. Baytdagi yana bir jihat e'tiborli. Alisher Navoiy birinchi misrada **sakkiz** so'zini bejizga **sakiz** tarzida havola qilmagan, chunki shu tarzda berilmasa, bu so'z ikkita cho'ziq bo'g'in hisoblanar edi (**sak-kiz**) va bu ramal bahrining chizmasiga mos kelmas edi. So'zning **sakiz** tarzida havola qilinishining yana bir sababi shuki, u ikkinchi misra boshidagi **a-jab** so'ziga moslashtirilishi kerak. G'azalda **sakkiz** so'zining besh marta **sakiz** tarzida qo'llanishi ham zaruriyat tufaylidir.

Yana bir mulohaza. Ba'zan bahrning chizmasini chizayotganda birinchi misraga qaraganda ikkinchisida bir, ikki, ba'zan uch bo'g'inning kam bo'lgani kuzatiladi. Hatto bu holat bir necha misrada ham uchrashi mumkin. Shu sababli misralardagi bo'g'inlarning cho'ziq-qisqaligini aniqlashdan oldin ulardagi bo'g'inlar sonini sanab chiqish zarur. Qaysi misrada bo'g'in miqdori ko'p bo'lsa, chuziq-qisqalikni shu misradagi so'zlarning tagiga chizishdan boshlagan ma'qul. Bo'g'in miqdori kam bo'lgan misraga chizma talabiga ko'ra, ba'zan so'zning talaffuz holatidan kelib chiqib, faqat talaffuzda hijo qo'shiladi. Natijada misralardagi hijolar tengligi ta'minlanadi. Bunda faqat **i** unlisi qo'shiladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, **hijo** so'zini har doim ham **bo'g'in** deb tushunmaslik lozim. Faraz qilaylik, baytning birinchi misrasida o'n besh bo'g'in bor, demak, unda o'n besh hijo bor deyish mumkin. Ikkinchi misrasida esa o'n to'rt bo'g'in bor, lekin misrada o'n to'rt hijo bor deyish noto'g'ri. Talaffuzda hijo qo'shilishini e'tiborga olsak, bo'g'in o'n to'rtta, hijo esa o'n beshta bo'ladi. Demak, ikkinchi misrada

bo‘g‘in va **hijo** atamalarining mazmun-mohiyati alohida – alohida tushunchalarni anglatmoqda. Endi ana shu mulohazalarimizni bayt misolida tahliliy qarab chiqsak. Yuqoridagi g‘azalning bo‘g‘inlari teng bo‘lmagan baytini tanlab olamiz:

O‘n sakiz yil, /dema,yuz sak /son yil olsa,/ uldurur , (15 bo‘g‘in)

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Husn shohi, / ul balolar / kim ko‘z-u qo /shindadur. (14 bo‘g‘in +1 hijo)

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Baytning ikkinchi misrasidagi **husn** so‘ziga bitta **i** unlisini qo‘shish orqali ikki misradagi hijolar soni tenglashtiriladi. Bir bo‘g‘inli **husn** so‘zi **husni** tarzida o‘qiladi. Bu tarzda o‘qish talaffuz nuqtai nazaridan ham qulay, hatto talaffuzda qo‘shilgani sezilmaydi ham. Biz **i** unlisini misraning boshqa so‘zlariga ham qo‘shib ko‘rdik, nazarimizda eng ma‘quli **husn** so‘ziga qo‘shib o‘qilgani bo‘ldi.

Mulohazalarimizning yakunida shuni alohida ta‘kidlamoqchimizki, misralarning ruknlarga to‘g‘ri ajratilishi g‘azalning aruz vazni talablariga ko‘ra to‘g‘ri o‘qilishi va yodlanishini osonlashtiradi. To‘g‘ri, bunga odatlanmagan talabaga dastlab qiyin bo‘lishi tabiiy hol. Biroq mumtoz she‘rning shunday o‘qilishi va yodlanishi vazn talabidir. Agar biz maktabdanoq shu me‘yorlar asosida mumtoz she‘rni o‘qish, yodlash malakasiga ega bo‘lganimizda, odatlanganimizda bu masala oliy adabiy ta‘limda hozir bunchalik muhim ahamiyat kasb etmas edi.

Barchaga ma‘lumki, maktab adabiy ta‘limida o‘qituvchi o‘quvchilarga mumtoz adabiyot vakillarining turli janrdagi she‘rlarini o‘qish, yodlash vazifasini beradi. Lekin bir og‘iz ham o‘qish va yodlash jarayoniga daxldor yo‘l-yo‘riqlar haqida to‘xtalmaydi. Nazarimizda, bu eng katta xatoyimiz. Balki, o‘quvchilarning aksariyati mumtoz ijod namunalarini yodlamayotganligining sababi ham shunga borib taqalar? Fikrimizcha, o‘qituvchi hech bo‘lmaganda mumtoz adabiyot vakillarining eng sara g‘azallaridan bir yoki ikki bayt olib, vazn talablari asosida o‘qish va yodlashni o‘rgatishi zarur. Ehtimol, o‘qituvchining bu harakati o‘quvchilarni aruz vazniga yanada qiziqtirar, maktab adabiy ta‘limida she‘r o‘qish va yodlash texnologiyasini egallashga ko‘maklashar?

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Shukurov N. va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 1984. – 270-bet.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 764 bet.

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA SHOIR SHAXSIYATINING BADIY TALQINI

G.K.Raximova¹
Y.Bahriddinova²

1.2.O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Ijodkor ruhiy olamining mevasi bo'lgan badiiy asar tarkibida, qaysidir ma'noda, uning shaxsi ham ishtirok etadi. Chunki, ijodkor hayotdan olgan taassurotlari, voqelikka bo'lgan munosabati, o'z dardi-hasrati, orzu armoni, umid-istagi va muhabbatini badiiy asarlari orqali ifodalaydi. Shuning uchun ham har bir ijodkor shaxsini o'rganishda badiiy asarning qimmatini kattadir. Maqolada buyuk shoir Alisher Navoiy hazratlarining hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati ifodalangan she'rlari namunalari badiiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ijodkor shaxsi, ruhiy olami, davr, zamon, tarixiy sharoit, ijtimoiy muhit, she'riyat, poetika.

Raximova Gulbaxor,
Boshlang'ich ta'lim
nazariyasi kafedrasini
dorsenti, O'zbekiston-
Finlandiya pedagogika
instituti, Samarqand,
O'zbekiston
gulbahorrahimova17@gmail.com

Аннотация: В структуре художественного произведения, являющегося плодом духовного мира Творца, в некотором роде задействована и его личность. Потому что через свои художественные произведения художник выражает свои впечатления от жизни, свое отношение к действительности, свою боль, мечту, надежду и любовь. Вот почему ценность произведения искусства в изучении личности каждого создателя высока. В статье художественно исследованы образцы стихов великого поэта Алишера Навои, в которых выражена его жизнь, общественно-политическая деятельность.

Ключевые слова: личность творца, духовный мир, эпоха, время, исторические условия, социальная среда, поэзия, поэтика.

Bahriddinova Yulduz,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti
talabasi,
Samarqand, O'zbekiston
bahriddinova.yulduz@gmail.com

Abstract: In the composition of an artistic work, which is the fruit of the creator's spiritual world, in some way, his personality is also involved. Because, the creative personifies his impressions from life, his attitude to reality, his pain, his armory of dreams, his hope and his love through his artistic works. That is why the value of a work of art is great when studying the personality of each creator. The article artistically explores the life of the great poet Alisher Navoi's Highness, examples of poems in which socio-political activity is expressed.

Key words: creative personality, spiritual world, ERA, time, historical context, social environment, poetry, poetics.

Har bir buyuk shoir avvalo o'zini dunyoga keltirgan ona zaminining va ana shu ona zamin uzra hukmron bo'lgan ma'lum bir tarixiy sharoitning, ma'lum davr va zamonning farzandidir. Shuning uchun ham shoirning shaxs sifatida shakllanib kamolotga erishuvda u yashagan zaminu zamonning ta'siri benihoya katta. Avvalo, shoirning taqdiri va hayot yo'li u yashagan davrining ijtimoiy muhiti va sotsial masalalari bilan tayin etiladi. Shu boisdan ham shoir tarixiy davr, uning ijtimoiy muhiti, muammo va ziddiyatlari bilan birga yashaydi. Uning boy badiiy ijodi ham o'sha tarixiy sharoit va davr hayoti bilan ma'lum ma'noda bog'liq bo'ladi. Shu sababdan ham Navoiy shaxsini va hayotini to'la tushunish uchun uning o'z davriga munosabatini ifodalovchi lirik merosini o'rganish lozimdir. Binobarin, Navoiy she'riyatining muhim fazilatlaridan biri ham unda bevosita shoirning o'z zamonasiga doir qayd va ishoralarni real aks ettirilganligidir. Butun insoniyatga Alisher Navoiydek ulug' shoirni etkazib bergan zamon (XV asrning

ikkinchi yarmi)da butun Movarounnahr va Xuroson mamlakatida temuriylar sulolasi hukmronlik qilar edi. Alisher Navoiyning butun umri va bosib o'tgan hayot yo'li temuriylar hukmronligi davri bilan bog'liq. Shu boisdan buyuk shoirning hayot yo'lini to'rt temuriyzoda podshohlar hukmronligi davriga bo'lib, uning o'tashin she'riyatini o'sha davr va zamonning sotsial-ijtimoiy hodisalariga bog'lab o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Alisher Navoiy turk nazmi "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining "Favoyid ul-kibar" devoniga kirgan mazkur g'azali aftidan, shoirning Husayin Boyqaro hukmronligi davridagi vazirlik lavozimida ishlagan hayoti sahifalarini aks ettiradi. Chunki unda atrofidagi uning iste'dodiga hasad bilan qaraydigan munofiq, pastkash kimsalarning shoir shaxsiga nisbatan yaramas qiliqlari, makr-hiylalari va dushmanliklaridan ozurda bo'lgan qalbning o'tli fig'oni ifodalangan. G'azal bunday qabih kuchlarning fitna-fasodlari, hiyla-nayranglari tufayli yaqin do'stining o'ziga nisbatan mehrsizligidan iztirobga tushgan dil dardini tasvirlash bilan boshlanadi:

Ey ko'ngil, dushmanlar oncha makr ila fan qildilar.

Kim, vafolig' do'stni jonimg'a dushman qildilar[1.505].

Xo'sh, vafolig' do'st deb Navoiy kimni nazarda tutmoqda? To'g'ri, hazrat Alisher Navoiyning hayotda u kishini hurmat qiladigan, e'tirof etadigan yaqinlari, do'stlari juda ko'p bo'lgan. Ammo baytga chuqurroq razm solib mulohaza yuritadigan bo'lsak, gap Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaro o'rtasidagi munoabatlar haqida borayotganligi seziladi. G'azalni shoirning "Navodir un-nihoya" devoni tarkibida borligini va bu devonning 1480-1487 yillarda tuzilganligini hisobga olsak, yuqoridagi fikrimiz asosli bo'ladi. Endi mana shu yillarning g'alayonli voqealarini eslaylik. Navoiyshunos olim A.Hayitmetovning tadqiqotlarida yozilishicha bu vaqtlarda "Shohga ichki harajatlar uchun ikki tuman pul kerak bo'lb qoladi. Shunda Navoiyning muxoliflaridan Muhammad Majdiddin shohga tilyog'lamalilik qilib, agar u Navoiyning o'rnida bo'lsa, unga bundan ham ko'proq pulni topib berishi mumkinligini aytadi. Husayn Boyqaro uning gapiga kirib, Navoiyni saroydan uzoqlashtirib, Astrobod viloyatiga hokim qilib jo'natadi". G'azalda ifodalangan butun bir yaxlit fikr, nazarimizda, bo'lib o'tgan ana shu voqealar tafsilotini o'zida jamlab, shoirning bu vaqtlardagi ruhiy kechinmalarini aks ettiradi:

Dud boshimdan chiqar, go'yoki hijron toshidin,

Yog'durub har yon, bu gunbad uzra ravzan qildilar.

Shoir atrofidagi teskari kuchlarning o'z boshiga otgan malomat toshlari zarbidan "hijron", ya'ni ayriliq azobini chekayotganligini tasvirlaydi. Ularning bunday qabihliklarini boshida aylanib diliga zahar-zahmat nishlarini sanchuvchi zog'larning hujumiga qiyos qiladi. Go'yo shoirning boshida yoyilgan soch emas, uning o'rnida hujumga yopirilgan "zog" – qarg'alar to'dasi. Ular o'z hujumlari zahridan jarohatlangan, yara bo'lgan shoir tanidan uning joniga qasd qilmoq uchun o'zlariga in yasab joylashib olganlar:

Boshima jo'lida soch ermaski, zog' aylab g'ulu,

Zaxmlardin to'ma istarga no'iman qildilar.

Yoru-diyoridan ayriliqda o'tkazgan damlarini hayotidagi qarong'ulik deb bilgan shoir nazdida butun "gardun" – falak ham qora libosga burkangan. "Subh" – tong ham o'z yoqasini chok-chok qilib yirtib shoirning bu ahvoliga, nola-yu zoriga qayg'urmoqda:

Hajri shomidin osib gardun qora kiz bo'ynig'a,

Subh chok aylab yaqo holimg'a shevan qildilar.

Keyingi bayt mazmunidan bir qarashda go'yo Navoiyning qalbida o'zi tug'ilib o'sgan vataniga bo'lgan ishq-muhabbat o'ti bir shamdek so'nib borayotgan

edi. Dardu shavq, ya'ni unga intilish dardi shoirning butun tanini kuydirib, ul tuproq yodi bilan ko'nglini yoritdi, deyishimiz mumkin. Biroq unda buyuk san'atkor ko'zlagan niyatni to'la tushinishimiz va qalban his etishimiz qiyin bo'ladi. Zotan, Alisher Navoiyning o'zi tug'ilib o'sgan tuproqqa bo'lgan mehr-muhabbati tunganmas, vatan tushunchasi esa uning uchun juda yuksak va muqaddasdir. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, baytdagi "ishq o'ti" ham "dardu shavq" kabi orzu istak va intilish ma'nolarida aks etganligini ko'ramiz. Demak, o'z atrofidagi teskari kuchlarning qabihliklari tufayli ona yurtidan uzoqda bo'lgan shoir qalbida unga etishish yo'lidagi so'nib borayotgan orzu-umidi ul tuproq yodi bilan yanada ravshanlashgan. Va ul tuproqqa bo'lgan qattiq intilish dardi shoirning butun tanini kuydirgan:

O'chmish erdi ishq o'ti, hasdek tanimni dardu shavq,
Kuydirib, go'yo bu tuproq birla ravshan qildilar.

Garchand, g'azal "sharhi holat" tasvirini ifodalashdan iborat bo'lsada, so'nggi baytlarda shoirning hayotiy mushohadalari, falak va davr haqidagi umumiy, faylasufona fikrlari bilan yanada uyg'unlashadi. Navoiyning ta'rificha qadimgi Eron shohi Jamshid hakimlarga buyurib ikkita jom yasattirgan ekan. Shu jomlardan birining nomi "jomi gitiynamoy" – dunyodagi hodisalarni ko'rsatuvchi jom deb atalar ekan. Shu jomdan may ichgan paytda dunyoda yuz bergan voqea-hodisotlar unda ko'rinib turar ekan. Shoir ana shu jomdan may ichgan "ahli hikmat" – donishmandlar charxning bemehr, dunyoning beshafqat va zolim ekanligini "mubarhan qildilar" – ya'ni aniq ko'ra bildilar, deydi:

Boda tutkim, ahli hikmat charx bemehr erkanin,
Jom davri xatlari birla mubarhan qildilar.

"Ka'ba" – musulmonlarning Makka shahridagi ziyoratgoh joyi. Bu joyni ziyorat qilgan kishi butun qilgan gunohlaridan forig' bo'ladi. "Dayr" – butxona, tasavvuf ilmida tangrining uyi. Dunyoning bor tashvishu g'amini unittiradigan tinch joy. Shuning uchun ham jahon ahli bu ikki manzilni gunohu g'amdan xalos qiladigan omonlik joyi deb biladi. G'azal shoirning o'z-o'ziga "Ey Navoiy, sen ham Ka'baga o'tlan yoki butxonaga kir, shundagina dunyoning g'amu kulfatlaridan forig' bo'lasan", degan donishmandona murojaati bilan nihoyasiga etadi:

Ey Navoiy, Ka'ba tut yo dayrkim, ahli jahon,
Jurmu g'amdin bu ikki manzilni ma'man qildilar.

Alisher Navoiyning saroyda, rasmiy xizmatda o'tgan mashaqqatli hayoti davlat manfaatini ko'zlovchi xalqparvar shoir bilan nafs buzuvchi saroy amaldorlari o'rtasidagi ma'naviy ziddiyatlarga qarama-qarshi kelishmovchiliklarga to'la edi. Ular Navoiyga zohiran do'st bo'lib ko'rinsalarda, aslida "qasdig'a" "yuz nish" urushga tayyor turgan munofiq, dushman edilar. Hiyla-nayrang va ichki ziddiyatlarga to'la saroy vaziyatida xalbaki "do'stlarning" riyokorligidan qiynalgan, azob chekkan shoirning o'kinchli fig'oni mana bu qit'ada o'z aksini topgan:

Nihoniy igna sanchar yorlardin
Aduvvash novakafganlar ko'p ortuq.
Munofiqsheva zolim do'stlardin
Muxoliftab' dushmanlar ko'p ortuq[2.524].

Shuning uchun ham fitna-fasod, zo'ravonlik va adolatsizlik avj olgan saroy muhitida siqilgan shoir vazirlik lavozimidan ketishni ixtiyor etadi. Abdurahmon Jomiyga bag'ishlab yozgan "Xamsat ul-muttahayyirin" asarida saroy xizmatidan chetlanish niyatida bo'lganligini va bu masalada Jomiyga maslahat uchun murojaat etganligini yozadi. Bunday qarorga kelishiga asosiy sabab qilib, saroy ahli ayonlari va ularning kirdikorlarini ko'rsatadi. Yuqoridagi qit'a shoirida ana shunday kayfiyatning tug'ilish sabablarini ochib beradi. Alisher Navoiyning saroydagi hayoti va faoliyatini keng hamda chuqur tasavvur etishimizga yordam beradi.

Quyidagi qit'ada esa, hazrat Navoiy vazirlik lavozimidan ketishining butun bir tafsilotini sabablari bilan bayon qiladi:

Qo'yub amoratu beboklik bihamdillah,
 Ki, faqr ko'yi nasib etti kirdikor manga,
 Eshiqda tark etibon ixtiyoru mulkda ham
 Bu nav' martaba lutf etti shahriyor manga.
 Gar ixtiyor ila qo'y dum o'z ixtiyorimni
 Valek yo'q edi ham munda ixtiyor manga[3.69-70].

Avvalo shoir "amorat"-amirlik mansabini qo'yib (kechib), "faqirlik" nasib etgani uchun ollohga shukronalar aytadi. Keyingi baytda bu "martaba"ni "shahriyor" (Husayn Bayqaro)ning "lutf"-marhamati tufayli beixiyor qabul qilganligini, endi esa beixiyor ravishda iste'fo berayotganligini yozadi. Uchinchi baytning birinchi misrasidagi "ixiyorimni" so'zi bu o'rinda amal, muxtor, huquq ma'nolarida kelgan. Ikkinchi misradagi "ixiyori" so'zida shu ma'no va ayni paytda xohish, istak mazmuni ham bor. "Baytdagi ana shu so'z o'yini ochilsa"[9] Navoiyning saroy xizmatidan ketishi majburiy-"ixiyoriy" ravishda yuz berganligi ayon bo'ladi. Bu majburiylikning boisi esa yuqoridagi sabablar bilan bir qatorda "amal" va "mansab", to'g'rirog'i, mana shu amalparastlik va mansabparastlik atrofidagi janjal, to'polon, ko'rolmaslik, hasad va ig'vo. Shuning uchun ham shoirning ushbu baytlaridagi o'z-o'ziga murojaat va talabi "amal xirmoniga" o't qo'yish, mansabsizlikni ixtiyor etishdir:

Amal qasrini aylama anda ixdos
 Ki, har lahza bo'lg'ay o'kush fitna hodis,
 Navoiy, amal xirmani ichra o't sol
 Ki, bo'lmoq kerakmas bu mazra'da horis[4.514].

Alisher Navoiy vazirlik lavozimidan rasman ketgan bo'lsada, saroyda Husayn Boyqaroning eng yaqin kishisi sifatida mamlakatni obodonlashtirish, madaniyat va ilmu fanni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, qurilish sohasida juda ko'plab ishlarni amalga oshirdiki, uning bu xizmatlari ko'plab tarixiy manbalarda qayd qilib o'tilgan. Bular, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Makorim ul-axloq" va boshqa shu kabi asarlardir. Darhaqiqat, Navoiyning qurilish sohasidagi ulkan faoliyati she'riyatida ham o'z aksini topgan. Go'zallik va joziba tarafdori bo'lgan shoir qurilgan har bir imoratning ko'rki va sayqaliga yanada e'tibor berar edi. Bu esa shoirni me'morchilik san'atining ham yuqori bilimdoni ekanligini ko'rsatadi. Navoiy tabiatidagi ana shu xislat mazkur qit'ada o'z she'riy ifodasini topgan:

Har imoratkim tugandi garchi sho'xedur jamil,
 Bo'lsa koshinkorlig' aylar jamolin birga o'n.
 Bu yaqindurkim jamol ahli yalong'liqdin base,
 Yaxshiroqdur bo'lsa koshi naqshliq egnida to'n[5.514].

Qit'aning mazmuniga ko'ra, qurilgan yoki qurilajak imoratning go'zalligi shoirni qanoatlantirmagan. Navoiyning fikricha, chiroyli qilib solingan imorat "koshi korlig'" (g'ishtlarga har xil rang va bo'yoqchar berish) san'ati bilan bezalsa, uning bir jamoliga yana o'n jamol qo'shiladi. Imorat nozaninlarga o'xshab chiroyli va ko'rimli bo'ladi. Quyidagi qit'ada esa, o'sha qurilgan imoratlardan birining ichida tuzilgan "ikki manor" ta'riflangan:

Bizning imorat ichinda tuzolgan ikki manor
 Ki, qubbalardin erurlar sipehr sonida.
 Iki og'a-inidur tav'amon gumon qilg'il
 Ki, farq yo'q orada bo'lsalar namoyanda.
 Zamona zolini ko'rkim ne nav' bikt o'lg'ay
 Ki, mundoq, ikki o'g'il andin o'ldi zoyanda[6.325].

Bu ikki manorning muhtasham qubbalari osmon qadar yuksalgan. Shuning uchun ular “sipehr sonida” bo‘lib, bamisoli ikki og‘a-inidur. Ularni tav‘amon-egizak deyish ham mumkin. “Zamona zoli” bu (makkor kampir) zamonning o‘zi. Ajablanarlisi shundaki, u qari yosumon ne nav yasharib, iffat topganu mundoq ikki o‘g‘il undan dunyoga kelgan. Bu o‘xshatish, shunchaki shoirona tashbeh emas, mana shu birgina baytning o‘zida shoirning davr va zamonga munosabati, o‘z davri haqidagi hayotiy mushohadasi namoyon bo‘ladi. Bizningcha, qari makkor kampir timsoli ifodalangan zamon, umuman, dunyo va xususan, Husayn Boyqarodan avvalgi Sulton Abu Sayd hukmronligi davri bo‘lib, bu zamona zolinning iffat va poklik bilan yasharishi, yangilanishi esa Husayn Boyqaro hukmronligi davridir. Albatta, bu davr zamonasining yuksak “ikki manori”-ikki buyuk o‘g‘lonini dunyoga keltirib berdi. Bular, biri buyuk sarkarda Husayn Boyqaro, biri buyuk mutafakkir Alisher Navoiy. Baytdagi tav‘amon-egizaklik tushunchasi ham balki shunga ishoradir. Shuning uchun ham nazm mulkini egallagan shoir jahon mulkini o‘z do‘stining farmonida (boshqaruvida) abadiy bo‘lishini istagandir:

To abad bo‘lsun jahon mulki aning farmonida,
Yuz jahoncha mulk bu mulkiga doxil har zamon.
Ey Navoiy, nazm mulki chun seningdur aylagil,
Shoh G‘oziy vasfi ichra tilni qoyil har zamon[6.515].

Haqiqatdan ham, Husayn boyqaro bilan Alisher Navoiy munosabatlari o‘zaro rasmiy munosabatlardan yuqori bo‘lib, davlatni boshqarishda o‘ziga xos do‘stona ma‘noga ega edi. Buni Boburning quyidagi so‘zlari ham tasdiqlaydi. Navoiy Sulton Husayn Mirzoning “...begi emas edi, balki musohibi edi...”[7.153]. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilar ekan shoh va davlat manfaatidan boshqa hech narsani o‘ylamaslikni, pok ko‘nglida do‘stidan o‘zga “g‘ayrga” joy o‘rin bermaslikni, musaffo qalbida mehru-vafo, sadoqatdan bo‘lak xayol bo‘lmasligi lozimligini “Vaqqfiya” asaridagi ushbu ruboiyda ifodalaydi:

Har kimki birov ishqiga bo‘lsa dilband.
Jon rishtasidin qilsa kerakdur payvand.
Gar g‘ayr xayoli tushsa ko‘ngliga pisand.
Qilmoq kerak ul ko‘ngulni yuz ming parkand[8.217].

Xulosa

Haqiqatan ham Alisher Navoiy o‘z ko‘ngliga tugib olgan bu maqsadini amalda isbot qiladi. Husayn Boyqaroning hokimiyatni mustahkamlash, mamlakatni obod qilish, Hirotni madaniy markazga aylantirish kabi murakkab ishlarida yaqindan turib xizmat qiladi.

Shoirning “Favoyid ul-kibar” devoniga kiritilgan quyidagi g‘azal matla‘-sining birinchi misrasini o‘qigan kitobxon ko‘z oldida azador kimsaning tashqi qiyofasi gavdalanadi. Uning ichki kechinmalari esa ikkinchi misradagi kishining iztiroblari tasvirida bayon qilinadi. Navoiy badiyatining yuksakligi va ta‘sirchanligi ikki lirik qahramonning ichki va tashqi holatlarini tasvirlashda tabiat hodisalaridan mohirlik bilan foydalanganligidadir.

Qora dastor to chirmadim mohim,
Boshimga chirmashib tur dudu ohim[6.367].

“Moh” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi oy, ya‘ni jism. Mumtoz adabiyotda oy ko‘pincha ma‘shuqaga nisbatan ishlatilgan. Mazkur baytda esa lirik qahramon uchun nihoyatda qadrli bo‘lgan yaqin kishisi nazarda tutilmoqda. Qora rangdagi sallaning qatlam-qatlam qilib o‘ralishi oyning atrofni qoplagan qop-qora tunga qiyos. Yaqin kishisining bunday ahvoliga achinayotgan ikkinchi lirik qahramon qalbidan chiqayotgan o‘tli oh xuddi tutab osmonga buralib-buralib ko‘tarilayotgan qora tutundir:

Yog'ibtur nargis ichra jola yoxud

Ko'zida ashk erur bor ishtibohim.

Achchiq-achchiq yosh to'kayotgan ko'zning horg'inligi kuchli yomg'ir ostida qolgan bo'tako'z guli barglarining bukchayib so'lib qolgan holatiga monand. Negaki, ayriliq iztirobining ifodasi bo'lgan lirik qahramon ko'z yoshining do'lday yog'ilayotganiga hech qanday shubha yo'q.

Anga hamrang o'lay, deb motamimen

Qorarg'on ro'zg'orim bor guvohim.

Hamranglik azador singari bir xil motam libosini kiyish. Bu tashqi ko'rinishning uyg'unligi zamirida ichki dard va alamning hamohangligi o'z ifodasini topgan. Chunki judolik azobi boshiga tushgan kimsaning yonida turish, uning dardini bo'lishish, g'amiga sherik bo'lish bu chin ma'nodagi iymonli insonlarga xos bo'lgan odamiylik fazilatining bir ifodasidir:

Sirishkim xatlari sharhini so'rdim

Dedi, xayli balog'a shoxrohim.

Ko'z yoshimning xat kabi izma-iz, tizilib-tizilib oqishining sababi ham ana shu hamdardlik tuyg'usining ifodasidir, deydi shoir:

Manga xud bu azo bo'ldi bahona

Mudom oqmoqqa ashki goh-gohim.

Ayriliq g'ami tezda unitiladigan dard emas. Bu inson-yuragini pora-pora qiladigan, o'rta yondiradigan, kuydirib kul qiladigan og'ir dard, alamdir. Bunday paytlarda har bir inson ichini kemirayotgan o'tli fig'onini yig'lab-yig'lab, achchiq ko'z yoshlari bilan to'kib soladi:

Dema bozi nujumi tiyradinkim,

Erur qalb uylakim, ro'kash darohim.

Nujum - yulduzlar to'dasi, tiyra - qorong'ulik.

Ya'ni, qop-qora osmon uzra yulduzlar. Tabiatning ushbu doimiylik hodisasi baytda oniy lahzalik kechinma va kayfiyatning badiiy ifodasi sifatida xizmat qilmoqda. Qorong'u osmon - g'am-g'ussaga burkangan qalb bo'lsa, yulduzlar ko'z yoshi. Bozi - tasavvufda hamma narsadan voz kechib o'zini dard-u kulfat girdobiga solish demakdir:

Ko'zumdur tiyra, ya'ni, ey Navoiy,

Qora to'n kiydi motam ichra shohim.

Xullas, shoirning g'azal maqta'sidagi o'z-o'ziga murojaatidan anglashilishicha, undagi lirik qahramon Husayn Boyqaro hamda Alisher Navoiy. Ikki do'stning birday aza tutishiga sabab bo'lgan voqea esa nazarimizda, Husayn Boyqaroning nabirasi Mo'min Mirzoning bevaqt vafoti bo'lsa kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. МАТ. – Тошкент: “Фан”, 1990. Т.5. – 505-б.
2. Алишер Навоий. МАТ. – Тошкент: “Фан”, 1988. Т.4. – 524-б.
3. Алишер Навоий. МАТ.–Тошкент: “Фан”,1988. Т.4. – 69-70-б.
4. Алишер Навоий. МАТ.–Тошкент: “Фан”,1988. Т.4.–514-б.
5. Алишер Навоий. МАТ.–Тошкент: “Фан”,1988. Т.4.–514-515-б.
6. Алишер Навоий. МАТ.–Тошкент: “Фан”,1990. Т.5. – 325-б.
7. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: “Юлдузча”, 1989.–153-б.
8. Алишер Навоий. МАТ. – Тошкент: “Фан”,1990. Т.14.– 217-б.
9. Абдуғафуров А. Эрк ва эзгулик куйчилари. Илмий танқидий мақолалар. – Тошкент: “Адабиёт ва санъат”,1979.–79-б.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutining “Fan va ta’lim integratsiyasi” jurnali tahririyati tomonidan tahrirdan o‘tkazildi va chop etishga tavsiya etildi (27.12.2023).



<http://journals.uzfi.uz>

2023-yil 28-dekabrda chop etishga ruxsat berildi:
Qog‘oz bichimi 60×84_{1/16}. “Times New Roman” garniturasini.
Elektron usulda chop etildi. Shartli b.t. 10,9.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida onlayn chop etildi.
Manzil: 140100, Samarqand sh., Spitamen shoh ko‘chasi, 166-uy.